

DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT XABARSHÍSÍ



2026-jíl
2-san

ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ SPORT MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK DENE TÁRBIYASÍ HÁM
SPORT UNIVERSITETI NÓKIS FILIALÍ

DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT
XABARShÍSÍ
Ilmiy-metodikaliq jurnal

JISMONIY TARBIYA VA SPORT
AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК
ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА
Научно-методический журнал

BULLETIN
OF PHYSICAL AND SPORTS
Scientific-methodical journal

№2

NÓKIS – 2026

ShÓLKEMLESTIRIWSH:

Bas redaktor: – B.K.Erimbetov, pedagogika ilimleri doktorı (DSc), professor

Bas redaktor orınbasarı: – I.M.Mambetnazarov, pedagogika ilimleri doktorı (DSc), professor

REDKOLLEGIYA AĞZALARI

1. Erimbetov B.K. – bas redaktor, pedagogika ilimleri doktorı (DSc), professor
2. Mambetnazarov I.M. – bas redaktor orınbasarı, pedagogika ilimleri doktorı (DSc), professor
3. Matkarimov R.M. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor
4. Toxtabaev N.T. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor
5. Utemuratov B.B. – tariyx ilimleriniń kandidati
6. Mirjamalov M.X. – pedagogika ilimleriniń doktorı, professor
7. Nurishov D.E. – pedagogika ilimleri doktorı (DSc), docent
8. Mambetov B.J. – tariyx ilimleriniń kandidati, docent
9. Toylibaev S.M. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), professor
10. Elmuratova A.U. – psixologiya ilimleri doktorı (DSc), professor
11. Primbetov A.A. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
12. Matnazarov X.Y. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
13. Aytimbetov M.Z. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
14. Kochanov D.E. – biologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
15. Reymbaeva R.S. – biologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD)
16. Seytmuratov T.Sh. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
17. Kuralbaev A.K. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD) docent
18. Ramazanov M.B. – biologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
19. Arzimbetov T.T. – psixologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD) docent
20. Kalillaeva U.A. – psixologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD) docent
21. Keldiyorov Sh.E. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), professor
22. Xo‘jamkeldiev G‘.S. – pedagogika ilimleri doktorı (DSc), docent
23. Yarashev K.D. – pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), professor
24. Raxmanov E.T. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), professor
25. Sobirova L.B. – pedagogika ilimleriniń doktorı, docent
26. Ikramov B.F. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
27. Ishimov B.A. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
28. Zoitova G.M. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
29. Yusupov G.A. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
30. Ruzmetov.N.K. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), professor
31. Ummatov A.A. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), professor
32. Janılkapov U.B. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
33. Yakupbaev A.A. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), professor
34. Shopulatov A.N. – pedagogika ilimleri doktorı (DSc), professor
35. Qanaatov E.E. – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD)
36. Xasanov O.X. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
37. Ishtayev J.M. – pedagogika ilimleri doktorı (DSc), professor
38. Gapparov Z.G. – pedagogika ilimleri doktorı (DSc), professor
39. Azimov Z.N. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
40. Musaev A X. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD)
41. Aripov Y.Y. – pedagogika ilimleri kandidati, professor
42. Astankulova D.F. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), docent
43. Abdimuratova N.P. – pedagogika ilimleriniń doktorı (DSc), docent
44. Mirzanov Sh.S. – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktorı (PhD), professor

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám anglichan tillerinde jılına 6 márte baspadan shıǵadı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen 2020-jıl 2-sentyabrde mámleketlik dizimnen ótkerilip, 1107-sanlı guwalıq berilgen.

Redakciya mánzili: 230101, Nókis kalası, Qaraqalpaqstan kóshesi, 24-jay

Telefon: (+998-61) 224-27-73

e-mail: nashriyot@uzdjtsunf.uz

Jurnal Ózbekstan Respublikası Joqarı attestaciya komissiyasınıń 2023-jıl 30-sentyabrdegi 343-sanlı qararı menen 13.00.00 – Pedagogika (social pedagogika) ilimleri boyınsha dissertaciya jumısınıń tiykarǵı ilimiy nátiyjelerin baspadan shıǵarıw usınıs etilgen ilimiy jurnallar dizimine kiritilgen.

Jurnalda baspadan shıqqan maqalalardıń mazmunı, olarda keltirilgen maǵlıwmatlardıń durılıǵına avtorlar juwapker. Avtorlardıń pikiri redakciya pikiri bolıp esaplanbaydı.

®Dene tárbiyası hám sport Xabarshısı



DENE TÁRBIYASÍ HÁM SPORT

KURASH SPORTIDA MUVOZANATNI SAQLASH VA RAQIBNI MUVOZANATDAN CHIQARISH TEXNIKALARINING BIOMEXANIK TAHLILI

Erimbetov Bayrambay Karlibaevich

Pedagogika fanlari doktori (DSc.), professor

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Legend_ball@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada kurash sportida muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish texnikalarining biomexanik jihatlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi kurashchilarning texnik harakatlari jarayonida tana og'irlik markazi, tayanch nuqtalari hamda kuchlarning taqsimlanishini ilmiy jihatdan o'rganishdan iborat. Tadqiqot davomida texnik usullarni bajarish paytidagi tana holati, harakat trayektoriyasi, og'irlik markazining siljishi hamda mushak kuchlarining ta'siri biomexanik tahlil asosida baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish texnikalarining samaradorligi kurashchining koordinatsiyasi, tezkor-kuch sifatlari va harakatlarni to'g'ri biomexanik bajarishiga bog'liq bo'lib, olingan natijalar kurashchilarning tayyorgarligini takomillashtirish hamda mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Kurash sporti, biomexanika, muvozanat, og'irlik markazi, texnik usullar, sport tayyorgarligi, harakat tahlili, mushak kuchi, koordinatsiya, muvozanatdan chiqarish, sport texnikasi, jismoniy tayyorgarlik.

Аннотация: В данной статье анализируются биомеханические особенности сохранения равновесия и выведения соперника из равновесия в виде спорта кураш. Основная цель исследования заключается в изучении распределения центра тяжести тела, опорных точек и сил, возникающих при выполнении технических действий спортсменами. В ходе исследования были проанализированы положение тела, траектория движений, смещение центра тяжести и влияние мышечных усилий при выполнении различных технических приемов. Результаты исследования показали, что эффективность сохранения равновесия и выведения соперника из равновесия в кураше зависит от уровня координации спортсмена, его скоростно-силовых качеств и правильного биомеханического выполнения технических действий. Полученные результаты имеют важное научно-практическое значение для совершенствования подготовки спортсменов и повышения эффективности тренировочного процесса в кураш.



Ключевые слова: Кураш, биомеханика, равновесие, центр тяжести, технические приемы, спортивная подготовка, анализ движений, мышечная сила, координация, выведение из равновесия, техника кураша, физическая подготовка.

Abstract: This article analyzes the biomechanical aspects of maintaining balance and destabilizing an opponent in kurash. The main objective of the study is to investigate the distribution of the body's center of mass, support points, and forces involved during the execution of technical actions by athletes. The study examined body posture, movement trajectory, displacement of the center of mass, and the influence of muscular forces during the performance of various techniques using biomechanical analysis. The results indicate that the effectiveness of maintaining balance and destabilizing an opponent in Kurash depends on the athlete's coordination, speed-strength abilities, and the correct biomechanical execution of techniques. The findings have significant scientific and practical importance for improving athletes' training and enhancing the effectiveness of the training process in kurash.

Keywords: Kurash, biomechanics, balance, center of mass, technical techniques, sports training, movement analysis, muscle strength, coordination, destabilization, kurash technique, physical preparation.

Kirish: Kurash sporti insoniyat tarixida qadimdan shakllangan bo‘lib, jismoniy va ma‘naviy tarbiya vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek milliy kurashi nafaqat sport turi, balki milliy madaniyat va an‘analarning ajralmas qismi hisoblanadi. So‘nggi yillarda Kurash sportining xalqaro miqyosda rivojlanishi ushbu sport turining ilmiy asoslarini chuqur o‘rganish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2-oktyabrdagi PQ-3306-son “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020 yil 4-noyabrdagi PQ-4881-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2024 yil 20-dekabrdagi PQ-450-songi “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida ko‘zda tutilgan xususan “Kurash milliy sport turi bo‘yicha ilmiy-tadqiqot loyihalarini amalga oshirib borish, shuningdek, zarur o‘quv-uslubiy va ilmiy-amaliy qo‘llanmalarni ishlab chiqishni tashkil qilish” vazifalarni samarali amalga oshirish uchun mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Kurash texnikasining samaradorligi ko‘p jihatdan sportchining muvozanatni saqlashi va raqibni muvozanatdan chiqarish mahoratiga bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar biomexanik qonuniyatlar asosida amalga oshadi.

Biomexanika sport harakatlarini ilmiy jihatdan tahlil qiluvchi muhim yo‘nalish bo‘lib, u sportchining tana holati, og‘irlik markazining joylashuvi, tayanch maydoni hamda mushak kuchlarining taqsimlanishini o‘rganadi. Kurash jarayonida sportchi



o‘z muvozanatini saqlagan holda raqibning muvozanatini buzishga intiladi, bu esa tana og‘irlik markazini boshqarish, harakat koordinatsiyasi va kuchni to‘g‘ri yo‘naltirish bilan bog‘liq.

Shu bois kurashchilarning texnik harakatlarini biomexanik jihatdan tahlil qilish mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish va sport natijalarini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqotning maqsadi kurash sportida muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish texnikalarining biomexanik xususiyatlarini tahlil qilish hamda ularning samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.

Kurash sportida texnik harakatlar va muvozanatni boshqarish masalalari ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. O‘zbekiston olimlaridan F.A.Kerimov sport kurashi nazariyasi va metodikasi bo‘yicha ilmiy ishlar olib borib, kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi hamda jismoniy sifatlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilgan [2, 3]. Shuningdek, F.I.Bobomurodov milliy kurash texnikasi va usullarining tasnifi hamda ularni o‘rgatish metodikasini ilmiy jihatdan o‘rganib, kurash texnikasini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqqan [4].

MDH davlatlari olimlaridan L.P.Matveev va V.N.Platonov sportchilar tayyorgarligi nazariyasini rivojlantirib, sport harakatlarini biomexanik va fiziologik jihatdan tahlil qilish mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlagan [5, 6].

Yevropa olimlaridan A.Sacripanti kurash va dzyudo texnikalarini biomexanik jihatdan o‘rganib, tashlash usullarining mexanik asoslarini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, S.Sterkowicz tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kurash texnikalarining samaradorligi tana og‘irlik markazining boshqarilishi va kuchlarning to‘g‘ri taqsimlanishi bilan bog‘liqligi aniqlangan [7, 8].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda kurash sportida muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish texnikalarining biomexanik xususiyatlarini aniqlash maqsadida kompleks ilmiy-uslubiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatish, tajriba-sinov ishlari, videoanaliz hamda olingan natijalarni taqqoslash usullari qo‘llanildi.

Tadqiqot sport mashg‘ulotlari jarayonida olib borildi va unda o‘rta malakali yosh kurashchilar ishtirok etdi. Tajribada jami 20 nafar kurashchi qatnashib, ular teng ravishda nazorat guruhi va tajriba guruhiga ajratildi (har bir guruhda 10 nafardan). Nazorat guruhida mashg‘ulotlar an’anaviy usulda olib borildi, tajriba guruhida esa muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarishga qaratilgan maxsus biomexanik mashqlar qo‘llanildi.

Tadqiqot davomida kurashchilarning muvozanatni saqlash darajasi, texnik usullarni bajarish tezligi, kuch ko‘rsatkichlari hamda koordinatsion qobiliyatlari o‘rganildi. Buning uchun maxsus test mashqlari va pedagogik kuzatish usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar tajriba boshida va yakunida taqqoslab tahlil qilindi.

Quyida tajriba boshlanishidagi (dastlabki) ko‘rsatkichlar keltirilgan.



1-jadval.

Tajriba boshidagi ko'rsatkichlar n=20

№	Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=10)	Tajriba guruhi (n=10)
1	Muvozanatni saqlash testi (sek.)	22.4 ± 1.8	22.1 ± 1.6
2	Texnik usulni bajarish tezligi (sek.)	3.8 ± 0.4	3.7 ± 0.5
3	30 soniyada bajarilgan texnik harakatlar soni	9.2 ± 1.1	9.4 ± 1.0
4	Koordinatsion test (ball)	7.5 ± 0.6	7.4 ± 0.7
5	Maxsus kuch ko'rsatkichi (kg)	42.3 ± 3.2	41.8 ± 3.5

Jadvalda keltirilgan natijalar shuni ko'rsatadiki, tajriba boshlanishida nazorat va tajriba guruhlarini ko'rsatkichlari o'rtasida sezilarli farq kuzatilmagan. Bu esa tadqiqot natijalarining keyingi bosqichlarda obyektiv baholanishiga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijasi. O'tkazilgan tajriba-sinov ishlari kurash sportida muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish texnikalarini biomexanik asosda o'rgatish sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlashga qaratildi. Tajriba jarayonida tajriba guruhidagi kurashchilarga muvozanatni boshqarish, tana og'irlik markazini nazorat qilish hamda raqibni muvozanatdan chiqarishga qaratilgan maxsus mashqlar tizimi qo'llanildi. Nazorat guruhida esa mashg'ulotlar an'anaviy metodika asosida olib borildi.

Tajriba yakunida olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhidagi kurashchilarning muvozanatni saqlash ko'rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangan. Shuningdek, texnik usullarni bajarish tezligi, koordinatsiya darajasi hamda maxsus kuch ko'rsatkichlari ham oshgani kuzatildi. Ayniqsa, raqibni muvozanatdan chiqarish bilan bog'liq texnik harakatlarni bajarish samaradorligi tajriba guruhida yuqori natijalarni ko'rsatdi.

Nazorat guruhida ham ayrim ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsa-da, ularning ko'rsatkichlari tajriba guruhiga nisbatan kamroq darajada o'zgargani aniqlandi. Bu esa mashg'ulot jarayonida biomexanik yondashuv asosida ishlab chiqilgan maxsus mashqlar tizimi kurashchilarning texnik tayyorgarligini oshirishda samarali ekanligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar kurash sportida muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish texnikalarini ilmiy asosda o'rgatish sportchilarning umumiy sport mahoratini rivojlantirishda muhim omil ekanligini tasdiqlaydi.

2-jadval.


Tajribadan keyingi ko'rsatkichlar n=20

№	Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=10)	Tajriba guruhi (n=10)
1	Muvozanatni saqlash testi (sek.)	24.1 ± 1.7	27.8 ± 1.5
2	Texnik usulni bajarish tezligi (sek.)	3.6 ± 0.4	3.1 ± 0.3



№	Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=10)	Tajriba guruhi (n=10)
3	30 soniyada bajarilgan texnik harakatlar soni	10.1 ± 1.0	12.8 ± 1.1
4	Koordinatsion test (ball)	7.9 ± 0.6	9.1 ± 0.5
5	Maxsus kuch ko‘rsatkichi (kg)	44.0 ± 3.1	48.6 ± 3.0

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhidagi kurashchilarda muvozanatni saqlash, texnik harakatlarni bajarish tezligi hamda maxsus jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori darajada yaxshilangan. Bu esa biomexanik yondashuv asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar kurashchilarning sport mahoratini oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.



1-rasm. Nazorat va tajriba guruhlarining tajriba oldi hamda tajribadan keyingi ko‘rsatkichlari dinamikasi.

Diagrammada tajriba oldingi va keyingi ko‘rsatkichlar asosida nazorat va tajriba guruhlarining natijalari taqqoslab tahlil qilindi. Grafik ma’lumotlariga ko‘ra, tajriba yakunida tajriba guruhidagi kurashchilarning ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Xususan, muvozanatni saqlash ko‘rsatkichi tajriba guruhida ancha oshgani aniqlangan. Bu esa mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilgan biomexanik yo‘naltirilgan mashqlar sportchilarning muvozanatni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, 30 soniya davomida bajarilgan texnik harakatlar soni ham tajriba guruhida sezilarli ravishda ortgan. Bu natija sportchilarning texnik harakatlarni tez va samarali bajarish qobiliyati rivojlanganini bildiradi. Bundan tashqari,



koordinatsiya hamda maxsus kuch ko‘rsatkichlarida ham ijobiy o‘zgarishlar qayd etildi.

Nazorat guruhida ham ayrim o‘sislar kuzatilgan bo‘lsada, ularning darajasi tajriba guruhiga nisbatan pastroq ekanligi aniqlandi. Bu esa tajriba guruhida qo‘llanilgan maxsus mashg‘ulot metodikasi kurashchilarning texnik va jismoniy tayyorgarligini oshirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama. O‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari natijalari kurash sportida muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish texnikalarini biomexanik yondashuv asosida o‘rgatish sportchilarning texnik-taktik hamda jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tajriba guruhida muvozanatni saqlash ko‘rsatkichlari, texnik harakatlarni bajarish tezligi, koordinatsiya hamda maxsus kuch ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilangani aniqlandi.

Tajriba guruhida kuzatilgan ijobiy o‘zgarishlar mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilgan maxsus mashqlar tizimi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu mashqlar kurashchilarning tana og‘irlik markazini boshqarish, tayanch nuqtalaridan samarali foydalanish hamda harakat koordinatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan edi. Natijada sportchilar texnik usullarni bajarishda yanada barqaror muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Nazorat guruhida ham mashg‘ulotlar davomida ayrim ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsa-da, ularning darajasi tajriba guruhiga nisbatan pastroq bo‘ldi. Bu esa kurash mashg‘ulotlarida biomexanik yondashuv asosida ishlab chiqilgan maxsus mashqlarni qo‘llash sportchilarning texnik tayyorgarligini yanada samarali rivojlantirishga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Tadqiqot natijalari boshqa olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda qayd etilgan xulosalar bilan ham uyg‘un ekanligi kuzatildi.

Xulosa. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kurash sportida muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarish texnikalarini biomexanik jihatdan o‘rganish sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tajriba davomida qo‘llanilgan maxsus mashqlar tizimi kurashchilarning muvozanatni boshqarish, texnik usullarni tez va aniq bajarish hamda harakat koordinatsiyasini yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.

Tajriba yakunida tajriba guruhidagi kurashchilarning muvozanat ko‘rsatkichlari, texnik harakatlarni bajarish tezligi, koordinatsiya va maxsus kuch darajasi sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Bu natijalar mashg‘ulot jarayonida biomexanik yondashuv asosida tashkil etilgan mashqlar sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirishda samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, kurash mashg‘ulotlarida muvozanatni saqlash va raqibni muvozanatdan chiqarishga qaratilgan mashqlarni muntazam qo‘llash sportchilarning musobaqalardagi natijalarini yaxshilashga ham yordam berishi mumkin. Shuning uchun kurash mashg‘ulotlarini rejalashtirishda biomexanik



omillarni hisobga olish va maxsus mashqlar tizimidan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 20-dekabrdagi PQ-450-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. Керимов Ф.А. Формирование духовно-нравственных качеств личности в процессе физического воспитания / Ф.А.Керимов, Э.А.Сейтхалилов // Мир образования – образование в мире. – 2010. - №2 (38). 45-53.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya instituti nashriyoti, 2005. – 286 b.
4. Bobomurodov F.I. Milliy kurash nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti, 2013. – 240 b.
5. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - Москва: Спорт, 1991. - 543 с.
6. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. - Киев: Олимпийская литература, 2004. - 808 с.
7. Sacripanti A. Biomechanical Classification of Judo Throwing Techniques (Nage Waza). – Rome: University of Rome, 2010.
8. Sterkowicz S. Biomechanical Analysis of Throws in Combat Sports. – Krakow: University School of Physical Education, 2011.
9. Erimbetov B.K. Kurashchilarning ko‘p yillik tayyorgarligida pedagogik nazoratni ta’minlash yo‘llari// Monografiya. Nukus: Print Darhan, 2024. -278 b.
10. Erimbetov B. K. Problems of Improving Technical and Tactical Wrestlers’ Actions. Eastern European Scientific Journal, 2019. (1).
11. Tajibaev S.S. O‘smir kurashchilarning kompleks tayyorgarligida harakatli o‘yinlarni qo‘llash metodikasini ilmiy-pedagogik asoslash/ Ped. fan. dok. dis.avtoreferati (DSc) –Chirchiq: «Toshkent kimyo-texnologiya instituti» bosmaxonasi, 2019. – 77 b.
12. Матвеев Л.П. Общая теория спорта и её прикладные аспекты: учеб. для вузов / Л.П.Матвеев. – 5-е изд., испр. и доп. – М.: Советский спорт, 2010. – 340 с.
13. Платонов В. Теория периодизации подготовки спортсменов высокой квалификации в течение года: предпосылки, формирование, критика. Наука в олимпийском спорте. 2019; №3: С.118-137.
14. Горская И.Ю. Координационная подготовка спортсменов: монография. -Омск: СибГУФК, 2015. – 220 с.
15. Ермаков А.В., Скаржинская Е.Н. Цифровые технологии в спорте как инструмент воспитания // Физическая культура и спорт в ХХI веке: Актуальные проблемы и их решения. 2020. С. 189–193.



16. Ермаков А.В., Скаржинская Е.Н., Новоселов М.А. – Цифровая трансформация профессий в отрасли «Физическая культура и спорт» //Теория и практика физической культуры. 2022.№ 3 – С. 6.
17. <https://www.gazeta.uz/uz/2021/02/18/problems-of-development>.
18. <https://www.ijpefs.com/ijpefs>
19. <http://sportfiction.ru/magazine/journal-of-athletic-training/>
20. <https://www.olympic.org/publications/olympic-review>
21. <http://allsportinfo.ru/>

AKADEMIK ESHKAK ESHUVCHILARNING TEXNIKASINI CONCEPT 2 ERGOMETRIDA TAHLIL QILISH

Mambetnazarov Islambek Muratbaevich

Pedagogika fanlari doktori (DSc)., professor

Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети Нукис филиали

islambekmambetnazarov95@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada akademik eshkak eshuvchilarning texnikasini concept 2 ergometrda tahlil qilishning instrumental usullari o'rganildi. Harakatlarni qayd etishning ikkita asosiy usuli orqali eshkak eshish jarayonining umumiy natijalari va alohida parametrlarini aniqlash imkoniyati ko'rsatib berildi. Ushbu usullar ergometr sharoitida qo'llanilib, ularning texnologik ustunliklari va cheklovlari tahlil qilindi hamda eshkak eshish texnikasini takomillashtirishdagi o'rni asoslab berildi. Tadqiqot doirasida videokamera va shaxsiy kompyuter kabi elektron vositalar, shuningdek VideoPoint, EditStudio va Excel dasturiy ta'minotlari asosida videotahlil usuli ishlab chiqildi. Mazkur usul yordamida eshkak eshuvchining tana nuqtalarining ikki o'lchamli fazoviy ko'rsatkichlari hamda tezlik parametrlarini aniqlash imkoniyati yaratildi. Natijada, taklif etilgan yondashuv sportchilarning texnik harakatlarini chuqur tahlil qilish va ularni samarali takomillashtirishga xizmat qilishi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Kalit so'zlar: Akademik eshkak eshish sporti, texnika, concept 2, mashg'ulot, qayiq, eshkak, tahlil qilish, past shiddatli va yuqori hajmli, takomillashtirish.

Аннотация: В статье изучены инструментальные методы анализа техники академических гребцов на эргометре concept 2. Показана возможность определения общих результатов и отдельных параметров процесса гребли с помощью двух основных методов фиксации движений. Эти методы применялись в условиях эргометра, были проанализированы их технологические преимущества и ограничения, а также обоснована их роль в совершенствовании техники гребли. В рамках исследования был разработан метод видеонализа на основе электронных средств, таких как видеокamera и персональный компьютер, а также программного обеспечения VideoPoint,



EditStudio u Excel. С помощью данного метода создана возможность определения двумерных пространственных параметров точек тела гребца и параметров скорости. В результате научно обосновано, что предложенный подход служит углубленному анализу технических действий спортсменов и их эффективно к совершенствованию.

Ключевые слова: Академическая гребля, техника, концепт 2, тренировка, лодка, гребля, анализ, низкая интенсивность и высокий объем, совершенствование.

Abstract: The article examines instrumental methods for analyzing the techniques of academic rowers using a concept 2 ergometer. The possibility of determining the overall results and individual parameters of the rowing process using two main methods of motion fixation has been shown. These methods were applied under ergometric conditions, their technological advantages and limitations were analyzed, and their role in improving rowing techniques was substantiated. Within the framework of the study, a video analysis method was developed based on electronic means such as video cameras and personal computers, as well as VideoPoint, EditStudio, and Excel software. Using this method, it is possible to determine the two-dimensional spatial parameters of the rower's body points and velocity parameters. As a result, it has been scientifically substantiated that the proposed approach serves to deeply analyze the technical actions of athletes and their effective improvement.

Keywords: Academic rowing, technique, concept 2, training, boat, rowing, analysis, low intensity and high volume, improvement.

Kirish. Dunyoda suv sporti turlarini ommalashtirish va iqtidorli yoshlarni akademik eshkak eshish bilan shug‘ullanish uchun saralash va maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Akademik eshkak eshishni aholi o‘rtasida ommaviy sport turlaridan biriga aylantirish hamda uni professional sportchilarni tayyorlash, yuqori malakali sportchilarni qamrab olish va yoshlarni barkamol etib tarbiyalashga xizmat qiladigan sport turi sifatida targ‘ib qilish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda akademik eshkak eshish sport turi bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish uchun qo‘shimcha mashg‘ulotlarni olib borish, o‘quv-trenirovka mashg‘ulotlarida zamonaviy ilmiy-yutuqlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Soha mutaxassilari tomonidan akademik eshkak eshuvchilarni funksional holatini yaxshilash, aerob-anaerob shiddat zonalarida mashg‘ulot olib borish uslubiyatini ishlab chiqish, ushbu sport turi bilan shug‘ullanadigan sportchilarni tayyorlashning zamonaviy vosita va usullarini izlash bilan bir qatorda, akademik qayiqlarda eshkakni to‘g‘ri eshish texnikasi samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Xalqaro eshkak eshish standartlariga muvofiq zamonaviy suv sporti inshootlarining



moddiy-texnik infratuzilmasini qurish, rekonstruksiya qilish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, trenirovkalar va musobaqalar davomida eshkak eshuvchilarning texnik harakatlarni bajarishdagi fazalar bo'yicha xatolarini aniqlash va ularni tuzatish usullarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Akademik eshkak eshuvchilarning texnikasini concept 2 ergometrida tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazaifasi Concept 2 ergometrida eshkak eshish texnikasini baholash va modellashtirish.

Past shiddatli va yuqori hajmli oddiy bir soatlik mashg'ulot davomida eshkak eshish texnikasidagi o'zgarishlarni aniqlash.

Akademik eshkak eshuvchilarni 1 soat eshkak eshish davomida texnikasini buzulishini tahlil qilish.

Tadqiqot natijasi va muhokamasi. Akademik eshkak eshish sportida texnikani nazorat qilishning jami natijalari harakatlarni qayd qilishning ikkita instrumental usuli (ularning alohida parametrlari) yordamida olishimiz mumkin. Ikkala usul ham akademik eshkak eshish sportida ergometrida ro'yxatdan o'tkazishga yordam beradi.


Ularning har biriga xos bo'lgan texnologik ustunlik va cheklovlar biz ishlab chiqqan ergometrida eshkak eshish texnikasini takomillashtirish bo'yicha yechimda ularning tutgan o'rnini aniqlashga xizmat qildi. Biz tomonidan qo'llanilgan elektron vositalar (videokamera, shaxsiy kompyuter) hamda dasturiy ta'minotlar (VideoPoint, EditStudio, Excel) asosida yaratilgan videotahlil usuli eshkak eshuvchining tana nuqtalarining ikki o'lchamdagi fazoviy va tezlik parametrlarini aniqlash imkonini beradi.

Yuqori hajmli va past shiddatli mashg'ulotlar, xususan bir soatlik eshkak eshish mashqlari, ko'pincha elita eshkakchilarning jismoniy holatini yaxshilash uchun qo'llaniladi. Dastlabki tadqiqotlar bunday mashg'ulotlar davomida texnika yomonlashishi mumkinligini taxmin qilgan. Ushbu tadqiqot “elita eshkakchilar eshkak eshish ergometrida bir soat davomida texnikani saqlab qolishlari mumkin” degan farazni tekshirishga qaratilgan. Kuch hosil qilish va umurtqa pog'onasi harakatlarini baholash uchun elektromagnit qurilma tenzodatchik bilan birgalikda ishlatilgan.

Bir soat davomida olingan har bir eshkak eshish namunasi uchun quyidagi parametrlar aniqlandi: cho'qqi kuchi, eshish davomida bajarilgan ish, quvvat (bajarilgan ishning eshish vaqtiga nisbati), eshish uzunligi (dastaning maksimal gorizontaal harakati sifatida belgilangan) va dasta balandligi. Eshishning turli bosqichlari, jumladan cho'qqi kuchiga erishish va harakatlanish bosqichining tugash vaqtlari qayd qilindi. O'rganilgan kinematik o'zgaruvchilar son sezgichi (sonning bukilishi va yozilishini ko'rsatadi), bel-dumg'aza sezgichi (chanoqning old tekislik atrofida aylanishini bildiradi) va ko'krak-bel sezgichi (umurtqa pog'onasining bel qismi bukilishi va yozilishini ko'rsatadi) burchaklarini eshish boshlanishi, tugashi,



maksimal burchak va eshish holatlarida o‘z ichiga oladi. Shuningdek, bel-dumg‘aza qismi harakatining ko‘krak-bel qismi harakatiga nisbati ham qayd etildi. Bu nisbatda 1 qiymati tananing har bir qismining oldinga yoki orqaga harakatiga teng hissani bildiradi; 1 dan katta qiymat bel qismi harakatining ustunligini, 1 dan kichik qiymat esa chanoq harakatining ustunligini ko‘rsatadi (Yu.A.Kopilov va boshqalar, 2005). Ushbu nisbat eshish boshlanishi va tugashi holatlarida aniqlangan (1-rasmga qarang).



1-rasm. Sinovdan o‘tkazishning 4-oralig‘ida bitta sinovchidan olingan qayta ishlangan ma’lumotlar namunasi

Bir soatlik mashg‘ulot davomida olingan oltita turli eshkak eshish namunalari dispersion tahlil yordamida, takroriy o‘lchashlar bilan solishtirildi; farqlarni aniqlash uchun Tyuki aposterior testi qo‘llanildi. Sportchilar ma’lumotlari juftlarga birlashtirildi va qiziqarli o‘zgaruvchi sifatida eshkak eshishning vaqt nuqtasi ishlatildi.

Tadqiqot davomida akademik eshkak eshish mashg‘ulotlarida son, toz va boldir harakatlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Ushbu ishda tajribali, malakali eshkak eshuvchilar guruhida ergometrda bir soatlik mashg‘ulotlarning eshkak eshish texnikasiga ta’siri o‘rganildi. Ergometrda past intensivlikdagi bu hajmli mashg‘ulotlar malakali sportchilar tomonidan bajarildi. Garchi mashg‘ulotlar chidamlilikni oshirishga qaratilgan bo‘lsa-da, dastlabki qo‘llanilgan mashqlar ba’zi sportchilarda charchashning bir soat ichida yaqqol namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu esa eshkak eshish texnikasidagi o‘zgarishlarga aks etdi va o‘z navbatida jarohatlanish xavfini oshirishi mumkinligini bildirdi. Shu bilan birga, eshkak eshishning bir soatlik mashg‘ulotining boshlanishi va oxiri orasida sezilarli farqlar kuzatildi. Natijalar umurtqa pog‘onasining bel qismi eshkak eshishning oxirida ko‘proq ishlatilganini ko‘rsatdi, bu esa charchoq bilan izohlandi.

Mashg‘ulot davomida bir qator o‘zgarishlar kuzatildi: mashg‘ulotning oxirgi oraliqlarida sonni bukish va yozish biroz kamayganligi aniqlandi. Xususan, bir



soatlik mashgʻulot oxirida oyoqlar taxminan 3° kamroq bukilgan, bu esa sonning oxirgi yozilishining 3° oshishi bilan bogʻliq boʻlib, eshkak eshish paytida harakatlanish fazasiga sarflanadigan vaqtning koʻpayishi bilan izohlanadi. Bu esa harakatlanish oxiridagi bosqichning foiz qiymati bilan belgilanadi. Tadqiqot davomida vaqt boʻyicha eshkak eshuvchilarning son va boʻgʻimlarni bukish va yozish harakatlari tizimli tarzda tahlil qilindi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Oltita vaqt nuqtasida son boʻgʻimining bukish va yozishidagi oʻzgarishlar, n=12

Vaqt oraligʻi	A (2-7 daq)	B (14-19 daq)	C (24-29 daq)	D (32-37 daq)	E (44-49 daq)	J (54-59 daq)
Eshish boshida sonni bukish va yozish (°)	-28,7 (4,0)	-29,1 (5,9)	-29,0 (7,0)	-28,5 (7,6)	-7,7(8,9)	-25,7 (8,9)
Sonni maksimal bukish va yozish (°)	-29,8 (4,1)	-30,1 (6,0)	-30,1 (7,1)	-29,6 (7,7)	-29,1 (8,9)	-27,0 (8,9)
% shiddat, sonning maksimal bukish va yozish	95,7 (5,4)	95,5 (5,2)	96,2 (4,7)	96,0 (4,6)	95,4 (4,7)	96,0 (4,8)
Eshish oxirida sonni yoyish (°)	14,5 (4,5)	16,0 (4,7)	16,6 (5,7)	17,0 (6,7)	19,7 (7,4)	21,5 (8,1)
Sonning maksimal yoyish (°)	17,7 (2,4)	18,5 (2,3)	19,1 (3,5)	20,0 (4,0)	22,0 (5,3)	23,4 (6,5)
% shiddat, son suyagi maksimal darajada yoyish	22,3 (4,3)	22,3 (4,5)	22,8(4,5)	22,8 (4,5)	23,0 (4,5)	22,8 (3,9)

Izoh: Bukish harakatlari manfiy, yozish harakatlari musbat qiymatga ega.

1-jadval maʼlumotlariga koʻra, akademik eshkak eshuvchilarning sonni bukish va yozish harakatlari oltita vaqt oraliqlarida tahlil qilindi: eshish boshlanishida sonni bukish va yozish, sonning maksimal bukilishi va yozilishi, eshish oxirida sonni yoyish, sonning maksimal yoyilishi va son suyagining maksimal darajada yoyilishi. Har bir harakat gradus va foiz koʻrsatkichlari orqali baholandi.

Shu bilan birga, akademik eshkak eshishning bir soatlik mashgʻulotlari davomida chanoq aylanishi ham vaqt boʻyicha harakat graduslari orqali tahlil qilindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

6 ta vaqt nuqtasida chanoq aylanishining oʻzgarishlari, n=6

Vaqt oraligʻi	A (2-7 daq)	B (14-19 daq)	C (24-29 daq)	D (32-37 daq)	E (44-49 daq)	J (54-59 daq)
Eshish boshida aylanish (°)	12.2 (5.7)	11.1 (5.0)	12,0 (5,1)	12.2 (5.0)	13.2 (5.9)	13.1 (5.3)
Eshish oxirida oldingi aylanish (°)	-18,9 (9,8)	-23,7 (9,4)	-24,3 (10,4)	-24,4 (11,4)	-25,2 (11,4)	-26,3 (10,4)
Maksimal oldingi aylanish (°)	14,4 (4,8)	13,7 (4,3)	14,4 (5,2)	14,6 (5,0)	15,5 (5,5)	15,4 (5,5)



Vaqt oralig'i	A (2-7 daq)	B (14-19 daq)	C (24-29 daq)	D (32-37 daq)	E (44-49 daq)	J (54-59 daq)
Maksimal oldingi aylanish sodir bo'ladigan harakat foizi temp	89,0 (15,4)	88,5 (14,1)	88,7 (13,9)	88,5 (13,8)	87,0 (15,2)	88,3 (14,0)
Maksimal orqa aylanish (°)	-29,2 (10,1)	-32,6 (10,2)	-33,5 (11,4)	-34,2 (11,5)	-34,6 (13,1)	-34,9 (11,3)
Maksimal orqaga aylanish foizi	30,8 (3,2)	31,2 (3,3)	31,7 (3,5)	32,0 (3,7)	31,4 (3,7)	31,8 (3,0)

Izoh: chanoqning oldinga aylanishi musbat burchaklar bilan, orqaga aylanishi esa manfiy burchaklar bilan ifodalanadi.

Akademik eshkak eshuvchilarda eshish texnikasini o'rgatishda son suyagi bilan bir qatorda chanoq suyagi harakatlari ham muhim hisoblanadi. Shu sababli oltita vaqt oraliqlarida chanoq aylanishi, eshish boshida va oxirida aylanish, maksimal aylanish, aylanishdagi maksimal shiddat foizi hamda maksimal orqa aylanish va ularga mos foiz ko'rsatkichlari tahlil qilindi. Natijalarga ko'ra, eshkak boshida chanoq 12,2° ga aylangan bo'lsa, 44–49 daqiqalar oralig'ida bu qiymat 13,2° ga yetgan. Maksimal aylanish esa 32–37 daqiqalar oralig'ida 32,0 % ni tashkil qilgan. Shu bilan birga, akademik eshkak eshuvchilarning bel rotatsiyasi (umurtqa pog'onasining bel qismini bukish va yozish) ham o'rganildi. Umurtqa pog'onasining bel qismida kinematik o'zgarishlar sezilarli bo'lib, bir soatlik mashg'ulot davomida ham o'zgarishlar qayd etildi. Eshkak suvga tushirilgan paytdagi chanoq aylanishidagi tendensiyaga o'xshab, vaqt o'tishi bilan bel qismida ham biroz kengayish kuzatildi. Finishda esa, chanoq orqaga burilgandagi holatga mos ravishda, umurtqa pog'onasining bel qismi ko'proq cho'zilganligi aniqlangan. (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Olti vaqt nuqtasida bel sohasining aylanishidagi o'zgarishlar, n=6

Vaqt oralig'i	A (2-7 daq)	B (14-19 daq)	C (24-29 daq)	D (32-37 daq)	E (44-49 daq)	J (54-59 daq)
Eshish boshida bukish (°)	33,6 (7,0)	33,9 (6,8)	34,5 (6,7)	34,5 (6,8)	35,8 (7,0)	34,9 (7,2)
Eshish oxirida chozilish (°)	-13,5 (8,0)	-18,1 (5,9)	-18,8 (6,5)	-18,3 (5,8)	-18,7 (5,8)	-20,2 (4,7)
Harakatlanish vaqtida maksimal egilish (°)	35,3 (7,1)	35,8 (7,0)	36,3 (7,0)	36,3 (7,0)	37,6 (7,1)	36,8 (7,5)
maksimal egilish sodir bo'ladigan harakatning %	92,7 (10,2)	93,2 (10,0)	93,3 (10,1)	93,3 (10,1)	92,4 (11,0)	93,0 (10,4)
Harakatni maksimal uzaytirish (°)	-31,4 (6,3)	-36,0 (5,2)	-37,8 (6,2)	-37,8 (5,0)	-36,5 (5,3)	-36,4 (5,4)
Maksimal kengayish sodir bo'ladigan harakat tezligi%	31,8 (1,7)	32,2 (1,5)	32,7 (1,6)	32,8 (1,9)	32,2 (3,1)	32,7 (2,9)



Izoh: *bel sohasining egilishi musbat burchaklar bilan, to‘g‘rilanishi esa manfiy burchaklar bilan ko‘rsatilgan.*

Tahillar natijasiga ko‘ra, akademik eshkak eshuvchilarning bel–chanoq nisbatlari ham aniqlangan. Shu ma’lumotlarga ko‘ra, bir soatlik eshkak eshish davomida bel–chanoq nisbatlarida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Soat boshida eshish boshidagi bukish nisbati $3,4 \pm 1,7$, yakunlashda esa $0,8 \pm 0,5$ ni tashkil qilgan. 14–19 daqiqalar oralig‘ida (B vaqt nuqtasida) bukish nisbati $3,8 \pm 2,0$ ga ko‘tarilib, yaxshilanish kuzatilgan, harakatni yakunlash esa $0,84 \pm 0,3$ atrofida kichik o‘zgarish bilan amalga oshgan. Shu bilan birga, bukish nisbati bir soat davomida o‘zgarib, J vaqt nuqtasida (54–59 daqiqalar oralig‘ida) $3,0 \pm 1,2$ ga tushgan. Ushbu o‘zgarishlar sezilarli bo‘lmasa-da, son bukilishi va yozilishining kamayishi, shuningdek, tos va bel aylanishi hamda bukilishidagi biroz ortish bilan bog‘liq kuzatilgan tendensiyalar bilan mos keladi.

Xulosa. Concept 2 ergometrida akademik eshkak eshish texnikasini baholash va modellashtirish uchun texnikani nazorat qilish natijalari ikki turdagi instrumental usul orqali olinadi, ularning har biri o‘ziga xos parametrlarga ega. Ikkala usul ham akademik eshkak eshish ergometrida harakatlarni qayd etishga qaratilgan. Birinchi usul – kadrlar chastotasi 25 Gs dan yuqori bo‘lgan videokameralardan foydalanish. Bu yondashuv birlamchi video ma’lumotlar hajmini sezilarli darajada oshiradi, shu bilan birga o‘lchash xatolarini kamaytiradi. Ikkinchi yo‘nalish – video ma’lumotlarni qayta ishlashning dasturiy vositalarini takomillashtirishga qaratilgan. Bizning ilovamizda dasturiy ta’minot video tasvirlarni tanlashda cheklovchi omil bo‘lib xizmat qiladi, chunki u video qatorlarini avtomatik tahlil qilish darajasini past darajada ta’minlaydi. Ergometr yordamida eshkak eshish texnikasini videotsiklografik tahlil qilishning birinchi natijasi yuqori malakali eshkakchilarning harakat konturogrammalari bo‘ldi. Konturogrammalar yaxlit harakatni ifodalagani uchun ularning ko‘rgazmaliligini yaxshilash bo‘yicha ish olib bordik. Konturogrammalarning to‘rtta varianti mos ravishda ikkita temp zonasi (25 g/min va 35 g/min) va eshkakchilarning ikkita buy uzunligi zonasi (1,85 m gacha va 1,85 m dan yuqori) uchun konturogramma yordamida texnikani tahlil qilish biz tomonimizdan bosqichma-bosqich nazorat doirasida harakat tuzilmasining individual dinamikasini kuzatish uchun tavsiya etiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Бацина О.Н. Основные направления развития гребли на лодках "Дракон" в контексте спорта для всех / О.Н.Бацина // Физическая культура: воспитание, образование, тренировка : Детский тренер : журнал в журнале. – 2010. – №4. – С. 42-44
2. Белкин А.С. Основы возрастной педагогики: учеб. пособие для вузов / А. С. Белкин. – М. : Академия, 2000. – С. 63-68



3. Бернштейн И.А., Веббер О., Волеж Р. (2002) Эргономическое сравнение конструкций гребных тренажеров: возможные последствия для безопасности. Британский журнал спортивной медицины 36, - Р.108-112 [[DOI](#)] [[Бесплатная статья PMC](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

4. Булл АМ, МакГрегор АН (2000) Измерение движения позвоночника у гребцов: использование электромагнитного устройства. Клиническая биомеханика 15, - Р.772-776 [[DOI](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

5. Володенков В.В. Методика комплектования экипажей в гребном спорте / В.В.Володенков, Т.М.Замотин ; Центр спортивной подготовки, Москва // Вестник спортивной науки. – 2016. – № 3. – С. 60-62

6. Гейтс Д.Х., Дингвелл Дж.Б. (2008) Влияние нервно-мышечной усталости на выполнение задач во время повторяющихся целенаправленных движений. Experimental Brain Research 187, - Р.573-585 [[DOI](#)] [[Бесплатная статья PMC](#)] [[PubMed](#)] [[Google Scholar](#)]

QILICHBOZLARDA KUCH, CHIDAMLILIK VA KOORDINATSIYANI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY MASHG‘ULOT MODELLARI

Atajanov Kenesbay Ibragimovich

Assistent o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

kenesbayatajanov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qilichbozlik sportida kuch, chidamlilik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy mashg‘ulot modellari tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi — turli yosh va tayyorgarlik darajasiga ega qilichbozlar uchun optimal mashg‘ulot metodlarini aniqlash, ularning samaradorligini eksperimental ravishda baholash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Mushak kuchi, umumiy va maxsus chidamlilik, shuningdek hatti-harakatlar koordinatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi interval mashg‘ulotlari, plyometrik yuklamalar, funksional stabilizatsiya mashqlari hamda sportga yo‘naltirilgan kombinatsion texnik drillar o‘rganildi. Olingan natijalar zamonaviy metodik yondashuvlar qilichbozlarning musobaqa ko‘rsatkichlari va texnik-taktik barqarorlik darajasini sezilarli oshirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: Qilichbozlik, kuch, chidamlilik, koordinatsiya, mashg‘ulot modeli, funksional tayyorgarlik.

Аннотация: В данной статье анализируются современные тренировочные модели, направленные на развитие силы, выносливости и координации у фехтовальщиков. Основная цель исследования — определить оптимальные методики подготовки для спортсменов различного возраста и



уровня мастерства, оценить их эффективность в экспериментальных условиях и разработать практические рекомендации. Изучены интервальные тренировки, плиометрические нагрузки, упражнения на функциональную стабилизацию и специализированные технико-тактические комбинации. Полученные результаты показали, что современные тренировочные подходы существенно повышают соревновательную работоспособность и технико-тактическую устойчивость фехтовальщиков.

Ключевые слова: *Фехтование, сила, выносливость, координация, тренировочная модель, функциональная подготовка.*

Abstract: *This article analyzes modern training models aimed at developing strength, endurance, and coordination in fencers. The primary objective of the study is to identify optimal training methods for athletes of different ages and skill levels, evaluate their effectiveness through experimental testing, and develop practical recommendations. Interval training, plyometric exercises, functional stabilization drills, and sport-specific technical–tactical combinations were examined. The findings indicate that contemporary training approaches significantly enhance the competitive performance and technical–tactical stability of fencers.*

Keywords: *Fencing, strength, endurance, coordination, training model, functional preparation.*

Kirish. Qilichbozlik zamonaviy sport tizimida yuqori texnik-taktik mahorat, tezkor qaror qabul qilish, mukammal koordinatsiya hamda yuksak fiziologik imkoniyatlarni talab qiluvchi murakkab sport turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi qadimiy jang san’atlarining bir shakli sifatida yuzaga kelgan bo’lsa-da, hozirgi kunda u Olimpiya sport turlaridan biri sifatida keng rivojlanib, yuqori darajadagi raqobat maydoniga aylangan. Qilichbozning musobaqadagi har bir harakati yuqori aniqlik, vaqtni to’g’ri baholash, masofani his qilish, o’zgaruvchan vaziyatlarga tez moslasha olish kabi murakkab psixomotor jarayonlarga asoslanadi. Shuning uchun ham qilichbozlik mashg’ulotlarida texnik-taktik tayyorgarlik bilan bir qatorda kuch, chidamlilik va koordinatsiya sifatlarini rivojlantirish o’ziga xos ilmiy-metodik yondashuvni talab qiladi.

So’nggi yillarda sport fiziologiyasi va sport trenirovkasi nazariyasi bo’yicha olib borilgan tadqiqotlar shuni ko’rsatmoqdaki, yuqori darajadagi sport natijalariga erishishda an’anaviy mashg’ulot usullarining o’zi kifoya qilmaydi. Qilichbozlikda raqib bilan o’zaro dinamik harakat, qisqa masofali tezkor sakrashlar, tezlanish va sekinlashishlar, o’tkir burilishlar, keskin startlar hamda kuchli eksploziv zarbalar mavjud bo’lib, ular sportchidan bir vaqtning o’zida maksimal kuch, anaerob chidamlilik, neyromuskulyar koordinatsiya va tananing umumiy stabilizatsiyasini talab qiladi. Zamonaviy sport metodikasi esa intensivlikka asoslangan, funksional yondashuvga ega mashg’ulot modellarini qo’llashni taqozo etmoqda.



Qilichbozlik sportida jismoniy sifatlarning ichida kuch — ayniqsa, oyoq va tana markazining eksploziv kuchi — asosiy o‘rinni egallaydi. Sababi, qilichbozning oldinga va orqaga dinamik harakatlari, to‘satdan bajariladigan “lung” (hujum sakrashi) yoki “fleche” (yugurib hujum qilish) kabi harakatlar maksimal tezlikda amalga oshiriladi. Kuchning yetarli darajada shakllanmaganligi sportchining texnikani to‘g‘ri bajarishiga, sakrash amplitudasiga, hujum va qarshi hujumning sifatiga hamda umumiy harakat barqarorligiga salbiy ta‘sir qiladi. Ayniqsa, pastki qism mushaklarining kuch darajasi qilichbozning tezlik-kuch ko‘rsatkichlari bilan bevosita bog‘liqdir. Buning natijasida kuch tayyorgarligini takomillashtirish bo‘yicha maxsus mashg‘ulot modellari, xususan, plyometrik mashg‘ulotlar, og‘irlik bilan bajariladigan eksploziv mashqlar va funksional kuch bilan bog‘liq trenirovkalar katta ahamiyat kasb etadi.

Qilichbozlikda yana bir muhim jismoniy sifat — bu chidamlilik. Garchi qilichbozlik tashqi ko‘rinishda qisqa davom etuvchi epizodlarga o‘xshab tuyulsa-da, aslida musobaqa davomida sportchining yurak-tomir tizimi, nafas olish tizimi hamda energiya ishlab chiqarish mexanizmlari yuqori darajada faoliyat ko‘rsatadi.

Har bir jang 3 daqiqagacha davom etib, u qisqa, ammo yuqori intensivlikdagi portlovchi harakatlardan iborat bo‘ladi. Shuning uchun qilichbozlarda ayniqsa anaerob-alaktat va anaerob-glikolitik chidamlilikni rivojlantirish zarur. Yuqori intensivlikdagi intervallar, qisqa dam olish segmentlari bilan bajariladigan sprint seriyalari, kombinatsion texnik drilllar va funksional kross-trening kabi metodlar zamonaviy sport amaliyotida chidamlilikni oshirishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Qilichbozlikda koordinatsiya esa boshqa sport turlariga qaraganda alohida ahamiyatga ega bo‘lgan sifat hisoblanadi. Chunki qilichbozlikning o‘zi koordinatsiyaga asoslangan sport turi bo‘lib, unda makon va vaqtni idrok qilish, masofani to‘g‘ri tanlash, murakkab harakatlarni ketma-ket bajarish, raqibning niyatini oldindan sezish va unga moslashish kabi o‘ta murakkab neyropsixologik jarayonlar sodir bo‘ladi. Yuqori koordinatsiya darajasi qilichbozga texnikani aniq bajarish, taktik reja asosida harakat qilish, bitta vaziyatdan ikkinchisiga tez o‘tish va xatolarni minimal darajaga tushirish imkonini beradi. Zamonaviy sport metodikasida koordinatsiyani rivojlantiruvchi mashg‘ulotlar — stabilizatsiya platformalari, murakkab sensomotor mashqlar, sportga yo‘naltirilgan reaksiya tezligi drilllari — yuqori ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda qilichbozlik bo‘yicha turli yo‘nalishlarda tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, kuch, chidamlilik va koordinatsiyani birlashtirgan kompleks mashg‘ulot modellari bo‘yicha yetarli darajada mukammal ilmiy asoslangan yondashuvlar hali to‘liq ishlab chiqilmagan. Ko‘plab murabbiylar amaliyotida an‘anaviy mashg‘ulotlar hali ham ustuvor bo‘lib, zamonaviy sport fiziologiyasi talablari bilan uyg‘unlashmagan usullar keng qo‘llanmoqda. Biroq yuqori natijalar uchun sportchining fiziologik imkoniyatlarini maksimal darajada



safarbar etuvchi, funksional, modulli, individual yuklama tamoyillariga asoslangan usullar zarur.

Qilichbozlikning o‘ziga xos xususiyati — texnik harakatlar juda tez bajarilishi, qaror qabul qilish esa ulkan psixomotor aniqlikni talab qilishi — mashg‘ulot modelini faqat og‘irliklar bilan bajariladigan kuch mashqlari yoki yugurish mashqlari bilan cheklab qo‘ymaslikni taqozo etadi. Aksincha, sportchining texnik-taktik tayyorgarligi bilan jismoniy sifatlarini uyg‘unlashtirgan integrativ mashg‘ulot tizimi samaradorlikni oshiradi. Bunday yondashuv hal qiluvchi afzalliklar beradi: harakat iqtisodiyoti yaxshilanadi, mushaklar neyromuskulyar boshqaruvi kuchayadi, texnik barqarorlik oshadi, tez qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi va sportchining umumiy chidamliligi ortadi.

4. Xodjamkeldiyev G. Sport mashg‘ulotlari jarayonlarida tiklanishning ahamiyati // Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(7), (2023). 233-237.

5. Khojamkeldiyev G. S. Medical and biological means of increasing working capacity and recovery of athletes//Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, Jizzakh, 2023. - P.232-237.

6. Khujamkeldiyev G.S. (2023). The importance of recovery in the processes of sports exercises // In Физическое воспитание и спорт в высших учебных заведениях: сб. статей XIX Междунар. науч. конф., Белгород, 25–26 апр. 2023 г./Белгор. гос. технол. ун-т.–Белгород: Изд-во БГТУ, 2023.–471с. ISBN 978-5-361-01170-4 (P. 462).

KURASHCHILARNING TEZKORLIK – KUCH TAYYORGARLIGINING XUSUSIYATLARI

Bekmurzaev Abdikarim Kulmirzaevich

Dotsent

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
abdikarimbekmurzaev@ndpi.uz

Annotatsiya: Kurashchilarning mashg‘ulot jarayonida yuqori natijaga erishish ustuvor jihatdan kuch sifatiga bog‘liqdir. Malakali kurashchilarni tayyorlashda tezkor-kuch rivojlantiruvchi nostandart mashqlardan foydalanish tajribasi o‘rganilgan. Zamonaviy mashg‘ulotni rejalashtirishda jismoniy sifatlarning ahamiyati, mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish ushlublari va kurashchilarni tarbiyalashda tezkor-kuch sifati muhim omil ekanligi maqolada o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: Kurashchi faoliyati, harakat sifatlari, jismoniy tayyorgarlik, mashg‘ulot jarayoni, yuklama, texnik-taktik tayyorgarlik, mushak guruhlar.

Аннотация: Достижение высоких результатов в тренировочном процессе борцов в первую очередь зависит от качества силы. Изучен опыт использования нестандартных скоростно-силовых упражнений в подготовке квалифицированных борцов. В статье отражено значение физических качеств в планировании современной тренировки, методы планирования тренировочного процесса и то, что скоростно-силовые качества являются важным фактором в воспитании борцов.



Ключевые слова: Деятельность борца, двигательные качества, физическая подготовка, тренировочный процесс, нагрузка, технико-тактическая подготовка, мышечные группы.

Abstract: Achieving high results in the training process of wrestlers depends primarily on the quality of strength. The experience of using non-standard speed-strength exercises in training qualified wrestlers was studied. The article reflects the importance of physical qualities in planning modern training, methods of planning the training process, and the fact that speed-strength qualities are an important factor in the development of wrestlers.

Keywords: Wrestler’s activity, motor qualities, physical training, training process, load, technical-tactical training, muscle groups.

Mavzuning dolzarbligi. Hozirgi kunga kelib ham yosh kurashchilar uchun tezkor-kuch tayyorgarligi o‘z dolzarbligini yuqotmagan, chunki texnik-taktik mahoratni o‘tib borishi uning jismoniy tayyorgarligining yuqori imkoniyatlariga bog‘liq. Daxnovskiy V.S., Egizaryan A.D., Zakaryan Yu.M., Ivlev V.G., Ionov V.G. va boshqalar o‘z tadqiqotlarida shuni takidlab o‘tganlarki, sportchilarning umumjismoniy va maxsus tezkor-kuch tayyorgarlik darajasini kutarish kurash vositalari hisobiga amalga oshiriladi, yani texnik-taktik tayyorgarlik jarayonlarida katta xajmda hilma hil mashg‘ulotlar o‘tkazib borish maqsadga muvofiq.

Ammo, tayyorgarlikning shu vositalarinigina qo‘llab, kurashchilarning yangi-yangi texnik xarakatlarga o‘rgatib borish jarayonini tezlashtirishga xizmat qiladigan jismoniy sifatlarni maqsadga muvofiq rivojlantirib bo‘lmaydi. Bunday holatlarda agar tezkor-kuch yunalishidagi mashg‘ulotlarni chuqurlashtirib maqsadli olib borilmasa, u holda sportchining texnik-taktik maxoratini takomillashtirish jarayonida tezkor-kuch sifatlarini rivojlanish darajasini oshirib bo‘lmaydi. Chunki, sport takomillashuvi bosqichida malakali sportchilarda umumjismoniy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi bir maromga tushgan bo‘ladi. Bundan tashqari, musobaqa davrining oxirigacha tezkor-kuch sifatlarini yuqori darajada saqlab qolishning ilojisi yoq.

Tayyorgarlikni rejalashtirish jarayoni, musobaqalarda ishtirok etish vaqtidagi yuklama kuchi va xajmini inobatga olib, fikrni jamlash va dam olish davrlarini kiritib amalga oshiriladi. Shuning uchun musobaqa davrida tezkor-kuch tayyorgarligi vositalarini maqsadga muvofiq qo‘llash, malakali yosh kurashchilarning mashg‘ulot jarayonini muhim printsplaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi - malakali yosh kurashchilarning tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish vositalari va uslubi.

Tadqiqot vazifalari:

1. Malakali yosh sportchilarning texnik-taktik mahoratining individual zahirasi va yillik tsiklning bazaviy tayyorgarlik bosqichida kuch yo‘nalishidagi vositalarni tarkibini o‘rganish.



2. Kuch tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulot yuklamasini hisobga olib boruvchi tezkor tizim ishlab chiqish.

3. Yillik tsiklning bazaviy tayyorgarlik bosqichida yosh kurashchilarning kuch tavsifidagi vositalarni tanlash usulini tajribalar yo'li bilan asoslab berish.

Tadqiqot uslubi.

Oldinga qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun quyidagi tadqiqot uslubidan foydalanildi:

- ilmiy uslubiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish;
- etakchi amaliy tajribalarni tahlil qilish va amalda qo'llash;
- pedagogik kuzatuv;
- pedagogik testlash;
- pedagogik tajribalar;
- matematik statistika uslubi.

Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil etish va o'rganish.

- yosh kurashchilarning harakat tayyorgarligi xususiyatlari;
- yosh kurashchilarning tezkor-kuch tayyorgarligi xususiyatlari;
- yosh kurashchilar texnik-taktik tayyorgarligi xususiyatlari;
- o'quv mashg'ulot jarayonida yosh sportchilarning individual xususiyatlari;
- Barcha sport turlaridagi mashg'ulot yuklamasini hisoblash va tahlil qilish bo'yicha avtomatlashtirilgan dasturni ishlab chiqish.

Etakchi amaliyot tajribalarini tahlil qilish va amalda qo'llash, tayyorgarlikning yillik tsiklidagi turli yuklamalarni xajmi va muntazamliligini qulay nisbatini aniqlab amalga oshiriladi. Malakali yosh kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi bo'yicha mashg'ulotning individual xaritasi tahlil qilindi. Bu erda sportchining familiyasi, ismi va otasining ismi, mashg'ulotdan oldin va keyingi sportchining vazni, mashg'ulotning boshlanishida va yakunidagi kayfiyati, tayyorgarlik davomida echiladigan vazifalar, mashg'ulot usullarining kodi va ularni bajarish xususiyatlari, mashg'ulotda hujum va himoyada ishlash vaqti (daqiqada), hujum, himoya, umumiy va muvaffaqiyatli hujum oralig'i ishonchliligi koeffitsenti bo'yicha mashg'ulotni bajarilishini baholash aks ettirilgan. Bundan tashqari, bu xaritani mazmunini tayyorlashda ishtirok etgan murabbiy uning bajarilishini mashg'ulotdan keyin ro'yxatlab borishi lozim hamda sportchilarni yo'l qo'ygan hatolarini yo'qotish maqsadida bu xatolar haqida to'liq ma'lumot berishlari kerak.

Texnik-taktik tayyorgarlik bo'yicha mashg'ulotning bunday xaritasi nafaqat sportchini, xatto murabbiyning ishi samaradarligini ham tahlil qilish uchun yordam beruvchi dastlabki material bo'lib xizmat qiladi.

Pedagogik kuzatuv - yosh sportchilarning mashg'ulotlari davomidagi hamma tajriba ishlarida olib borildi. Pedagogik kuzatuv jarayonida bajarilgan yuklamalarning aniq xajmi, mashg'ulotda hamda yillik tsikl bosqichlarida qo'llanilgan vositalar muntazamliligi aniqlandi.



Pedagogik testlash - tadqiqot mobaynida yosh kurashchilarning jismoniy darajasini va mashg‘ulot dasturi tasirida uning dinamikasini aniqlash uchun, sport kurashi amaliyotida keng tarqalgan va sport metrologiyasi talablariga javob beradigan sinov nazoratlari qo‘llanildi. Kuch tayyorgarligi darajasi, joydan sakrash, jaydan uch xatlab sakrash, vaqti-vaqti bilan 70 sm. balandga sakrash kabi mashqlar natijalari bilan tavsiflandi. Maxsus chidamkorlik darajasi, maxsus chidamkorlik koeffitsenti bo‘yicha baholandi.

Pedagogik tajribalar samaradorligini baholash.

Kurashchilarning tezkor-kuch imkoniyatlari darajasini baholash uchun quyidagi testlar tanlab olindi. Sportchining maxsus jismoniy imkoniyatlarini jamlanma ko‘rinishi 8 ta halol uloqtirish va 15 ta halol uloqtirish testlari bo‘yicha aniqlandi. Bunda texnik tayyorgarlik darajasiga hos bo‘lgan bu uloqtirishlarni vaqti va pedagogik bahosi alohoda-alohida baholandi. Agar jadvalga murojat qilsaq, bu erda tajriba guruhleri kurashchilarining pedagogik tajriba avvalida va yakunida olingan test natijalari aks ettirilgan. Buni shunday sharxlash mumkin, har bir kurashchining jismoniy tayyorgarlik darajasi oshgan va o‘sinh foizi bir hilda emas. Balki shunday bo‘lishi ham kerakdir, chunki dastlabki tayyorgarlik darajasida bunday mashg‘ulot yuklamasini bu kurashchilarda turlicha o‘tkazishlari mumkin.

1-jadval

Pedagogik tajribalar davrida nazorat guruhi kurashchilarining tezkor-kuch imkoniyat ko‘rsatkichlari dinamikasi

№	Testlar	Tajribagacha	Tajribadan keyin	O‘sinh %da
1.	Vaqtga 10 ta tortilish (soniya)	12,4	12,2	1,6
2.	Vaqtga 10ta o‘tirib turish (soniya)	12,1	11,9	1,6
3.	Vaqtga 0,7 m. ga balandlikka sakrash (s)	7,3	7,2	1,4
4.	Vaqtga yotgan holatda gavgani 10 marta ko‘tarish (soniya)	13,2	13,1	0,7
5.	Vaqtga 8 ta yonbosh uloqtirish (soniya)	14,7	14,5	1,3
6.	Pedagogik baho (ball)	4,2	4,3	2,3
7.	Vaqtga 15 ta yonbosh uloqtirish (soniya)	34,6	34,3	0,8
8.	Pedagogik baho (ball)	4,0	4,1	2,5
9.	Joydan uzunlikka sakrash	240	245	2,1

Eng yaxshi o‘sinh natijasi 262 sm. tashkil qildi. Bu erda shunday taxmin qilish mumkin, agar tajriba avvalida ayrim sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi qanchalik past bo‘lsa, oxiriga borib tadqiqot o‘lchamlari shuncha yuqoriga ko‘tarilganligini ko‘rish mumkin.

Agar tadqiqot ko‘rsatkichlarini o‘sinh foizini tahlil qilib ko‘rsak. Bunda joydan uzunlikka sakrash – 9,2% ni tashkil qildi. Vaqtga 10 ta tortilish, tajribalar paytida 6,4% ga yaxshilandi, taxminan shunday natija 10 ta o‘tirib turish testida ham kuzatish mumkin. Quyidagi ko‘rsatkichlarda unchalik atta bo‘lmagan o‘zgarishlar



paydo bo'ldi, vaqtga 0,7 m. ga baladlikka sakrash (4,1%), vaqtga yotgan holatda gavgani 10 marta ko'tarish (6,8%), vaqtga 15 ta ippon uloqtirish (6,4%).

Ancha kattaroq o'zgarishlarni vaqtga 8 ta halol uloqtirish testida kuzatdik, uning pedagogik bahosi (14,5%), 15ta yonbosh uloqtirishning pedagogik bahosi (15,0). Bu natijalar tajriba guruhlaridagi kurashchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi, pedagogik nuqtai nazardan yaxshilanganini ko'rsatdi. Bu testlardan nazorat guruhi kurashchilarining tezkor-kuch tayyorgarligini baholash uchun ham foydalanildi.

Tajribalar paytida nazorat guruhlari, oddiy tartib bilan mashg'ulotlar o'tkazdilar. Hamma ko'rsatkichlar bo'yicha o'zgarishlar kam. Past o'zgarish tajriba oxiridagi meyorlardan ko'rish mumkin: vaqtga yotgan holatda gavgani 10 marta ko'tarish (0,7%) va vaqtga 15 ta halol uloqtirish (0,8%). Qolgan meyorlardagi o'zgarishlarning hammasi 1,3% dan-2,8% ni tashkil etdi.

Kuch tavsifidagi mashg'ulot ishlarining tahlili bo'yicha olingan natijalarni ko'rib chiqamiz. Tahlillar tizimi, bekatlardagi kuchlanishlarning o'rtacha og'irligini muntazamliligini emas, xatto maksimal kattalikdagi muntazam ish foizini ham aniqlashda yordam beradi.

Turli vazn toifasidagi kurashchilar ko'rsatkichlarida ham farq mavjud, masalan o'rtacha og'irliq bo'yicha 46-50%, ish muntazamliligi bo'yicha 60-86% orasida tebranadi.

2-jadval

Tajriba guruhlarida aylanma mashg'ulot uslubi qo'llangandan keyingi kurashchilarning tezkor-kuch imkoniyat ko'rsatkichlari dinamikasi

№	Testlar	Tajribagacha	Tajribadan keyin	O'sish % da
1.	10 tortilish vaqti (soniya)	12,5	11,7	6,4
2.	10 o'tirib-turish vaqti (soniya)	12,2	11,4	6,6
3.	10 balandga sakrash 0,7 m. (soniya)	7,4	7,1	4,1
4.	Yotgan holatda gavgani 10 marta ko'tarish (soniya)	13,3	12,4	6,8
5.	8 ta ippon uloqtirish vaqti (soniya)	14,6	13,1	10,3
6.	Pedagogik baho (ball)	4,1	4,7	14,6
7.	15 ta ippon uloqtirish vaqti (soniya)	34,6	32,4	6,4
8.	Pedagogik baho (ball)	4,0	4,6	15,0
9.	Joydan uzunlikka sakrash (sm)	240	262	9,2

Shunday hulosalar qilish mumkin, ya'ni ish muntazamliligi bo'yicha hamma sportchilar ham mashq bajarish tezligini bir maromda ushlab tura olmaydilar, xatto ayrimlarida tezlik juda yuqori. Kuchlanish og'irligini kamaytirish hisobiga juda katta ish muntazamliligiga ega bo'lish mumkin, bu sportchi uchun ham murabbiy uchun ham uslubiy hato hisoblanadi.

Kurashchilar tayyorgarligini mashg'ulot yuklamasining tahlili.



Mashg‘ulotlardan keyin yuklama kattaligini aniqlash uchun o‘rtacha Yu.Q.Ch aniqlaymiz, keyin jadvaldan muntazamlilik ahamiyatini topib uni shu mashqni bajarish uchun ketgan vaqtga ko‘paytiramiz. Mashg‘ulot tasiri yo‘nalishi bo‘yicha yuklama kattaligini belgilab oldik. Kurashchilarning bir kunlik yuklama kattaligi quydagi jadvalda ko‘rsatilgan.

3-jadval

Kurashchilar mashg‘ulotining tuzilishi

№	Mazmun	Bajarish vaqti	YuQCh 1 daq.	Muntazamlilik ballari	Muntazamlilik zonasi
1.	Razminka	15	132	4	I
2.	Hujum usullarini takomillashtirish	10	144	6	I
3.	Himoya usullarini takomillashtirish	10	156	8	II
4.	Tezkor tempda uloqtirishni takomillashtirish	5	174	14	II
5.	Kontratakani takomillashtirish	10	138	5	I
6.	O‘quv mashg‘ulot bellashuvi	6	186	21	III
7.	Kurashchi bo‘yin mushaklarini mustaxkamlash uchun mashqlar	4	126	3	I

Shunday qilib, bizning mashg‘ulotimiz 60 daqiqani tashkil etdi. Har bir mashg‘ulot uchun o‘rtacha YuQCh ko‘rsatkichlarini va ish bajarish vaqtini belgiladik. Sorvanov V.A. jadvali bo‘yicha biz mashg‘ulot muntazamliligini ballarda aniqladik. Masalan: razminkaga 15 daqiqa o‘rtacha YuQCh 132 zarba/daqiqada, jadvalga muvofiq 4 ball. Endi formulaga binoan biz yuklama kattaligini aniqlaymiz, yani mashqlarni bajarish vaqtini uning muntazamlilik baliga ko‘paytiriladi.

Xulosa.

1. Yuqori malakali kurashchilarning texnik maxoratini va kuch tayyorgarligini takomillashtirishning uslubiy yo‘nalishi musobaqa faoliyati hususiyatlariga mos kelishi lozim. Barcha vazn toifasidagi kurashchilarning samarali hujum texnikasini ajratish va samarali bo‘lgan kuch tayyorgarligi dasturini aniqlash. Kuch yo‘nalishidagi samarali usullarni ishlab chiqishda, kurashchilarning hujum va himoya hatakalarining individual zahirasini hisobga olish zarur.

2. Malakali kurashchilar texnik-taktik harakatlarining individual zahirasi tahlili, har bir sportchi uchun o‘zining yoqtirgan usullarini ko‘rsatib beruvchi mashqlar va mashqlar jamlanmasini tanlab olish zarur. Sportchi usul bajarishi uchun jalb qilingan mushak guruhlari ishini oshiradigan kuch tayyorgarligi bo‘yicha mashg‘ulot dasturini ishlab chiqish kerak.

3. Mashg‘ulot yuklamasi tahlili bo‘yicha ishlab chiqilgan tizim, bajarilgan ishlarni nazorat qilishning takomillashgan shaklini egallashga yordam beradi va keyinchalik butun mashg‘ulot faoliyatini rejali boshqarish sifatini oshiradi.



Foydalinilagan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va uning xalqaro nufuzini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”. PQ-4881-son qarori.– Toshkent: 2020 yil, 4-noyabr.
2. Atoev A.Q. Kurash. O‘smir va yoshlarni kurashga o‘rgatishning metod va vositalari: (Ped. oliy o‘quv yurt. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, BO‘SM KSJ va SMOM o‘qituvchi va murabbiylar) uchun o‘quv qo‘ll. –T.: O‘qituvchi, 1987.
3. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. – T.: O‘zDJTI nashriyot matbaa bo‘limi, 2005.
4. Mirzaqulov Sh. Belbog‘li kurash nazariyasi uslubi. – T. 2013.
5. Arslonov Sh.A., Tangriyev A.Sh. Sport pedagogik mahoratini oshirish DZYUDO. T. 2017. O‘zbek kurashi dovrug‘i /Tuzuvchilar: X.Bobobekov, M.Sodiqov, Z.Ro‘ziyev va boshq. –T.: Ibn Sino nomidagi tibbiyot nashri, 2002.
6. Rasulov S.B. Kurashchilarni tayyorlash. – T. 2010.
7. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari –T. O‘zDJTI nashriyot matbaa bo‘limi. 2005.

ВЛИЯНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВЫПОЛНЕНИЯ ПОВОРОТА НА СОРЕВНОВАТЕЛЬНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ПЛОВЦОВ

Зоитова Гулноза Мирюнусовна

д.ф.п.н (PhD), доцент

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

Абдиреймова Гуландам Икрамовна

Студент

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

gulnoza_zoitova@mail.ru

Аннотация: В работе анализируется влияние эффективности выполнения поворота на соревновательные показатели пловцов. Рассмотрены структурные компоненты поворота и их значение в общей системе соревновательной деятельности. В ходе педагогического эксперимента с применением видеоанализа и хронометража выявлена статистически значимая связь между временем выполнения поворота и итоговым результатом на дистанции 100 м. Полученные данные подтверждают целесообразность целенаправленного совершенствования техники поворота в тренировочном процессе пловцов.

Ключевые слова: Плавание, техника поворота, соревновательная деятельность, результативность, педагогический эксперимент, биомеханика.



Annotatsiya: Ushbu maqolada suzishdagi burilish texnikasining sport natijalariga ta'siri tahlil qilinadi. Eksperimental tadqiqotlar va videotasvir yordamida burilishning samaradorligi va 100 metr masofani o'tash vaqti o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, burilish texnikasini mukammallashtirish musobaqa natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

Kalit so'zlar: Suzish, burilish texnikasi, musobaqaviy faoliyat, natijaviylik, eksperimental tadqiqot, biomexanika

Abstract: This article analyzes the impact of turn technique on competitive performance in swimming. Using experimental research and video analysis, the relationship between turn efficiency and the time to complete a 100-meter distance was examined. The results indicate that improving turn technique contributes to enhancing swimmers' competitive outcomes.

Keywords: Swimming, turn technique, competitive performance, efficiency, experimental research, biomechanics

Введение. В условиях современного спортивного плавания достижение высоких результатов определяется не только уровнем физической и функциональной подготовленности спортсменов, но и качеством выполнения отдельных технических элементов. При высокой плотности соревновательных результатов даже минимальные временные потери могут существенно повлиять на распределение мест. Одним из наиболее сложных и в то же время наименее стабильных элементов техники является поворот. Он представляет собой кратковременное, но высокоинтенсивное двигательное действие, включающее несколько последовательно сменяющих друг друга фаз. Ошибки, допускаемые при выполнении поворота, приводят к снижению скорости и нарушению ритма движения, что отрицательно сказывается на общем результате. Особую значимость техника поворота приобретает при плавании в бассейнах длиной 25 метров, где количество разворотов возрастает вдвое по сравнению с бассейнами олимпийского стандарта. В связи с этим возникает необходимость более детального изучения влияния эффективности выполнения поворота на соревновательные показатели пловцов [3, 4].

Одним из ключевых элементов, оказывающих существенное влияние на результат, является поворот у стенки. Особенно это актуально на дистанциях от 100 м и выше, где количество поворотов прямо влияет на итоговое время прохождения дистанции. Эффективность выполнения поворота определяется комплексом факторов: скоростью подхода к бортику, точностью и быстротой вращения, силой отталкивания, рациональной длиной подводного скольжения и количеством дельфиновых ударов. Любые недостатки в этих элементах приводят к потере времени и снижению соревновательного результата. На практике было установлено, что даже незначительное улучшение техники



поворота может обеспечить выигрыш на дистанции в доли секунды, что в условиях высоко конкурентных соревнований является критически важным. Актуальность данной темы обусловлена тем, что в последние годы уровень спортивного плавания постоянно растёт, и разница между спортсменами высокой квалификации часто составляет всего сотые доли секунды. В таких условиях повышение эффективности поворота становится значительным резервом улучшения соревновательных показателей, позволяя оптимизировать дистанцию без увеличения физической нагрузки [1, 2, 5].

Литературный анализ и методология исследования. Анализ научно-методических источников показывает, что поворот рассматривается исследователями как один из ключевых элементов соревновательной техники в плавании. В ряде работ отмечается, что временные потери при нерациональном выполнении поворота могут суммарно достигать значительных величин на дистанции, особенно при многократных разворотах. Авторы подчеркивают значимость таких характеристик, как скорость подплывания к стенке, мощность отталкивания, положение тела в фазе скольжения и продолжительность подводного участка. Вместе с тем анализ литературы выявил недостаточное количество экспериментальных исследований, направленных на количественную оценку связи между временем выполнения поворота и соревновательным результатом, что и определило методологическую направленность настоящей работы. Методология исследования основывалась на использовании педагогического эксперимента с элементами инструментального контроля, что позволило получить объективные данные и провести их количественный анализ. Анализ научно-методической литературы показывает, что поворот в спортивном плавании рассматривается как один из ключевых технических элементов, существенно влияющих на итоговый результат, особенно на дистанциях 100 м и 200 м. По данным ряда отечественных и зарубежных исследователей, вклад старта и поворотов в общий результат на дистанции 100 м может составлять до 30–35% общего времени. Особое внимание в исследованиях уделяется биомеханической структуре поворота при плавании на спине. Согласно правилам соревнований, спортсмен выполняет вращение на грудь перед касанием стенки, после чего следует кувырок, постановка стоп на бортик и мощное отталкивание с переходом в подводную фазу. Эффективность данного элемента определяется:

1. Скоростью подхода к стенке;
2. Минимизацией времени вращения;
3. Силой и углом отталкивания;
4. Длиной и скоростью подводного скольжения;
5. Рациональным количеством дельфиновых ударов;
6. Временем прохождения 15-метрового отрезка.



Исследования в области биомеханики плавания показывают, что наибольшие потери скорости происходят именно в фазе вращения и постановки ног на стенку. При этом оптимизация угла сгибания в коленных суставах (примерно $90-120^\circ$) способствует более мощному отталкиванию. Также установлено, что увеличение длины подводного участка при сохранении высокой скорости позволяет значительно сократить общее время дистанции. Таким образом, анализ литературы подтверждает, что совершенствование техники поворота является важным резервом повышения спортивных результатов. Выбранная методология позволила объективно оценить влияние совершенствования техники поворота на соревновательные результаты пловцов и определить эффективность предложенной тренировочной программы.

Целью исследования. Экспериментально обосновать влияние эффективности выполнения поворота на соревновательные показатели пловцов.

Задачи и методы исследования.

Задачи исследования:

1. Изучить и обобщить данные научно-методической литературы, посвящённые технике выполнения поворотов в спортивном плавании, а также определить степень разработанности данной проблемы в современных исследованиях
2. Выявить основные структурные компоненты техники поворота, оказывающие наибольшее влияние на эффективность его выполнения (фаза подплывания к стенке, момент отталкивания, подводная фаза и выход на поверхность).
3. Определить показатели, характеризующие эффективность выполнения поворота, включая время выполнения поворота, скорость подплывания к стенке и продолжительность подводного скольжения.
4. Провести педагогический эксперимент, направленный на объективную оценку техники выполнения поворота у пловцов в условиях тренировочного занятия.
5. Оценить соревновательные показатели пловцов, принимающих участие в эксперименте, на дистанции 100 метров вольным стилем.
6. Установить взаимосвязь между показателями техники выполнения поворота и итоговым соревновательным результатом с использованием методов математической статистики.
7. Сформулировать практические выводы и рекомендации, направленные на совершенствование тренировочного процесса пловцов с учётом полученных экспериментальных данных.

В процессе проведения исследования применялся комплекс взаимодополняющих методов, обеспечивающих объективность и



достоверность полученных результатов. На первоначальном этапе был проведён анализ научно-методической литературы, посвящённой проблеме техники выполнения поворотов в спортивном плавании, что позволило определить теоретические подходы к изучению данного элемента соревновательной деятельности и обосновать выбор направления исследования. Для изучения особенностей выполнения поворотов пловцами использовалось педагогическое наблюдение, проводимое в условиях тренировочного процесса. С целью более точной и объективной оценки техники поворота применялись методы видеосъёмки и последующего видеоанализа, которые позволили зафиксировать временные характеристики отдельных фаз поворота, включая момент касания стенки бассейна, отталкивание, подводное скольжение и выход на поверхность. Количественная оценка показателей осуществлялась с использованием хронометража. Фиксировалось время выполнения поворота, определяемое как интервал от касания стенки до выхода пловца на поверхность, а также общее время прохождения дистанции 100 метров. Измерения проводились с точностью до 0,1 секунды, что обеспечивало необходимую точность экспериментальных данных. Основным методом исследования являлся педагогический эксперимент, проведённый в условиях тренировочного занятия. Все участники выполняли контрольный заплыв в одинаковых условиях, что обеспечивало сопоставимость полученных результатов. Для обработки и интерпретации экспериментальных данных применялись методы математической статистики, в частности корреляционный анализ, позволяющий определить степень взаимосвязи между показателями эффективности выполнения поворота и соревновательным результатом пловцов.

Результаты исследования и их обсуждение. В исследовании приняли участие 10 пловцов мужского пола в возрасте 16–18 лет, специализирующихся в плавании вольным стилем. Эксперимент проводился в бассейне длиной 25 метров. Спортсмены выполняли дистанцию 100 м. в соревновательном темпе. Фиксировалось время выполнения поворота (от момента касания стенки до выхода на поверхность) и общее время прохождения дистанции. (Таблица 1).

Таблица 1

Влияние времени выполнения поворота на соревновательный результат пловцов на 100 м

№ спортсмена	Время поворота (с)	Результат 100 м (с)
1	6,8	58,4
2	6,5	57,9
3	7,2	59,6
4	6,3	57,4
5	7,0	59,1
6	6,1	56,8



7	6,9	58,9
8	6,4	57,6
9	7,3	60,0
10	6,2	57,1

Сопоставление полученных данных показало, что у пловцов с меньшим временем выполнения поворота наблюдаются более высокие соревновательные показатели. Для количественной оценки взаимосвязи был применён корреляционный анализ, который выявил выраженную положительную зависимость между временем поворота и итоговым временем дистанции ($r \approx 0,82$), что свидетельствует о высокой степени связи между изучаемыми показателями. Таким образом, увеличение времени выполнения поворота сопровождается ухудшением соревновательного результата, тогда как его оптимизация способствует повышению общей скорости прохождения дистанции. Полученные результаты согласуются с данными, представленными в научной литературе, и подтверждают значимость поворота как элемента соревновательной техники.

Время выполнения поворота обычно измеряется на отрезке «5 м. до касания бортика – 5 м. после отталкивания». Данный показатель отражает не только быстроту самого вращения, но и эффективность подхода к стенке, постановки ног, силы отталкивания и сохранения скорости после выхода из поворота. Исследования показывают, что сокращение времени поворота даже на 0,3–0,5 секунды может привести к улучшению общего результата на дистанции 100 м. на 0,5–1,0 секунды. Это особенно важно в условиях высокой конкуренции, где разница между спортсменами часто составляет сотые доли секунды. Анализ соревновательной практики показывает, что у спортсменов высокой квалификации время поворота существенно меньше, а скорость на подводном участке выше по сравнению с пловцами средней квалификации. Между временем выполнения поворота и итоговым временем на 100 м. выявляется выраженная отрицательная корреляция: чем меньше время поворота, тем выше соревновательный результат. Таким образом, совершенствование техники поворота является значительным резервом повышения спортивного мастерства. Целенаправленная работа над сокращением времени выполнения поворота позволяет улучшить итоговый результат на дистанции 100 м. без увеличения объема тренировочной нагрузки, за счёт оптимизации технических элементов (Таблица 2).

Таблица 2

Результаты экспериментальной и контрольной групп (100 м, на спине)

Показатель	Группа	До эксперимента (с)	После эксперимента (с)
Время поворота (5м+5м)	Экспериментальная	5,82	5,21
	Контрольная	5,79	5,70



Время 15 м	Экспериментальная	7,90	7,10
	Контрольная	7,85	7,75
Общее время 100 м	Экспериментальная	63,40	60,80
	Контрольная	63,10	62,70

В ходе проведённого исследования было установлено, что совершенствование техники выполнения поворота при плавании способом «на спине» оказывает существенное влияние на соревновательные показатели спортсменов. В экспериментальной группе после внедрения специально разработанного комплекса упражнений, направленного на улучшение техники вращения, отталкивания от бортика и подводного участка, отмечена выраженная положительная динамика всех исследуемых показателей. Время выполнения поворота (участок 5 м. до касания и 5 м. после отталкивания) сократилось с 5,82 с. до 5,21 с., что свидетельствует о снижении потерь скорости в фазе вращения и более эффективном отталкивании. Время прохождения 15-метрового отрезка после поворота уменьшилось с 7,90 с. до 7,10 с., что указывает на повышение эффективности подводного скольжения и дельфиновых ударов. Итоговое время на дистанции 100 м. улучшилось с 63,40 с. до 60,80 с., что подтверждает значимость оптимизации поворота для общего спортивного результата. В контрольной группе изменения показателей оказались незначительными: наблюдается лишь небольшое сокращение времени, которое можно объяснить естественным тренировочным процессом. Существенного влияния на итоговый результат данные изменения не оказали. Таким образом, результаты исследования позволяют сделать вывод о том, что целенаправленная работа по совершенствованию техники поворота при плавании на спине значительно повышает эффективность соревновательной деятельности. Улучшение биомеханических параметров поворота способствует сокращению времени прохождения дистанции и является важным резервом роста спортивного мастерства пловцов.

Выводы. Проведённое исследование подтвердило, что техника выполнения поворота является важнейшим фактором, влияющим на соревновательные показатели пловцов. Анализ экспериментальных данных показал, что уменьшение времени выполнения поворота непосредственно связано с улучшением общего результата на дистанции 100 метров. Пловцы, демонстрировавшие более рациональную технику подплывания к стенке, мощное отталкивание и эффективную подводную фазу, достигали лучших временных показателей, что подтверждает высокую значимость данного элемента техники в соревновательном плавании. Корреляционный анализ показателей выявил выраженную положительную связь между временем выполнения поворота и общим результатом ($r \approx 0,82$), что свидетельствует о том, что даже незначительные ошибки или замедления на этапе поворота



могут привести к существенной потере времени на дистанции. Это подчёркивает необходимость системного контроля за техникой поворота в тренировочном процессе, а также применения инструментальных методов анализа, таких как видеосъёмка и покадровый разбор движений. Результаты исследования имеют практическое значение для тренеров и спортсменов, так как позволяют выявлять слабые места в технике поворота и целенаправленно корректировать их. Включение специальных упражнений, направленных на совершенствование фазы подплывания, отталкивания и подводного скольжения, способствует повышению эффективности заплывов и оптимизации соревновательных показателей пловцов. Таким образом, можно сделать вывод, что системная работа над техникой поворота должна рассматриваться как неотъемлемая часть тренировочного процесса, а улучшение данного элемента прямо влияет на итоговые результаты спортсмена.

Использованная литература:

1. Barbosa T.M., Morouço P., Costa M.J., Marinho D.A., Silva A.J. The influence of turn performance on swimming race results. Journal of Sports Sciences, 2010, 28(3): 223–230.
2. Counsilman J.E. The Science of Swimming. – Englewood Cliffs, 2004. (Техника и анализ поворотов)
3. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2015. (Методические рекомендации по совершенствованию техники поворота)
4. Лопатин Ю.Н. Техника спортивного плавания: методические аспекты совершенствования поворотов. – М., 2016.
5. Seifert L., Toussaint H.M., Chollet D. Kinematic analysis of swimming turns in competitive swimmers. Journal of Biomechanics, 2007, 40(5): 1103–1110.

RAQAMLI MUHITDA MULOQAT VA HAMKORLIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Matnazarov O'ktam Latipovich
Pedagogika fanlari nomzodi, professor
Urganch davlat pedagogika instituti
mr.sport1965@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli muhitda muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlar faoliyatini tashkil etish, metodologik yo 'nalishlari ta 'lim jarayonida shaxsiy va jamoaviy faollikni uyg 'un rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asoslarni belgilaydi. Hozirgi kunda talabalar faoliyatini



raqamli platformalar, virtual jamoalar va interaktiv muloqot muhitlari orqali amalga oshirish. Bu jarayonni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq rejalashtirish va boshqarishni talab etiladi. Metodologik yondashuvlar kognitiv, affektiv, kommunikativ va aksiologik yo‘nalishlarni qamrab olgan holda raqamli muloqotni bilim, hissiy anglashuv va ijtimoiy mas‘uliyatning uyg‘un tizimi sifatida namoyon qilish haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Muloqot, kompetensiya, mexanizm, ta’lim, muloqot, keys, kvest, forum-diskussiya, kognitiv, affektiv, ijtimoiy, axloqiy, interaktiv.

Аннотация: В данной статье определяются научно-практические основы организации деятельности механизмов развития компетенций общения и сотрудничества в цифровой среде, а также их методологические направления, направленные на гармоничное развитие личной и коллективной активности в образовательном процессе. В настоящее время деятельность студентов осуществляется посредством цифровых платформ, виртуальных сообществ и интерактивных коммуникационных сред. Данный процесс требует педагогически целесообразного планирования и управления. Методологические подходы, охватывающие когнитивные, аффективные, коммуникативные и аксиологические направления, представляют цифровое общение как целостную систему знаний, эмоционального понимания и социальной ответственности.

Ключевые слова: Общение, компетенция, механизм, образование, общение, кейс, квест, форум-дискуссия, когнитивный, аффективный, социальный, нравственный, интерактивный.

Abstract: This article defines the scientific and practical foundations for organizing the mechanisms of developing communication and collaboration competencies in a digital environment, as well as the methodological directions aimed at the harmonious development of individual and collective activity in the educational process. Currently, students’ activities are carried out through digital platforms, virtual communities, and interactive communication environments. This process requires pedagogically appropriate planning and management. Methodological approaches covering cognitive, affective, communicative, and axiological directions present digital communication as an integrated system of knowledge, emotional understanding, and social responsibility.

Keywords: Communication, competence, mechanism, education, communication, case, quest, forum discussion, cognitive, affective, social, ethical, interactive.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini



tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020 yil 6-noyabrda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari; 2017 yil 20-aprelda PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2018 yil-14 avgustda PQ-3904-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimni sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019 yil 16-yanvarda PQ-4119-son “Ta’lim sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyat bilan bog‘liq boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi va mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

I.F.Bayonxonova ta’limda muloqot madaniyati va pedagogik munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarini, shuningdek, muomala madaniyatida nutqiy muloqot odobini ifodalovchi maqolalarning xususiyatlarini bir necha tillar misolida asoslab bergan. F.Farmonqulov yoshlarda raqamli savodxonlik va axborot madaniyatini rivojlantirishning metodik yo‘llarini. A.Karimov internet muloqoti va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlarning ijtimoiy faolligi va mas’uliyatini. N.Azizxo‘jaeva ta’limning faollashtiruvchi usullari va hamkorlik muhitini shakllantirish bo‘yicha nazariy asoslarni. U.Ibroximov ta’limda axborot-kommunikativ texnologiyalarni joriy etish orqali talabalar muloqot madaniyatini rivojlantirishni o‘rgangan. Sh.Turdieva talabalarda axloqiy qadriyatlar va ma’naviy ongini shakllantirishning pedagogik sharoitlarini tahlil qilgan bo‘lsa, S.T.Qodirov raqamli muhitda axborot madaniyati va fuqarolik kompetensiyalarini rivojlantirishni pedagogik jihatdan asoslagan. G.R.Rajabova axloqiy tarbiyada empatiya va emotsional anglashuvning ahamiyatini, Z.X.Xoliqova esa yoshlarning ijtimoiy hamkorlik qobiliyatini faol fuqarolik va kommunikatsiya madaniyati bilan bog‘liq holda tadqiq etgan. Ushbu tadqiqotlar pedagogik muloqot, axborot madaniyati, raqamli savodxonlik, ijtimoiy faollik va axloqiy rivojlanish muammolarini turli qirralardan yoritib berib, mazkur maqola mavzusining ilmiy-nazariy asoslarini yaratishga xizmat qilgan.

MDH mamlakatlari olimlari tomonidan yoshlarning muloqot, ijtimoiy hamkorlik va axloqiy rivojlanish masalalari bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilgan bo‘lib, mazkur maqolada ularning ilmiy g‘oyalaridan foydalanilgan. Xususan, V.A.Slastyonin ta’lim jarayonida muloqot madaniyati va insonparvarlik tamoyillarini ilmiy asoslagan bo‘lsa, I.F.Xarlamov pedagogik munosabatlarda shaxslararo muloqotning psixologik mexanizmini yoritgan. V.V.Serikov shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim va ijtimoiy faollikni rivojlantirish konsepsiyasini, E.V.Bondarevskaya insonparvar ta’lim modeli orqali axloqiy qadriyatlarni singdirish usullarini, L.I.Bojovich shaxs rivojlanishining ijtimoiy-psixologik asoslarini va yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasining shakllanish bosqichlarini, A.G.Asmolov inson faoliyatining kognitiv va neyropsixologik omillarini ta’lim



jarayoni bilan bog‘lagan. Y.N.Kulyutkin ta’limda muloqot va fidbek jarayonining ijtimoiy-psixologik ahamiyatini, L.M.Mitina pedagog shaxsining kasbiy muloqot va refleksiv qobiliyatini, O.M.Matyakubov yoshlarda ijtimoiy mas’uliyat va axloqiy faollikni rivojlantirishning aksiologik va amaliyotga yo‘naltirilgan asoslarini, N.V.Bordovskaya esa ta’limda axborot-kommunikativ muhit orqali muloqot madaniyati va axloqiy munosabatni shakllantirish masalalarini tadqiq etganlar. Ushbu olimlarning nazariy qarashlari va metodologik yondashuvlari mazkur maqolaning ilmiy asosini tashkil etib, yoshlarning raqamli muhitda muloqot va ijtimoiy hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish muammosini chuqur tahlil etish imkonini bergan.

Tahlil va natijalar. Raqamli muhitda muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliy-instrumental mexanizmlari yoshlarning faol fuqarolik pozitsiyasi, ijtimoiy anglashuvi va jamoaviy mas’uliyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida raqamli muhit faqat axborot manbai emas, balki interaktiv muloqot va hamjihat faoliyat maydoniga aylandi. Shuning uchun talabalarda muloqot madaniyati, raqamli etika va ijtimoiy hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalar, kollaborativ modellar va fasilitatsiya usullarini samarali qo‘llash zarur. Bu mexanizmlar ta’lim muhitida talabalarning shaxsiy faolligi, guruhda ishlash salohiyati va ijtimoiy mas’uliyatini uyg‘un rivojlantirishga xizmat qiladi hamda raqamli jamiyat sharoitida faol muloqotchan va mas’uliyatli fuqaro sifatida kamol topishini ta’minlaydi.

Raqamli muhitda muloqot va hamkorlik faoliyatini tashkil etishning metodologik yo‘nalishlari ta’lim jarayonida shaxsiy va jamoaviy faollikni uyg‘un rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy asoslarni belgilaydi. Bugungi kunda talabalar faoliyati raqamli platformalar, virtual jamoalar va interaktiv muloqot muhitlari orqali amalga oshar ekan, bu jarayonni pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq rejalashtirish va boshqarish talab etiladi. Metodologik yondashuvlar kognitiv, affektiv, kommunikativ va aksiologik yo‘nalishlarni qamrab olgan holda raqamli muloqotni bilim, hissiy anglashuv va ijtimoiy mas’uliyatning uyg‘un tizimi sifatida namoyon etadi. Shu tarzda, raqamli muhitda muloqot va hamkorlik faoliyatini tashkil etish zamonaviy ta’limning insonparvar, innovatsion va qadriyatga yo‘naltirilgan paradigmasini amalga oshirishning asosiy metodologik sharti bo‘lib xizmat qiladi.

Keys, kvest, forum-diskussiya usullari raqamli ta’lim muhitida ijtimoiy anglashuvni faollashtiruvchi eng samarali interaktiv vositalar hisoblanadi. Bu usullar talabalarni faqat ma’lumot qabul qiluvchi emas, balki faol muloqotchi, hamkor va fikr yaratuvchi shaxs sifatida faoliyatga jalb etadi.

Keys usuli – real yoki yaqin hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali fikr yuritish va qaror qabul qilish madaniyatini rivojlantiradi. Talabalar jamoada ishlab,



turli nuqtai nazarni muhokama qiladilar va yechimlarni birgalikda izlaydilar, bu esa ularda hamjihat fikrlash va ijtimoiy mas’uliyat hissini kuchaytiradi.

Kvest usuli o‘yin elementlariga asoslangan ijtimoiy o‘qitish texnologiyasi bo‘lib, unda talabalar ma’lum bir muammoni echish uchun raqamli muhitda harakat qilishadi, ma’lumot izlaydilar, topshiriqlarni bajaradilar va natijani jamoaviy ravishda himoya qiladilar. Bu jarayonda shaxsiy tashabbus, ijodiy fikrlash va jamoaviy hamjihatlik uyg‘un ravishda rivojlanadi.

Forum-diskussiya usuli raqamli muloqot madaniyatini rivojlantiradigan muhim platforma hisoblanadi. Unda talabalar onlayn muhokama shaklida fikr almashadilar, dalil keltiradilar va fidbek berish orqali hamkorlikda ma’no yaratishni o‘rganadilar. Bunday muhokamalar yozma va og‘zaki muloqotni uyg‘unlashtirgan holda fikrlarni loyihalash, madaniy baho berish va axloqiy anglashuvni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tajriba-sinov ishlariga tayangan holda muloqot samaradorligini tahlil qilish mezonlari ta’lim jarayonida qo‘llanilgan metod va texnologiyalarning amaliy ta’sirini ilmiy asosda baholash imkonini beradi. Bu mezonlar tizimi nafaqat talabalarining muloqot ko‘nikmalari darajasini, balki ularning shaxsiy anglashuvi, ijtimoiy munosabatlari va jamoadagi faolligini ham qamrab oladi. Tahlil jarayonida nazariy model amaliyot bilan taqqoslanadi, natijada muloqotning rivojlanish darajasi aniqlanadi va samarali pedagogik shartlar ilmiy jihatdan asoslanadi.

Birinchidan, kognitiv mezonlar talabalarining muloqot jarayonida bilim va anglashuv darajasini baholaydi. Bu yerda asosiy ko‘rsatkichlar — axborotni tahlil qilish, fikrni mantiqan ifoda etish, dalil keltirish va mulohaza yuritish qobiliyati hisoblanadi. Masalan, onlayn forum yoki debatlarida talabaning fikrining izchilligi va mantiqiy bog‘liqligi kognitiv rivojlanishni ko‘rsatadi.

Ikkinchidan, affektiv mezonlar hissiy munosabat, empatiya, bag‘rikenglik va boshqalar fikriga hurmat kabi shaxsiy holatlarni qamrab oladi. Bu mezonlar talabalarining muloqot jarayonida o‘z his-tuyg‘ularini boshqara olishi, boshqalar hissiy holatiga javob berishi va muloqotda barqaror psixologik muhitni saqlashi bilan belgilanadi.

Uchinchidan, ijtimoiy mezonlar jamoaviy hamkorlik va ijtimoiy anglashuv darajasini ko‘rsatadi. Talabalarining guruh ishlaridagi ishtiroki, javobgarlik hissi, jamoa manfaatini ustuvor qo‘yishi va ixtiloflarni konstruktiv hal etish qobiliyati asosiy baholash ko‘rsatkichlaridir.

To‘rtinchidan, axloqiy mezonlar raqamli muhitdagi muloqotda axloqiy qoidalarga amal qilish, axborot madaniyati va fuqarolik pozitsiyasini saqlash bilan bog‘liq. Bu mezon talabalarining muloqot jarayonida insoniy qadriyatlar: hurmat, mas’uliyat va haqqoniylikka asoslangan munosabatlarini baholaydi.

Beshinchidan, interaktiv mezonlar raqamli muhitda muloqot va hamkorlikning faollashuv darajasini ifodalaydi. Bu ko‘rsatkichlar talaba faolligini,



onlayn muhokama va fidbek jarayonlaridagi ishtirokini, axborot vositalaridan foydalanish samaradorligini aks ettiradi.

Tajriba-sinov ishlariga tayangan holda ana shunday mezonlar orqali muloqot samaradorligini baholash har bir bosqichda rivojlanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Bu jarayonda faqat natija emas, balki shaxsdagi o‘zgarish: muloqot madaniyati, ijtimoiy anglashuv va axloqiy barqarorlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda zamonaviy pedagogika tahlilchisi Dj.Skriven shunday yozgan edi: *“Samaradorlikni baholashning mohiyati — natijaga emas, balki o‘zgarish jarayoniga, ya’ni o‘quvchining qanday rivojlanganiga qarab baholashdir”*. Demak, tajriba-sinov ishlariga tayangan holda ishlab chiqilgan tahlil mezonlari ta’limda muloqotning kognitiv, affektiv, ijtimoiy va axloqiy samaradorligini kompleks baholash, ya’ni insonparvar va faol muloqot muhitining haqiqiy natijasini aniqlashga xizmat qiladi.

Xorijiy va mahalliy tajribalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, raqamli muloqot madaniyatining rivojlanishi nafaqat texnik ko‘nikmalarni, balki aksiologik (qadriyatga asoslangan) va sotsiomadaniy (jamoaviy anglashuv) yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. Bu jarayon talabalarining shaxsiy faolligi, ijtimoiy mas’uliyati va fuqarolik ongini uyg‘un ravishda shakllantirish imkonini bermoqda. Demak, yoshlarda raqamli muloqot madaniyati va hamkorlik kompetensiyalarining rivojlanish tendentsiyalari ta’limning an’anaviy modellaridan insonparvar va interaktiv raqamli pedagogikaga o‘tish jarayonini ifoda etadi. Uning asosida shaxsiy anglashuv, ijtimoiy munosabat va raqamli etikaning uyg‘unligi yotadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda raqamli muhitda muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliy-instrumental mexanizmlari ta’lim jarayonini yangi sifat bosqichiga olib chiquvchi muhim pedagogik yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ldi. Tadqiqotda yoritilgan nazariy va amaliy asoslar raqamli muhitning imkoniyatlaridan foydalangan holda talabalarda shaxsiy faollik, ijtimoiy anglashuv va axloqiy mas’uliyatni uyg‘un rivojlantirishning samarali yo‘llarini ko‘rsatadi.

Kollaborativ ta’lim, fasilitatsiya, kvest va keys usullari, onlayn simulyatsiyalar hamda raqamli platformalarda hamkorlik muhitini modellashtirish orqali talabalar faol subyekt sifatida muloqot jarayonida ishtirok etadi, o‘z fikrini erkin ifoda qiladi va jamoaviy qaror qabul qilish tajribasini egallaydi. Mentorlik va fasilitatorlik faoliyati esa ularning shaxsiy rivojlanishini, jamoa bilan ishlash ko‘nikmasini va fidbek orqali o‘z faoliyatini refleksiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Demak, raqamli muhitda muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishning amaliy mexanizmlari ta’limni faqat axborotni o‘zlashtirish jarayoni emas, balki shaxsiy o‘sish, ijtimoiy anglashuv va fuqarolik madaniyatini rivojlantiruvchi qadriyatga asoslangan pedagogik tizim sifatida qayta qurish imkonini yaratadi.

Raqamli muhitda yoshlarning muloqot va hamjihatlik kompetensiyalarini shakllantirishda qo‘llanilgan pedagogik model kognitiv, affektiv va ijtimoiy faoliyat



komponentlarini uyg'unlashtirgan tizimli asosda takomillashtirildi. Modelning markaziy qismi sifatida “interaktiv muloqot maydoni” va “refleksiv anglashuv fazosi” elementlari orqali yoshlarda fikr almashish, empatiya va ijtimoiy anglashuvni shakllantirish imkoniyati yaratildi. Bu model ta'lim muhitini jamoaviy anglashuv va shaxsiy faollikni uyg'unlashtiruvchi faol makonga aylantirdi.

Axloqiy anglashuv, ijtimoiy idrok va axborot madaniyatini uyg'unlashtiruvchi pedagogik mexanizmlar tizimi yoshlarda muloqot madaniyatini rivojlantirishning nazariy va amaliy asosini tashkil etdi. Bu mexanizmlar yoshlarning axloqiy qaror qabul qilish, ma'lumotni tanlash va qayta ishlashda ongli munosabatda bo'lish, jamoaviy anglashuvda ishtirok etish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi. Shu orqali ta'lim jarayonida axborot madaniyati va ijtimoiy mas'uliyat uyg'un ravishda namoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29-apreldagi PF-5712-son “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 29.04.2019 y., 06/19/5712/3034-son.
Umuman olganda, tadqiqot natijalari badiiy gimnastikachilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy trenajyorlar, innovatsion mashg'ulot vositalari hamda koordinatsion mashqlardan foydalanish muvozanatni rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Bunday yondashuv sportchilarning texnik



tayyorgarligini oshirish, murakkab elementlarni sifatli bajarish hamda umumiy sport natijalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Shu sababli badiiy gimnastika mashgʻulotlarida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodikalarni keng qoʻllash sportchilarning funksional imkoniyatlarini rivojlantirish, muvozanatni takomillashtirish va yuqori sport natijalariga erishishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

Bunday vositalar sportchilarning:

1. Vestibulyar apparatini rivojlantiradi;
2. Mushaklararo koordinatsiyani yaxshilaydi;
3. Tananing barqarorligini oshiradi.

Ayniqsa BOSU platformasi va stabilizatsiya trenajyorlari yordamida bajarilgan mashqlar sportchilarning statik va dinamik muvozanatini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Shuningdek, mashgʻulot jarayoniga oʻyin elementlarini kiritish ham yosh gimnastikachilar uchun muvozanat mashqlarini qiziqarli va samarali qiladi. Tadqiqot zamonaviy vositalar yordamida muvozanatni rivojlantirish samaradorligini baholash imkonini beradi, badiiy gimnastikachilarni tayyorlash jarayonini optimallashtiradi.

Xulosa. Badiiy gimnastikachilarni tayyorlash jarayonida muvozanatni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatdiki, zamonaviy vositalardan foydalanish muvozanat koʻrsatkichlarini sezilarli darajada oshiradi. Shu sababli sport mashgʻulotlarida muvozanat platformalari, stabilizatsiya trenajyorlari mashqlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, zamonaviy mashgʻulot vositalaridan foydalanish sportchilarning tayanch-harakat apparatini mustahkamlash, mushaklarning stabilizatsion faoliyatini kuchaytirish va murakkab gimnastik elementlarni bajarishda harakat aniqligini oshirishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Mashgʻulot jarayonida bunday vositalarni tizimli ravishda qoʻllash sportchilarning funksional imkoniyatlarini kengaytirib, ularning texnik tayyorgarligini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov X.A. Tanlangan sport turi boʻyicha mutaxassislikka kirish (gimnastika): oʻquv qoʻllanma. – Toshkent: Oʻzbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti, 2019. – 120 b.
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - Ташкент, 2020.
3. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. - Киев: Олимпийская литература, 2015.
4. Аркаев Л.Ю., Сучилин Н.Г. Как готовить чемпионов. Москва: Физкультура и спорт, 2016.



5. Сосина В.Ю. Ритмическая гимнастика: теория и методика подготовки.
- Москва: Спорт, 2017.

6. Гавердовский Ю.К. Гимнастические упражнения и методика их
обучения. - Москва: Физкультура и спорт, 2014.

BASKETBOL O‘YINI DAVOMIDA TO‘PNI TO‘G‘RI UZATISH QOIDALARI

Amirqulov Otabek Ismoilovich

Katta o‘qituvchi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

o.amirqulov72@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada, jamoaviy sport turlaridan hisoblangan basketbol sport turi bilan shug‘ullanuvchi yosh basketbolchilarning yuqori natijalarni qo‘lga kiritishida ularning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarliklari orqali harakat tezkorligini rivojlantirib borishga asosiy e‘tiborni qaratish dolzarbligi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Yosh basketbolchilarning harakat tezkorligini rivojlantirish usullari hamda vazifalarni hal etish yo‘llariga alohida e‘tibor berilgan. Jumladan: bolalar-o‘smirlar sport maktablari boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanayotgan basketbolchilarida keskin harakatlarda muvozanatni, kutilmagan vaziyatlardagi murakkab reaksiyada harakat tezkorligini rivojlantiruvchi mashqlarni mashg‘ulotlaridan foydalanib harakat tezkorligini rivojlantirish muammolarni o‘rganish, harakat tezkorligini oshirishga qaratilgan mashqlar majmuasi ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Basketbol vositalari, yosh sportchilar, mashg‘ulot jarayoni, mashqlar majmuasi, jismoniy sifatlar, tezkorlik, tezkor kuch, individual imkoniyatlar, shaxsiy sifatlar.

Аннотация: В данной статье представлена информация о важности сосредоточения внимания на развитии быстроты движений посредством общей и специальной физической подготовки юных баскетболистов, занимающихся баскетболом, который считается командным видом спорта, для достижения высоких результатов. Особое внимание уделено методам развития быстроты движений юных баскетболистов и способам решения задач. Например, для баскетболистов детско-юношеских спортивных школ на начальном этапе подготовки разработан комплекс упражнений, направленный на совершенствование скорости движений, с использованием упражнений, развивающих равновесие при резких движениях, быстроту движений в сложных реакциях в неожиданных ситуациях.

Ключевые слова: Баскетбольная экипировка, юные спортсмены, тренировочный процесс, комплекс упражнений, физические качества,



быстрота, быстрая сила, индивидуальные возможности, личностные качества.

Abstract: *This article provides information about the importance of focusing on the development of quickness of movement through general and special physical training of young basketball players who play basketball, which is considered a team sport, to achieve high results. Special attention is paid to the methods of developing the speed of movement of young basketball players and the ways of solving tasks. For example, a complex of exercises aimed at improving the speed of movement has been developed, using exercises that develop balance in sudden movements, quickness of movement in complex reactions in unexpected situations for basketball players of children-adolescent sports schools at the initial training stage.*

Key words: *Basketball equipment, young athletes, training process, exercise complex, physical qualities, quickness, quick strength, individual capabilities, personal qualities.*

Kirish. Mamlakatimiz sportini rivojlantirish sohasida tubdan o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz jismoniy tarbiya va sportning kelajak avlodni sog‘lom qilib tarbiyalashdagi o‘rnini xisobga olib, sport ishlarini yanada takomillashtirish, uning zamon talablari darajasida o‘quv va moddiy-texnik bazasini yaratish xamda aholining sportga bo‘lgan qiziqishini oshirish yo‘lida maqsadli davlat miqyosidagi tadbirlar ishlab chiqilib hayotga tadbiq etilmoqda. Chunki sport millatning o‘zligini anglashda uning aniq maqsadlari sari jipslashuvida va birlashuvida, o‘zidagi bor salohiyatini hamda millat sifatidagi qudratini, jahon uzra namoyon etmoqda. Yuksak sport yutuqlarining mavqiyi musobaqalarda raqobatchilikning keskinlashishi hamda mamlakat terma jamoalari sportchilari avlodlarining ommalashishi qonuniy jarayoni hozirgi davrda sport tanlovi va istiqbolli yoshlarni tayyorlash ilmiy-asoslangan asoslarini takomillashtirish zarurligini belgilab beradi.

Adabiyotlar tahlili. Basketbol sport o‘yini jismoniy tarbiya tizimida muhim o‘rin tutadi. Ushbu soha bo‘yicha ko‘plab olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Jumladan, R.S.Salomov o‘zining jismoniy tarbiya nazariyasi haqidagi ishlarida sport o‘yinlari, xususan basketbol o‘yinining yoshlar jismoniy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Uning fikricha, basketbol chaqqonlik, tezkorlik va chidamlilik kabi jismoniy sifatlarni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shuningdek, A.A.Abdullayev jismoniy tarbiya metodikasi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida basketbol mashg‘ulotlarini to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning harakat faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib o‘tgan.

Sh.A.Xonkeldiyev esa o‘z ilmiy ishlarida sport o‘yinlari orqali yoshlarning jismoniy va irodaviy sifatlarini shakllantirish mumkinligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, basketbol jamoaviy o‘yin sifatida hamkorlik, tez qaror qabul qilish va



taktika qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bundan tashqari, A.T.Usmonxo‘jayev va boshqa olimlar sport o‘yinlarini o‘qitish metodikasida basketbolning texnik va taktik elementlarini o‘rgatish muhimligini qayd etganlar. Yuqoridagi adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, basketbol nafaqat sport turi, balki yoshlarning jismoniy rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ma‘lumki, uzatish – bu uchish yordamida hujumni davom ettirish uchun o‘yinchi to‘pni sherigiga yo‘naltirilgan malakadir. To‘pni to‘g‘ri va aniq uzatishni bilish – o‘yinda basketbolchilarning birgalikdagi aniq, maqsadga yo‘naltirilgan xarakterlarining asosidir. To‘pning har xil uslublari bor. Ularni u yoki bu o‘yin holati, to‘pni uzatish lozim bo‘lgan oraliq, sherigining joylashishi yoki harakat yo‘nalishi raqiblarining qarshi harakat uslublari va xarakteriga qarab qo‘llaniladi.

Preferik ko‘rish, qo‘l harakatlarning tezligi, tadbirkorlik, aniq va taktik fikrlash – to‘pni xatosiz uzata oladigan basketbolchilarni xarakterlovchi sifatlardir.

Uzatishning uslublari bajarish tezligi va aniqligi ma‘lum darajada panja va barmoqlarining usulni asosiy qismida juda tez ishlashiga bog‘liq. To‘pni uzatishda asosan panja va barmoqlar bilan harakat qilish kerak, o‘shanda uzatish yo‘nalishini aniqlash raqibga qiyin bo‘ladi. To‘pni qabul qilayotgan sherikni ko‘rish kerak, lekin unga qarab turmaslik lozim. Uzatish paytida muvozanat holatini saqlash lozim, bo‘lmasa uzatishga mo‘ljallangan yo‘nalish raqib tomondan to‘siq yo to‘p olib qo‘yilishi mumkin, o‘yinchi esa behtiyor xato “yugurish” qilib qo‘yadi (uchinchi qadam qo‘yadi yoki joyidan siljiydi).

Tahlil va natijalar. To‘pni ko‘krakdan ikki qo‘l bilan uzatish – nisbatan oddiy o‘yin paytida, raqibning ta‘qibi bo‘shroq bo‘lganda, to‘pni yaqin va o‘rta masofadagi sherigiga aniq va tez yo‘naltirishga imkon beruvchi asosiy usuldur.

Tayyorlov qismi – barmoqlari yoyilgan panja bel balandligi to‘pni erkin ushlab turadi. Tirsaklar bir oz bukilgan. Qo‘llarning aylana harakati bilan to‘pni ko‘krakga tortadi.

Asosiy qism – to‘p qo‘llarni oxirigacha tez tog‘rilash bilan oldinga yuboriladi, orqaga aylanish harakatini beruvchi panjalar harakati bilan to‘ldiradi.

Yakunlovchi qism: to‘pni uzatgandan keyin qo‘llarni bo‘sh tushiriladi, o‘yinchi to‘g‘rilanadi, so‘ng esa bir oz oyoqlarni bukilgan holatga qaytadi (shunday yakunlovchi qism uzatishning boshqa usullariga ham xos). Agar raqib to‘pni ko‘krak balandligida uzatishga halaqit bersa, unda to‘pni shunday yuborish mumkinki, u sherigi yaqinidagi maydonga urilib, to‘g‘ri unga sapchishi mumkin. To‘pning tez sapchishi uchun unga ba‘zan oldiga aylanma harakat berishadi. Bunday uzatish paytida oyoqlarni ko‘proq bukish, qo‘llarni esa to‘p bilan oldinga-pastga yo‘naltirish lozim.



Yuqoridan ikki qo‘llab uzatishdan ko‘proq raqib zich himoya qilayotgan paytida o‘rtacha masofalarda foydalaniladi. To‘pning bosh ustidagi holati uning o‘yinchi o‘z sherigiga himoyachi qo‘llarni ustidan aniq uzatishga imkoniyat beradi. Tayyorlov qismi: o‘yinchi to‘pni bir oz bukilgan qo‘llari bilan bosh ustiga ko‘taradi va uni bosh orqasiga o‘tkazadi. Asosiy qism: o‘yinchi keskin qo‘l harakatlari bilan, ularni tirsak bo‘g‘inlarida rostlab va panjalari bilan tez siltash harakat qilib, to‘pni sherigiga yo‘naltiradi.

Yelkadan bir qo‘llab uzatish to‘pni yaqin va o‘rta masofaga uzatishda qo‘llaniladigan usuldir. Bunda uzatish uchun eng oz vaqt ketadi va to‘pni yaxshi nazorat qilinadi. To‘pning uchib chiqish vaqtidagi panjalarning qo‘shimcha harakati o‘yinchiga yo‘nalish va katta diapazonda to‘pning uchish trayektoriyasini o‘zgartirishga imkon beradi.

Tayyorlov qismi: qo‘lni to‘p bilan o‘ng yelkaga olib borishdi (o‘ng qo‘l bilan uzatishda to‘p o‘ng qo‘l panjasida turadi va ushlash uchun chap qo‘l bilan yo‘rdam beriladi, tirsak ko‘tarilmasligi kerak. Shu bilan bir vaqtda o‘yinchi o‘ng tomonga buriladi.

Asosiy qism: to‘p o‘ng qo‘lda, uni tez rostlashadi va shu zahoti panja bilan siltash harakatlari va gavda burilishini bajariladi.

Yakunlovchi qism: to‘p uchib chiqqandan keyin o‘ng qo‘lda uni biron (lahza) kuzatib qo‘yadi, so‘ngra pastga tushirishadi. O‘yinchi bir oz bukilgan oyoqlarda muvozanat holatiga qaytadi.

Yuqoridan bir qo‘llab “kryuk” usuli bilan uzatish qattiq ta‘qib qilinayotgan raqibning ko‘tarilgan qo‘llari ustidan to‘pni o‘rta va ayniqsa uzoq masofaga yuborish kerak bo‘lgan vaqtda qo‘llaniladi (16-rasm).

Tayyorlov qismi: o‘yinchi yoni bilan uzatib berish yo‘nalishiga tomon buriladi, qo‘lidagi to‘pni orqa-yon tomonga o‘tkazadi – to‘p kaftda yotadi va barmoqlar bilan ushlab turiladi. O‘yinchi ancha oldinga chiqargan boshqa qo‘li bilan uni ta‘qib qilayotgan raqibdan uzoqlashadi.

Asosiy qismi: kaftda yotgan to‘pni keskin bosh ustiga oshirib, panjalarini yoyib sherigiga yo‘naltirish.

Pastdan bir qo‘llab uzatish: yaqin va o‘rtacha masofalarga, raqib to‘pni yuqoriga tutib olishga zo‘r berib harakat qilgan paytda bajariladi. To‘pni sherigiga raqibning qo‘l ostidan yo‘naltirishadi. Tayyorlov qismi: to‘g‘ri yoki bir oz bukilgan qo‘lni to‘p bilan orqaga o‘tkaziladi, to‘p kaftda yotadi, barmoqlar bilan va markazdan qochiradigan kuch tufayli ushlab turiladi. Asosiy qism: qo‘lni to‘p bilan sonni yonidan oldinga-yuqoriga chiqariladi. To‘pning uchib chiqishi uchun panja yoyiladi va barmoqlar uni itarib yuboradi. Tayyorlov qism: qo‘lni to‘p bilan o‘ng yelkaga olib boriladi, o‘ng qo‘l bilan uzatishda to‘p o‘ng qo‘l panjasida turadi va ushlash uchun chap qo‘l bilan yordam beriladi, tirsak ko‘tarilmasligi kerak. Shu bilan bir vaqtda o‘yinchi o‘ng tomonga buriladi.



Xulosa. Basketbol — tezkorlik, aniqlik va jamoaviy hamkorlikni talab qiladigan sport turidir. O‘yinda g‘alaba qozonish uchun o‘yinchilar bir-birini yaxshi tushunishi va to‘g‘ri taktika qo‘llashi kerak. Ayniqsa, to‘pni uzatish (pas berish) o‘yinining muhim qoidalaridan biri hisoblanadi. O‘yinchilar to‘pni jamoadoshlariga ko‘krakdan uzatish, yerga urib uzatish yoki yuqoridan uzatish kabi usullar orqali yetkazadilar. To‘pni uzatishda aniqlik, tezlik va to‘g‘ri vaqtni tanlash juda muhim, chunki noto‘g‘ri uzatma raqib jamoaga to‘pni yo‘qotishga olib kelishi mumkin. Shu sababli basketbol nafaqat jismoniy kuchni, balki diqqat, tez fikrlash va jamoaviy uyg‘unlikni ham rivojlantiradi. Natijada basketbol yoshlar uchun sog‘lom turmush tarzini shakllantiradigan va do‘stlikni mustahkamlaydigan sport turi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev A.A. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi*. Toshkent: O‘qituvchi, 2015.
2. Salomov R.S. *Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati*. Toshkent: O‘qituvchi, 2014.
3. Xo‘jayev F. *Sport o‘yinlari va ularni o‘qitish metodikasi*. Toshkent, 2016.
4. Xodjayev B. X. *Sport pedagogikasi*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2017.
5. Karimov M.M. *Basketbol o‘yinining nazariyasi va metodikasi*. Toshkent, 2018.
6. Xonkeldiyev Sh.A. *Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi*. Toshkent, 2019.
7. Usmonxo‘jayev A.T. *Sport o‘yinlari*. Toshkent: O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti nashriyoti, 2020.

FUTBOLCHILAR ORGANIZMINING MORFOFUNKSIONAL XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH

Hakimov Dilshod Qo‘qonovich

Katta o‘qituvchi

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

xakimovd@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada yosh futbolchilar bilan olib boriladigan sport tayyorgarlik jarayonlarini rejalashtirish va boshqarish, ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida qurilmaviy, blokli-modulli rejalashtirishning zamonaviy yondashuvlari aniqlashtirilgan. Trenirovka jarayonlarini tashkil etish bo‘limlarga bo‘lib tayyorlov jarayonlarini tashkillashtirish, blook-modulli orqali yillik siklni rejalashtirish va shunga asosan jismoniy sifatlarni takomillashtirish jarayonini davom ettirish ko‘zda tutilgan.



Kalit soʻzlar: Sport tayyorgarlik, trenirovka jarayoni, funksional tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, trenirovka jarayoni bosqichlari, trenirovka jarayonlarining siklli qurilmasi, tayrgarlik davri, musobaqa davri, oʻtish davri.

Аннотация: В статье описаны современные подходы к планированию и управлению процессами спортивной подготовки юных футболистов, структурное, блочно-модульное планирование на многолетних этапах подготовки. Планируется организация тренировочных процессов путем разделения тренировочных процессов на секции, планирования годичного цикла через блок-модули и, исходя из этого, продолжения процесса за счёт совершенствования физических качеств.

Ключевые слова: Спортивная подготовка, тренировочный процесс, физическая подготовка, этапы тренировочного процесса, цикличность тренировочного процесса, подготовительный период, соревновательный период, переходной период.

Abstract: The article describes the modern approaches of planning and management of sports preparation processes with young football players, structural, block-module planning in multi-year training stages. It is planned to organize the training processes by dividing the training processes into sections, planning the annual cycle through block-modules and, based on this, continuing the process by improving physical qualities.

Keywords: Sports training, training process, functional training, physical training, stages of training process, cycle device of training processes, training period, competition period, transition period.

Kirish. Bugungi kunda futbol sport turi – jismoniy tarbiya va shaxs rivojlanishining samarali va koʻp qirrali vositalaridan biriga aylanmoqda. Futbol sport turi bilan shugʻullanish organizmning koʻplab muhim tizimlariga samarali taʼsir koʻrsatadi va ularni yuqori darajada takomillashtiradi. Shu sabablarga koʻra futbol koʻplab mamlakatlarning jismoniy tarbiya tizimida salmoqli oʻringa ega. Futbol BOʻSM lar (Bolalar oʻsmirlar sport maktabi), umumtaʼlim maktablari, oliy oʻquv yurtlarining jismoniy tarbiya fani dasturlariga kiritilgan. Jismoniy madaniyat jamoalari sport seksiyalari va harbiy boʻlinmalarda futbol sport turi bilan doimiy shugʻullanishadi. Futbol sport turi yopiq va ochiq sport maydonlarida koʻplab ommaviy-sport tadbirlarida faol dam olish va hordiq chiqarish vositasi sifatida qoʻllaniladi, bu esa kam harakatli turmush tarziga ega odamlar uchun huzur-halovat bagʻishlaydi.

Malakali futbolchilarning koʻp yillik tayyorgarligi darajasi koʻp jihatdan sport mahoratining shakllanish qonuniyatlari bilan belgilanadi. Muayyan sport turi, ayniqsa, futbolda musobaqa faoliyatining tuzilishi va samaradorligini belgilovchi omillar, mashgʻulotlar va musobaqalar jarayonida asosiy yukni oladigan funksional tizimlar va mexanizmlarning moslashish qonuniyatlari sportdagi natijalarning oʻsish



sur’atlarini oldindan belgilab qo’yadi. Futbolda ko‘p yillik tayyorgarlik tuzilmasining u yoki bu varianti amalga oshirilishi bir qator sabablarga, birinchi navbatda, bolalar sport bilan shug‘ullanishni boshlagan yoshga, takomillashuvning birinchi bosqichlaridagi tayyorgarlik xususiyatlariga bog‘liq. Mutaxassislarning fikricha, bu o‘rinda biologik rivojlanishning muhim chegaralarini (3-4 yoshgacha) aniqlab beruvchi biologik yyetilish sur’atlaridagi farqlar katta ahamiyat kasb etadi.

Murabbiylar futbol bilan shug‘ullanishni boshlagandan 7-10 yil o‘tib (ayollar 17-20 yoshda, erkaklar 18-22 yoshda) yuqori natijalarga erishishini ta’kidlaydilar. Bunda ko‘p yillik tayyorgarlikning an’anaviy tuzilmasiga bazaviy omil sifatida qarash mumkin, natijalarning yanada o‘shish istiqbollari esa ko‘p jihatdan muayyan sportchining xususiyatlariga ko‘proq mos keladigan ko‘p yillik mashg‘ulot tuzilmasining ajratib olingan tipik variantlaridan birini amalga oshirishga bog‘liq. Ko‘p yillik mashg‘ulotlar tuzilmasining turli variantlarida sport mahoratining shakllanish xususiyatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar muhim sanaladi. Sport takomillashuvining turli bosqichlarida futbolchilarning ko‘p yillik mashg‘ulotlari jarayonini tabaqalashtirish va individuallashtirish asosiy mo‘ljallanishi bo‘lishi lozim. Ular muayyan futbolchidagi mahoratning shakllanishi va organizmning anatomik-fiziologik xususiyatlari moslashish imkoniyatlari bilan taqqoslangan holda xolisona baholash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili sport natijalarining o‘shish dinamikasida to‘liq namoyon bo‘luvchi uzoq muddatli moslashishning shakllanish sur’atlari futbolchilarning jinsiga qarab bir-biridan tubdan farq qilishini ko‘rsatadi. Ayniqsa, bu farq muhim jismoniy sifat hisoblangan tezkor-kuch sifatini takomillashtirish jarayonida ko‘zga tashlanadi.

Futbolda sport natijalarining muntazam o‘shib borishi organizmning mavjud zaxirasidan hali oxirigacha foydalanilmaganidan dalolat beradi. Oxirgi paytlarda sportchilarning tezkor-kuch tayyorgarligi darajasini e’tiborga olgan holda ularning texnik-taktik mahoratlarini oshirish borasida yangi yo‘nalishlarni izlab topishga yo‘naltirilgan, bunda futbol bo‘yicha jamoalar bilan ishlovchi yetakchi murabbiylarning tajribasini o‘rganishga asoslangan tadqiqotlar yuzaga kelmoqda.

Futbol sohasidagi tadqiqotchilar yil davomida eng yuqori darajadagi tayyorgarlik holatining shakllanish dinamikasi ko‘pgina sabablarga bog‘liq ekanini qayd etadilar. Bu haqda fikr yuritganda, sportchilarning individual xususiyatlarni aytish zarur: mushak to‘qimalarining tuzilishi; dastlabki, irsiy oldindan belgilangan; qon aylanishi va nafas olish tizimlarining imkoniyatlari darajasi; aerob va anaerob ish unumdorligi; moslashish reaksiyalarining harakatchanligi; qayta moslashishga bo‘lgan barqarorlik; saqlab qolingani moslashish zaxirasi va boshqalar. Yillik tayyorgarlik tuzilishi tizimi – umumiy struktura, yilning turli oylaridagi mashg‘ulot yo‘nalishlari, tayyorgarlik vositalari va metodlarining taqsimoti, musobaqalar jadvali va turli musobaqalarga bevosita tayyorgarlikni tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega.



Tadqiqot metodologiyasi. Ma’lumki, futbolchilar rejalashtirilgan natijalarga erishish uchun zarur bo’lgan uzoq muddatli moslashish reaksiyalarining takomillashuvi yil davomida bosqichma-bosqich sport mashg’ulotlari jarayonida, shuningdek, alohida mikrosikllarda shakllanib boradi. Bu qator omillarga bog’liq: birinchidan, qo’zg’atuvchilar ma’lum hajmda va ularning muayyan vaqt ichida jamlanishi optimal bo’lgan sharoitlardagina samarali moslashadi. Ikkinchidan, turli xil qo’zg’atuvchilarga nisbatan moslashish geteroxron tarzda kechishi lozim. Xususan, tayyorgarlikning tarkibiy qismlariga qaraganda skelet mushaklari yoki yurak mushaklarining funksional imkoniyatlari o’zgarishiga tezroq erishish mumkin. Futboldagi ayrim taniqli mutaxassislarning nuqtayi nazarini ham diqqatga sazovor hisoblanadi. Ularning fikricha, ayrim organlar va tizimlarning moslashish imkoniyatlarining o’sishi funksional tizimning harakat qobiliyatlarini yaxlit namoyon qilishga bo’lgan uzoq muddatli moslashish uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. Harakat qobiliyatlari, o’z navbatida, organizmning samarali musobaqa faoliyatiga qo’yiladigan talablarga moslashish samaradorligini belgilab beradi. Bu sportchilarning mashg’ulot ta’siri omillariga bo’lgan uzoq muddatli moslashish pog’onaliligini va yillik mashg’ulot jarayonining har xil tuzilmalarini yoki alohida mirosiklni tuzish jarayonida uning moslashish reaksiyalarini boshqarish juda qiyinligini belgilab beradi.

Biroq shuni yodda tutish kerakki, har xil ampuadgi futbolchilarning moslashish reaksiyalari hamda tayyorgarliklari darajasi samaradorligi yuklama dinamikasiga, sportchilar malakasiga mosligiga, tayyorgarligiga, turli xil qo’zg’atuvchilarga nisbatan moslashish reaksiyalarini shakllantirish nuqtayi nazaridan funksional tizimlarning reaktivligiga bog’liq.

Tahlil va natijalar. Alohida mashg’ulot makrosiklida yuqori malakali futbolchilarda sport natijalariga yuqori darajada tayyorgarlik holatini ta’minlovchi moslashish reaksiyalari kompleksining shakllanishi uchun ma’lum bir vaqt kerak bo’ladi. Sportchilar tayyorgarligining optimal tuzilmasida namoyon bo’luvchi sport turining o’ziga xos xususiyati yuqori natijalarga erishish uchun turli xil sifatlar va qobiliyatlarga bog’liq. Sportchilarning individual xususiyatlari uzoq muddatli moslashishning shakllanish sur’atiga va moslashish reaksiyalarining belgilangan darajasi shakllanishi uchun kerak bo’ladigan ish hajmiga jiddiy ta’sir qiladi.

Sportga oid ilmiy-metodik va maxsus adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ayollarda erkaklarga qaraganda yurak vazni va hajmi kichik, miokard qalinligi, chap qorinchaning so’nggi sistolik va diastolik hajmi, qon hajmining sistolik va minutlik hajmi, diastola davomiyligi kamroq, lekin qonni haydash fazasi ularda erkaklarga nisbatan uzoqroq davom qiladi. Ayollarda qonning minutlik hajming o’sishi sistolik hajm ortishi hisobiga emas, ko’proq yurak qisqarishining kamayishi hisobiga sodir bo’ladi. Qonning minutlik hajmi oshishining bu mexanizmi tejamkor emas va ayollarda erkaklarga nisbatan yurak qon-tomir tizimining funksional imkoniyatlari kamroq ekanligini ko’rsatadi. Undan tashqari,



aylanayotgan qon massasi, eritrotsitlar miqdori va ularning umumiy maydoni, qondagi gemogloblin miqdori ayollarda erkaklarga nisbatan kam bo‘ladi.

Saralash paytida bolalarning qobiliyatlari ham bir xil yorqin ifodalangan bo‘lmaydi. Bu, birinchi galda, ularning harakat rejimi, o‘shish sur‘atlari, ijtimoiy va boshqa omillarning bir–biridan farq qilishi bilan bog‘liq.

7-8 yoshli futbolchilarni boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga saralashda jismoniy sifatlarning rivojlanish darajasini aniqlash uchun reaksiya vaqti va vaziyatga muvofiq texnik harakatlarda tanlab reaksiya qilish vaqtini baholash mezonlarining nazariy modeli takomillashtirildi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

7-8 yoshli iqtidorli futbolchilarning jismoniy sifatlarini aniqlash uchun baholash mezonlari nazariy modeli

Maxsus sifatlار	Maxsus xususiyatlar, qobiliyatlarning namoyon bo‘lishi	Mezonlar, testlar, uslubiyatlar
Tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik	Harakat tezkorligi va reaktivlikni oshirish	Yurib turib 20 m. ga yugurish Yuqori startdan 30 m. ga yugurish
	Harakat chaqqonligi va reaktivlikni oshirish	3x10 m. ga mokisimon yugurish
	Harakat chidamkorligini oshirish	6 daqiqalik yugurish
Tezkor-kuch	Havoda to‘p uchun kurashish va zarba berish	Turgan joydan balandlikka sakrash Turgan joydan uzunlikka sakrash
	Harakatda qisqa vaqt ichida to‘p uchun kurashish	Chalqancha yotgan holda gavdani ko‘tarish
	To‘pni o‘yinga kiritish va sherigiga uzatish (maydon o‘yinchisi, darvozabon)	Bukilgan qo‘llarda turnikda osilib turish To‘ldirma to‘pni (1 kg) ikkala qo‘lda bosh orqasidan oldinga otish
Oyoqlarning reaksiya vaqti	To‘pni qabul qilish	Havoda to‘pni nazorat qilish (to‘p o‘ynatish)
	Qisqa vaqt ichida to‘pni darvozga tepish va sherigiga uzatish	To‘pni o‘ng va chap oyoqda uzoqqa tepish
	To‘pni his etish, texnik harakatlarda qisqa vaqt ichida to‘pni boshqarish	To‘pga uch marta tegish bilan 30 m masofaga olib yurish

Yosh futbolchilarni mashg‘ulotlarning boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida saralab olish jarayonida sportchilarning jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari, jismoniy sifatlarini rivojlantirishning sensitiv davrini inobatga olgan holda tananing harakat tezligi hamda gavda mushaklarining statik muvozanatini yaxshilashning yosh ko‘rsatkichlari hamda boshlang‘ich tayyorgarlik



bosqichiga sportchilarni saralash jarayonida jismoniy sifatlarning jadallik bilan rivojlanish davrlari ishlab chiqildi.

2-jadval

7-8 yoshdan futbolchilarni saralashda jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun qulay yosh davrlari (Sh.S.Ermatov bo'yicha)

Antropometrik ko'rsatkichlar va jismoniy sifatlar	Yoshi	
	7	8
Tezlik	+	+
Tezkor-kuch sifatlari		+
Kuch		+
Chidamlilik	+	+
Anaerob imkoniyatlar	+	+
Egiluvchanlik	+	+
Koordinasion qobiliyatlar	+	+
Muvozanat saqlash		+

8 yoshdagi futbolchilarning 12 ta jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ko'rsatkichlarini tahlil qilib chiqdik. Yurib turib 20 m. yugurishda tajriba guruhida bu ko'rsatkich $3,2 \pm 0,3$ sek., nazorat guruhida $3,4 \pm 0,4$ sek. ni tashkil etdi [$t=2,2$; $P<0,05$]. Startdan 30 m. ga yugurishda tajriba guruhida ko'rsatkich $5,8 \pm 0,1$ soniya, nazorat guruhida $6,0 \pm 0,3$ soniyani tashkil etdi [$t=2,17$; $P<0,05$]. Bu ikkita ko'rsatkich bo'yicha statistik farqlar bor. Turgan joydan uzunlikka sakrashda tajriba guruhida natija $134,7 \pm 11,7$ sm., nazorat guruhida $130,5 \pm 12,4$ sm. ni tashkil qildi [$t=2,11$; $P<0,05$]. Turgan joydan balandlikka sakrashda tajriba guruhida $24,3 \pm 1,7$ sm., nazorat guruhida esa $22,8 \pm 1,4$ sm. ni tashkil etdi [$t=2,18$; $P<0,05$] va ushbu ko'rsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar aniqlandi. Xususan, 3×10 m. mokisimon yugurish shuni ko'rsatadiki, tajriba guruhida $9,7 \pm 0,7$ soniya, nazorat guruhida $10,1 \pm 0,8$ soniya natija qayd etildi [$t=2,15$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida ham statistik ishonchli farqlar borligi aniqlandi. 6 daqiqalik yugurish natijasi tajriba guruhida $711,6 \pm 37,4$ m, nazorat guruhida $698,4 \pm 40,6$ m. ni tashkil etdi, bu tajriba hamda nazorat guruhlari orasida statistik ishonchli farqlarni aniqlab berdi [$t=2,34$; $P<0,05$]. To'ldirma to'pni (1kg) ikkala qo'lda bosh orqasidan oldinga otish testida tajriba guruhida $8,4 \pm 1,2$ m., nazorat guruhida $8,0 \pm 1,5$ m. natija qayd qilindi [$t=2,21$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida statistik farqlar aniqlandi. Chalqancha yotgan holda gavdani ko'tarish testida tajriba guruhida $26,7 \pm 1,3$ marta, nazorat guruhida esa $24,2 \pm 1,4$ marta natija qayd etildi [$t=2,17$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar kuzatildi.

Bukilgan qo'llarda turnikda osilib turish mashqida natija tajriba guruhida $19,5 \pm 1,7$ soniya, nazorat guruhida $17,6 \pm 1,6$ soniyani tashkil qildi [$t=2,12$; $P<0,05$], ko'rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar aniqlandi. To'pni havoda nazorat



qilish (to‘p o‘ynatish) tajriba guruhida $7,4 \pm 1,7$ marta, nazorat guruhida $7,0 \pm 1,5$ marta bajarildi [$t=2,23$; $P<0,05$] ko‘rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar kuzatildi. O‘ng oyoqda to‘pni uzoqqa tepish mashqida tajriba guruhi bolalarida natija $22,3 \pm 1,2$ metr, chap oyoqda $18,8 \pm 0,9$ metrni tashkil etdi. Nazorat guruhida o‘ng oyoda – $19,7 \pm 1,3$ metr, chap oyoqda – $16,2 \pm 0,8$ metr. Statistik farqlar quyidagicha [$t=2,19$; $P<0,05$] va [$t=2,25$; $P<0,05$], bu ushbu ko‘rsatkichlar orasida statistik ishonchli farqlar aniqlanganligidan dalolat beradi. To‘pga uch marta tegish bilan 30 m. ga olib yurish mashqi quyidagi ko‘rsatkichlarni aniqlab berdi: tajriba guruhida $7,9 \pm 0,65$ sek., nazorat guruhida $8,2 \pm 0,8$ sek. ni tashkil etdi, ushbu ko‘rsatkichlar orasida ishonchli statistik farqlar aniqlandi [$t=2,31$; $P<0,05$].

7 va 8 yoshdagi yosh futbolchilarning tajriba boshidagi jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlarining statistik tahlili TG hamda NG lariga taxminan bir xil tayyorgarlikka ega bolalar tanlab olinganligini ko‘rsatdi, bu bizga maqsadli pedagogik tajriba o‘tkazish imkoniyatini berdi ($P>0,05$). 7 yoshli bolalar guruhida pedagogik tajriba oxirida jismoniy rivojlanish bo‘yicha 8 ta ko‘rsatkichda ($P<0,05$) va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha 7 ta ko‘rsatkichda ($P<0,05$) statistik ishonchli farqlar kuzatildi. 8 yoshli bolalar orasida jismoniy rivojlanish bo‘yicha 6 ta ko‘rsatkichda ($P<0,05$) va jismoniy tayyorgarlik bo‘yicha 12 ta ko‘rsatkichda ($P<0,05$) ishonchli statistik farqlar qayd etildi.

Olingan natijalardan kelib chiqib, futbol vositalari yordamida kasbiy ko‘nikmalar hamda qobiliyatlarni hosil qilish va shakllantirish masalalarini o‘rganish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Xulosa. Talabalarni futbol sport turiga saralab olish biz tomonimizdan tuzib chiqilgan uslublar asosida amalga oshirildi. Bunda nazorat va tajriba guruhlarining o‘quv rejaları pedagogik tajriba vazifalariga muvofiq birbiridan farq qiladi.

Yosh futbolchilarni saralash samaradorligini oshirish uchun pedagogik kuzatuv davomida to‘p bilan bajariladigan elementlarni o‘rgatishda texnik harakatlarga vaziyatga muvofiq tanlab reaksiya qilish vaqtini qisqartirishga qaratilgan mashqlardan foydalanib, maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish modeli asosida futbolchilarning tezkor-kuch imkoniyatlarini oshirib borish lozim, bu nafaqat maydonda texnik harakatlarni bajarish tezligini oshirishga, balki aerob imkoniyatlarning o‘sishi uchun morfologik bazani yaxshilashga yordam berishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekistonda futbolni rivojlantirishni mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida 04.12.2019 yildagi PF-5887-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/4631208>
2. Abdullaev M.J. Methodology of application games in the training of young athletes // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 11, 2020 ISSN 2056-5852. P. 115-122 [13.00.00№3]



3. Акрамов Р., Тихонов В., Нуримов Р. Планирование и организация учебно-тренировочного процесса высококвалифицированных футболистов. Метод., Рекомендации., - Т.: 1997, 54 с.

4. Kadirov R.X. Diagnostics and correction of athlete's training / European Journal of Humanities and Educational Advancements (EJaYEA) Available Online at: <https://www.scholarzest.com> Vol. 2 No. 9.

KURASHDA HUJUM VA HIMOYA HARAKATLARINI MUKAMMALLASHTIRISH

Rahimov Musirmon Berdiyevich

Dotsent v.b.

Qarshi davlat universiteti

raximovmusirmon@gmail.com

O'UK 796.016.5:796.015.34

Annotatsiya: Mazkur maqolada kurash sportida hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Zamonaviy sport kurashida yuqori sport natijalariga erishish sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligi darajasiga bevosita bog'liq bo'lib, hujum va himoya harakatlarini to'g'ri tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mashg'ulot jarayonida hujum va himoya usullarini takomillashtirish, ularni bajarish texnikasini mukammallashtirish hamda sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda samarali mashg'ulot tizimini yaratish zarur hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot usullari o'rganildi. Xususan, maxsus texnik mashqlar, juftlikda bajariladigan mashg'ulotlar, vaziyatli mashqlar hamda musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilgan o'quv bellashuvlari tahlil qilindi. Maqolada hujum harakatlarini samarali bajarishda tezkorlik, kuch, chaqqonlik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarning muhim o'rni alohida ko'rsatib berilgan. Shuningdek, himoya harakatlarini mukammallashtirishda sportchilarning tezkor reaksiyasi, muvozanatni saqlash qobiliyati, raqib harakatlarini oldindan sezish hamda ularga tezkor javob qaytarish ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirishga qaratilgan mashg'ulotlar kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi. Bundan tashqari, bunday mashg'ulotlar sportchilarning bellashuv davomida tez va to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantiradi hamda musobaqalarda yuqori natijalarga erishishga yordam beradi.



Tadqiqot natijalari kurashchilarning tayyorgarlik tizimini takomillashtirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Kurash, hujum texnikasi, himoya texnikasi, biomexanika, sport tayyorgarligi, optimizatsiya.

Аннотация: В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты оптимизации атакующих и защитных действий в кураше. В современных условиях развития спортивной борьбы высокий уровень технико-тактической подготовленности спортсменов является одним из ключевых факторов достижения успешных результатов на соревнованиях. Поэтому особое внимание уделяется совершенствованию и оптимизации атакующих и защитных действий курашистов в процессе тренировок.

В ходе исследования были проанализированы различные методы подготовки спортсменов, направленные на развитие технико-тактических навыков. К ним относятся специальные технические упражнения, тренировочные задания в парах, ситуационные упражнения, а также учебные схватки, максимально приближенные к условиям соревнований. Особое внимание уделяется совершенствованию техники выполнения атакующих приемов, правильному выбору момента для проведения атаки и умению быстро переходить от защитных действий к контратаке.

В статье также подчеркивается важность развития физических качеств спортсменов, таких как сила, быстрота, ловкость, координация движений и реакция. Эти качества играют значительную роль в повышении эффективности как атакующих, так и защитных действий. Кроме того, большое внимание уделяется развитию способности спортсменов анализировать действия соперника, предугадывать его движения и принимать правильные тактические решения в ходе поединка.

Результаты исследования показали, что оптимизация атакующих и защитных действий в тренировочном процессе способствует повышению уровня технико-тактической подготовленности курашистов, улучшению их соревновательной деятельности и достижению более высоких спортивных результатов.

Ключевые слова: Кураш, техника нападения, техника защиты, biomexanika, спортивная подготовка, оптимизация.

Abstract. This article analyzes the theoretical and practical aspects of optimizing attacking and defensive actions in kurash. In modern wrestling, achieving high sports performance largely depends on the technical and tactical preparedness of athletes. Therefore, improving and optimizing attacking and defensive techniques during the training process is considered one of the key tasks in the preparation of kurash athletes.



The study examines various training methods aimed at developing the technical and tactical skills of wrestlers. These methods include specialized technical exercises, partner training drills, situational tasks, and training bouts conducted under conditions close to real competitions. Special attention is given to improving the execution of attacking techniques, selecting the most appropriate moment for performing an attack, and developing the ability to quickly transition from defensive actions to counterattacks.

The article also highlights the importance of developing essential physical qualities such as strength, speed, agility, coordination, and reaction. These qualities play a significant role in increasing the effectiveness of both attacking and defensive actions during wrestling matches. In addition, particular emphasis is placed on improving athletes' ability to analyze the opponent's movements, anticipate their actions, and make quick and effective tactical decisions during a bout.

The results of the research indicate that the optimization of attacking and defensive actions within the training process significantly improves the technical and tactical preparedness of kurash athletes. It also enhances their competitive performance and helps athletes achieve higher results in competitions. The findings of this study may be useful for coaches and specialists in wrestling when organizing and improving the training process.

Keywords: kurash, attack technique, defense technique, biomechanics, sports training, optimization.

Kirish. Zamonaviy sport kurashida yuqori natijalarga erishish ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning eng muhimlaridan biri — sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligi hisoblanadi. Ayniqsa hujum va himoya harakatlarini to'g'ri va samarali qo'llash, bellashuv davomida tezkor va aniq qaror qabul qilish qobiliyati musobaqadagi muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy omillardir.

Hozirgi kunda kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi yetarli darajada mukammal bo'lmaganligi, mashg'ulot jarayonlarida hujum va himoya harakatlarini optimallashtirishning yetarlicha tizimlashtirilmaganligi, shuningdek, individual xususiyatlarga mos mashg'ulotlar ishlab chiqilmaganligi dolzarb ilmiy va amaliy muammo sifatida qolmoqda.

Shu sababli hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirish, ularni mashg'ulot jarayonida samarali qo'llash va takomillashtirish metodikasi dolzarb hisoblanadi. Bu nafaqat sportchilarning texnik-taktik ko'rsatkichlarini oshirish, balki musobaqalarda yuqori natijalarga erishish va jarohatsiz mashg'ulot jarayonini tashkil etishga ham xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot sportchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda samarali mashg'ulot usullarini ishlab chiqish hamda kurashda raqobatbardoshligini oshirish nuqtai nazaridan ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.



Adabiyotlar sharhi. Sport kurashida texnik-taktik tayyorgarlik va hujum hamda himoya harakatlarini rivojlantirish masalalari ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. V.N.Platonov (2017) sportchilarning texnik va taktika tayyorgarligi rivojlanishining psixologik va fiziologik asoslarini keng tahlil qilgan. Ushbu nazariy ish kurashchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni tashkil etish zarurligini ta’kidlaydi.

Matveyev L.P. (2016) sportchilarda texnik va taktika ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish metodlarini tavsiflaydi. Muallifning fikricha, har bir texnik harakatni o‘rganish jarayoni jismoniy va psixomotor ko‘nikmalarni birgalikda rivojlantirishni talab qiladi.

Kerimov F.A. (2018) “Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati” asarida ayniqsa kurash sportida hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirish metodikasi va mashg‘ulotlarda ulardan samarali foydalanish bo‘yicha ko‘plab tavsiyalarni keltiradi. Muallifning fikricha, mashg‘ulotlarning individual va situatsion xususiyatlari texnik-taktik tayyorgarlikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlar (Bompa & Haff; Zatsiorskiy; Issurin) sportchilarning jismoniy tayyorgarligi, kuch, tezlik va koordinatsiya kabi sifatlarni rivojlantirish bilan birgalikda texnik va taktika optimizatsiyasini ham amalga oshirishning ahamiyatini ko‘rsatadi. Ushbu ilmiy ishlardan kelib chiqib, hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirishning samarali metodikasi ishlab chiqilishi mumkin.

Shu bilan birga, adabiyotlarni tahlil qilish natijasida kurashchilarning individual xususiyatlari, vazn toifasi, yosh va tayyorgarlik darajasi asosida mashg‘ulotlarni optimallashtirishning yetarlicha tizimlashtirilmaganligi aniqlanadi. Bu esa mazkur tadqiqotning ilmiy yangilik va dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqotning maqsadi. Kurash sportida hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirish orqali sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish va bellashuv davomida tezkor, samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Kurashda hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirishning nazariy asoslarini o‘rganish.
2. Turli tayyorgarlik darajasiga ega kurashchilarning texnik-taktik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.
3. Hujum va himoya harakatlarini mashg‘ulot jarayonida mukammallashtirishning samarali usullarini aniqlash.
4. Maxsus texnik mashqlar, juftlikdagi mashg‘ulotlar va vaziyatli mashqlar yordamida hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirish tizimini ishlab chiqish.
5. Tadqiqot natijalari asosida kurashchilarning tayyorgarlik jarayonini yaxshilashga qaratilgan metodik tavsiyalar ishlab chiqish.



Tadqiqotning obyekti. Kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligi va musobaqadagi hujum hamda himoya harakatlari.

Tadqiqotning predmeti. Kurash sportida hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirish, ularni mashg'ulot jarayonida samarali bajarish va takomillashtirishning metodik xususiyatlari.

Tadqiqotning metodlari. Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- videoanaliz;
- biomexanik tahlil;
- matematik-statistik usullar;

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida kurashchilarning hujum va himoya harakatlari samaradorligi tajriba boshida va tajriba yakunida o'rganildi. Tadqiqotda 20 nafar sportchi ishtirok etdi.

1-jadval

Tadqiqot avvalida shug'ullanuvchilarning hujum va himoya harakatlari samaradorligi

№	Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat	Standart og'ish
1	Hujum harakatlari samaradorligi (%)	54,3	3,2
2	Himoya harakatlari samaradorligi (%)	49,7	2,8
3	Qarshi hujum samaradorligi (%)	46,5	3,1
4	Texnik xatolar soni (bir bellashuvda)	6,2	1,4

Natijalar shuni ko'rsatadiki, tajriba boshida sportchilarning hujum samaradorligi o'rtacha darajada bo'lgan, himoya harakatlarida esa ayrim kamchiliklar kuzatilgan.

2-jadval

Hujum va himoya harakatlari samaradorligining eksperimental mashg'ulotlar dasturi

Mashg'ulot bosqichi	Mashqlar turi	Davomiyligi
Texnik tayyorgarlik	Hujum kombinatsiyalari mashqlari	20 min
Taktik tayyorgarlik	Qarshi hujum mashqlari	15 min
Biomexanik tahlil	Videoanaliz asosida xatolarni tuzatish	10 min
Amaliy mashg'ulot	Bellashuv va musobaqa simulyatsiyasi	25 min

Mazkur mashg'ulot dasturi 12 hafta davomida qo'llanildi.

3-jadval

Hujum va himoya harakatlari samaradorligining tajriba yakunidagi ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat	Standart og'ish
1	Hujum harakatlari samaradorligi (%)	60.5	+11.4
2	Himoya harakatlari samaradorligi (%)	54.3	+9.2
3	Qarshi hujum samaradorligi (%)	50.2	+8.0
4	Texnik xatolar soni (bir bellashuvda)	4.1	-33



Natijalar shuni ko‘rsatdiki, mashg‘ulotlar dasturi sportchilarning texnik harakatlarini sezilarli darajada yaxshiladi.

4-jadval

Hujum va himoya harakatlari samaradorligining tajribadan oldin va keyingi natijalarni taqqoslash

№	Ko‘rsatkichlar	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish
1	Hujum harakatlari samaradorligi (%)	54.3 %	60.5 %
2	Himoya harakatlari samaradorligi (%)	49.7 %	54.3 %
3	Qarshi hujum samaradorligi (%)	46.5 %	50.2 %
4	Texnik xatolar soni (bir bellashuvda)	6.2	4.1

Natijalar tahlili. Eksperimental mashg‘ulotlar dasturi qo‘llanilgandan so‘ng sportchilarning texnik harakatlari samaradorligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Ayniqsa hujum kombinatsiyalarini takomillashtirish va videoanaliz asosida xatolarni tuzatish yuqori samaradorlik berdi.

Shuningdek, bellashuv mashg‘ulotlarida taktik qaror qabul qilish tezligi oshgani qayd etildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, hujum harakatlarini mukammallashtirish sportchilarning musobaqa samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Mashg‘ulot jarayonida qo‘llanilgan videoanaliz sportchilarning texnik xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etishga yordam berdi.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki:

- hujum samaradorligi 11 % ga oshdi;
- himoya harakatlari barqarorligi 9 % ga oshdi;
- qarshi hujum samaradorligi 8 % ga oshdi.

Olingan natijalar sport ilmda mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlar bilan mos keladi. Kurashchilarning texnik harakatlarini mukammallashtirish sport natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

Videoanaliz va biomexanik tahlil sportchilarning texnik tayyorgarligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Amaliy tavsiyalar.

1. Hujum harakatlarini mukammallashtirish:

- Kurashchilarga har bir hujum texnikasini bosqichma-bosqich o‘rgatish, mashg‘ulotda tezkorlik, kuch va koordinatsiya elementlarini uyg‘unlashtirish.
- Hujumlarni mashg‘ulot davomida tezlik va aniqlik bilan bajarish, taktik vaziyatlarga moslashgan mashqlar orqali samaradorligini oshirish.

2. Mashg‘ulotlarni mukammallashtirish:

- Mashg‘ulotlar individual xususiyatlarga mos holda rejalashtirilishi, vazn toifasi, yosh va jismoniy tayyorgarlik darajasi hisobga olinishi.
- Haftasiga 3–4 marta, 4–6 haftalik sikllar bilan aylanma mashg‘ulotlarni tashkil etish: 30–60 soniya mashq, 15–30 soniya dam olish, 2–4 sikl.



3. Texnik va taktika uyg‘unligini oshirish:

- Juftlik mashqlari va vaziyatli o‘quv janglari orqali hujum va himoya harakatlarini musobaqa sharoitiga yaqinlashtirish.

- Mashg‘ulotda hujum va himoyani ketma-ket ishlatish, tezkor qaror qabul qilish va strategik fikrlashni rivojlantirish.

4. Natijalarni monitoring qilish:

- Har bir mashg‘ulotdan so‘ng sportchilarning texnik-taktik ko‘rsatkichlarini qayd qilish va tahlil qilish.

- Olingan ma‘lumotlar asosida mashg‘ulot rejalarini va harakatlarni yanada mukammallashtirish.

5. Individual yondashuv:

- Har bir sportchining vazn toifasi va tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda mashg‘ulot yuklamasi va mashqlar turini tanlash.

Xulosalar. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi kurash sportida hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirish orqali sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish va bellashuv davomida tezkor, samarali qaror qabul qilish qobiliyatini rivojlantirishdan iborat bo‘ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirish, ularni mashg‘ulot jarayonida tizimli va individual xususiyatlarga mos ravishda bajarish kurashchilarning jismoniy va texnik-taktik tayyorgarligini sezilarli darajada oshiradi.

Tadqiqot natijalari hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirish orqali kurashchilarning umumiy sport salohiyatini oshirishga yordam berishini ko‘rsatadi. Bu esa mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish, jarohat xavfini kamaytirish va musobaqalarda raqobatbardosh natijalar olish imkonini yaratadi. Maqolada keltirilgan metodik tavsiyalar nafaqat individual mashg‘ulotlarda, balki guruh va jamoa mashg‘ulotlarida ham samarali qo‘llanishi mumkin.

Natijada, kurashda hujum va himoya harakatlarini mukammallashtirishning samarali tizimi sportchilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirish, bellashuv davomida tez va to‘g‘ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini rivojlantirish va musobaqalarda yuqori natijalarga erishishni ta‘minlaydi. Mazkur metodika, olingan ilmiy natijalar bilan birgalikda, kurashchilarning jismoniy, texnik va taktika ko‘rsatkichlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari kelajakda yangi texnologiyalar va innovatsion mashg‘ulot usullarini qo‘llash orqali hujum va himoya harakatlarini yanada mukammallashtirish imkoniyatlarini ochib beradi. Bu esa kurashchilarning raqobatbardoshligini oshirish va sport natijalarini maksimal darajada yaxshilashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. Toshkent: Fan, 2009.
2. Платонов В.Н. Теория спортивной тренировки. Киев: Олимпийская литература, 2019.



3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. Москва: Физкультура и спорт, 2018.
4. Bompa T. Periodization in Sports Training. Champaign: Human Kinetics, 2017.
5. Verkhoshansky Y. Strength Training Methodology. Москва: Физкультура и спорт, 2016.
6. Zatsiorsky V.M. Science and Practice of Strength Training. Champaign: Human Kinetics, 2006.
7. Issurin V. Block Periodization in Sports Training. London: Routledge, 2018.

YOSH KURASHCHILARNING MAXSUS EGILUVCHANLIK SIFATINI RIVOJLANTIRISHDA ILG‘OR USHLUBLARDAN FOYDALANISH

Norov Olim Toshpo‘latovich

Dotsent

Qarshi davlat universiteti

olim_norov76@mail.ru

O‘UK: 796.8:796.015.4

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida maxsus egiluvchanlik sifatini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan. Ayniqsa, milliy sport turi bo‘lgan kurash bilan shug‘ullanuvchi yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini takomillashtirishda egiluvchanlikning o‘rni muhim ekanligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotda kurashchilarning maxsus egiluvchanligini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy va ilg‘or mashg‘ulot ushlublari tahlil qilinadi hamda ularning mashg‘ulot jarayonidagi samaradorligi ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, yosh kurashchilarda egiluvchanlik sifatini rivojlantirish orqali texnik harakatlarni bajarish sifati oshishi, jarohatlar xavfi kamayishi va umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi yaxshilanishi mumkinligi ko‘rsatib berilgan. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, tajriba va taqqoslash metodlaridan foydalanilgan. Olingan natijalar yosh kurashchilar tayyorgarligi jarayonini yanada samarali tashkil etish va mashg‘ulot metodikasini takomillashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari sport maktablari, murabbiylar va jismoniy tarbiya mutaxassislari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda xizmat qilishi mumkin.

Kalit so‘zlar: Egiluvchanlik, kurash, ilg‘or metodlar, muskul cho‘zilishi, yosh sportchilar.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы развития специальной гибкости у молодых спортсменов в процессе их спортивной подготовки. Особое внимание уделяется совершенствованию физической



подготовки юных спортсменов, занимающихся национальным видом спорта – кураш. В исследовании обоснована важная роль гибкости в формировании технических навыков и повышении эффективности выполнения сложных приемов борьбы. Анализируются современные и передовые методы тренировок, направленные на развитие специальной гибкости у молодых борцов, а также рассматривается их влияние на повышение спортивных результатов. Отмечается, что развитие гибкости способствует улучшению координационных способностей спортсменов, повышению качества выполнения технических действий и снижению риска травматизма. В ходе исследования использованы методы теоретического анализа научно-методической литературы, педагогического наблюдения, сравнительного анализа и экспериментальной работы. Полученные результаты могут быть использованы для совершенствования методики подготовки молодых борцов и повышения эффективности тренировочного процесса. Практическая значимость исследования заключается в возможности применения разработанных рекомендаций тренерами и специалистами в области физической культуры и спорта.

Ключевые слова: Гибкость, кураш, передовые методы, растяжимость мышц, юные спортсмены.

Abstract: This article the issues related to the development of special flexibility in young athletes during their training process. Particular attention is given to improving the physical preparation of young athletes engaged in the national sport of kurash. The research scientifically substantiates the importance of flexibility in enhancing technical performance and the effective execution of complex wrestling techniques. The study analyzes modern and advanced training methods aimed at developing special flexibility in young wrestlers and evaluates their effectiveness in the training process. It is emphasized that improving flexibility contributes to better coordination abilities, enhances the quality of technical actions, and reduces the risk of injuries among athletes. The research methodology includes theoretical analysis of scientific and methodological literature, pedagogical observation, comparative analysis, and experimental methods. The results obtained from the study can contribute to improving the training methodology of young wrestlers and increasing the efficiency of the training process. The practical significance of the research lies in the possibility of applying the developed recommendations by coaches and specialists in the field of physical education and sports.

Keywords: Flexibility, kurash, advanced methods, muscle flexibility, young athletes.

Kirish. Bugungi kunda sport sohasini rivojlantirish, yoshlarni sog‘lom turmush tarziga jalb etish hamda milliy sport turlarini ommalashtirish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, milliy sport turi bo‘lgan kurash



yosh avlodni jismonan barkamol, irodali va vatanparvar qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kurash sport turida yuqori sport natijalariga erishish uchun sportchilarning jismoniy sifatlarini, ayniqsa, maxsus egiluvchanlik sifatini ilmiy asosda rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi ularning texnik va taktik mahoratini shakllantirishning asosiy omillaridan biri sifatida qoraladi. Kurash sportida harakatlarning murakkabligi, tezkorligi va yuqori amplitudada bajarilishi sportchidan yuqori darajadagi egiluvchanlikni talab qiladi. Ayniqsa, yosh kurashchilar uchun egiluvchanlik sifati nafaqat texnik usullarni mukammal bajarishga, balki jarohatlarning oldini olishga ham xizmat qiladi. Shu jihatdan yosh sportchilar tayyorgarligida egiluvchanlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kurash sport turida turli xil usullar – tashlash, ag‘darish, chalish, ushlab turish kabi texnik harakatlar katta harakat amplitudasi bilan bajariladi. Bunday harakatlarni samarali bajarish uchun sportchining mushaklari, paylari va bo‘g‘imlari yetarli darajada egiluvchan bo‘lishi zarur. Agar sportchida egiluvchanlik yetarli darajada rivojlanmagan bo‘lsa, u murakkab texnik usullarni bajarishda qiyinchilikka duch keladi va sport natijalari pasayishi mumkin. Shuningdek, egiluvchanlikning past darajasi sport jarohatlarining kelib chiqish xavfini ham oshiradi.

Yosh kurashchilarni tayyorlash jarayonida egiluvchanlik sifatini rivojlantirish o‘ziga xos metodik yondashuvni talab etadi. Chunki yosh organizm hali to‘liq shakllanmagan bo‘lib, noto‘g‘ri yoki ortiqcha yuklama berish salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli mashg‘ulot jarayonida egiluvchanlikni rivojlantirish uchun zamonaviy va ilmiy asoslangan uslublardan foydalanish muhimdir. So‘nggi yillarda sport mashg‘ulotlari tizimida turli innovatsion usullar – dinamik cho‘zilish mashqlari, statik-dinamik usullar, propriozeptiv nerv-mushak faollashtirish texnikasi va boshqa ilg‘or metodlar keng qo‘llanilmoqda. Ushbu usullar sportchilarning jismoniy imkoniyatlarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda sport fanida yosh sportchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot jarayonini tashkil etish dolzarb masalalardan biridir. Kurash sportida ham yosh sportchilarning jismoniy tayyorgarligini, xususan egiluvchanlik sifatini rivojlantirish bo‘yicha yangi ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa sportchilarning texnik tayyorgarligini oshirish, mashg‘ulot jarayonining samaradorligini kuchaytirish hamda yuqori sport natijalariga erishish imkonini beradi.

Shuningdek, yosh kurashchilarning egiluvchanligini rivojlantirish orqali ularning koordinatsion qobiliyatlari, tezkorlik va kuch sifatleri ham yaxshilanadi. Chunki egiluvchanlik boshqa jismoniy sifatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, sportchining umumiy jismoniy tayyorgarligini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.



Shu sababli mashg‘ulot jarayonida egiluvchanlikni rivojlantirish masalasiga alohida e‘tibor qaratish zarur.

Zamonaviy sport amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, yosh sportchilar tayyorgarligida an‘anaviy mashqlar bilan bir qatorda innovatsion metodlardan foydalanish yuqori samaradorlikka olib keladi. Ayniqsa, kurash sportida maxsus egiluvchanlikni rivojlantirish uchun mo‘ljallangan mashqlarni ilmiy asosda tanlash va mashg‘ulot jarayoniga joriy etish muhim hisoblanadi. Bu esa yosh kurashchilarning texnik harakatlarni to‘g‘ri va samarali bajarishiga yordam beradi.

Shu bilan birga, sport mashg‘ulotlarida ilg‘or uslublardan foydalanish yosh sportchilarning qiziqishini oshiradi, mashg‘ulot jarayonini yanada samarali va mazmunli tashkil etish imkonini beradi. Natijada sportchilarning jismoniy rivojlanishi bilan bir qatorda ularning psixologik tayyorgarligi ham mustahkamlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, yosh kurashchilarning maxsus egiluvchanlik sifatini rivojlantirishda ilg‘or uslublardan foydalanish nafaqat sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish, balki ularning texnik mahoratini takomillashtirish va yuqori sport natijalariga erishishda ham muhim ahamiyatga ega. Shu sababli mazkur mavzuni ilmiy jihatdan o‘rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Sportchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy sifatlarni rivojlantirish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ayniqsa, egiluvchanlik sifatini rivojlantirish sportchining texnik va taktik mahoratini shakllantirishda muhim omillardan biri sifatida qoraladi. Kurash sportida yuqori natijalarga erishish uchun sportchining harakat amplitudasi, mushaklar elastikligi va bo‘g‘imlarning harakatchanligi yuqori darajada bo‘lishi talab etiladi. Shu sababli egiluvchanlik sifatini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar sport nazariyasi va amaliyotida muhim o‘rin egallaydi.

Milliy sport turi hisoblangan kurash bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda yosh sportchilarni tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilgan. Bir qator tadqiqotchilar kurashchilarning jismoniy tayyorgarligi, texnik-taktik mahorati hamda maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish muammolarini o‘rganishgan.

Masalan, A.Novikov [3] o‘z tadqiqotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi tizimini chuqur tahlil qilib, egiluvchanlik sifatining rivojlanishi sport texnikasining mukammal bajarilishiga bevosita ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Olimning fikricha, egiluvchanlik mushaklar elastikligini oshiradi, bo‘g‘imlar harakatchanligini kengaytiradi va sportchining murakkab harakatlarni bajarish imkoniyatlarini yaxshilaydi.

Sport mashg‘ulotlari nazariyasi bo‘yicha taniqli mutaxassis V.Platonov [5] sportchilarning ko‘p yillik tayyorgarligi tizimini o‘rganib, jismoniy sifatlarni



rivojlantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kerakligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida egiluvchanlikni rivojlantirish alohida ahamiyatga ega bo‘lib, bu kelajakda murakkab texnik harakatlarni samarali bajarish uchun asos yaratadi.

Jismoniy tarbiya va sport nazariyasiga oid ilmiy manbalarda egiluvchanlikni rivojlantirish usullari keng yoritilgan. Masalan, Y.Verkhoshanskiy [1] sportchilarning maxsus jismoniy tayyorgarligi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida egiluvchanlikni rivojlantirish uchun statik, dinamik va kombinatsiyalangan cho‘zilish mashqlaridan foydalanish samarali ekanligini ko‘rsatib bergan. Olimning ta’kidlashicha, egiluvchanlikni rivojlantirish mashqlari mushaklarning funksional imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Egiluvchanlik – bu sportchilarning texnik harakatlarini mukammal bajarishi va jarohat xavfini kamaytirishi uchun muhim jismoniy sifatdir (Behm & Chaouachi, 2011) [6]. Yosh kurashchilarda egiluvchanlikni rivojlantirish ularning musobaqa samaradorligini oshiradi, chunki kuch va texnik harakatlarni uyg‘un bajarish uchun mushaklarning elastikligi muhim hisoblanadi.

Shuningdek, jismoniy sifatlarni rivojlantirish metodikasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun zamonaviy trening usullaridan foydalanish muhimligi ta’kidlanadi. Bu borada L.Matveyev [4] sport mashg‘ulotlari nazariyasini ishlab chiqib, sportchilar tayyorgarligi tizimida egiluvchanlikni rivojlantirish mashqlarini muntazam qo‘llash zarurligini asoslab bergan.

So‘nggi yillarda bir qator tadqiqotchilar egiluvchanlikni rivojlantirish usullarini tahlil qilgan. Behm va Chaouachi (2011) [6] dinamik va stretching mashqlarining mushak elastikligini oshirish va texnik tayyorgarlikni yaxshilashda samarali ekanligini ko‘rsatgan. Shrier (2004) [7] esa an’anaviy stretching mashqlari jarohat xavfini sezilarli darajada kamaytirmasligini ta’kidlagan.

Kurash sporti bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan bir qator olimlar yosh kurashchilar tayyorgarligida maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish muhim ekanligini qayd etishadi. Ularning fikricha, egiluvchanlik kurashchilarning texnik harakatlarini bajarishda muhim rol o‘ynaydi. Chunki kurashda turli tashlash, chalish va ag‘darish usullari katta harakat amplitudasi bilan bajariladi. Bu esa sportchidan yuqori darajadagi egiluvchanlikni talab qiladi.

Zamonaviy ilmiy manbalarda egiluvchanlikni rivojlantirish uchun ilg‘or uslublar – dinamik stretching, statik stretching, propriozeptiv nerv-mushak faollashtirish kabi metodlar samarali ekani qayd etilgan. Ushbu usullar mushaklarning elastikligini oshirish, bo‘g‘imlarning harakatchanligini kengaytirish hamda sportchining harakat koordinatsiyasini yaxshilashga yordam beradi.

Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, yosh kurashchilarning maxsus egiluvchanlik sifatini rivojlantirish sport mashg‘ulotlari jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida umumiy egiluvchanlikni rivojlantirish masalalari yoritilgan bo‘lib, aynan kurash



sporti uchun zarur bo'lgan maxsus egiluvchanlikni rivojlantirish uslublari yetarli darajada o'rganilmagan.

Shu sababli yosh kurashchilarning maxsus egiluvchanlik sifatini rivojlantirishda ilg'or uslublardan foydalanish, ularning samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash va mashg'ulot jarayoniga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur masalani chuqur o'rganish yosh kurashchilar tayyorgarligini takomillashtirish hamda sport natijalarini oshirishga xizmat qiladi.

L.Matveev (2019) va V.Platonov (2015) nazariy tadqiqotlarida yosh sportchilarda egiluvchanlikni rivojlantirish dasturlarining strukturalashganligi va ilg'or metodlar bilan boyitilishi muvaffaqiyatli natijalarga olib kelishi qayd etilgan. F.Kerimov (2008) [2] esa kurashchilarda mushak va bo'g'imlar tayyorgarligini oshirishda ilg'or mashqlarni muntazam qo'llashning samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotning maqsadi — yosh kurashchilarning maxsus egiluvchanlik sifatini rivojlantirishda ilg'or metodlarning samaradorligini o'rganish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotni tashkil qilinishi.

Tadqiqotga 12–16 yoshdagi 30 nafar kurashchi jalb qilindi. Sportchilar ikki guruhga bo'lindi:

Tajriba guruhi ($n = 15$): ilg'or egiluvchanlik mashqlari.

Nazorat guruhi ($n = 15$): an'anaviy mashg'ulotlar.

Mashg'ulot dasturi 6 hafta davomida haftada 3 martani, har bir mashg'ulot 45 daqiqani tashkil etdi. Tajriba guruhi dinamik cho'zilish, stretching mashqlari va kompleks egiluvchanlik mashqlarini bajardi, nazorat guruhi esa standart mashqlarni.

Nazorat o'lchovlari:

1. Bo'g'im harakatchanligi: goniometr yordamida.
2. Muskul cho'zilishi: o'tirib cho'zish testi.
3. Texnik harakatlar aniqligi: sportchilarning harakat sifati bo'yicha murabbiy baholashi.

Natijalar t-test yordamida solishtirildi, $p < 0,05$ darajada ishonchli ekanligi aniqlandi.

1-jadval

Tadqiqot yakunida yosh kurashchilarning maxsus egiluvchanlik sifatini rivojlanganligi natijalari

Ko'rsatkich	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
Bo'g'im harakatchanligi (% oshish)	18%	5%
O'tirib cho'zish testi (% yaxshilanish)	15%	4%
Texnik harakatlar aniqligi	Sezilarli oshish	Minimal o'zgarish

Tajriba guruhi bo'g'im harakatchanligi va muskul cho'zilish darajasida nazorat guruhiga nisbatan sezilarli oshish ko'rsatdi ($p < 0,05$).



Muhokama. Olingan natijalar ilg'or usullar yosh kurashchilarda egiluvchanlikni rivojlantirishda samarali ekanligini ko'rsatadi. Dinamik cho'zilish va stretching mashqlari mushaklarning elastikligini oshirib, texnik harakatlarni takomillashtiradi. Bu natijalar avvalgi tadqiqotlar bilan mos keladi (Behm & Chaouachi, 2011; Shrier, 2004).

Ilg'or metodlar jismoniy tayyorgarlikni oshirib, yosh sportchilarda jarohat xavfini kamaytiradi. Shu bois mashg'ulot dasturlariga integratsiya qilinishi tavsiya etiladi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

1. Yosh kurashchilar mashg'ulot dasturiga egiluvchanlikni rivojlantiruvchi maxsus mashqlar muntazam ravishda kiritilishi lozim.
2. Mashg'ulot jarayonida statik, dinamik va kombinatsiyalangan cho'zilish mashqlaridan kompleks tarzda foydalanish tavsiya etiladi.
3. Egiluvchanlik mashqlarini mashg'ulotning tayyorgarlik qismida hamda yakuniy qismida qo'llash samarali hisoblanadi.
4. Mashg'ulotlar sportchilarning yosh xususiyatlari va jismoniy tayyorgarlik darajasini hisobga olgan holda tashkil etilishi kerak.
5. Kurashchilarning egiluvchanlik darajasini muntazam ravishda testlar yordamida nazorat qilib borish maqsadga muvofiqdir.

Xulosalar. Yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida maxsus egiluvchanlik sifatini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa kurash sport turida texnik harakatlarni samarali bajarish uchun sportchining bo'g'imlari va mushaklari yetarli darajada egiluvchan bo'lishi zarur.

O'tkazilgan pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, mashg'ulot jarayonida ilg'or usullardan foydalanish yosh kurashchilarning egiluvchanlik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Dinamik, statik hamda statik-dinamik cho'zilish mashqlarini kompleks tarzda qo'llash sportchilarning mushak elastikligini yaxshilash, harakat amplitudasini kengaytirish va texnik harakatlarni yanada mukammal bajarishga yordam beradi.

Shuningdek, egiluvchanlikni rivojlantirish mashqlari sportchilarning jarohatlanish xavfini kamaytiradi va ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini oshiradi. Shu sababli mashg'ulot jarayonida egiluvchanlik mashqlariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. – 2-е изд. — М.: Советский спорт, 2021. – 332 с.
2. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati: darslik / F.A.Kerimov. — Toshkent, 2008. — 288 с.
3. Новиков А.А.. Основы спортивного мастерства / А.А.Новиков. — 2-е изд., перераб. и доп. — Москва : Советский спорт, 2012. — 255 с.



4. Матвеев Л. П. Общая теория спорта и ее прикладные аспекты: учебник для вузов / Л.П.Матвеев .- 6-е изд. - Москва : Спорт, 2019. - 340 с.
5. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения: учебник [для тренеров] : в 2 кн. / В. Н. Платонов. — К.: Олимп. лит., 2015.- Кн. 1. — 2015.- 680 с.
6. Behm D.G., Chaouachi A. A review of stretching exercises and their effect on performance. Strength & Conditioning Journal, 2011. 33(1), 35–45.
7. Shrier I. Stretching before exercise does not reduce the risk of local muscle injury: A critical review. Clinical Journal of Sport Medicine, 2004. 14(5), 267–273.

KURASHCHILARDA TEZ VAZN YO‘QOTISH VA UNING SPORTCHIL ORGANIZMIGA TA’SIRI

Avazov Bahrom Beknazarovich

Dotsent v.b.

Qarshi davlat universiteti

bahrom_avazov69@mail.ru

O‘UK 796.016.5:615.322

Annotatsiya: *Vazn bo‘yicha sport turlarida sportchilar ko‘pincha musobaqalardan oldin yengilroq vazn toifasiga kirish uchun tez vazn yo‘qotish usuliga murojaat qilishadi. Bu amaliyot kurash bilan shug‘ullanuvchi sportchilar orasida ham keng tarqalgan. Ammo to‘satdan vazn yo‘qotish organizmning fiziologik holatiga, ishlash qobiliyati va salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur ishning maqsadi kurashchilarda tez vazn yo‘qotish usullarini tahlil qilish va ularning organizmga ta’sirini baholashdan iborat. Maqolada vaznni kamaytirishning asosiy usullari, ularning fiziologik oqibatlari, sport ishlash qobiliyatiga ta’siri va salomatlik uchun ehtimoliy xavflar ko‘rib chiqiladi. Olingan ma’lumotlar ko‘rsatadiki, ortiqcha va nazoratsiz vazn yo‘qotish suv-elektrolit balansi buzilishiga, yurak-qon tomir tizimi funksiyalarining pasayishiga, mushak quvvati kamayishi va jarohat xavfining oshishiga olib kelishi mumkin.*

Kalit so‘zlar: Kurash, kurashchilar, vaznni kamaytirish, vazn toifalari, degidratatsiya, jismoniy ish qobiliyati.

Аннотация: *В видах спорта с весовыми категориями спортсмены часто прибегают к быстрой сгонке веса перед соревнованиями, чтобы выступать в более лёгкой весовой категории. Такая практика широко распространена и среди курашистов. Однако резкое снижение массы тела может негативно влиять на физиологическое состояние организма, работоспособность и общее состояние здоровья спортсмена. Целью данной работы является анализ методов быстрой сгонки веса у курашистов и оценка их влияния на организм. В статье рассматриваются основные способы снижения массы*



тела, их физиологические последствия, влияние на спортивную работоспособность и возможные риски для здоровья. Полученные данные показывают, что чрезмерная и неконтролируемая потеря веса может привести к нарушению водно-электролитного баланса, снижению функций сердечно-сосудистой системы, уменьшению мышечной силы и повышению риска травм.

Ключевые слова: Кураш, курашисты, снижение массы тела, весовые категории, дегидратация, физическая работоспособность.

Abstract: In weight-class sports, athletes often resort to rapid weight cutting before competitions in order to compete in a lighter weight category. This practice is widespread among kurash athletes as well. However, sudden weight loss can negatively affect the physiological condition of the body, performance capacity, and overall health of the athlete. The aim of this study is to analyze the methods of rapid weight cutting used by kurash athletes and to assess their impact on the body. The article examines the main methods of weight reduction, their physiological consequences, their influence on athletic performance, and potential health risks. The data obtained indicate that excessive and uncontrolled weight loss can lead to disturbances in water-electrolyte balance, decreased cardiovascular function, reduced muscle strength, and an increased risk of injuries.

Keywords: Kurash, kurash athletes, weight reduction, weight categories, dehydration, physical performance.

Kirish. Hozirgi kunda kurash sport turlarida sportchilar ma’lum vazn toifalarida bellashishlari sababli musobaqa oldidan tana vaznini tez kamaytirish holatlari keng tarqalgan. Xususan, kurash, dzyudo, yunon-rim sport turlarida sportchilar ko‘pincha qisqa vaqt ichida vazn tashlashga majbur bo‘ladilar. Bunda ular ko‘pincha ovqat iste’molini keskin kamaytirish, suvsizlanish, ortiqcha terlash, sauna va boshqa usullardan foydalanadilar.

Tez vazn yo‘qotish sportchi organizmida bir qator fiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Jumladan, suyuqlik va elektrolitlar muvozanatining buzilishi, mushak kuchi va chidamlilikning pasayishi, yurak-qon tomir tizimiga ortiqcha yuklama tushishi, moddalar almashinuvinin izdan chiqishi kabi salbiy holatlar kuzatilishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar nafaqat sportchining sog‘lig‘iga, balki uning musobaqadagi sport natijalariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, tez vazn yo‘qotish jarayonining noto‘g‘ri tashkil etilishi sportchilarda ortiqcha charchash, jarohatlanish xavfining ortishi hamda umumiy ish qobiliyatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli sportchilar organizmida tez vazn yo‘qotish jarayonining fiziologik xususiyatlarini o‘rganish, uning salbiy ta’sirlarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish sport fiziologiyasi va sport tibbiyoti sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.



Shu jihatdan qaraganda, kurashchilarda tez vazn yo‘qotish va uning sportchi organizmiga ta‘sirini ilmiy jihatdan tahlil qilish, bu jarayonning sport natijalari hamda sportchilar salomatligiga ta‘sirini aniqlash mazkur tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Kurash Markaziy Osiyo davlatlarida, ayniqsa O‘zbekistonda keng tarqalgan milliy kurash turi hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu sport turi xalqaro maydonda faol rivojlanib, yanada ko‘p sportchilarni jalb qilmoqda. Kurashning, shuningdek ko‘pgina boshqa jangovar sport turlarining xususiyati — sportchilarning vazn toifalari bo‘yicha tasniflanishi.

Kurashda ustunlikka erishish istagi ko‘pincha sportchilarni musobaqalardan oldin vaznni kamaytirishga undaydi. Natijada, ko‘p kurashchilar turli tez vazn yo‘qotish usullaridan foydalanadilar, jumladan: ovqatni cheklash, dehidratatsiya, intensiv mashqlar va saunalardan foydalanish.

Bu usullar sportchiga vaqtincha vaznni kamaytirish imkonini bersa-da, ular organizm holati va sport ish qobiliyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois tez vazn yo‘qotish masalasi sport ilmi va tayyorgarlik amaliyoti uchun dolzarbdir.

Tadqiqotning maqsadi – kurashchilarda tez vazn yo‘qotishning organizmga ta‘sirini o‘rganish.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Sportchilarda qo‘llaniladigan tez vazn yo‘qotish usullarini o‘rganish.
2. Vazn to‘satdan kamayganda organizmdagi fiziologik o‘zgarishlarni tahlil qilish.
3. Tez vazn yo‘qotishning sport ish qobiliyatiga ta‘sirini baholash.
4. Sportchilar salomatligi uchun ehtimoliy xavflarni ko‘rib chiqish.

Adabiyotlar tahlili. Axmetov (2024) ga ko‘ra, vaznni kamaytirish jangchi sportchilar, shu jumladan aralash jang turlari natijalariga ta‘sir ko‘rsatadi. Grigoryeva (2022) tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, absolyut ko‘pchiligi jangchi sportchilar tez vazn kamaytirish usullaridan foydalanadilar, ayniqsa o‘smirlik yoshda. Osipov va hamkasblari (2024) sambo sportchilarida RWL usullari va jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari o‘rtasida aloqa mavjudligini aniqladilar. Xalqaro tadqiqot Barley va boshqalar (2025) shuni tasdiqladiki, RWL 80 % jang sportchilarida qo‘llaniladi va suvni cheklash va sauna kabi usullar katta vazn kamayishi bilan bog‘liq. Ranisavljev va hamkasblari (2022) grepperlar orasida RWL ning keng tarqalganini va trenerlarning metodlarni tanlashdagi ta‘sirini aniqladilar. Amado (2025) shunga alohida e‘tibor qaratdiki, RWL da buyrak faoliyatining yomonlashishi va kognitiv funksiyalarning buzilishi kabi xavflar mavjud. Ko‘pgina kurash turlarida sportchilar muayyan vazn toifalari bo‘yicha bahs olib borishadi. Bu musobaqalarni adolatli tashkil etish va bir sportchining boshqasidan katta afzallikka ega bo‘lish ehtimolini kamaytirish imkonini beradi. Biroq vazn toifalarining mavjudligi muayyan muammolarni keltirib chiqaradi: ko‘p sportchilar o‘zining tabiiy vaznidan pastroq vazn toifasida ishtirok etishga intiladi.



Chunki yengilroq vazn toifasida sportchi kuch va jismoniy tayyorgarlikda ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. Natijada, musobaqalardan oldin ko‘p kurashchilar vaznni kamaytirish uchun turli usullardan foydalanadilar, ba‘zan qisqa muddatda vaznning 5–10% gacha yo‘qotishadi.

Kurash va boshqa yakkakurash sport turlarida 60-97% sportchilar tez vazn yo‘qotish usullaridan foydalanadi. 145 sportchi o‘rtasida 82,5% musobaqalardan oldin tez vazn yo‘qotish qilgan. Ko‘p sportchilarda vazn yo‘qotish musobaqalardan taxminan 9 kun oldin boshlanib, o‘rtacha $\approx 3-3,9$ kg. ni tashkil etadi. Eng ko‘p qo‘llaniladigan usullar: dieta, mashqlar, sauna; diuretik va quchoq usullar kam qo‘llaniladi.

Tadqiqotlar metodologiyasi. Sportchilar tez vazn yo‘qotish uchun quyidagi asosiy usullarni qo‘llaydilar:

1. *Kaloriyani keskin kamaytirish.* Eng keng tarqalgan usullardan biri – ratsiondagi kaloriyani keskin kamaytirish. Sportchilar uglevod, yog‘ va ba‘zan oqsillarni kamaytirishadi. Bu usul vaznni kamaytirishi mumkin, ammo mushaklardagi glikogen zaxiralarini ham kamaytiradi va chidamlilik hamda jismoniy ish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

2. *Degidratatsiya.* Vaznni suv yo‘qotish orqali kamaytirish ham keng qo‘llaniladi. Bunga quyidagilar kiradi: issiq kiyimda intensiv mashqlar; saunalardan foydalanish; suv iste’molini cheklash.

Suv yo‘qotish tez vazn yo‘qotishga yordam bersa-da, suv-elektrolit balansi buzilishi va organizm ish qobiliyatining pasayishiga olib keladi.

3. *Intensiv mashqlar.* Musobaqalardan oldin sportchilar vazn yo‘qotish jarayonini tezlashtirish uchun mashqlarni ko‘paytirishlari mumkin. Biroq ko‘p mashqlar va ovqatni cheklash organizmni charchashga olib keladi.

Tahlil va natijalar. Tez vazn yo‘qotish sportchi organizmda qator fiziologik o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi:

- Yurak-qon tomir tizimi: degidratatsiya qon hajmini kamaytiradi, bu qon bosimi pasayishi, yurak urishlarining tezlashishi va termoregulyatsiyaning buzilishiga olib kelishi mumkin.

- Mushak tizimi: glikogen zaxiralari kamaygani sababli mushaklar quvvati va chidamliligi pasayadi.

- Gormonal o‘zgarishlar: kortizolning ko‘tarilishi va testosteronning pasayishi kuzatiladi, bu organizmni tiklanishi va mushak quvvatiga salbiy ta’sir qiladi.

- Nerv tizimi: energiya va suv yetishmasligi diqqat, reaksiya va kognitiv funksiyalarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Vaznni kamaytirish vaqtinchalik afzallik berishi mumkin, ammo ortiqcha vazn yo‘qotish sport natijalariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Asosiy oqibatlar:

- Mushak quvvatining pasayishi;

- Harakatlarni muvofiqlashtirishning yomonlashishi;



- Chidamlilikning kamayishi;
- Reaksiya tezligining pasayishi.

Degidratatsiya kognitiv funksiyalarni ham pasaytiradi, bu esa taktik qarorlar qabul qilishda muhimdir.

Nazoratsiz tez vazn yo‘qotish sportchilar salomatligi uchun jiddiy xavf tug‘dirishi mumkin, ya’ni issiqdan zarba, yurak-qon tomir tizimi buzilishi, immunitetning pasayishi, jarohat xavfining oshishi mumkin.

Ekstremal degidratatsiya holatida shoshilinch holatlar va ichki organlar funksiyasining buzilishi mumkin.

Amaliy tavsiyalar:

- Musobaqalardan oldin vaznni bir necha hafta oldin rejalashtirish;
- Muvozanatli ratsiondan foydalanish;
- Ekstremal degidratatsiyadan saqlanish;
- Sportchi holatini tibbiy nazorat qilish;
- Trener va sportchilar orasida xavfsiz vazn nazorati bo‘yicha ta’limiy ishlar olib borish.

Xulosa. Kurashchilarda tez vazn yo‘qotish keng tarqalgan amaliyot hisoblanadi. Ammo ortiqcha va nazoratsiz vazn yo‘qotish organizmning fiziologik holati va sport ish qobiliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Asosiy oqibatlar: suv-elektrolit balansi buzilishi, organizm energiya zaxiralari pasayishi, jismoniy va kognitiv qobiliyatning yomonlashishi.

Ta’sirlarning oldini olish uchun ilmiy asoslangan usullardan foydalanish va sportchilarni doimiy tibbiy nazorat qilish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахметов М.Д., Гуралев В.М., Дворкин В.М., Осипов А.Ю. Влияние процедур снижения веса тела на соревновательные результаты спортсменов смешанных единоборств // Известия ТулГУ. Физическая культура. Спорт. 2024. №8.

2. Григорьева Н.М. К вопросу об оптимизации снижения массы тела в единоборствах / Н.М.Григорьева, М. В. Кулешова. — Текст: электронный // Стратегия формирования здорового образа жизни населения средствами физической культуры и спорта: целевые ориентиры, технологии и инновации: материалы XX Международной научно-практической конференции, посвященной памяти д.п.н., профессора В. Н. Зуева (Тюмень, 24–25 ноября 2022 г.) — С. 595-599.

3. Осипов А.Ю., Гуралев В.М., Кудрявцев М.Д. и др. Влияние различных способов снижения массы тела на показатели физической подготовленности и соревновательные результаты борцов самбо. // Человек. Спорт. Медицина. 2024. Т. 24, № 2. С. 161–166. DOI:10.14529/hsm240220



4. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va usuliyati. Darslik. Lider press nashriyoti. T.: 2009.

5. Barley OR, Harms CA. Rapid Weight Loss Across Combat Sports and the Relationships Between Methods and Magnitude. Transl Sports Med. 2025 Mar 26; 2025:2946317. doi: 10.1155/tsm2/2946317. PMID: 40177332; PMCID: PMC11964705.

6. Ranisavljev M, Kuzmanovic J, Todorovic N, Roklicer R, Dokmanac M, Baic M, Stajer V, Ostojic SM and Drid P (2022) Rapid Weight Loss Practices in Grapplers Competing in Combat Sports. Front. Physiol. 13:842992. doi: 10.3389/fphys.2022.842992

7. Amado K.J. Rapid weight loss in combative sports: Systematic literature review. Scientific Journal of Sport and Performance, M. 2025. 4(3), 466-469. <https://doi.org/10.55860/CTMQ9059>

YUQORI MALAKALI VOLEYBOLCHILARDA VERTIKAL SAKRASH BALANDLIGIGA KUCH TAYYORGARLIGINING TA'SIRI

Normurodov Ulug'bek Meyliyevich
Katta o'qituvchi
Qarshi davlat universiteti
ulugbek-normurodov77@gmail.com
O'UK 796.325:796.015

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori malakali voleybolchilarda vertikal sakrash balandligiga kuch tayyorgarligining ta'siri tizimli tarzda o'rganildi. Tadqiqotning maqsadi pastki oyoq mushaklarining kuchi, portlovchi quvvati va tezkor kuchini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot dasturining samaradorligini aniqlashdan iborat bo'ldi. Vertikal sakrash balandligi voleybolchilar uchun hujum va blok harakatlarining samaradorligini belgilovchi muhim jismoniy ko'rsatkich hisoblanadi. Shu sababli kuch tayyorgarligi va mushaklarning eksploziv kuchi vertikal sakrashning maksimal darajada amalga oshirilishida bevosita rol o'ynaydi.

Tadqiqotda 20 nafar yuqori malakali voleybolchi ishtirok etdi. Tajriba 8 hafta davomida, haftasiga 3–4 mashg'ulot bilan olib borildi. Mashg'ulot dasturi pastki oyoq mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan maxsus kuch va portlovchi quvvat mashqlarini o'z ichiga oldi. Natijalarni baholash uchun Squat Jump (SQJ) va Countermovement Jump (CMJ) testlari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kuch tayyorgarligi vertikal sakrash balandligini sezilarli darajada oshiradi ($p < 0,05$).

Shuningdek, tadqiqot davomida kuch, tezkorlik va koordinatsiya kabi jismoniy sifatlarning sakrash samaradorligiga ijobiy ta'siri aniqlandi. Tadqiqot natijalari mashg'ulot jarayonini optimallashtirish, individual yondashuvni qo'llash va



voleybolchilarning hujum hamda blok harakatlarini samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar beradi. Ushbu ish nafaqat voleybolchilarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish, balki ularning raqobatbardoshligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Voleybol, kuch tayyorgarligi, vertikal sakrash, portlovchi kuch, sport tayyorgarligi.

Аннотация: В данной статье систематически исследуется влияние силовой подготовки на высоту вертикального прыжка у высококвалифицированных волейболистов. Цель исследования заключалась в определении эффективности программы тренировок, направленной на развитие силы, взрывной мощности и скоростной силы мышц нижних конечностей. Высота вертикального прыжка является ключевым показателем эффективности атакующих и блокирующих действий спортсменов. Следовательно, силовая подготовка и развитие взрывной силы мышц играют прямую роль в достижении максимальной высоты прыжка.

В исследовании приняли участие 20 высококвалифицированных волейболистов. Эксперимент проводился в течение 8 недель, с частотой тренировок 3–4 раза в неделю. Программа тренировок включала специальные упражнения для развития силы и взрывной мощности нижних конечностей. Для оценки результатов использовались тесты Squat Jump (SQJ) и Countermovement Jump (CMJ). Результаты исследования показали, что силовая подготовка значительно повышает высоту вертикального прыжка ($p < 0,05$).

Кроме того, в ходе исследования было установлено положительное влияние силы, скоростных качеств и координации на эффективность прыжков. Полученные результаты предоставляют практические рекомендации по оптимизации тренировочного процесса, индивидуальному подходу к спортсменам и повышению эффективности атакующих и блокирующих действий. Данное исследование имеет значение для улучшения физической подготовки волейболистов и повышения их конкурентоспособности.

Ключевые слова: Волейбол, силовая подготовка, вертикальный прыжок, взрывная сила, спортивная подготовка.

Abstract. This article systematically examines the effect of strength training on vertical jump height in highly skilled volleyball players. The aim of the study was to determine the effectiveness of a training program designed to develop lower limb strength, explosive power, and speed-strength. Vertical jump height is a critical indicator of the effectiveness of offensive and blocking actions in volleyball. Therefore, strength training and explosive muscle power play a direct role in achieving maximal jump height.



The study involved 20 highly skilled volleyball players. The experiment was conducted over 8 weeks, with training sessions 3–4 times per week. The training program included specialized exercises targeting lower limb strength and explosive power. Squat Jump (SQJ) and Countermovement Jump (CMJ) tests were used to assess the results. The study showed that strength training significantly increases vertical jump height ($p < 0.05$).

Furthermore, the study confirmed the positive impact of strength, speed, and coordination on jump performance. The findings provide practical guidance for optimizing training programs, applying individualized approaches, and enhancing the effectiveness of offensive and blocking actions. This research contributes to improving the physical preparation of volleyball players and increasing their competitive performance.

Keywords: volleyball, strength training, vertical jump, explosive power, sports training.

Kirish. Zamonaviy voleybol sportchilardan tezkorlik, intensivlik va yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni talab qiladigan sport turi hisoblanadi. O'yinda hujum zarbalari, to'siq qo'yish va to'pni yuqoridan uzatish kabi texnik elementlarning samaradorligi ko'p jihatdan sportchilarning sakrash qobiliyatiga bog'liq.

Vertikal sakrash voleybolchilar uchun eng muhim jismoniy sifatlaridan biri hisoblanadi. U sportchining hujum zarbasi berish balandligini, to'siq qo'yish samaradorligini va umumiy o'yin natijadorligini belgilaydi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oyoq mushaklarining kuchi va quvvatini rivojlantirish sportchilarning vertikal sakrash ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kuch tayyorgarligi mushak kuchini oshirishga, nerv-mushak muvofiqlashtirishini yaxshilashga va harakat faoliyatining samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, kuch va pliometrik mashqlarni o'z ichiga olgan kompleks mashg'ulot dasturlaridan foydalanish portlovchi kuchni rivojlantirishga va voleybolchilarning sport ko'rsatkichlarini yaxshilashga yordam beradi.

Sport tayyorgarligi sohasida olib borilgan ko'plab tadqiqotlarga qaramay, yuqori malakali voleybolchilarda vertikal sakrash balandligini oshirish uchun kuch tayyorgarligini optimallashtirish masalasi dolzarbligicha qolmoqda.

Shu munosabat bilan kuch tayyorgarligining vertikal sakrash ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar o'tkazish mashg'ulot jarayonini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega va dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Vertikal sakrash balandligi voleybol va boshqa sport turlarida muvaffaqiyatni belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi. O'rganilgan ilmiy adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, sakrash balandligini oshirishda



sportchilarning kuch tayyorgarligi, ayniqsa pastki oyoq mushaklarining kuchi va portlovchi quvvati muhim rol o‘ynaydi (Железняк Ю.Д., 2013; Верхошанский Ю.В., 2014; Болтаев А.А., 2023-2024; Кхилченко А.Д., 2025).

Platonov V.N. o‘z tadqiqotlarida sportchilarning jismoniy tayyorgarligi va texnik ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligini tahlil qilib, kuch mashqlari sakrash samaradorligini sezilarli darajada oshirishini ta’kidlaydi. Ular sport mashg‘ulotlarida eksentrik-konsentrik va tezkor kuch mashqlarining qo‘llanilishi vertikal sakrashni maksimal darajada rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatgan.

Valunpion A., Rangubhet K. lar voleybolchilarda vertikal sakrash va kuch tayyorgarligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib, pastki oyoq mushaklarini kompleks rivojlantirish orqali hujum va blok harakatlarining samaradorligini oshirish mumkinligini aniqladi. Ushbu natijalar yuqori malakali sportchilarni tayyorlash jarayonida mashg‘ulotlar intensivligini va maxsus kuch mashqlarining hajmini belgilashda asosiy ko‘rsatma bo‘lib xizmat qiladi.

Zamonaviy tadqiqotlar shuningdek, vertikal sakrashning faqatgina pastki oyoq mushaklarining kuchi bilan emas, balki tezkorlik, koordinatsiya va reaksiya qobiliyatlari bilan ham bog‘liqligini ko‘rsatadi (Mulyatini A., Nurjaya D., Kusdinar Y., 2025; Mulyatini A., Nurjaya D., Kusdinar Y., 2025). Shu bilan birga, yuqori malakali voleybolchilarda individual yondashuv va mashg‘ulotlarni periodizatsiya qilish natijalarni sezilarli darajada oshiradi.

Tahlil shuni ko‘rsatdiki, vertikal sakrash balandligini oshirish uchun kuch tayyorgarligi bilan bir qatorda, portlovchi quvvat, tezkorlik va koordinatsiya mashqlari tizimli ravishda qo‘llanilishi lozim. Bu esa tadqiqotning ilmiy dolzarbligini mustahkamlaydi va mashg‘ulot jarayonida yangi metodik yondashuvlarni ishlab chiqishga asos bo‘ladi.

Tadqiqotning maqsadi – yuqori malakali voleybolchilarda kuch tayyorgarligining vertikal sakrash balandligiga ta’sirini aniqlash.

Tadqiqotning vazifalari:

1. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish.
2. Yuqori malakali voleybolchilar uchun kuch tayyorgarligi dasturini ishlab chiqish.
3. Tajriba jarayonida yuqori malakali voleybolchilarda vertikal sakrash ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini aniqlash.

Tadqiqot metodlari:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- jismoniy tayyorgarlik testlari;
- pedagogik tajriba;
- matematik statistika uslublari.



Tadqiqotni tashkil qilinishi. Tadqiqotda 20 nafar yuqori malakali voleybolchilar ishtirok etdilar. Mashg'ulot dasturi 8 hafta davom etdi. Mashg'ulotlar haftasiga 3 marta o'tkazildi.

Dastur quyidagi mashqlarni o'z ichiga oldi:

1. Shtanga bilan o'tirib turish;
2. Oldinga qadam tashlab o'tirish (lunge);
3. Shtangani yerdan ko'tarish mashqi (deadlift);
4. Sakrash mashqlari;
5. Pliometrik mashqlar.

1-jadval

Tadqiqot ishtirokchilarining umumiy tavsifi

Ko'rsatkich	Qiymat ($\bar{x}$)
Sportchilar soni	20
Yoshi	18-24
Bo'yi	188,4±6,2 sm
Tana vazni	82.5±7,1 kg
Sport tajribasi	8,3±2,5 yil

2-jadval

Tadqiqot davrida vertikal sakrash natijalari

№	Test	Tajribadan oldin	Tajribadan keyin	t	p
1	Sakrab o'tirish mashqi, (squat jump) sm	48,3±4,5	52,7±4,2	3,21	<0,05
2	Qarshi harakat bilan sakrash, (countermovement jump) sm	51,6±5,1	56,9±4,8	3,38	<0,01

*Izoh: **squat jump** – sakrashdan oldin pastda to'xtab turib sakraladi.*

***countermovement jump** – avval tez pastga tushib, darhol sakraladi.*

Natijalarni muhokama qilish. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori malakali voleybolchilarda 8 haftalik kuch tayyorgarligi mashg'ulotlari vertikal sakrash balandligini sezilarli darajada oshirdi. Squat Jump (SQJ) testi natijalari 48,3±4,5 sm. dan 52,7±4,2 sm. ga o'sdi ($t=3,21$, $p<0,05$), Countermovement Jump (CMJ) esa 51,6±5,1 sm. dan 56,9±4,8 sm. ga oshdi ($t=3,38$, $p<0,01$). Bu o'zgarishlar kuch mashqlari va pliometrik mashqlar kombinatsiyasining pastki oyoq mushaklarining kuchi, portlovchi quvvati va tezkorligini rivojlantirishga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Shuningdek, CMJ testida ko'proq sezilarli natijalar kuzatilgan, bu eksentrik-konsentrik mashqlar va pliometrik elementlar kombinatsiyasining vertikal sakrashning samaradorligini oshirishda yuqori samaradorligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar ilgari tadqiqotlarda qayd etilgan xulosalar bilan mos keladi: kuch va portlovchi quvvat mashqlari yuqori malakali sportchilarda sakrash balandligini oshirishga xizmat qiladi.



Shuni ta’kidlash kerakki, mashg’ulot dasturining intensivligi va haftasiga 3 marta bo’lishi optimal natijalarni ta’minladi va sportchilarning jarohat xavfini kamaytirishga yordam berdi.

Amaliy tavsiyalar.

1. *Kuch mashqlari:* Shtanga bilan o’tirib turish, oldinga qadam tashlab o’tirish (lunge) va shtangani yerdan ko’tarish mashqlari orqali pastki oyoq mushaklarini kuchaytirish.

2. *Pliometrik mashqlar:* Sakrash mashqlari va maxsus pliometrik mashqlar vertikal sakrash balandligini oshirishda samarali bo’ladi.

3. *Mashg’ulotlarni periodizatsiya qilish:* Haftasiga 3 marta, 8 haftalik sikl bilan mashg’ulotlarni tashkil etish. Har bir mashg’ulot mashqlar intensivligi va sakrash texnikasiga e’tibor qaratgan holda bajarilishi lozim.

4. *Test va monitoring:* SQJ va CMJ testlari yordamida sportchilarning vertikal sakrash balandligini va kuch tayyorgarligi darajasini muntazam kuzatib borish.

5. *Individual yondashuv:* Har bir sportchining tana tuzilishi, vazni va tayyorgarlik darajasini hisobga olib mashqlar hajmi va intensivligini moslashtirish.

6. *Texnik va koordinatsion mashqlar:* Sakrash samaradorligini oshirish uchun mushak koordinatsiyasi, tezkorlik va muvozanatni rivojlantiruvchi mashqlarni kiritish.

Xulosalar.

1. 8-haftalik kuch tayyorgarligi mashg’ulotlari yuqori malakali voleybolchilarda vertikal sakrash balandligini sezilarli darajada oshirdi. Squat Jump o’rtacha 4,4 sm., Countermovement Jump esa 5,3 sm. ga oshdi, bu esa $p<0,05$ va $p<0,01$ darajalarida statistik ahamiyatli natija hisoblanadi.

2. Mashg’ulot dasturining samaradorligi pastki oyoq mushaklarini kuchaytirish, portlovchi quvvat va eksentrik-konsentrik harakatlarni rivojlantirish bilan bog’liq.

3. Countermovement Jump testida ko’proq natija kuzatilgani pliometrik mashqlar va tezkor kuch mashqlarining vertikal sakrashga yuqori ta’sirini ko’rsatadi.

4. Tadqiqot natijalari mashg’ulot dasturini optimallashtirish, sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirish va hujum hamda blok harakatlarini samarali bajarish bo’yicha amaliy tavsiyalar beradi.

5. Shu bilan birga, individual yondashuv va mashg’ulotlarning periodizatsiyasi yuqori malakali voleybolchilarda maksimal natijalarga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Болтаев А.А. Механизмы формирования технических навыков прыжков в волейболе // Образование и инновационные исследования. – 2024.



2. Верхошанский Ю.В. Основы специальной силовой подготовки спортсменов. – Москва: Советский спорт, 2013.
3. Железняк Ю.Д. Теория и методика обучения игре в волейбол. – Москва: Академия, 2014.
4. Зубарева Е.К. Влияние комплекса прыжковых упражнений на высоту вертикального прыжка студентов-волейболистов. Материалы XVII Международной Бурденковской научной конференции 22-24 апреля 2021 года.
5. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2015.
6. Boltayev A. Methodology of volleyball lesson and technological fundamentals. Журнал иностранных языков и лингвистики, 2023. 5(5).
7. Valunpion A., Rangubhet K. Vertical jump performance gains from plyometric and Air Alert training in volleyball // Frontiers in Sports and Active Living. – 2025.
8. Mulyatini A., Nurjaya D., Kusdinar Y. Plyometric training on grass surfaces on women's vertical jump in volleyball // Journal of Physical Education Health and Sport. – 2025.
9. Pacheco Naula J., Torres-Palchisaca Z. Plyometric training program to improve the explosive strength of the vertical jump in volleyball // Runas Journal of Education and Culture. – 2025.
10. Khilchenko A.D. Integration of volleyball training into the professional education system of technical universities // Учёные записки университета им. П.Ф. Лесгафта. – 2025. –
11. Ryazanov A.A., Bogdanov M.Y. Volleyball players speed-strength abilities development // Tambov University Review. – 2019.

АНАЛИЗ СООТВЕТСТВИЯ АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ И МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ 12–16 ЛЕТ ИГРОВОМУ АМПУЛА

Умматалиев Шерзод Шерали угли

Заместитель директора по развитию массового спорта и селекции
Спортивной школы № 2 Мирзо-Улугбекского района
ummataliyevsh@icloud.com

Аннотация: В статье рассматривается проблема спортивного специализации юных волейболистов в возрасте 12–16 лет. На основе антропометрических (рост, размах рук) и морфофункциональных (ЖЕЛ, проба Руфье, взрывная сила) показателей проведен сравнительный анализ соответствия физических данных игроков их игровым позициям (связующий,



нападающий, либеро). Выявлены ключевые маркеры, определяющие успешность реализации в конкретном амплуа.

Ключевые слова: Волейбол, антропометрия, морфофункциональное состояние, игровые амплуа, подростковый возраст, физический подготовка.

Annotatsiya: Ushbu maqolada 12 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan yosh voleybolchilarning jismoniy rivojlanishi va funksional imkoniyatlarini ularning o'yin ixtisoslashuviga (ampluasiga) muvofiqligi o'rganiladi.

Antropometrik (bo'y, qo'llar kengligi) va morfofunktsional (O'TS, Rufe sinovi, portlovchi kuch) ko'rsatkichlar asosida futbolchilarning jismoniy ko'rsatkichlari ularning o'yin pozitsiyalariga (bog'lovchi, hujumchi, libero) mos kelishi qiyosiy tahlil qilindi. Muayyan ampluada amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy belgilar aniqlandi.

Kalit so'zlar: Voleybol, antropometriya, morfofunktsional holat, o'yin ampluasi, o'smirlik yoshi, jismoniy tayyorgarlik

Abstract: This article examines the physical development and functional capabilities of young volleyball players aged 12 to 16 in accordance with their playing specialization (amplu).

Based on anthropometric (height, arm width) and morphofunctional (FVC, Rufe test, explosive strength) indicators, a comparative analysis of the correspondence of the physical indicators of football players to their playing positions (setter, attacker, libero) was conducted. The main features that determine the success of implementation in a specific position have been identified.

Keywords: Volleyball, anthropometry, morphofunctional state, playing position, adolescence, physical training.

Актуальность. Современный волейбол характеризуется высокая физическая активность и характеризуется строгой адаптацией к игровым условиям. Период с 12 до 16 лет является критическим для определения игрового амплуа, так как именно в это время завершаются основные процессы пубертатного скачка роста и формируется индивидуальный морфотип спортсмена. Ошибка в выборе амплуа на данном этапе может привести к стагнации спортивного мастерства. Например, игрок с выдающимся ростом, но низкими показателями реактивности, может быть неэффективен как либеро, но успешен как центральный блокирующий. Научное обоснование соответствия их морфофункциональных критериев игровой амплуа позволяет оптимизировать учебно-тренировочный процесс [1].

Методы и организация исследования. В исследовании приняли участие 45 волейболистов (юноши) в возрасте 12–16 лет, разделенные на группы по амплуа: Нападающие (доигровщики и диагональные) $n=20$ и связующие $n=10$, либеро $n=15$. Для выполнения данного исследования были использованы следующие: теоретический анализ и обобщение литературных источников,



педагогические наблюдения, метод контрольных испытаний, педагогический эксперимент, антропометрия, функциональные показатели, прыжок вверх с места (всплеск мощности), тест «челночный бег 5х6 м» (ловкость) тесты.

Цель исследования: Научное обоснование соответствия морфофункциональных критериев юных волейболистов игровому амплуа оптимизация учебно-тренировочного процесса.

Результаты исследования и их обсуждение. В ходе исследования были получены данные, подтверждающие морфологическую дифференциацию в зависимости от позиции на площадке. К 16 годам эти различия становятся статистически значимыми ($p < 0.05$).

Таблица 1.

Антропометрические показатели волейболистов 14–16 лет в зависимости от амплуа

Показатель	Нападающие	Связующие	Либеро
Рост (см)	188.5 ±4.2	182.3 ±3.1	172.4 ±4.5
Вес (кг)	76.2 ±3.8	70.5 ±2.9	65.8 ±3.2
Размах рук (см)	194.2 ±5.1	184.8 ±4.3	170.5 ±3.7
Индекс массы тела (ИМТ)	21.4 ±1.1	21.2 ±0.9	22.1 ±1.2

Таблица 2.

Морфофункциональные и двигательные показатели (12–16 лет)

Тест / Амплуа	Нападающие	Связующие	Либеро
Прыжок вверх с/м (см)	65.4 ±4.2	58.2 ±3.5	52.1 ±2.8
ЖЕЛ (мл)	4200 ±150	3850 ±120	3500 ±110
Индекс Руфье (ед.)	7.2 ±0.8	6.4 ±0.5	5.8 ±0.4
Челночный бег (сек)	10.8 ±0.3	10.2 ±0.2	9.6 ±0.1

Анализ данных показывает, что нападающие обладают наибольшими тотальными размерами тела и высокими показателями взрывной силы. Для них критически важен размах рук, который в среднем на 5–6 см превышает рост, что создает преимущество в точке удара и на блоке. Нападающие обладают эктоморфным типом телосложения с длинными рычагами конечностей. Это минимизирует сопротивление воздуха при замахе и увеличивает высоту съема мяча. Однако быстрый рост костей часто опережает развитие мышечного корсета, что требует особого внимания к профилактике травм позвоночника в 14–15 лет [2].

Связующие игроки демонстрируют средние антропометрические данные, но имеют наиболее сбалансированные показатели вегетативной устойчивости (Индекс Руфье). Их функциональная система должна быть готова к длительным нагрузкам низкой и средней интенсивности с сохранением высокой концентрации внимания.

Либеро в отличие от нападающих, либеро чаще имеют нормостенический (мезоморфный) тип. Низкий центр тяжести (более короткие нижние



конечности по отношению к туловищу) обеспечивает им биомеханическую устойчивость при глубоких выпадах и приеме мощных подач. Либоро значительно уступают в росте, однако превосходят другие группы в тестах на ловкость и быстроту перемещения. Высокий ИМТ у либоро по сравнению с нападающими часто обусловлен более низким центром тяжести, что необходимо для устойчивости при приеме мяча.

Анализ полученных данных позволяет утверждать, что в возрастной группе 12–16 лет происходит не только количественный рост антропометрических показателей, но и качественная перестройка функциональных систем организма, определяющая успешность в конкретном игровом амплуа. Период 13–15 лет характеризуется пиком пубертатного ускорения роста. У нападающих (доигровщиков и центров) темпы прироста длины тела достигают 8–12 см в год. Наше исследование подтверждает наличие «коэффициента длиннорукой» (отношение размаха рук к росту) как критического фактора для блокирующих и атакующих игроков.

Показатели пробы Руфье и ЖЕЛ (Жизненной емкости легких) отражают разную направленность адаптационных процессов. Связующие игроки продемонстрировали наилучшие показатели индекса Руфье (6.4 ± 0.5 ед.). Это объясняется спецификой их деятельности: связующий выполняет наибольший объем перемещений за игру, но с умеренной интенсивностью. Его сердечно-сосудистая система адаптирована к аэробно-анаэробному режиму, что позволяет сохранять точность микромоторики пальцев на фоне нарастающего утомления. Нападающие у этой группы отмечается самый высокий показатель ЖЕЛ (4200 ± 150 мл), что связано с необходимостью обеспечения кратковременных, но мощных анаэробных «взрывов» во время прыжков и ударов.

Наше обсуждение не было бы полным без анализа связи морфотипа с нейродинамикой. Либоро высокая скорость в «челночном беге» (9.6 сек) коррелирует с лабильностью нервных процессов. Для этого амплуа характерно преобладание процессов возбуждения, что позволяет мгновенно реагировать на рикошеты. Связующие обладают наиболее стабильными показателями реакции на движущийся объект (РДО). Их морфофункциональный статус «заточен» под антиципацию -предвосхищение действий соперника.

При сравнении наших данных с нормативами ведущих волейбольных академий (например, Италии и Бразилии), выявлено, что у отечественных волейболистов 12–14 лет показатели взрывной силы (прыжок вверх) на 5–7% ниже при аналогичном росте. Это указывает на необходимость внедрения в тренировочный процесс программ плиометрики, адаптированных под подростковый возраст, для полной реализации их морфологического потенциала.



Морфофункциональный статус волейболиста 12–16 лет это динамическая система. Тренерам следует учитывать, что антропометрия диктует позицию, а функциональная подготовка обеспечивает эффективность на этой позиции. В 14 лет целесообразно проводить «вторичный отбор», когда по результатам темпов биологического созревания корректируется тренировочная программа для каждого амплуа отдельно. Для игроков 12–14 лет проводить мониторинг "биологического возраста". Если рост замедляется, целесообразно перепрофилировать игрока из нападающего в либеро или связующего до наступления психологического кризиса.

Включать в тренировочный процесс упражнения на развитие "взрывной" силы для нападающих и скоростной выносливости для либеро, исходя из их морфотипа.

Заключение. К 12-16 годам выявлено четкое разделение: нападающие - долихоморфный тип с акцентом на длину конечностей; либеро - мезоморфный тип с акцентом на реактивность. Функциональный критерий использование индекса Руфье и показателей ЖЕЛ позволяет оценить "резерв мощности", необходимый для высокоинтенсивной игры в защите (либеро) и прыжковой выносливости (нападающие).

Рекомендации: При отборе подростков 12-13 лет в группу связующих следует отдавать предпочтение детям с высокими координационными способностями, даже если их ростовые показатели на данный момент являются средними.

Использованная литература:

1. Колпакова Т.В., Казакова Г.Н., Синдеева Л.В. и др. Морфофункциональный статус волейболисток высшей лиги / Современные проблемы науки и образования: электронный журнал – 2012. – № 5. – URL: <http://science-education.ru/ru/article/view?id=7298> (дата обращения 28.02.2022).
2. Олейник Е.А. Анатомо-антропологические характеристики спортсменов игровых видов спорта / Е.А.Олейник // Ученые записки университета имени П. Ф. Лесгафта. – 2013. – № 6 (100). – С. 94–99.

BADMINTONDA CHIDAMLILIKNI OSHIRISH USULLARI

Atajanov Rasul Turganbaevich

Assistent o'qituvchi

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

rasul@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada badminton sportida chidamlilikni oshirishning samarali usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida sportchilarning umumiy va maxsus chidamliligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot metodlari, yuklama



hajmi va intensivligi, shuningdek, tiklanish jarayonining ahamiyati o‘rganildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interval mashg‘ulotlar, kompleks jismoniy tayyorgarlik va individual yondashuv badmintonchilarning chidamlilik darajasini sezilarli darajada oshiradi. Mazkur tadqiqot natijalari murabbiylar va sportchilar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: *Badminton, chidamlilik, mashg‘ulot, yuklama, interval trening, jismoniy tayyorgarlik, tiklanish*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются эффективные методы повышения выносливости в бадминтоне. В ходе исследования изучены тренировочные методики, направленные на развитие общей и специальной выносливости спортсменов, объем и интенсивность нагрузок, а также значение восстановительных процессов. Результаты показывают, что интервальные тренировки, комплексная физическая подготовка и индивидуальный подход значительно повышают уровень выносливости бадминтонистов. Полученные данные имеют практическое значение для тренеров и спортсменов.*

Ключевые слова: *Бадминтон, выносливость, тренировка, нагрузка, интервальные тренировки, физическая подготовка, восстановление*

Abstract: *This article analyzes effective methods for improving endurance in badminton. The study examines training approaches aimed at developing both general and specific endurance, including training load, intensity, and recovery processes. The results indicate that interval training, comprehensive physical preparation, and an individualized approach significantly enhance the endurance level of badminton players. The findings of this study are of practical importance for coaches and athletes.*

Keywords: *Badminton, endurance, training, load, interval training, physical preparation, recovery.*

Kirish. *Badminton bugungi kunda dunyo miqyosida keng tarqalgan va tez rivojlanayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Ushbu sport turi o‘zining yuqori tezlik, aniqlik va chaqqonlikni talab qilishi bilan ajralib turadi. Zamonaviy badminton o‘yinlari sportchidan nafaqat mukammal texnik va taktik tayyorgarlikni, balki yuqori darajadagi jismoniy sifatlarni ham talab etadi. Ayniqsa, chidamlilik badmintonchilarning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki o‘yin davomida sportchi ko‘p marotaba yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajaradi, tezkor qaror qabul qiladi va qisqa vaqt ichida tiklanishga majbur bo‘ladi.*

Badmintonda chidamlilik tushunchasi umumiy va maxsus chidamlilikka bo‘linadi. Umumiy chidamlilik organizmning uzoq vaqt davomida jismoniy yuklamalarga bardosh berish qobiliyatini ifodalasa, maxsus chidamlilik aynan badminton o‘yiniga xos harakatlar — tez yugurish, sakrash, zarba berish va tez



yo‘nalishni o‘zgartirish jarayonlarida namoyon bo‘ladi. Shu sababli, badmintonchilarni tayyorlash jarayonida ushbu ikki turdagi chidamlilikni uyg‘un ravishda rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aks holda, sportchi o‘yin davomida tez charchab qoladi, bu esa uning texnik va taktik harakatlarining sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hozirgi kunda sport ilm-fanida badmintonchilarning chidamliligini oshirishga qaratilgan turli metod va yondashuvlar ishlab chiqilgan. Jumladan, interval mashg‘ulotlar, yuqori intensivlikdagi qisqa yuklamalar, aylanma mashg‘ulotlar (circuit training) va kombinatsiyalangan mashqlar tizimi keng qo‘llanilmoqda. Ushbu metodlar sportchining yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini rivojlantirish bilan birga, mushaklarning tez tiklanish qobiliyatini ham oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarda mashg‘ulot yuklamalarini individuallashtirish, sportchining funksional holatini doimiy monitoring qilish va tiklanish jarayonlariga alohida e’tibor qaratish muhim omil sifatida ko‘rilmoqda.

Badminton sportida yuqori natijalarga erishish uchun mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish zarur. Bu esa trenerlardan sportchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy rivojlanish darajasi va individual imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishni talab etadi. Ayniqsa, yosh badmintonchilar bilan ishlashda chidamlilikni bosqichma-bosqich rivojlantirish, ortiqcha yuklamalardan saqlanish va to‘g‘ri dam olish rejimini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, sportchining psixologik tayyorgarligi ham chidamlilik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki ruhiy barqarorlik sportchining uzoq davom etadigan o‘yinlarda samarali harakat qilishiga yordam beradi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, badmintonchilarda chidamlilikni oshirish masalasi nafaqat sport natijalarini yaxshilash, balki sportchilarning sog‘lig‘ini mustahkamlash va jarohatlarning oldini olishda ham muhim ahamiyatga ega. Chunki yetarli darajada rivojlanmagan chidamlilik sportchining ortiqcha charchashiga, organizmda zo‘riqishlarning ortishiga va natijada turli jarohatlar yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, chidamlilikni rivojlantirishning samarali usullarini aniqlash va ularni amaliyotga joriy etish bugungi kunda dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada badmintonchilarda chidamlilikni oshirishning samarali usullari, mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan metodlar hamda ularning sportchilar organizmiga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari asosida murabbiylar va sportchilar uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi, bu esa badminton sportida yuqori natijalarga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotni tashkil qilish usullari (metodologiya). Mazkur tadqiqot badminton sportida chidamlilikni oshirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish va ularning samaradorligini amaliy jihatdan tekshirishga qaratilgan bo‘lib, kompleks yondashuv asosida tashkil etildi. Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatuv, tajriba-sinov ishlari, testlash, funksional diagnostika hamda



matematik-statistik tahlil metodlaridan keng foydalanildi. Ushbu metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi tadqiqot natijalarining ishonchliligi va obyektivligini ta‘minlashga xizmat qildi.

Tadqiqot ishlari sport maktabi hamda oliy ta‘lim muassasasida badminton bilan muntazam shug‘ullanib kelayotgan sportchilar ishtirokida olib borildi. Tadqiqotga 18–22 yosh oralig‘idagi, kamida 2–3 yillik sport tajribasiga ega bo‘lgan jami 20 nafar badmintonchi jalb qilindi. Ishtirokchilar jismoniy tayyorgarlik darajasi, sog‘lik holati va sport ko‘rsatkichlari jihatidan deyarli bir xil bo‘lishiga e‘tibor qaratildi. Ular tasodifiy tanlash usuli yordamida ikki guruhga — nazorat guruhi va tajriba guruhiga ajratildi. Har bir guruhda 10 nafardan sportchi ishtirok etdi.

Nazorat guruhi an‘anaviy mashg‘ulot dasturi asosida shug‘ullangan bo‘lsa, tajriba guruhida maxsus ishlab chiqilgan, chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks mashg‘ulot dasturi qo‘llanildi. Ushbu dastur zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotida qo‘llanilayotgan ilg‘or metodlarga asoslangan holda ishlab chiqildi. Xususan, interval mashg‘ulotlar, yuqori intensivlikdagi qisqa muddatli yuklamalar (HIIT), aylanma mashg‘ulotlar (circuit training), maxsus badminton harakatlari asosidagi mashqlar tizimi hamda tiklanish mashqlari dastur tarkibiga kiritildi.

Tadqiqot uch asosiy bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqich tayyorgarlik bosqichi bo‘lib, unda mavzu bo‘yicha ilmiy-uslubiy adabiyotlar chuqur tahlil qilindi, mavjud metodikalar o‘rganildi hamda tadqiqot dasturi ishlab chiqildi. Bu bosqichda, shuningdek, tadqiqot ishtirokchilarining dastlabki jismoniy va funksional ko‘rsatkichlari aniqlanib, ularning boshlang‘ich darajasi baholandi. Ikkinchi bosqich asosiy tajriba bosqichi bo‘lib, unda tajriba guruhiga maxsus mashg‘ulot dasturi joriy etildi va uning ta‘siri muntazam ravishda kuzatib borildi. Uchinchi bosqich yakuniy bosqich bo‘lib, unda olingan natijalar tahlil qilinib, umumlashtirildi va ilmiy xulosalar chiqarildi.

Chidamlilik darajasini aniqlash uchun bir nechta test mashqlari qo‘llanildi. Umumiy chidamlilikni baholash maqsadida 1000 metrga yugurish testi, tezkor chidamlilikni aniqlash uchun 4x10 metrga shuttle run testi, maxsus chidamlilikni aniqlash uchun esa badminton o‘yiniga xos harakatlardan iborat interval testlar qo‘llanildi. Bundan tashqari, sportchilarning yurak urish chastotasi (YUCH), nafas olish tezligi va tiklanish vaqti kabi fiziologik ko‘rsatkichlari ham o‘lchandi. Ushbu ko‘rsatkichlar sportchining yuklamaga moslashish darajasini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Tajriba guruhida mashg‘ulotlar haftasiga 4 marotaba, har biri 90 daqiqadan tashkil etildi. Har bir mashg‘ulot uch qismdan iborat bo‘ldi: kirish (qizdirish), asosiy va yakuniy (tiklanish) qismi. Qizdirish qismida yengil yugurish, umumrivojlantiruvchi mashqlar va dinamik cho‘zilish mashqlari bajarildi. Bu bosqich mushaklarni ishga tayyorlash, jarohatlarning oldini olish va organizmni keyingi yuklamalarga moslashtirish uchun xizmat qildi.



Asosiy qismda chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar bajarildi. Interval mashg'ulotlar davomida sportchilar 30–40 soniya davomida maksimal yoki maksimalga yaqin tezlikda harakat qilib, 30–60 soniya davomida faol dam olish mashqlarini bajardilar. Ushbu mashg'ulotlar yurak-qon tomir tizimini rivojlantirish va organizmning kislorod iste'molini oshirishga yordam berdi. Aylanma mashg'ulotlarda esa 6–8 ta turli mashqlar ketma-ket bajarilib, har bir mashq 30–45 soniya davom etdi. Mashqlar orasida 10–15 soniya dam olish va har bir aylanadan so'ng 1–2 daqiqa tiklanish vaqti berildi.

Maxsus chidamlilikni rivojlantirish uchun badminton o'yiniga xos mashqlar keng qo'llanildi. Jumladan, kort bo'ylab tezkor harakatlanish, zarbalarni ketma-ket bajarish, tez yo'nalishni o'zgartirish va o'yin vaziyatlarini modellastirish asosidagi mashqlar bajarildi. Bu mashqlar sportchining nafaqat jismoniy, balki texnik va taktik tayyorgarligini ham oshirishga xizmat qildi.

Yakuniy qismda tiklanish mashqlariga alohida e'tibor qaratildi. Nafasni me'yorlashtirish, mushaklarni bo'shashtirish, statik cho'zilish mashqlari bajarildi. Bundan tashqari, sportchilarga to'g'ri ovqatlanish, uyqu rejimi va tiklanish jarayonlarini tashkil etish bo'yicha tavsiyalar berildi. Bu esa organizmning tez tiklanishiga va keyingi mashg'ulotlarga tayyor holatda bo'lishiga yordam berdi.

Tadqiqot davomida yuklamaning hajmi va intensivligi bosqichma-bosqich oshirib borildi. Dastlabki haftalarda o'rtacha intensivlikdagi mashg'ulotlar qo'llanilgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda yuqori intensivlikdagi yuklamalar joriy etildi. Bu yondashuv sportchilarning organizmini ortiqcha zo'rqihsiz rivojlantirish imkonini berdi. Shu bilan birga, har bir sportchining individual xususiyatlari hisobga olinib, yuklama darajasi moslashtirildi.

Natijalarni qayta ishlashda matematik-statistik metodlardan foydalanildi. O'rtacha arifmetik qiymatlar, foiz ko'rsatkichlari, natijalar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, guruhlararo taqqoslash amalga oshirildi. Shuningdek, tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi o'zgarishlar dinamikasi tahlil qilindi. Bu esa qo'llanilgan metodikaning samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

Shunday qilib, mazkur metodologiya badmintonchilarda chidamlilikni rivojlantirishga qaratilgan kompleks va tizimli yondashuvni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv sportchilarning jismoniy, funksional va maxsus tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qiladi hamda yuqori sport natijalariga erishish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

Tadqiqot natijalari va muhokamasi. Mazkur tadqiqot jarayonida badmintonchilarda chidamlilikni oshirishga qaratilgan maxsus ishlab chiqilgan mashg'ulot dasturining samaradorligi har tomonlama o'rganildi va olingan natijalar batafsil tahlil qilindi. Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlar, ularning jismoniy va funksional ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar dinamikasi ilmiy asosda baholandi. Tadqiqot boshida va yakunida o'tkazilgan test natijalari sportchilarning chidamlilik darajasida sezilarli o'zgarishlar yuz berganini ko'rsatdi.



Dastlabki bosqichda har ikkala guruh ishtirokchilarining umumiy chidamlilik ko‘rsatkichlari deyarli bir xil darajada ekanligi aniqlandi. 1000 metrga yugurish testida nazorat guruhi o‘rtacha 4 daqiqa 12 soniya natija ko‘rsatgan bo‘lsa, tajriba guruhi 4 daqiqa 10 soniya natijani qayd etdi. Bu esa guruhlar o‘rtasida boshlang‘ich farq deyarli mavjud emasligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, shuttle run (4x10 m) testida ham har ikkala guruhning natijalari o‘xshash bo‘lib, tezkor chidamlilik darajasi teng ekanligi kuzatildi.

Tajriba jarayonining o‘rta bosqichiga kelib, tajriba guruhida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatila boshlandi. Xususan, interval va aylanma mashg‘ulotlarning muntazam qo‘llanilishi natijasida sportchilarning yurak-qon tomir tizimi faoliyati yaxshilandi, nafas olish hajmi oshdi va tiklanish tezligi ortdi. Bu o‘zgarishlar ularning umumiy chidamlilik darajasining oshishiga olib keldi. Shu davrda tajriba guruhining 1000 metrga yugurish natijalari o‘rtacha 3–5% ga yaxshilangan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich atigi 1–2% ni tashkil etdi.

Tadqiqot yakunida olingan natijalar esa yanada aniqroq farqlarni namoyon etdi. Tajriba guruhida 1000 metrga yugurish natijasi o‘rtacha 3 daqiqa 50 soniyagacha yaxshilandi, ya‘ni boshlang‘ich natijaga nisbatan taxminan 8–10% ga o‘shish kuzatildi. Nazorat guruhida esa bu ko‘rsatkich 4 daqiqa 5 soniya atrofida bo‘lib, o‘shish darajasi 3–4% ni tashkil etdi. Bu esa qo‘llanilgan maxsus mashg‘ulot metodikasining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.

Tezkor chidamlilikni aniqlovchi shuttle run testida ham tajriba guruhi sportchilari sezilarli natijalarga erishdilar. Ularning ko‘rsatkichlari o‘rtacha 0.8–1.2 soniyaga yaxshilangan bo‘lsa, nazorat guruhida bu ko‘rsatkich 0.3–0.5 soniyani tashkil etdi. Bu esa badminton o‘yinida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan tezkor harakatlanish va yo‘nalishni tez o‘zgartirish qobiliyatining rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Maxsus chidamlilikni baholashda qo‘llanilgan badminton harakatlariga asoslangan testlar natijalari ham tajriba guruhida yuqori o‘shishni ko‘rsatdi. Sportchilar uzoq davom etadigan o‘yin vaziyatlarida kamroq charchashni, zarbalar aniqligining pasaymasligini va o‘yin davomida yuqori intensivlikni saqlab qolish qobiliyatining oshganligini namoyon etdilar. Bu esa maxsus mashg‘ulotlarning to‘g‘ri tanlanganligini va ularning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida sportchilarning yurak urish chastotasi (YUCH) ko‘rsatkichlari ham kuzatildi. Tajriba guruhida mashg‘ulotlardan keyingi tiklanish tezligi sezilarli darajada yaxshilandi. Dastlabki bosqichda sportchilarning yurak urish chastotasi mashg‘ulotdan so‘ng 3–4 daqiqada normaga qaytgan bo‘lsa, tadqiqot yakunida bu ko‘rsatkich 1.5–2 daqiqagacha qisqardi. Bu esa yurak-qon tomir tizimining moslashuvchanligi oshganligini va organizmning yuklamalarga tez moslashayotganini ko‘rsatadi.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, interval mashg‘ulotlar va yuqori intensivlikdagi yuklamalar sportchilarning nafaqat umumiy chidamliligini, balki maxsus



chidamliligini ham samarali ravishda rivojlantiradi. Shu bilan birga, aylanma mashg'ulotlar mushak guruhlarini kompleks rivojlantirishga xizmat qilib, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasini oshiradi. Ushbu metodlarning kombinatsiyalangan holda qo'llanilishi esa eng yuqori natijalarni ta'minlaydi.

Nazorat guruhi natijalari bilan solishtirganda, tajriba guruhidagi o'sish ko'rsatkichlari ancha yuqori bo'lgani ilmiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Bu esa an'anaviy mashg'ulot dasturlariga nisbatan zamonaviy yondashuvlar samaraliroq ekanligini ko'rsatadi. Ayniqsa, mashg'ulot yuklamalarini individuallashtirish, tiklanish jarayonlariga e'tibor qaratish va maxsus mashqlarni keng qo'llash sport natijalarini yaxshilashda muhim omil ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot natijalari sportchilarning psixologik holatiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganini ko'rsatdi. Tajriba guruhidagi sportchilar o'zlariga bo'lgan ishonchning ortganligini, mashg'ulotlarga bo'lgan motivatsiyaning kuchayganligini va musobaqalarda barqaror o'yin namoyish etish qobiliyatining oshganligini qayd etdilar. Bu esa jismoniy tayyorgarlik bilan bir qatorda psixologik tayyorgarlikning ham muhim ekanligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, tadqiqot davomida jarohatlar sonining kamayganligi ham kuzatildi. Bu esa mashg'ulotlarning to'g'ri tashkil etilganligi, yuklamaning bosqichma-bosqich oshirilganligi va tiklanish jarayonlariga e'tibor qaratilganligi bilan izohlanadi. Natijada sportchilarning sog'lig'i mustahkamlanib, uzoq muddatli sport faoliyatini samarali olib borish imkoniyati oshdi.

Olingan natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, badminton sportida chidamlilikni oshirish uchun interval mashg'ulotlar, aylanma mashg'ulotlar va maxsus badminton mashqlarini o'z ichiga olgan kompleks yondashuv eng samarali hisoblanadi. Ushbu metodlarni amaliyotga joriy etish sportchilarning jismoniy va funksional tayyorgarligini sezilarli darajada yaxshilaydi hamda yuqori sport natijalariga erishish imkonini beradi.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari badmintonchilarda chidamlilikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan metodikani taklif etadi va uning samaradorligini amaliy jihatdan tasdiqlaydi. Bu esa kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi hamda sport amaliyotida keng qo'llanilishi mumkin.

Xulosa. Mazkur tadqiqot badminton sportida chidamlilikni oshirishning samarali usullarini aniqlash va ularning amaliy samaradorligini baholashga qaratilgan bo'lib, o'tkazilgan ilmiy-tajriba ishlari asosida muhim xulosalarga kelindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, badmintonchilarda yuqori sport natijalariga erishish uchun chidamlilik jismoniy sifatlar ichida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Chunki o'yin davomida sportchi yuqori intensivlikdagi harakatlarni takroriy bajaradi va bu jarayonda chidamlilik darajasi uning samaradorligini bevosita belgilaydi.



Tadqiqot davomida qo'llanilgan maxsus mashg'ulot dasturi, ya'ni interval mashg'ulotlar, aylanma mashg'ulotlar (circuit training), yuqori intensivlikdagi qisqa muddatli yuklamalar (HIIT) hamda badminton o'yiniga xos mashqlar majmuasi sportchilarning umumiy va maxsus chidamliligini sezilarli darajada oshirishi ilmiy jihatdan isbotlandi. Ayniqsa, ushbu metodlarning kompleks holda qo'llanilishi sportchilarning yurak-qon tomir tizimi faoliyatini yaxshilash, nafas olish imkoniyatlarini kengaytirish va tiklanish jarayonlarini tezlashtirishga xizmat qildi.

Tajriba va nazorat guruhleri natijalarining taqqoslanishi shuni ko'rsatdiki, an'anaviy mashg'ulot dasturlariga nisbatan zamonaviy va ilmiy asoslangan yondashuvlar ancha yuqori samaradorlikka ega. Tajriba guruhida kuzatilgan ijobiy o'zgarishlar, xususan, yugurish natijalarining yaxshilanishi, tezkor chidamlilik ko'rsatkichlarining oshishi hamda yurak urish chastotasining tezroq tiklanishi ushbu metodikaning afzalligini tasdiqlaydi.

Shuningdek, tadqiqot davomida mashg'ulot yuklamalarini individuallashtirish, sportchilarning funksional holatini doimiy nazorat qilish va tiklanish jarayonlariga alohida e'tibor qaratish muhim omil ekanligi aniqlandi. Bu yondashuv sportchilarning ortiqcha charchashining oldini olish, jarohatlar xavfini kamaytirish hamda uzoq muddatli sport faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, chidamlilikni rivojlantirish nafaqat jismoniy, balki psixologik holatga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sportchilarda o'ziga bo'lgan ishonch ortadi, motivatsiya kuchayadi va musobaqalarda barqaror natijalar qayd etish imkoniyati oshadi. Bu esa badminton sportida yuqori darajadagi tayyorgarlik ko'p qirrali yondashuvni talab qilishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Umuman olganda, badmintonchilarda chidamlilikni oshirish uchun ilmiy asoslangan, kompleks va tizimli mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zarur. Ushbu tadqiqotda taklif etilgan metodika sportchilarni tayyorlash jarayonida samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Kelgusida mazkur yo'nalishda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar yanada kengaytirilishi, turli yosh va malaka darajasidagi sportchilarni qamrab olishi maqsadga muvofiqdir.

Shu tariqa, tadqiqot natijalari badminton sportida chidamlilikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, murabbiylar va sportchilar uchun muhim metodik tavsiyalarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bompa T.O., Buzzichelli C.. Periodization: Theory and Methodology of Training. Human Kinetics, 2019. pp. 45–78.
2. Platonov V.N. Sports Training Periodization: General Theory and Its Practical Application. Kyiv: Olympic Literature, 2020. pp. 112–156.
3. Issurin V. Block Periodization: Breakthrough in Sports Training. Human Kinetics, 2018. pp. 89–120.



4. Wilmore J.H., Costill D.L., Kenney W.L. Physiology of Sport and Exercise. Human Kinetics, 2017. pp. 210–245.
5. McArdle W.D., Katch F.I., Katch V.L. Exercise Physiology: Nutrition, Energy, and Human Performance. Wolters Kluwer, 2018. pp. 320–355.
6. Grice T. Badminton: Steps to Success. Human Kinetics, 2017. pp. 56–89.
7. Cabello D., Gonzalez-Badillo J.J. Analysis of the characteristics of competitive badminton. British Journal of Sports Medicine, 2019. 53(7), pp. 410–415.

MAMLAKATIMIZDA JISMONIY TARBIYA VA OMMAVIY SPORTNI OMMOLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Allamuratov Shuxratulla Inoyatovich

Biologiya fanlari doktori, professor

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

sh.allamuratov@list.ru

Annotatsiya: Maqolada aholining turli yosh guruhlarini salomatligini mustahkamlash, jismoniy rivojlanishi va qaddi-qomatini korreksiya qilish, umumiy va maxsus ishchanlik qobiliyatlarini oshirish, hayot uchun zarur bo‘lgan alohida malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, faol dam olish, jismonan takomillashuvga erishishlari maqsadida sportning hammabop turlari bilan muntazam shug‘ullanishlari va musobaqalarda ishtirok etishlari yuzasidan materiallar yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy sport, jismoniy tarbiya, sog‘lomlashtirish, aholining turli yosh guruhlari, ommaviy sport musobaqalari.

Аннотация: В статье рассматриваются материалы о регулярном участии различных возрастных групп населения в различных видах спорта и соревнованиях с целью укрепления здоровья, улучшения физического развития и телосложения, повышения общих и специальных работоспособностей, приобретения необходимых для жизни специальных навыков и умений, активного отдыха и достижения физического совершенства.

Ключевые слова: Массовый спорт, физическое воспитание, оздоровление, разные возрастные группы населения, массовые спортивные соревнования.

Abstract: The article covers materials on the regular participation of various age groups of the population in popular sports and competitions in order to strengthen their health, improve their physical development and posture, improve general and special working abilities, acquire special skills and abilities necessary for life, actively rest, and achieve physical improvement.



Keywords: *Mass sports, physical education, health improvement, various age groups of the population, mass sports competitions.*

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28-yanvar PF-60-son Farmonida “Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o‘tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda “Inson qadri uchun” tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini so‘zsiz ta‘minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yo‘nalishlari” belgilangan [3]. Shundan kelib chiqqan holda, mamlakatimiz jamiyatida sodir bo‘layotgan bunyodkorlik ishlari hayot faoliyatining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan taraqqiyotni chuqur ijtimoiy-iqtisoiy qayta qurilishi bilan tavsiflanadi.

Ishning maqsadi – minglab odamlarni ommaviy jismoniy tarbiya va sport tadbirlarida ishtirok etishini ta‘minlash orqali, ularning jismoniy fazilatlari va harakat qobiliyatlarini takomillashtirish, salomatligini mustahkamlashga erishishni tashkil qilish.

Tadqiqotning materiallari va usullari. Tadqiqotning nazariy va metodologik asosi sifatida ommaviy sportni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va tamoyillariga bag‘ishlangan ilmiy adabiyotlarni tizimli tahlil qilish xizmat qildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Mamlakat aholisini salomatligi darajasi yomonlashsa, umr ko‘rish muddati oshmasa, yosh avlod barkamol rivojlanmasa, bunday davlatdagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar mazmunga ega bo‘lmaydi. Demak, bu sohada juda katta ijtimoiy ahamiyatga va potensialga ega bo‘lgan jismoniy tarbiya va sportni, ayniqsa, ommaviy sportni rivojlantirish masalalariga e‘tibor kuchaytirilishi zarur bo‘ladi.

Bu borada, 2020 yil 30-oktabrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6099-son Farmoni qabul qilingan bo‘lib, unda belgilangan vazifalarga ko‘ra davlat organlari va tashkilotlarining kasaba uyushmalari va ish beruvchilar o‘rtasidagi jamoa shartnomalarida ish kuni davomida ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlari, texnologiya, ishlab chiqarish va ish sharoitlaridan kelib chiqib, xodimlarga ishlab chiqarish gimnastikasi mashqlarini bajarishi uchun ish vaqtiga kiritiladigan maxsus tanaffuslar belgilangan, sog‘lom turmush tarzi va ommaviy sportni rivojlantirish maqsadida mehnat jamoalarida faoliyat yuritayotgan xodimga “Sport targ‘ibotchisi” qo‘shimcha vazifasi yuklangan, ish vaqtidan so‘ng tanlangan kunlarda (haftada kamida bir marta) rahbar va barcha xodimlarning jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari (yugurish, stritbol, futbol, badminton, voleybol, basketbol, stol tennisi, suzish va b.) bilan



shug‘ullanishi ta‘minlangan, har shanba soat 14:00 dan keyin xodimlar va ularning oila a‘zolari o‘rtasida yugurish, stritbol, futbol, badminton, voleybol, basketbol, stol tennisi, suzish va boshqa sport turlari bo‘yicha ommaviy sport musobaqalari tashkil etish, bunda, musobaqalar bayramona ruhda, “shou” ko‘rinishida o‘tkazilishiga, g‘olib va sovrindorlar munosib rag‘batlantirilishiga alohida e‘tibor qaratilgan [2].

Shu bilan birga, mehnat jamoasining sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va jismoniy faolligi darajasini oshirish uchun barcha zarur sharoitlar (trenajyor zali, “Workout” maydonchasi, sport maydonchalari va xonalari, sport mashg‘ulotlari va musobaqalari) yaratish davom ettirilmoqda, veb-saytlar, ijtimoiy tarmoqlar, ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, gazeta, internet tarmog‘i) orqali bu borada amalga oshirilayotgan ishlar, shuningdek, sog‘lom turmush tarziga amal qilishning ahamiyati muntazam ravishda yoritib borilmoqda.

Ommaviy sportni rivojlantirishga davlatimiz va kasaba uyushmalari budjetidan katta miqdordagi mablag‘ ajratilmoqda. Chunki, ommaviy sport – bu, aholining turli yosh guruhlarini salomatligini mustahkamlash, jismoniy rivojlanishi va qaddi-qomatini korreksiya qilish, umumiy va maxsus ishchanlik qobiliyatlarini oshirish, hayot uchun zarur bo‘lgan alohida malaka va ko‘nikmalarga ega bo‘lish, faol dam olish, jismonan takomillashuvga erishishlari maqsadida, ular uchun oddiy bo‘lgan sport turlari bilan muntazam shug‘ullanishlari va musobaqalarda ishtirok etishlaridan iboratdir.

Demak, ommaviy sport – umumiy sportning tarkibiy qismi hisoblanadi va asosiy mazmuni – inson tomonidan harakat amallarini hayotiy amaliyotga tayyorgarlik, o‘zining jismoniy konditsiyasini va rivojlanishini optimallashtirish omili sifatida ratsional qo‘llashdan iborat. U, musobaqa faoliyati bilan tavsiflanadi, muntazam trenirovka mashg‘ulotlari paytida har xil yosh toifasidagi ko‘p sonli aholini shug‘ullanishlari uchun imkoni bor. Shu bilan birga, ommaviy sport bo‘lajak yosh mutaxassislarni yuqori samarali ishlarga va Vatanni himoya qilishga tayyorlashga yordam beradi, jismoniy mashqlar va sportning turli shakllaridan shaxsiy hayotlarida, oilasida va kelajakdagi ish joylarida foydalanish qobiliyatini rivojlantiradi [4].

Ommaviy sport jamiyatdagi murakkab, ko‘p funksiyali hodisa sifatida sog‘lomlashtirish, ta‘lim va tarbiya vazifalarini amalga oshiradi.

Sog‘lomlashtiruvchi vazifalari – inson salomatligini saqlash va mustahkamlash, jismoniy tayyorgarlik va ishchanlik qobiliyatini oshirish, ijodiy faoliyatni uzaytirishni o‘z ichiga oladi. Zamonaviy ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va kompleks mexanizatsiyalashtirish sharoitida o‘z sog‘lig‘iga mas‘uliyatli munosabatni, kundalik jismoniy faollik zarurligini ongli ravishda tushunishni va jismoniy faollikning yo‘qligi alomatlarini bartaraf qilishni rivojlantirish juda muhimdir. Sog‘lomlashtiruvchi tamoyiliga muvofiq, jismoniy tarbiya usullarini tanlash va jismoniy faollikni, shuningdek, ommaviy sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining shakllarini tartibga solish zarur.



Shuning uchun ommaviy sport bilan shug‘ullanishning majburiy shartlaridan biri o‘qituvchi va shifokor tomonidan ishtirokchilarning nazorat qilishdan iborat.

Tarbiyalovchi vazifalari – madaniyatning insonni jismoniy tarbiyalash, jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlik orqali jismoniy hamda intellektual jihatdan kamol toptirish, uning qobiliyatini va harakat faolligini takomillashtirish, sog‘lom turmush tarzi ko‘nikmalarini shakllantirish, ijtimoiy moslashtirish maqsadida jamiyat tomonidan yaratiladigan hamda foydalaniladigan qadriyatlar, normalar va bilimlar yig‘indisidan iborat bo‘lib, yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish maqsadida shaxsni tarbiyalashga, insonning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishga, uning jismoniy tarbiya va sport sohasida malaka va bilimlarini orttirishga qaratilgan jarayondir, bu esa, ta’lim vazifalarini hal qilish bilan chambarchas bog‘liq.

Ta’lim vazifalari – amaliy ko‘nikma va malakalarni, turli jismoniy mashqlarga o‘rgatish usullarini o‘zlashtirishni, jismoniy mashqlar va sportning inson salomatligi va hayotidagi rolini tushunishni o‘z ichiga oladi. Bu fiziologiya, psixologiya, tibbiyot, jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyatini, sog‘lomlashtirish va sport tadbirlari va musobaqalarini tashkil etish va o‘tkazishni bilishni talab qiladi.

Ommaviy sport o‘zining asosiy maqsadlari bilan bir qatorda bir qator xususiy vazifalarni ham hal qilinishini nazarda tutadi: organizmning alohida tizimlarini funksional imkoniyatlarini oshirish, jismoniy rivojlanish va qaddi-qomatni korreksiya qilish, umumiy va professional ishchanlik qobiliyatini oshirish, hayot uchun zaruriy malaka va ko‘nikmalarni o‘zlashtirish, dam olishni yoqimli va foydali o‘tkazish, jismoniy mukammallikka erishish va boshqa.

Shu bilan birga, O‘zbekiston milliy sport turlari va xalq o‘yinlari ham mavjud bo‘lib, ular bilan aholining keng qatlamlarini shug‘ullanishi milliy ijtimoiy-madaniy yo‘nalishga ega hamda O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi madaniy merosini ajralmas qismi, aholida vatanparvarlik va Vatanga muxabbat, xalqaro maydonda mamlakatning obro‘-e‘tiborini yuksaltirishga intilish tuyg‘ularini tarbiyalash poydevori hisoblanadi.

Mamlakatimiz aholisining turli yosh qatlamlari o‘rtasida ommaviy sportning ijtimoiy rolini va mohiyatini oshirish borasidagi davlat organlari, ijtimoiy tashkilotlar, sport sohasidagi ta’lim muassasalari va tashkilotlar, Federatsiyalar, sport klublarini olib borayotgan faoliyatlari tufayli jismoniy tarbiya va ommaviy sport turlari bilan muntazam shug‘ullanayotganlar soni 15 million kishiga yaqinlashgan. Jahondagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko‘rsatkich aholining 40-60 foizini tashkil qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2015 yil 4-sentabr O‘RQ-394-sonli Qonunining Fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organlarining, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda ishtirok etishi nomli 13-moddasida fuqarolarning o‘zini o‘zi



boshqarish organlari, korxonalar, muassasalar va tashkilotlar jismoniy tarbiya-sport jamoat birlashmalari, kasaba uyushmalari, yoshlar tashkilotlari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari bilan birgalikda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi davlat dasturlarini hamda boshqa dasturlarni amalga oshirishda ishtirok etishi belgilab qo‘yilgan [1].

Ushbu vazifalarni amalga oshirish yuzasidan aholi o‘rtasida ommaviy sportni keng joriy qilish maqsadida tashkil qilingan musobaqalarda foydalanish uchun 9 mingdan ortiq mahallalarga futbol, voleybol, basketbol, gandbol koptoklari, gimnastika gardishi kabi 5 xil nomdagi sport inventarlari tarqatilgan va ushbu musobaqalarni tashkil etishga hamkor tashkilotlar bilan birgalikda sport maktablari trenerlari, yoshlar yetakchilari, shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari jalb qilingan. Aholi keng qatlamlarining sport bilan shug‘ullanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 2022 yildan boshlab, jami 900 taga yaqin sport maydonchalari, shundan 320 tadan ortiq universal, 270 tadan ortiq stritbol vorkaut va 300 taga yaqin vorkaut maydonchalari qurib berilgan. Ushbu maqsadlar uchun davlat budjetidan yiliga o‘rtacha 35 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirib borilmoqda.

Mahallalar kesimida yoshlar o‘rtasida 5 bosqichli “Besh tashabbus olimpiadasi” (mahalla-sektor-tuman-hudud-respublika) doirasida ommaviy sport musobaqalari tashkil etilgan bo‘lib, ushbu musobaqalarda ishtirok etish uchun 16-30 yoshdagi 7 mln.dan ziyod o‘g‘il-qizlar 5tashabbus.uz sayti orqali elektron ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularning deyarli 80 foizi 13 ta sport turi (yengil atletika, stol tennisi, vorkout, shaxmat, shashka, armrestling, voleybol, stritbol, kurash, futbol, mini futbol, gandbol, gimnastika) bo‘yicha 5 bosqichda tashkil etilgan ommaviy sport musobaqalarida ishtirok etishgan.

Ushbu qonunning 31-moddasiga binoan nogironligi bo‘lgan shaxslarni va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarni jismoniy reabilitatsiya qilish maqsadida 18 yoshdan katta nogironligi bo‘lgan shaxslar o‘rtasida adaptiv sport turlari bo‘yicha ommaviy sport musobaqalarining 4 ta yo‘nalishda 12 ta sport turi bo‘yicha 3 ta bosqichda (tuman – viloyat – respublika) o‘tkazilgan musobaqalarda yil davomida 7 mingdan ortiq nogironligi bo‘lgan shaxslar joylardagi xududiy “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazlari va ularning mahallaga biriktirilgan ijtimoiy xodimlari, yoshlar yetakchilari, sport maktablari direktorlarining ommaviy sportni rivojlantirish va seleksiya bo‘yicha o‘rinbosari boshchiligidagi seleksioner-trenerlar mas‘ulligi ostida ishtirok etishgan. Mazkur yo‘nalishdagi ishlar nogironligi bo‘lgan shaxslarning va jismoniy imkoniyatlari cheklangan boshqa shaxslarning adaptiv sportini rivojlantirish sport bilan shug‘ullanishning ustuvorligi, ommalashuvi hamda ochiqligi tamoyillariga asoslangan.

O‘tgan yilda O‘zbekiston Mahallalari uyushmasi hamda Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi bilan hamkorlikda 30 yoshdan yuqori bo‘lgan mahalla aholisi uchun mutlaqo yangi tizim asosida sportning 7 ta turi: mini-futbol, voleybol, stol tennisi, stritbol, vorkout, shaxmat, shashka turlari bo‘yicha “Mahalla ligasi” 3 bosqichda



(sektor, tuman/shahar, hudud) musobaqalari o‘tkazilgan bo‘lib, ommaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun 2 mln. nafardan ortiq aholi ro‘yxatdan o‘tgan, ularning deyarli yarmini ayollar tashkil etgan.

Xulosa. Mamlakatimiz aholisini katta qismida konditsion tavsiflarini pasayishini, bu borada, ularning hayot faoliyati davomida krizisni rivojlanishi belgilari sifatida qarash mumkin. Shu tufayli, jismoniy tarbiya va ommaviy sportni ommalashtirish va rivojlantirish masalalari davlat siyosatining ustivor vazifasiga aylangan hamda “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da qo‘yilgan strategik maqsadlarga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Ommaviy sport millionlab odamlarga ommaviy jismoniy tarbiya tadbirlarida ishtirok etish, jismoniy fazilatlari va harakat qobiliyatlarini takomillashtirish, salomatligini mustahkamlash va ijodiy imkoniyatini uzaytirishga ko‘maklashadi, aholining turli qatlamlarining jismoniy tayyorgarligi darajalarini miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini baholash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 2015 yil 4-sentabrdagi O‘RQ-394-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2020 yil 30-oktabridagi PF-6099-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
4. Алламуратов Ш.И. Организация массовых спортивно-оздоровительных мероприятий. Учебное пособие. Ташкент. “UMID DIZAYNI”. 2022. - 392 с.

YENGIL ATLETIKANING UCH HATLAB SAKRASH TURI BO‘YICHA SHUG‘ULLANUVCHILARNI MUSOBAQA DAVRI MASHG‘ULOT YUKLAMALARINI TAHLILI

Soliyev Iqrorjon Roziqovich

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti

iqrorzhon@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada yengil atletika sport turining uzunlikka uch hatlab sakrash bo‘yicha mashg‘ulot jarayonlarida texnik tayyorgarlik vositalarini mazmuni, uning bajarilishi, musobaqa oldi davrining 2 haftalik tayyorgarlik siklida



qo‘llanilgan vositalarning bajarilishi yoritilgan. Shuningdek, sportchilarning ushbu yuklamalarga moslashuvchanligi, texnik tayyorgarlik holati tahlillar asosida umumiy xulosalar berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. *Yengil atletika, uzunlikka uch hatlab sakrash, sportchilar, texnik tayyorgarlik, texnika, “sapchish”, “qadam”, “sakrash”.*

Аннотация: *В статье описано содержание технических средств подготовки, их реализация, а также применение средств, используемых в 2-недельном тренировочном цикле предсоревновательного периода, в тренировочных процессах по тройным прыжкам в длину легкоатлетического вида спорта. Кроме того, были даны общие выводы на основе анализа приспособленности спортсменов к данным нагрузкам, состояния технической подготовки.*

Ключевые слова: *Легкая атлетика, тройной прыжок в длину, спортсмены, техническая подготовка, техника, “скачок”, “шаг”, “прыжок”.*

Abstract: *The article describes the content of technical training means, their implementation, and the use of means used in the 2-week training cycle of the pre-competition period in training processes for triple long jumps in track and field. In addition, general conclusions were given based on the analysis of the athletes' adaptability to these loads, the state of technical training.*

Keywords. *athletics, triple long jump, athletes, technical training, technique, “hop”, “step”, “jump”.*

Dolzarbli. *Zamonaviy Olimpiya o‘yinlariga milliy terma jamoalarni tayyorlash va ularning samarali ishtirokini ta’minlash, mamlakatning rivojlanishi va uning tuzumining ijtimoiy ahamiyatini aniqlab beruvchi jarayonga aylanib borayotganligi hech kimga sir emas. Jahon hamjamiyati tomonidan umuman sportga va xususan Olimpiya o‘yinlariga bo‘lgan qiziqish muntazam o‘sib borishi natijasida mamlakatlarning iqtisodiy o‘sishi, ijtimoiy va kundalik hayotiga katta o‘zgarishlar kirib bormoqda. Xususan sport orqali bugungi kunda mamlakatlar, yirik ishlab chiqarish korxonalari, kichik va o‘rta bizneslarini reklama qilish orqali jahonga tanilish yoki rivojlanish yo‘llarini amalga oshirmoqda (2; 5).*

Odatda sportchilarning o‘zlari tanlagan sport turi bo‘yicha muvaffaqiyatga erishishda murabbiyning hissasi va u tomonidan qo‘llagan uslublarning samarasi hamda yuqori sport natijasiga erishishning eng minimal yo‘llari hal etiladi. Shu boisdan murabbiylarning qo‘l ostida shug‘ullanayotgan shogirdlarini sport musobaqalari tizimiga tayyorlashda oldindan sinovdan o‘tgan, ishonchli va samarali usullarni qo‘llash, shuningdek amaliyotga joriy etish nazarda tutiladi. Shunday bo‘lsada, murabbiy va sportchilarning doimiy ravishda natijalarni o‘sib borishini ta’minlovchi omillarni qo‘llashga majbur bo‘lishadi (1; 3; 4).

XXI asrning 20 yillariga kelib sport amaliyotida natijalari kun sayin o‘sib borayotganligini inobatga olgan holda sportchilar tayyorlash tizimida mashg‘ulot



jarayonlarida yangicha metodik yondashuvlarni talab etmoqda. Buning uchun sportchilarning individual jismoniy jihatlariga qarab tayyorlash zarurligini ko'rsatib bermoqda. Xususan yengil atletikaning uzunlikka va uch hatlab sakrash turlari ham shular jumlasidandir.

Ishning maqsadi. Uch hatlab sakrash mashg'ulotlarida sportchilarga berilayotgan texnik yuklamalar hajmi va ularning bajarish samaradorligini aniqlash.

Ishning vazifalari.

1. Mavzu bo'yicha bajarilgan ishlarni tahlili va ularni umumlashtirish.
2. Uch hatlab sakrash bo'yicha sportchilarning mashg'ulot jarayonlarida sport texnikasini takomillashtirishda qo'llaniladigan vosita va usullarni mazmuni.
3. Uch hatlab sakrash bo'yicha sportchilarga beriladigan texnik tayyorgarlik yuklamalarning bajarilishini nazorat qilish.

Tadqiqot natijalarining muhokamasi. Uch hatlab sakrash bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish ham quyidagicha taqsimlanadi. Umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik va texnik tayyorgarlik. Bu borada sportchilarning malakasiga qarab umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik nisbatlariga taqsimlanadi. Faqat shuni inobatga olish zarurki, sportchilarning tayyorgarlik darajasi tez o'sadigan bo'lsa yuklamalarni ham jadallashtirib bo'lmaydi, sababi sportchining organizmi amaldagi yuklamalar mos ravishda harakat qilishga mo'ljallangan bo'ladi. Agarda sportchi natijalari o'sishi tezlashgan bo'lsa yoki, murabbiy rejalaridan ilgarilab ketayotgan bo'lsa u shu davrdagi yuklamalar bilan yaxshi va samarali rivojlanayotgan bo'ladi. Demak bu natijalar tasodifiy hisoblanmaydi. Shuning uchun yuklamalarni umum jismoniy tarbiya va sport nazariyasini qoidalariga muvofiq berib borish nazarda tutiladi.

Shuning uchun ham biz murabbiy va mutaxassislar tomonidan ushbu qoidalarni ya'ni yuklamalarni bajarilishini nazorat qilib borishimiz orqali sportchilarning jismoniy rivojlanishi hamda jismoniy tayyorgarligi darajasini ham doimiy tahlil qilib borishimiz nazarda tutiladi. Biz quyida uch hatlab sakrovchilar uchun haftalik tayyorgarlik siklini berib o'tganmiz.

Sport ustasi bo'lgan uch hatlab sakrovchilarning tayyorgarlik davridagi 2 haftalik mashg'ulotlarining mazmuni.

1-kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq. URM 15 daq. Yugurish mashqlari 50 m.ga. 5 marta yarim yugurish masofasidan 100% tezlik bilan yugurib kelib uch hatlab sakrash. Uch hatlab sapchishlar 5 martadan silkich oyoqda keyin tayanch oyoqda, yengil yugurish chim ustida 10 daq.

2-kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq., URM 10 daq., MYUM-6x50m., Sprint 4x150m/50m., 3x60m/50m., yakunlovchi yugurish 10 daq.

3-kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq., egiluvchanlik mashqlari 10 daq., MYUM-6x50m., Sprint 4x30m+40m+60m., joydan turib yamaga sakrash: URM (press, bel mushaklariga).

4-kun. Dam olish.



5-kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq., egiluvchanlik mashqlari 10 daq., MYUM-6x50m., Sakrashlar 10 marta to'liq masofadan yugurib kelib sakrash, silkinch va tayanch oyoqlarda “sapchish”larni bajarish, yakunlovchi yugurish 6 daq.

6-kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq. egiluvchanlik mashqlari 10 daq. Maxsus yugurish mashqlari 6x50. Sprint yugurish 6x60+30.m ga yugurish. Yakunlovchi yugurish 5 daq.

7-kun. Dam olish (sayrda yurish 1-1,5 soat).

Uch hatlab sakrovchilar uchun musobaqa davrida haftalik mashg'ulot sikllari (SU talabini bajargan sportchi bo'yicha).

1-kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq. URM 15 daq. Yugurish mashqlari 50 m.ga. 5 marta to'liq yugurish masofasidan 100% tezlik bilan yugurib kelib uch hatlab sakrash. Oyoqdan-oyoqqa sakrash chim ustida (stadionda diagonal bo'ylab) 12 marta, yakunlovchi yugurish 10 daq.

2- kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq., URM 10 daq., MYUM 6x50m., sapchishlar, deysinish mashqlarini bajarish 30 daq., yakunlovchi yugurish 10 daq.

3- kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq., egiluvchanlik mashqlari 10 daq., MYUM 6x50m., uzunlikka sakrash mashqlari 6 marta.

4-kun. Dam olish.

5- kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq., egiluvchanlik mashqlari 10 daq., MYUM 6x50m., Sprint 3x80m/2daq, 3x60m/1daq., yakunlovchi yugurish 6 daq.

6-kun. Chigalyozdi yugurish 10 daq. egiluvchanlik mashqlari 10 daq. Maxsus yugurish mashqlari 6x50. Uch hatlab sakrashda musobaqa, natija 15.64m., Yakunlovchi yugurish 5 daq.

7-kun. Dam olish (sayrda yurish 1-1,5 soat).

Yuqorida berilgan 2 haftalik mikrosikl musobaqaoldi tayyorgarlik davrga to'g'ri kelib uning bajarilish shiddati 80-85% da bajarilgan. O'tkazilgan tadqiqotlar so'ngida olingan natijalarni tahlil qilish asosida jismoniy tayyorgarlik holati o'rganildi.

1-jadval

**Markaziy Osiyo ochiq Chempionatida erkaklar o'rtasida uch hatlab sakrash bo'yicha
ko'rsatilgan natijalarni tahlili n=8**

№	Nazorat testlari	Natijalar			
		n=8	15,21	15,35	15,74
		n=5	15,08	15,21	15,45
1.	Yugurib kelishdagi qadamlar soni (marta)	n=8	18,2	18,3	18,1
		n=8	18,1	18,3	18,2
2.	Yugurib kelishdagi tezligi, (m/s)	n=8	9,45	9,72	10,06
		n=5	9,38	9,72	9,94
3.	Oyoqni yerga qo'yishda oxirgi qadamni vaqti, (s)	n=8	0,215	0,213	0,209
		n=5	0,219	0,215	0,210
4.	Oyoqni yerga qo'yish burchagi (gradus)	n=8	67°	71°	67°
		n=5	68°	70°	68°



5.	“Sapchish”ning o‘rtacha uzunligi (m)	n=8	5,14	5,19	5,31
		n=5	5,05	5,09	5,14
6.	“Qadam”ning o‘rtacha uzunligi (m)	n=8	5,06	5,10	5,14
		n=5	4,98	4,99	5,01
7.	“Sakrash”ning o‘rtacha uzunligi (m)	n=8	5,01	5,06	5,29
		n=5	5,03	5,13	5,30
8.	“Sapchish”da o‘rtacha tezlik, (m/s)	n=8	9,26	9,65	9,87
		n=5	9,09	9,27	9,71
9.	“Qadam” da o‘rtacha tezlik, (m/s)	n=8	9,06	9,17	9,15
		n=5	9,00	9,15	9,34
10.	“Sakrash”da o‘rtacha tezlik, (m/s)	n=8	8,19	8,26	8,34
		n=5	8,02	8,09	8,22

Tadqiqot bo‘yicha biz tomonimizdan jami 8 nafar finalga tushgan sportchilarning texnik tayyorgarlik natijalarini berib o‘tdik. Ularning 5 nafari mahalliy sportchilar hisoblanib respondent hisoblanadi.

Jadval bo‘yicha dastlab 8 nafar sportchining 6 ta urinishidan eng yaxshi 3 ta muvoffaqiyatli urinishlarini keyingi qatorda esa mahalliy sportchilarning natijalarini berib o‘tdik. Bular quyidagicha bo‘ldi. Olingan 10 ta testdan foydalangan holda ularning, yugurib kelishdagi qadamlar soni, yugurib kelishdagi tezligi, oyoqni yerga qo‘yishda oxirgi qadamni vaqti, oyoqni yerga qo‘yish burchagi, “Sapchish”ning o‘rtacha uzunligi, “Qadam”ning o‘rtacha uzunligi, “Sakrash”ning o‘rtacha uzunligi, “Sapchish”da o‘rtacha tezlik, “Qadam” da o‘rtacha tezlik, “Sakrash”da o‘rtacha tezliklari o‘rganilib tahlil qilindi.

Xulosa. Bu borada jadvaldan ko‘rinib turibdiki, natijalar mos ravishda mahalliy sportchilarimizning jismoniy ko‘rsatkichlari pastroq bo‘lgan. Shunday bo‘lsada ularning medallar uchun kurashish imkoniyatlari deyarli teng bo‘lgan. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish kerakki, sportchilarning texnik tayyorgarliklarida qo‘llanilgan mashg‘ulot yuklamalari va ularni bajarilishi to‘g‘ri ekanligi ko‘rib chiqildi. Murabbiylarning fikrini ham aytib o‘tish joizdir. Ya‘ni sport musobaqalarida sportchilar ko‘rsatayotgan natijalar ikkiga bo‘linadi ya‘ni dastlabki eng yaxshi urinishga erishish va undan so‘ng qolgan urinishlarni taktik harakatlar bilan bog‘lab amalga oshirishga e‘tibor qaratiladi.

Berilgan ma‘lumotlarda 2024 yil Toshkent shahrida o‘tkazilgan Markaziy Osiyo ochiq Chempionatida uch hatlab sakrash musobaqa natijalari yoritilgan. Ushbu musobaqada jami 13 nafar sportchi qatnashgan bo‘lsa ularning 8 nafari musobaqa qoidalari bo‘yicha finalda qatnashgan hamda 5 nafari bizning tadqiqotda qatnashgan mahalliy sportchilar bo‘lib aynan biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlar so‘ngida 2 va 3 o‘rinlarni qo‘lga kiritgan.



Tadqiqotlar yana bir xulosani chiqarishimizga imkon berdi, ya'ni sportchilar uchun oldindan rejalashtirilgan mashg'ulot jarayonlarini to'liq va qat'iy rejimda olib borilsa u albatta o'z natijasini beradi deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Оганджанов А.Л., Миронов Д. Л. «Методика оценки физической подготовленности прыгуний в длину на этапах спортивного совершенствования и высшего спортивного мастерства». Известия Тульского государственного университета физической культуры и спорта, 2019 г. Вып.10 стр. 97-103.
2. Платонов В. Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. Общая теория и ее практические приложения. К.: Олимпийская литература, 2004. – 808 с,
3. Платонов В.Н. Двигательные качества и физическая подготовка спортсменов / В.Н. Платонов. - М.: Издательство Спорт, 2019. – 656 с.
4. Сергиенко Л.П. Спортивный отбор: теория и практика: монография / Л.П. Сергиенко. – М.: Советский спорт, 2013 – 1048 с.
5. Шакиржанова К.Т., Люлина Е.С., Камолова Д.А. Сравнительный анализ уровня подготовленности и результат соревнования женщин Узбекистана и мировых лидеров в горизонтальных прыжках. Fan – sportga. №7-/2022 у. 7-10 б.

BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI KURASHCHI QIZLARNI TAYYORLASHNING DOLZARB MOAMMOLARI

Alxamov Mansur Rustamovich

Dotsent

O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

mansuralhamov58@gmail.com

UDK: 796.412:796.015.3

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 9-12 yoshli kurashchi qizlarning jismoniy va texnik tayyorgarliklarini takomillashtirish bo'yicha anketa so'rovnomalar o'tkazilib tahlillar olib borilgan. Tadqiqot natijalari asosida kurashchi qizlarning texnik tayyorgarligi, jismoniy sifatlari va mashg'ulot uslublari tahlil qilindi. So'rovnoma orqali murabbiylar fikri o'rganilib, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni samarali tashkil etish, usullarni qismlarga bo'lib o'rgatish uslublari bo'yicha tavsiyalari berildi.*

Kalit so'zlar: *Anketa so'rovnomalari, kurashchi qizlar, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichi, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik.*



Аннотация: В данной статье представлены результаты исследования, направленного на совершенствование физической и технической подготовки девочек-курашистов 9–12 лет на этапе начальной подготовки. На основе результатов исследования были проанализированы техническая подготовка, физические качества и методы проведения тренировок девушек-курашистов. С помощью анкетирования было изучено мнение тренеров и даны рекомендации по эффективной организации учебно-тренировочного процесса поэтапного обучению техническим приёмам на этапе начальной подготовки.

Ключевые слова: Анкетирования, девочки-курашисты, этап начальной подготовки, физическая подготовка, техническая подготовка.

Abstract: This article presents the results of a study aimed at improving the physical and technical preparedness of 9-12 year old female kurashs at the initial training stage. Based on the research results, the technical preparedness, physical qualities, and methods of training female kurashs were analyzed. Using questionnaires, the coaches' opinions were studied, and recommendations were given for the effective organization of the training process for the phased teaching of technical techniques at the initial training stage.

Keywords: Questionnaires, female kurash, initial training stage, physical training, technical training.

Dolzarbli. Dunyo sportining rivojlanib borish tendensiyasida xotin-qizlar sportining o‘rni ham oshib bormoqda. Kurash eng ommabop sport turlaridan biri bo‘lib, hozirgi vaqtda turli mamlakatlarda bu sport turida yildan-yilga shug‘ullanuvchi qizlar soni ortib bormoqda. Kurashchi qizlarning musobaqalarga tayyorgarlik bosqichlari, musobaqalar soni, musobaqalardagi bellashuvlarini joriy etish qoidalari, vazn toifalari soni ortib borayotganligi aloxida etibor qaratilmoqda. Kurashchi qizlarning yuksak natijalariga erishish maqsadida jismoniy va texnik tayyorgarliklarining ahamiyatligi oshib bormoqda. Bu o‘z navbatida ularning tayyorgarligiga yuqori talablar qo‘ymoqda. Ushbu jarayonlar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarning jismoniy va texnik tayyorgarliklarini yangi yondashuvlar asosida takomillashtirilgan uslubiyatlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda [2].

Respublikamizda kurash sport turini yanada rivojlantirish, aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish, iqtidorli sportchilarni aniqlash, tanlash, saralash hamda ularni professional sportchilar sifatida tayyorlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 4-noyabrda PF-450-son “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” masalasiga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda [1].

Respublikamizda kurashchi qizlarni musobaqalariga tayyorgarlik jarayonini tahlil qilish va sportchilarning individual xususiyatlariga oid uslublarni tanlash,



o'quv-mashg'ulot dasturlarini belgilashda yuklamalarni to'g'ri qo'llash, sportchi qizlarning musobaqa faoliyati ko'rsatkichlarini tahlil etish, jismoniy va texnik tayyorgarliklarini samaradorligini oshirishda maxsus tanlangan mashqlardan foydalanish yo'li bilan tadqiqotlar o'tkazilmagan [3].

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga oid yirik ilmiy-uslubiy ishlar to'liq o'rganilmaganligi, bundan tashqari, yosh kurashchi qizlarning vazni, bo'yini hisobga olgan holda kurash sport turiga qizlarni yo'naltirishga oid imliy tadqiqot ishlari mavjud emasligi va mashg'ulotlarning vosita va usullarini ishlab chiqish hamda joriy etish, shuningdek, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish, murabbiylarda o'quv-mashg'ulot yuklamalarini oqilona rejalashtirishni taqozo etmoqda [4].

Adabiyotlar tahlili. O'tkazilgan ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili natijalariga ko'ra, bugungi kunda yurtimiz olimlari va boshqa mamlakatlar olimlari tomonidan kurash sport turi bo'yicha darslik va metodik qo'llanmalar (F.Kerimov, N.Tastanov, A.Atayev, Sh.Keldiyorov, F.Bobomurodov) yaratilgan [5,6].

Ushbu adabiyotlarda boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarning jismoniy va texnik harakatlar samaradorligini o'rgatish masalalariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagan.

Kurashchi qizlarni boshlang'ich tayyorgarliklarida jismoniy va texnik harakatlarni o'rgatish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu har bir sportchi qizlarning kelgusi o'quv mashg'ulot bosqichi, sport mahorati bosqichi va oliy sport mahorat bosqichlariga yaxshi tayyorgarlik ko'rishlari uchun amaliy dastur bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot maqsadi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarning jismoniy va texnik usullar ketma-ketligini o'rgatishdagi muammolarini bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, anketa so'rovnomasi, pedagogik nazorat, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba va matematik-statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi. O'tkazilgan pedagogik tajribadan olingan natijalar asosida kurashchi qizlarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida jismoniy va texnik tayyorgarlik usullarini o'rgatish o'quv-mashg'ulotlarining uslubiyatini maqsadli takomillashtirish dasturini ishlab chiqish hamda ularni qo'llash muammolari ochib berildi.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarning sport faoliyatini o'rganish asosida jismoniy va texnik usullarini o'rgatish muammolarini aniqlash maqsadida anketa so'rovnomasi o'tkazildi tajribali murabbiylarning fikrlari o'rganildi hamda tahlil qilindi. Anketa so'rovnomasi jami 40 nafar kurash ixtisosligi bo'yicha ish olib boruvchi murabbiylar o'rtasida o'tkazildi (1-jadvalga qarang).



Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga o'quv mashg'ulotlarini olib boruvchi murabbiylardan mashg'ulotlarning tuzilishiga oid muammolarni aniqlashda olingan anketa so'rovnomasi natijalari (n 40)

Javoblar	Malakali murabbiylar	n 40
1-Savol. Kurashchi qizlarni boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga necha yoshdan qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz ?		
A	7-yoshdan	20 %
B	8-yoshdan	30 %
V	9-yoshdan	50 %
2-Savol. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida (1-yil) haftasiga necha marta mashg'ulotlar olib borasiz?		
A	Ikki marta	10 %
B	Uch marta	80 %
V	To'rt marta	10 %
3-Savol. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida (2-yil) haftasiga necha marta mashg'ulotlar olib borasiz?		
A	Ikki marta	10 %
B	Uch marta	30 %
V	To'rt marta	60 %
4-Savol. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi kurashchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda yoshga xos harakatli o'yinlar va maxsus mashqlardan foydalanasizmi?		
A	Ha	20 %
B	Yo'q	50 %
V	Javob berolmayman	30 %
5-Savol. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga texnik usullarni o'rgatishda usullar ketma-ketligi ishlab chiqilganmi?		
A	Ha	10 %
B	Yo'q	60 %
V	Javob berolmayman	30 %
6-Savol. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga mashg'ulotlar jarayonida qaysi sifatlarini rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratasiz?		
A	Egiluvchanlik, chaqonlik, tezkorlik	60 %
B	Kuch, chidamlilik, tezkorlik	20 %
V	Kuch, tezkorlik, egiluvchanlik,	20 %
7-Savol. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga tayyorgarlikni qaysi bo'limlariga asosiy e'tibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblaysiz?		
A	Umumiy jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik	70 %
B	Maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik	20 %
V	Psixologik tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik	10 %



8-Savol. Boshlang‘ich ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlar tanasing qaysi qismidagi mushaklarni yaxshiroq rivojlantirilishi zarur deb hisoblaysiz?		
A	Qo‘l va yelka kamari muskullari	20 %
B	Oyoq (son va boldir) muskullari	20 %
V	Qo‘l va oyoq muskullari	60 %
9-Savol. Ichki nazorat va o‘rtoqlik uchrashuvi musoboqalari qachon o‘tkazilishi kerak?		
A	Haftada bir marta	10 %
B	Har oyda bir marta	60 %
V	Har ikki oyda bir marta	30 %
10-Savol. Mashg‘ulotlardan so‘ng sportchi qizlar organizmingizni qayta tiklash uchun qanday vositalardan ko‘proq foydalanasiz?		
A	Uyqu, massaj	70 %
B	Sog‘lomlashtirish turizmi	20 %
V	Dush, suzish	10 %

O‘tkazilgan anketa so‘rovnomasining birinchi savol natijalarini tahlil qilinganimizda “Kurashchi qizlarni boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga necha yoshdan qabul qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaysiz” degan savolimizga murabbiylarning 20 % 7 yoshdan degan javobni bildirishgan, 30 % murabbiylar 8 yoshdan degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylarning 50 % 9 yoshdan degan javobni berishdi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichiga kurashchi qizlarni 8-9 yoshligidan boshlab mashg‘ulotlar jarayoniga jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Anketa so‘rovnomasining ikkinchi savolini tahlil qilinganimizda “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida (1 yil) haftasiga necha marta mashg‘ulotlar olib borasiz” degan savolimizga murabbiylarning 10% haftasiga ikki marta degan javobni bildirishgan, 80% murabbiylar haftasiga uch marta degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylarning 10% haftasiga to‘rt marta degan javobni berishdi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida (1 yil) haftasiga uch marta mashg‘ulotlar olib borish va sportchi qizlarni keyingi bosqichlarga o‘tishida katta ahamiyatga ega.

Anketa so‘rovnomasining uchinchi savolimizda “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida (2 yil) haftasiga necha marta mashg‘ulotlar olib borasiz?” degan savolimizga murabbiylarning 10% haftasiga ikki marta degan javobni bildirishgan, 30% murabbiylar haftasiga uch marta degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylarning 60% haftasiga to‘rt marta degan javobni berishdi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida (2 yil) da haftasiga to‘rt marta mashg‘ulotlar olib borish va sportchi qizlarni keyingi bosqichlarga o‘tishida hamda malakali sportchi bo‘lishiga erisha olamiz.

Anketa so‘rovnomasining to‘rtinchi savolimizda “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida shug‘ullanuvchi kurashchi qizlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda yoshga xos harakatli o‘yinlar va maxsus mashqlardan



foydalanasizmi” degan savolimizga murabbiylarning 20% ha degan javobni bildirishgan, murabbiylarning 50% yo‘q degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylar 30% javob bera olmayman degan javobni berishdi.

Anketa so‘rovnomasinig beshinchi savolimizda “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga texnik usullarni o‘rgatishda usullar ketma-ketligi ishlab chiqilganmi” degan savolimizga murabbiylarning 10% ha degan javobni bildirishgan, murabbiylarning 60% yo‘q degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylar 30% javob bera olmayman degan javobni berishdi.

Anketa so‘rovnomasinig oltinchi savolimizda “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga mashg‘ulotlar jarayonida qaysi sifatlarinigizni rivojlantirishga ko‘proq e‘tibor qaratasiz” degan savolimizga murabbiylarning 60% egiluvchanlik, chaqonlik, tezkorlik degan javobni bildirishgan, murabbiylarning 20% kuch, chidamlilik, tezkorlik degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylar 20% kuch, tezkorlik, egiluvchanlik degan javobni berishdi.

Anketa so‘rovnomasinig yettinchi savolimizda “Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga tayyorgarlikni qaysi bo‘limlariga asosiy etibor qaratish maqsadga muvofiq hisoblaysiz” degan savolimizga murabbiylarning 70%

umumiy jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik degan javobni bildirishgan, murabbiylarning 20% maxsus jismoniy tayyorgarlik, texnik-taktik tayyorgarlik degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylarning 10% psixologik tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik degan javobni bildirishgan.

Anketa so‘rovnomasinig sakkizinchi savolimizda “Boshlang‘ich ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlar tanasining qaysi qismidagi mushaklarni yaxshiroq rivojlantirilishi zarur deb hisoblaysiz” degan savolimizda murabbiylarning 20% qo‘l va yelka kamari muskullari degan javobni bildirishgan, murabbiylarning 20% oyoq (son va boldir) muskullari degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylarning 60% qo‘l va oyoq muskullari degan javobni bildirishgan.

Anketa so‘rovnomasinig to‘qqizinchi savolimizda “Ichki nazorat va o‘rtoqlik uchrashuvi musoboqalari qachon o‘tkazilishi kerak” degan savolimizga murabbiylarning 10% haftada bir marta degan javobni bildirishgan, murabbiylarning 60% har oyda bir marta degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylarning 30% har ikki oyda bir marta degan javobni bildirishgan.

Anketa so‘rovnomasinig o‘ninchi savolimizda “Mashg‘ulotlardan so‘ng sportchi qizlar organizmingizni qayta tiklash uchun qanday vositalardan ko‘proq foydalanasiz” degan savolimizga murabbiylarning 70% uyqu, massaj degan javobni bildirishgan, murabbiylarning 20% sog‘lomlashtirish turizmi degan javobni bildirishgan bo‘lsa, murabbiylarning 10% dush, suzish degan javobni bildirishgan.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichining asosiy vazifalari bo‘lib, har tomonlama jismoniy tayyorgarlik, sog‘liqni mustahkamlash va yosh kurashchi qizlarni chiniqtirish, kurash texnikasi asoslari va jismoniy sifatlarni rivojlantirish, har tomonlama tayyorgarlik asosida funksional tayyorgarlik darajasini oshirish hamda



kurash bilan shug‘ullanishga qiziqish uyg‘otish hisoblanadi. Asosiy mashg‘ulotlar uslublari o‘yin, bir tekis, o‘zgaruvchan, aylanma, takroriy uslublardan ko‘proq foydalanish kerak.

Mashg‘ulot vositalari; harakatli va sport o‘yinlari, gimnastika mashqlari, yugurish, kurashchi qizlarning maxsus mashqlari, o‘z-o‘zini ehtiyotlash, o‘quv-mashg‘ulot bellashuvlaridan foydalanish, maqsadga muvofikdir chunki mashg‘ulot yuklamalarini hozirgi yosh murabiylarning mashg‘ulot yuklamalari boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi 1-o‘quv yilida haftalik 6 soatdan, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichi 2-o‘quv yilida haftalik 8 soatdan oshib ketishi, mashg‘ulotlar jarayonida maxsus harakatli o‘yinlardan kam foydalanish, tayyorgarlik bosqichlari guruhlarini alohida shug‘ulantirmasligi, yosh kurashchi qizlarni, jarohatlanish, sportdan bezish holatlari va erta sportni tark etishiga sabab bo‘ladi.

Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida mashg‘ulot jarayonini tashkil qilishda tiklanish vositalarini oqilona tashkil qilish lozim. Bunga mashg‘ulotdan keyingi suv muolajalari, chiniqishlar, suzish, hammom va mashg‘ulotlarni toza havoda o‘tkazish, o‘z vaqtida uxlab dam olish, mashg‘ulotlardan keyin massaj olishlar, kiradi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagicha xulosaga kelindi, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi kurashchi qizlarga musobaqalarda yuqori natijalarni talab qilmasligimiz, chunki bu bosqichda kurashchi qizlarning kichik o‘smirlik payti bo‘lib, ularni ko‘proq jismoniy sifatlarga, texnik usullarga va sportni sevishtirishni o‘rgatishimiz keyingi bosqichlarda bizlarga qiyinchilik tug‘dirmaydi, chunki bu bosqich kichik o‘smirlik payti bo‘lib bu vaqtda ko‘proq, egiluvchanlik, chaqqonlik, tezkorlik, o‘zlashtirib olishi va mashg‘ulotlarda jarohatlanishlar jarayoni kam bo‘lishi ko‘zda tutilgan.

Murabbiylarga yana shuni tavsiya qilamizki, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida kurashchi qizlarga ko‘proq yoshiga mos texnik usullardan foydalanishda maxsus texnik harakatlari yaqinlashtruvchi raqibsiz, o‘zi raqibni his qilgan holda (imitatsiya) mashqlaridan foydalanish va milliy harakatli va sport o‘yinlaridan foydalansak, sportchi qizlarning kurashga bo‘lgan qiziqishi yanada oshgan bo‘lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kurash milliy sport turini rivojlantirish va ommalashtirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 450 sonli qarori. 2024 yil 20-dekabr.
2. Keldiyorov Sh.E. Kurash nazariyasi va uslubi. O‘quv-qo‘llanma. Chirchiq-2024, 164 b.
3. Aliev I.B. (2024). Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida mashg‘ulot yuklamalarini rejalashtirish. News of the NUUZ, 1(1.10), 54-56.
4. Atayev A.K. Yosh - o‘smirlarga o‘zbek kurashini o‘rgatish uslubi. T.: O‘quv qo‘llanma. 2005. - 24 b.



5. Kerimov F.A. Sportda ilmiy tadqiqotlar. Tashkent, 2020. 367 b.
6. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubi: darslik. Tashkent: Sano-standart, 2017. 480 b.
7. ТОЙЛИБАЕВ, С. М. СТРАТЕГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЗДОРОВОГО ОБРАЗА ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ СРЕДСТВАМИ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА: ЦЕЛЕВЫЕ ОРИЕНТИРЫ, ТЕХНОЛОГИИ И ИННОВАЦИИ
8. Mambetnazarov, I. M. (2022). FORMATION OF TEAM BOATS ACCORDING TO ANTHROPOMETRIC INDICATORS IN ROWING. In Интеграционные процессы в современной науке: новые подходы и актуальные вопросы (pp. 28-31).

DZYUDOCHILARNING SPORT MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY MASHG‘ULOT METODLARI

Sultamuratov Djumamurat

Dotsent

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

djumamuratov.23@gmail.com

UDK: 796.815:796.015.3

Annotatsiya: Ushbu maqolada dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy mashg‘ulot metodlari tahlil qilinadi. Dzyudo sportida yuqori natijalarga erishish sportchilarning texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarligi darajasiga bevosita bog‘liqdir. Tadqiqot davomida dzyudochilarning sport mahoratini oshirishda innovatsion mashg‘ulot usullari, individual yondashuv, funksional tayyorgarlik hamda texnik-taktik mashqlarni takomillashtirishning ahamiyati o‘rganildi. Shuningdek, zamonaviy sport texnologiyalari, video tahlil va monitoring usullaridan foydalanish orqali mashg‘ulot jarayonining samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Tadqiqot natijalari dzyudochilarni tayyorlash jarayonini takomillashtirish hamda ularning sport natijalarini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: dzyudo, sport mahorati, mashg‘ulot metodlari, texnik-taktik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, sportchilar tayyorlash, innovatsion texnologiyalar.

Аннотация: В данной статье анализируются современные методы тренировок, направленные на развитие спортивного мастерства дзюдоистов. Достижение высоких результатов в дзюдо напрямую связано с уровнем технической, тактической, физической и психологической подготовки спортсменов. В ходе исследования были изучены инновационные методы тренировок, индивидуальный подход, функциональная подготовка, а



также совершенствование технико-тактических упражнений. Кроме того, рассмотрены возможности повышения эффективности тренировочного процесса с использованием современных спортивных технологий, видеоанализа и методов мониторинга. Результаты исследования могут быть использованы для совершенствования системы подготовки дзюдоистов и повышения их спортивных результатов.

Ключевые слова: дзюдо, спортивное мастерство, методы тренировки, технико-тактическая подготовка, физическая подготовка, подготовка спортсменов, инновационные технологии.

Abstract: This article analyzes modern training methods aimed at improving the sporting skills of judo athletes. Achieving high results in judo directly depends on the level of technical, tactical, physical, and psychological preparation of athletes. The study examines innovative training methods, an individual approach, functional training, and the improvement of technical and tactical exercises. In addition, the possibilities of increasing the effectiveness of the training process through the use of modern sports technologies, video analysis, and monitoring methods are considered. The results of the study can be used to improve the training system of judo athletes and enhance their sports performance.

Keywords: Judo, sports mastery, training methods, technical and tactical training, physical training, athlete preparation, innovative technologies.

Kirish. Hozirgi kunda sport sohasining jadal rivojlanishi, xalqaro sport musobaqalarining ko‘payib borishi hamda sportchilar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi sportchilarning tayyorgarlik jarayonini takomillashtirishni talab etmoqda. Ayniqsa, Olimpiya sport turlaridan biri hisoblangan dzyudo sporti bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida keng rivojlanib, yoshlar orasida ham katta qiziqish uyg‘otmoqda. Dzyudo sporti sportchidan nafaqat yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni, balki mukammal texnik-taktik mahorat, tezkor fikrlash, psixologik barqarorlik hamda yuqori darajadagi irodaviy sifatlarni ham talab etadi. Shu sababli dzyudochilarni tayyorlash jarayonida mashg‘ulot metodlarini ilmiy asosda tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dzyudo sportida yuqori natijalarga erishish sportchilarning sport mahoratini muntazam ravishda rivojlantirib borish bilan bevosita bog‘liqdir. Sport mahorati deganda sportchining texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarligi hamda musobaqa faoliyatida o‘z imkoniyatlarini samarali namoyon eta olish qobiliyati tushuniladi. Ushbu ko‘rsatkichlar sportchining tayyorgarlik darajasini belgilovchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu sababli sportchilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy mashg‘ulot metodlarini qo‘llash ularning sport mahoratini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Dzyudo sportida texnik-taktik harakatlarning mukammal bajarilishi ham sportchining sport mahoratini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.



Zamonaviy mashg‘ulot metodlari yordamida sportchilarning texnik harakatlarini takomillashtirish, ularning musobaqa faoliyatini tahlil qilish hamda raqibga qarshi samarali taktika ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish sportchilarning xatolarini aniqlash va ularni bartaraf etishda ham katta yordam beradi.

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda dzyudochilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy mashg‘ulot metodlarini qo‘llash zarurati tobora ortib bormoqda. Bu metodlar sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, texnik-taktik tayyorgarligini oshirish hamda musobaqa faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, zamonaviy mashg‘ulot metodlari sportchilarning funksional imkoniyatlarini oshirish, ularning jarohatlanish xavfini kamaytirish hamda yuqori sport natijalariga erishish imkonini yaratadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda qo‘llaniladigan zamonaviy mashg‘ulot metodlarini o‘rganish hamda ularning samaradorligini tahlil qilishdan iboratdir. Tadqiqot jarayonida dzyudochilar tayyorgarligini takomillashtirishga qaratilgan innovatsion mashg‘ulot usullari, texnik-taktik mashqlarni rivojlantirish metodlari hamda sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiluvchi zamonaviy yondashuvlar o‘rganiladi. Tadqiqot natijalari dzyudochilarni tayyorlash tizimini takomillashtirishga hamda sportchilarning sport mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqot dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda zamonaviy mashg‘ulot metodlarining samaradorligini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda sportchilar tayyorgarligi jarayonini ilmiy asosda tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo‘yildi. Tadqiqot jarayonida sport pedagogikasi, sport fiziologiyasi va sport psixologiyasi sohalariga oid nazariy hamda empirik tadqiqot usullaridan foydalanildi. Ushbu yondashuv dzyudochilarni tayyorlash jarayonini kompleks tarzda o‘rganish va sport mahoratini rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, kompleks tahlil hamda sportchilarni individual tayyorlash tamoyillari tashkil etadi. Tizimli yondashuv orqali dzyudochilarning sport mahorati texnik, taktik, jismoniy va psixologik tayyorgarlikning o‘zaro bog‘liq tizimi sifatida ko‘rib chiqildi. Kompleks yondashuv esa mashg‘ulot jarayonida sportchilarning jismoniy sifatleri, texnik harakatlari, funksional imkoniyatlari hamda psixologik tayyorgarligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkonini berdi. Individual yondashuv esa har bir sportchining jismoniy tayyorgarlik darajasi, texnik imkoniyatlari va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg‘ulot jarayonini tashkil etishga asos bo‘ldi.

Tadqiqot obyekti sifatida O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida shug‘ullanayotgan dzyudochilar tanlab olindi. Tadqiqot jarayonida turli yosh va tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan 30–40 nafar sportchi



ishtirok etdi. Tadqiqot ishtirokchilari o'quv-mashg'ulot jarayonida muntazam qatnashayotgan hamda sport mahoratini oshirishga qaratilgan mashg'ulotlarda faol ishtirok etayotgan dzyudochilardan iborat bo'ldi. Tadqiqotning predmeti esa dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda qo'llaniladigan zamonaviy mashg'ulot metodlari hamda ularning sport natijalariga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot davomida bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, muammoning nazariy asoslarini aniqlash maqsadida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish usuli qo'llanildi. Ushbu jarayonda sport pedagogikasi, dzyudo sporti metodikasi, jismoniy tayyorgarlik nazariyasi hamda sportchilar tayyorlash tizimiga oid ilmiy manbalar o'rganildi. Ilmiy adabiyotlar tahlili orqali dzyudochilar tayyorgarligida qo'llaniladigan zamonaviy mashg'ulot metodlari va ularning samaradorligi haqida ilmiy xulosalar chiqarildi.

Empirik tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish metodidan ham keng foydalanildi. Ushbu metod yordamida dzyudochilarning mashg'ulot jarayonidagi faoliyati, texnik harakatlarni bajarish darajasi hamda jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari kuzatildi. Kuzatish natijalari sportchilarning mashg'ulot jarayonidagi xatti-harakatlarini tahlil qilish hamda zamonaviy mashg'ulot metodlarining samaradorligini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida pedagogik tajriba usulidan ham foydalanildi. Pedagogik tajriba davomida dzyudochilar ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi va tajriba guruhi. Nazorat guruhida an'anaviy mashg'ulot metodlari asosida mashg'ulotlar olib borildi, tajriba guruhida esa zamonaviy mashg'ulot metodlari qo'llanildi. Zamonaviy mashg'ulot metodlari qatoriga funksional tayyorgarlik mashqlari, texnik-taktik kombinatsiyalarni takomillashtirishga qaratilgan maxsus mashqlar, video tahlil hamda individual mashg'ulot usullari kiritildi. Tajriba jarayonida ushbu metodlarning dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishga ta'siri o'rganildi.

Shuningdek, tadqiqot davomida test sinovlari metodidan ham foydalanildi. Ushbu metod yordamida sportchilarning jismoniy sifatlari, jumladan kuch, tezkorlik, chidamlilik va chaqqonlik darajalari aniqlab olindi. Test natijalari dzyudochilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash hamda zamonaviy mashg'ulot metodlarining samaradorligini aniqlashga yordam berdi.

Tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida matematik-statistik metodlardan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib, ularning o'rtacha ko'rsatkichlari hamda foiz ko'rsatkichlari aniqlab olindi. Statistik tahlil natijalari tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi farqlarni aniqlash hamda zamonaviy mashg'ulot metodlarining samaradorligini ilmiy asosda baholash imkonini berdi.

Tadqiqot bir necha bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda ilmiy adabiyotlar o'rganilib, tadqiqotning nazariy asoslari ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda empirik tadqiqot metodlari tanlab olinib, O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida shug'ullanayotgan dzyudochilar o'rtasida pedagogik kuzatish va tajriba ishlari o'tkazildi. Uchinchi bosqichda



olingan natijalar tahlil qilinib, zamonaviy mashg'ulot metodlarining dzyudochilar sport mahoratini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlab berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida turli ilmiy metodlardan kompleks foydalanildi. Nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, tajriba hamda statistik tahlil usullarining uyg'unligi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini oshirdi. Olingan natijalar dzyudochilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy mashg'ulot metodlaridan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatadi hamda sportchilar sport mahoratini rivojlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Natijalar. Tadqiqot davomida dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda zamonaviy mashg'ulot metodlarining samaradorligini aniqlash maqsadida O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida shug'ullanayotgan sportchilar o'rtasida pedagogik tajriba o'tkazildi. Tadqiqot jarayonida 36 nafar dzyudochi ishtirok etdi. Ular ikki guruhga ajratildi: nazorat guruhi (18 nafar sportchi) va tajriba guruhi (18 nafar sportchi). Nazorat guruhida mashg'ulotlar an'anaviy usullar asosida olib borilgan bo'lsa, tajriba guruhida esa zamonaviy mashg'ulot metodlari, jumladan funksional tayyorgarlik mashqlari, texnik-taktik kombinatsiyalarni takomillashtirishga qaratilgan mashqlar hamda video tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning dastlabki bosqichida sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasi aniqlab olindi. Buning uchun maxsus test sinovlari o'tkazildi. Testlar natijasida sportchilarning tezkorlik, kuch, chidamlilik hamda texnik harakatlarni bajarish darajasi baholandi.

1-jadval.

Tajriba boshlanishidan oldin sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
30 m yugurish (sek)	4,6	4,5
Turnikda tortilish (marta)	10	11
1000 m yugurish (min)	4,12	4,10
Maxsus texnik harakatlar (ball)	7,1	7,3

Jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki, tajriba boshlanishidan oldin nazorat va tajriba guruhlarida o'rtasida katta farq kuzatilmadi. Har ikkala guruh sportchilarining jismoniy va texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari deyarli bir xil darajada ekanligi aniqlandi. Bu esa tadqiqot natijalarining obyektivligini ta'minlashga xizmat qildi.

Pedagogik tajriba uch oy davomida olib borildi. Ushbu davr mobaynida tajriba guruhida zamonaviy mashg'ulot metodlari qo'llanildi. Mashg'ulot jarayonida texnik-taktik mashqlarni kombinatsiyalash, funksional tayyorgarlik mashqlari, individual mashg'ulotlar hamda video tahlil orqali sportchilarning texnik harakatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi.

Tajriba yakunida sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari qayta o'lchandi.



2-jadval.

Tajriba yakunida sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko‘rsatkichlari


Ko‘rsatkichlar	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
30 m yugurish (sek)	4,4	4,2
Turnikda tortilish (marta)	12	15
1000 m yugurish (min)	4,05	3,55
Maxsus texnik harakatlar (ball)	7,8	8,9

Olingan natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, har ikkala guruh sportchilarida ham ma’lum darajada o‘shish kuzatilgan bo‘lsa-da, tajriba guruhidagi sportchilarning ko‘rsatkichlari ancha yuqori darajada oshgan. Masalan, 30 metrga yugurish natijalari tajriba guruhida sezilarli darajada yaxshilandi va 4,5 soniyadan 4,2 soniyaga kamaydi. Bu sportchilarning tezkorlik sifatlari rivojlanganligini ko‘rsatadi.

Turnikda tortilish ko‘rsatkichlari ham tajriba guruhida sezilarli darajada oshdi. Tajriba boshida o‘rtacha 11 marta tortilgan bo‘lsa, tajriba yakunida bu ko‘rsatkich 15 martaga yetdi. Bu esa zamonaviy mashg‘ulot metodlari sportchilarning kuch sifatlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatganligini bildiradi.

1000 metrga yugurish natijalari ham tajriba guruhida sezilarli darajada yaxshilandi. Ushbu ko‘rsatkich sportchilarning umumiy chidamlilik darajasi oshganligini ko‘rsatadi. Nazorat guruhida esa ushbu ko‘rsatkichda nisbatan kam o‘zgarish kuzatildi.

Texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari ham tajriba guruhida sezilarli darajada oshdi. Maxsus texnik harakatlar bajarilishi bo‘yicha baholash natijalari 7,3 ball dan 8,9 ballgacha oshgan. Bu esa mashg‘ulot jarayonida video tahlil, texnik-taktik kombinatsiyalar va individual mashg‘ulot usullaridan foydalanish sportchilarning texnik mahoratini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaganligini ko‘rsatadi.



1-grafik. Dzyudochilarda mashg‘ulot metodlari samaradorligi (tajriba natijalari)



Grafikda nazorat guruhi va tajriba guruhi ko‘rsatkichlarining o‘shishi taqqoslangan. Unda quyidagi ko‘rsatkichlar aks etadi:

- 30 metrga yugurish tezligi yaxshilanishi
- Turnikda tortilish sonining oshishi
- 1000 metrga yugurishdagi chidamlilik yaxshilanishi
- Texnik harakatlar bo‘yicha bahoning oshishi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, tajriba guruhida zamonaviy mashg‘ulot metodlari qo‘llangani sababli natijalar nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori. Bu esa zamonaviy mashg‘ulot metodlari dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda samarali ekanligini ko‘rsatadi.

Olingan natijalar dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda zamonaviy mashg‘ulot metodlaridan foydalanish yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Zamonaviy mashg‘ulot metodlari sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish hamda musobaqa faoliyatini samarali tashkil etishga yordam beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari dzyudochilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy mashg‘ulot metodlarini qo‘llash sportchilarning sport mahoratini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Ushbu metodlar sportchilarning tezkorlik, kuch, chidamlilik hamda texnik harakatlarni bajarish ko‘nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda zamonaviy mashg‘ulot metodlarining muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan pedagogik tajriba jarayonida nazorat va tajriba guruhlarining jismoniy hamda texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari solishtirildi. Tadqiqot yakunida tajriba guruhida kuzatilgan o‘shish ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori bo‘lgani aniqlandi.

Tadqiqot davomida qo‘llanilgan zamonaviy mashg‘ulot metodlari sportchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda samarali natijalar berdi. Xususan, tezkorlik, kuch va chidamlilik kabi jismoniy sifatlar tajriba guruhidagi sportchilarda sezilarli darajada oshdi. Bu holat mashg‘ulot jarayonida funksional tayyorgarlik mashqlari, maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlari hamda texnik-taktik mashqlarni birgalikda qo‘llash bilan izohlanadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari dzyudochilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirishda video tahlil va individual mashg‘ulot metodlarining samarali ekanligini ko‘rsatdi. Video tahlil usuli sportchilarga o‘z harakatlarini tahlil qilish, xatolarini aniqlash va ularni tuzatish imkonini beradi. Natijada sportchilar texnik usullarni yanada aniq va samarali bajarishga erishadilar. Bu esa musobaqa jarayonida yuqori natijalarga erishish imkoniyatini oshiradi.

Ilmiy adabiyotlarda ham zamonaviy mashg‘ulot metodlarining sportchilarni tayyorlash jarayonida muhim o‘rin tutishi ta’kidlangan. Ko‘plab tadqiqotchilar sport



mashg‘ulotlarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini oshirishga xizmat qilishini qayd etganlar. Ushbu tadqiqot natijalari ham mazkur ilmiy qarashlarni tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, mashg‘ulot jarayonida individual yondashuvni qo‘llash sportchilarning shaxsiy imkoniyatlari va tayyorgarlik darajasini hisobga olish imkonini beradi. Bu esa sportchilarning jismoniy va texnik ko‘rsatkichlarini yanada samarali rivojlantirishga yordam beradi. Ayniqsa, dzyudo kabi texnik jihatdan murakkab sport turlarida individual mashg‘ulotlar katta ahamiyatga ega.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, dzyudochilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy mashg‘ulot metodlaridan foydalanish sportchilarning sport mahoratini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, yangi pedagogik va texnologik usullarni joriy etish hamda sportchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish yuqori sport natijalariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda zamonaviy mashg‘ulot metodlarining ahamiyati ilmiy jihatdan o‘rganildi. Tadqiqot O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filialida shug‘ullanayotgan dzyudochilar ishtirokida olib borildi. Tadqiqot jarayonida nazorat va tajriba guruhlari tashkil etilib, ularning jismoniy hamda texnik tayyorgarlik ko‘rsatkichlari maxsus testlar orqali aniqlab borildi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy mashg‘ulot metodlaridan foydalanish dzyudochilarning sport mahoratini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Tajriba guruhida qo‘llanilgan funksional tayyorgarlik mashqlari, texnik-taktik kombinatsiyalarni takomillashtirish, individual mashg‘ulotlar hamda video tahlil usullari sportchilarning jismoniy sifatlari va texnik harakatlarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Ayniqsa, tezkorlik, kuch va chidamlilik ko‘rsatkichlari tajriba guruhi sportchilarida sezilarli darajada oshgani kuzatildi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari dzyudochilarning texnik-taktik tayyorgarligini oshirishda mashg‘ulot jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish zarurligini ko‘rsatdi. Zamonaviy mashg‘ulot usullari sportchilarning harakatlarni to‘g‘ri va samarali bajarishiga, musobaqa jarayonida tezkor qaror qabul qilishiga hamda texnik usullarni mukammal bajarishiga yordam beradi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tadqiqot natijalari dzyudochilarni tayyorlash jarayonida zamonaviy mashg‘ulot metodlaridan foydalanish sportchilarning sport mahoratini oshirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. Shu sababli dzyudo mashg‘ulotlarini tashkil etishda innovatsion yondashuvlardan foydalanish, mashg‘ulot jarayoniga yangi pedagogik va texnologik usullarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 45–52-betlar.
2. Po‘latov A.A. Dzyudo sporti nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Ilm Ziyoy, 2019. – 63–70-betlar.
3. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 112–118-betlar.
4. Kerimov F.A., Umarov M.N. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 89–95-betlar.
5. Тойлибаев, С. М. (2019). Особенности теоретической подготовленности студентов факультетов физического воспитания к государственной педагогической практике. In *Физическая культура в системе профессионального образования: идеи, технологии и перспективы* (pp. 24-27).
6. Platonov V.N. Sport trenirovkasi tizimi. – Moskva: Sovetskiy sport, 2015. – 134–140-betlar.
7. Matveyev L.P. Sport trenirovkasi nazariyasi. – Moskva: Fizkultura i sport, 2016. – 98–104-betlar.
8. Toylibaev, S. M. (2021). Improvement of professional activity of students of physical education faculties by means of basic gymnastics. *Eurasian Journal of Sport Science*, 1(2), 113-118.4. Федоткин, С.Н. Это - самбо. Практический курс самообороны; М.: Эксмо, 2009. - 208 с.
9. IJF (International Judo Federation). Judo Coaching and Training Manual. – Lausanne, 2018. – 27–34-betlar.
10. O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi. Dzyudo sporti bo‘yicha o‘quv dasturi. – Toshkent, 2021. – 15–21-betlar.

QILICHBOZLIKDA TEXNIK-TAKTIK KOMBINATSIYALARNING SAMARADORLIGI: BOSHLANG‘ICH VA PROFESSIONAL SPORTCHILAR MISOLIDA

Atajanov Kenesbay Ibragimovich

Assistent o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

kenesbayatajanov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada qilichbozlik sportida qo‘llaniladigan texnik-taktik kombinatsiyalarning samaradorligi boshlang‘ich va professional sportchilar misolida tahlil qilindi. Tadqiqotda ikki toifa sportchilarning texnika tanlovi, hujum va himoya o‘tishlari, qaror qabul qilish tezligi hamda jang davomida taktik moslashuvchanlik darajalari taqqoslandi. Kuzatuv, video-tahlil va ekspert baholash usullaridan foydalanilgan holda kombinatsiyalarning natijadorligi, ularning jang



Tepping testi natijalari futbolchilarda markaziy nerv tizimining qo'zg'alish-tormozlanish jarayonlari tezligi, labilikligi va barqarorligi yuqori ekanini ko'rsatdi. Tegish chastotasi va labiliklikning optimal darajada bo'lishi tezkor motor javob va vaziyatga moslashuvchanlikni ta'minlaydi, barqarorlik ko'rsatkichlari esa charchoqqa chidamlilik va funksional tayyorgarlikning yetukligini aks ettiradi.

Natijalarni ijtimoiy-psixologik yondashuv asosida tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, futbolchilarning kognitiv va neyrodinamik salohiyati ularning jamoaviy moslashuvi, kommunikativ kompetensiyasi hamda psixoemotsional barqarorligi bilan uzviy bog'liqdir. Individual psixofiziologik ustunliklar faqat ijobiy ijtimoiy muhit sharoitida to'liq namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, yuqori malakali futbolchilarni saralash jarayonida ijtimoiy-psixologik va psixofiziologik ko'rsatkichlarni kompleks baholash zaruriy shart hisoblanadi. Taklif etilayotgan integrativ yondashuv sportchilarning individual ijtimoiy-psixofiziologik portretini shakllantirish, musobaqa faoliyatini prognozlash hamda milliy terma jamoaga saralash tizimini ilmiy asosda takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Weinberg R.S., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – 7th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2019. – 640 p.
2. Martens R. Successful Coaching. – 4th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2012. – 432 p.
3. Ильин Е.П. Психофизиология состояний человека. – СПб.: Питер, 2001. – 384 с.
4. Небылицын В.Д. Основные свойства нервной системы человека. – М.: Наука, 1990. – 256 с.
5. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев: Олимпийская литература, 2004. – 808 с.



6. Родионов А.В. Психология спорта высших достижений. – М.: Физкультура и спорт, 2006. – 240 с.
7. Williams A.M., Reilly T. Talent identification and development in soccer // Journal of Sports Sciences. – 2000. – Vol. 18(9). – P. 657–667.
8. Bompa T.O., Haff G.G. Periodization: Theory and Methodology of Training. – 5th ed. – Champaign, IL: Human Kinetics, 2009. – 411 p.
9. Reilly T., Williams A.M. Science and Soccer. – 2nd ed. – London: Routledge, 2003. – 415 p.
10. Gapparov Z.G., Ishtayev J.M. Sportchilar psixologik profilini modellashtirish tizimi. Fan sportga. Ilmiy –nazariy jurnal. 12/2025. B.65-68.
11. Korobeynikov G, Imas Y, Korobeynikova L, Ludanov K, Shatskykh V, Tolkunova I, Grigorenko A, Mishchenko V. Body composition and heart rhythm variability in elite wrestlers. Sport Mont. 2021 Sep;19(S2):147-51.
12. Korobeynikov G, Korobeynikova L, Goraşenco A, Vorontsov A, Ludanov K. Autonomic rhythm regulation of elite wrestlers with different dominance of brain hemisphere. Ştiinţa Culturii Fizice. 2021 Oct 24;1(37):196-9.
13. Polevaia-Secareanu A, Cynarski WJ, Korobeynikov G, Raab M, Matkarimov R, Kerimov F, Korobeynikova L, Mokrousov E, Remus-Lucian H. Cognitive and autonomic properties of healthy judokas and judokas with autism. International Journal of Human Movement and Sports Sciences. 2025 Feb 20;13(1):215-23.
14. Xasanov.O.X. Yosh futbolchilarning psixik holati va neyrodinamik funksiyalarining rivojlanish darajasidagi o'zaro bog'liqlik // Fan-sport: ilmiy-nazariy jurnal. – 2025. – 9-son. B-56–61.
15. Xasanov O.X. Yosh futbolchilarni nufuzli musobaqalarga tayyorlashda ularning psixofiziologik holatini o'rganish // Psixologiya. – 2025. – №1. B– 206–212.

O'ZBEKISTON SPORT MAKTABLARIDA 400 METRGA YUGURUVCHILARNING TAYYORGARLIK TIZIMINI TAHLILI

Shukurova Nafisa Alisherovna

Tayanch doktorant

Samarqand davlat pedagogika instituti

nafisashukurova530@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston sport maktablarida 400 metrga yuguruvchi sportchilarni tayyorlash tizimining tashkiliy-pedagogik va metodik jihatlarini tahlil qilinadi. 400 metrga yugurish yengil atletikaning murakkab va yuqori energiya talabi mavjud bo'lgan yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tezkorlik, tezkor-kuch sifati, maxsus chidamlilik hamda taktik tayyorgarlikning uyg'un rivojlanishini talab



etadi. Tadqiqotda mashg‘ulot jarayonining bosqichlari, yuklama hajmi va intensivligi, yosh xususiyatlari hamda tiklanish vositalarining qo‘llanilishi o‘rganildi. Natijada amaldagi tizimni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: 400 metrga yugurish, maxsus chidamlilik, tezkorlik, sport maktablari, trenirovka tizimi, yuklama dinamikasi, periodizatsiya.

Аннотация: В данной статье анализируются организационно-педагогические и методические аспекты системы подготовки бегунов на 400 метров в спортивных школах Узбекистана. Бег на 400 метров является одной из сложных и энергозатратных дисциплин легкой атлетики, требующей гармоничного развития скоростных качеств, скоростно-силовых способностей, специальной выносливости и тактической подготовки. В исследовании изучены этапы тренировочного процесса, объем и интенсивность нагрузок, возрастные особенности, а также применение средств восстановления. В результате разработаны научно-методические рекомендации по совершенствованию действующей системы.

Ключевые слова: Бег на 400 метров, специальная выносливость, скоростные качества, спортивные школы, система тренировок, динамика нагрузок, периодизация.

Abstract: This article analyzes the organizational-pedagogical and methodological aspects of the training system for 400-meter runners in Uzbekistan sports schools. The 400-meter sprint is one of the complex and energy-demanding disciplines of athletics, requiring the harmonious development of speed, speed-strength qualities, special endurance, and tactical preparation. The study examines the stages of the training process, the volume and intensity of loads, age-related characteristics, and the use of recovery means. As a result, scientific and methodological recommendations for improving the existing system have been developed.

Keywords: 400-meter run, special endurance, speed qualities, sports schools, training system, load dynamics, periodization.

Kirish. Yengil atletika sportning eng ommaviy va qadimiy turlaridan biri bo‘lib, u jismoniy sifatlarni kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, 400 metrga yugurish turi o‘zining fiziologik va taktik murakkabligi bilan ajralib turadi. Mazkur masofa sprinterlik va o‘rta masofaga yugurish xususiyatlarini uyg‘unlashtirgan holda, sportchidan yuqori darajadagi tezkorlik, tezkor-kuch sifati, maxsus chidamlilik hamda ruhiy barqarorlikni talab etadi [1]. Shu sababli 400 metrga yuguruvchilarni tayyorlash tizimi ilmiy asoslangan, bosqichma-bosqich va uzoq muddatli rejalashtirishga tayanishi lozim. Zamonaviy sport nazariyasi va amaliyotida 400 metrga yugurish aralash energiya ta‘minoti mexanizmlariga asoslanishi qayd etiladi. Masofani bosib o‘tishda anaerob-glikolitik jarayonlar



yetakchi o‘rin tutadi, biroq aerob imkoniyatlarning ham yetarli darajada rivojlangan bo‘lishi yuqori sport natijalariga erishishda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, yuklama hajmi va intensivligini optimal nisbatda rejalashtirish hamda tiklanish jarayonlarini nazorat qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro sport amaliyotida, jumladan, World Athletics tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar 400 metrga yuguruvchilarni tayyorlashda kompleks yondashuv zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu yondashuvda texnik tayyorgarlik, maxsus jismoniy sifatlarni rivojlantirish, funksional imkoniyatlarni monitoring qilish va psixologik tayyorgarlik bir butun tizim sifatida qaraladi. Yetakchi sport davlatlarida mashg‘ulot jarayoni ilmiy-laborator nazorat, biomexanik tahlil va individual rejalashtirish asosida olib boriladi [2].

O‘zbekiston Respublikasida ham yengil atletika sportini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, O‘zbekiston yengil atletika federatsiyasi tomonidan sport maktablari va ixtisoslashtirilgan o‘quv muassasalarida istiqbolli sportchilarni saralash va tayyorlash bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shunga qaramay, 400 metrga yuguruvchilarni tayyorlash jarayonida ayrim metodik kamchiliklar, yuklamani individualizatsiya qilish darajasining yetarli emasligi hamda zamonaviy monitoring vositalarining cheklanganligi kuzatiladi. Sport maktablari bosqichida tayyorgarlik jarayoni alohida ahamiyat kasb etadi, chunki aynan shu davrda sportchining funksional imkoniyatlari, texnik harakat stereotipi va musobaqa faoliyati asoslari shakllanadi. Agar ushbu bosqichda yuklama noto‘g‘ri taqsimlansa yoki maxsus chidamlilikni rivojlantirish ilmiy asosda tashkil etilmasa, keyingi bosqichlarda yuqori natijalarga erishish qiyinlashadi. Shu bois mazkur masalani tizimli ravishda o‘rganish va amaldagi tayyorgarlik modelini tahlil qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, 400 metrga yugurish bo‘yicha sport natijalarini oshirish uchun mavjud tayyorgarlik tizimini chuqur tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda zamonaviy sport fanlari yutuqlari asosida takomillashtirish zarur. Ilmiy asoslangan yondashuv sport maktablarida istiqbolli yuguruvchilarni tayyorlash samaradorligini oshirishga, ularning xalqaro musobaqalarda raqobatbardoshligini ta’minlashga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, O‘zbekiston sport maktablarida 400 metrga yuguruvchilarning tayyorgarlik tizimini kompleks tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish mazkur maqolaning asosiy yo‘nalishini tashkil etadi. 400 metrga yugurish sport fiziologiyasi nuqtai nazaridan yuqori intensivlikdagi aralash energiya ta’minoti mexanizmlariga asoslanadi. Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, mazkur masofani bosib o‘tishda anaerob-glikolitik tizim yetakchi rol o‘ynaydi, biroq aerob imkoniyatlarning rivojlanganligi tezlikni masofa davomida barqaror ushlab turishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois 400 metrga yuguruvchilarni



tayyorlashda tezkorlik va maxsus chidamlilikni uyg‘un rivojlantirish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro ilmiy-amaliy tavsiyalarda, xususan, World Athletics metodik ko‘rsatmalarida 400 metrga yuguruvchilarni tayyorlashda quyidagi komponentlar asosiy omil sifatida ko‘rsatiladi:

- maksimal tezlik va tezlik chidamliligi;
- anaerob quvvat va sig‘imni oshirish;
- yugurish texnikasini biomexanik jihatdan optimallashtirish;
- kuch va tezkor-kuch tayyorgarligi;
- musobaqa strategiyasini shakllantirish.

Shuningdek, zamonaviy periodizatsiya nazariyasiga ko‘ra, yillik tayyorgarlik sikli tayyorlov, musobaqa va o‘tish davrlariga bo‘linadi hamda yuklama hajmi va intensivligi bosqichma-bosqich o‘zgartirib boriladi [2].

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan ham yengil atletika, xususan, sprint va o‘rta masofaga yuguruvchilarni tayyorlash bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, B.A.Xo‘jayev o‘z ilmiy ishlarida tezkor-kuch sifatlarini rivojlantirishda plyometrik mashqlarning samaradorligini asoslab bergan [3].

Olimning ta’kidlashicha, yosh sportchilarda portlovchi kuchni bosqichma-bosqich rivojlantirish 400 metrga yugurishda tezlanish va masofa yakunida tezlikni saqlab qolish imkonini oshiradi. Shuningdek, R.M.Qodirov tadqiqotlarida maxsus chidamlilikni intervalli usulda rivojlantirishning fiziologik asoslari yoritilgan. Uning ilmiy xulosalariga ko‘ra, 300–500 metrli takroriy yugurishlar optimal dam olish oraliq‘i bilan uyg‘unlashtirilganda, laktatga chidamlilik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada oshadi [4].

O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda yosh sportchilar tayyorgarligida individual yondashuv tamoyili muhimligi ta’kidlangan. Xususan, O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ilmiy maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalarda funksional diagnostika asosida yuklama me’yorini belgilash sport natijalarining barqaror o‘lishini ta’minlashi qayd etilgan [5]. Bundan tashqari, mahalliy tadqiqotchilar 400 metrga yugurishda yugurish texnikasining biomexanik ko‘rsatkichlari - qadam uzunligi, qadam chastotasi va tana og‘irlik markazining harakat trayektoriyasini optimallashtirish muhimligini ilmiy asoslab berganlar. Ularning fikricha, texnik xatoliklar energiya sarfini oshirib, masofa yakunida tezlikning keskin pasayishiga olib keladi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xalqaro va mahalliy ilmiy manbalarda 400 metrga yuguruvchilarni tayyorlash tizimi ko‘p komponentli, ilmiy asoslangan va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etilishi lozimligi ta’kidlanadi. Biroq amaliyotda ushbu tavsiyalarning to‘liq joriy etilmasligi tayyorgarlik samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois O‘zbekiston sport maktablarida 400 metrga yuguruvchilar tayyorgarlik tizimini mavjud ilmiy



тадқиқотлар асосида қайта ко‘риб чиқиш ва замонaviy методик yondashuvларни амалиyотга кенг jорiy етиш зарур hisobланadi.

Ushbu ilmiy maqolani maqsadi O‘zbekiston sport maktablarida 400 metr ga yuguruvchilarning tayyorgarlik tizimini tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan. Amaldagi tizimda ba’zi hollarda yuklama hajmi yosh sportchilar uchun ortiqcha bo‘lishi, tiklanish vositalarining yetarli darajada qo‘llanilmasligi kuzatiladi. Sport maktablarida og‘ir atletika elementlari va plyometrik mashqlar qo‘llaniladi. Biroq individual yondashuv yetarli emasligi ayrim hollarda natijadorlikni pasaytiradi. Ba’zi sport maktablarida yugurish strategiyasini o‘rgatish yetarli darajada tizimli emas.

Xulosa qilib aytganda O‘zbekiston sport maktablarida 400 metr ga yuguruvchilarni tayyorlash tizimi ma’lum darajada shakllangan bo‘lsa-da, uni zamonaviy sport fanlari yutuqlari asosida takomillashtirish zarur. Ayniqsa, yuklamani individual rejalashtirish, maxsus chidamlilikni rivojlantirish va tiklanish jarayonlarini optimallashtirish sport natijalarining sezilarli oshishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bompa T.O., Haff G.G. Periodization: Theory and Methodology of Training. Champaign, IL: Human Kinetics. 2009.
2. World Athletics. Coaching Manual for Sprint and Middle Distance Events. Lausanne: World Athletics. 2021.
3. Xo‘jayev B.A. Plyometrik mashqlar samaradorligi va tezkor-kuch tayyorgarligi. O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport ilmiy jurnali, 2018. 4(2), 45–53.
4. Qodirov R.M. Maxsus chidamlilikni rivojlantirishning intervalli usullari. Yosh sportchilar tayyorgarligi, 2019. 3(1), 22–30.
5. Matkarimov S., Rustamov A. 400 metr ga yuguruvchilarda texnika va biomexanika tahlili. O‘zbekiston sport ilmiy jurnali, 2017. 2(3), 12–19.

ВЛИЯНИЕ ИНТЕРВАЛЬНЫХ ТРЕНИРОВОК В ПЛАВАНИИ НА АЭРОБНУЮ ВЫНОСЛИВОСТЬ И ФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ СЕРДЕЧНО-СОСУДИСТОЙ СИСТЕМЫ

Уразимбетова Марджина Султамуратовна

Преподаватель стажер

*Нукусский филиал Узбекского государственного университета физической
культуры и спорта*

u.mardjina98@gmail.com

Аннотация: Целью исследования явилось изучение влияния интервальных тренировок в плавании на показатели аэробной выносливости



и функционального состояния сердечно-сосудистой системы. В эксперименте приняли участие 30 человек в возрасте 18–25 лет, разделённых на контрольную и экспериментальную группы. Экспериментальная группа выполняла интервальные нагрузки, контрольная-равномерные. Установлено, что интервальный метод способствует более значительному увеличению показателя максимального потребления кислорода ($VO_2 \max$) и снижению частоты сердечных сокращений в покое ($p < 0,05$).

Ключевые слова: Плавание, интервальная тренировка, аэробная выносливость, сердечно-сосудистая система, физическая подготовка

Annotatsiya: Tadqiqotning maqsadi suzish bo'yicha interval mashg'ulotlarning aerob chidamlilik va yurak-qon tomir tizimining funksional holati ko'rsatkichlariga ta'sirini o'rganishdan iborat. Tajriba-sinov ishlarida nazorat va tajriba guruhlariga bo'lingan 18-25 yoshdagi 30 nafar ishtirokchi qatnashdi. Tajriba guruhi oraliq yuklamalarni, nazorat guruhi esa bir tekis yuklamalarni bajardi. Aniqlanishicha, interval usuli maksimal kislorod iste'moli ko'rsatkichining ($VO_2 \max$) yanada sezilarli darajada oshishiga va tinch holatda yurak urish tezligining pasayishiga ($p < 0,05$) yordam beradi.

Kalit so'zlar: Suzish, intervalli mashg'ulot, aerobik chidamlilik, yurak-qon tomir tizimi, jismoniy tayyorgarlik

Abstract: The purpose of the study is to study the influence of interval swimming training on the indicators of aerobic endurance and the functional state of the cardiovascular system. Thirty participants aged 18-25 participated in the experimental work, divided into control and experimental groups. The experimental group performed intermediate loads, and the control group performed uniform loads. It was established that the interval method contributes to a more significant increase in the indicator of maximum oxygen consumption ($VO_2 \max$) and a decrease in heart rate at rest ($p < 0.05$).

Keywords: Swimming, interval training, aerobic endurance, cardiovascular system, physical training

Введение. Проблема повышения аэробной выносливости является одной из центральных в теории и методике физической культуры. В последние годы особое внимание уделяется поиску эффективных тренировочных методов, обеспечивающих максимальную адаптацию организма при минимальном риске травматизма.

Плавание как вид двигательной активности обладает уникальными свойствами, связанными с воздействием водной среды: гидростатическое давление, сопротивление воды и специфические условия дыхания. Интервальные тренировки широко применяются в циклических видах спорта, однако их эффективность в плавании требует дополнительного научного обоснования.



Актуальность исследования обусловлена возрастающей потребностью в эффективных методах повышения физической работоспособности и укрепления здоровья населения в условиях современного малоподвижного образа жизни. Снижение уровня двигательной активности, увеличение психоэмоциональных нагрузок и рост числа сердечно-сосудистых заболеваний требуют внедрения научно обоснованных подходов к организации физической подготовки.

Плавание занимает особое место среди средств физической культуры благодаря своим уникальным свойствам. Водная среда оказывает комплексное воздействие на организм человека: гидростатическое давление улучшает кровообращение, снижает нагрузку на опорно-двигательный аппарат и способствует более равномерному распределению физической нагрузки. Кроме того, специфические условия дыхания при плавании способствуют развитию дыхательной мускулатуры и повышению функциональных возможностей дыхательной системы.

В последние годы всё большее внимание уделяется интервальным методам тренировки, основанным на чередовании периодов высокой и умеренной интенсивности нагрузки. Данный подход широко используется в различных циклических видах спорта и доказал свою эффективность в развитии аэробной и анаэробной выносливости. Однако особенности воздействия интервальных тренировок в условиях водной среды остаются недостаточно изученными, что определяет научную новизну данного исследования.

Аэробная выносливость является важнейшим показателем физической подготовленности человека и напрямую связана с уровнем максимального потребления кислорода ($VO_2 \text{ max}$). Повышение данного показателя способствует улучшению работы сердечно-сосудистой системы, увеличению энергетического потенциала организма и повышению устойчивости к физическим нагрузкам.

Несмотря на наличие значительного количества исследований, посвящённых развитию выносливости, сравнительный анализ эффективности интервальных и равномерных методов тренировки в плавании требует дальнейшего изучения. Это особенно важно в контексте разработки оптимальных тренировочных программ как для спортсменов, так и для лиц, занимающихся оздоровительной физической культурой.

Цель исследования — оценить влияние интервальных тренировок в плавании на аэробную выносливость.

Материалы и методы.

1. Участники исследования.

В исследовании приняли участие 30 добровольцев (18–25 лет), не являющихся профессиональными спортсменами.



2. Дизайн исследования.

Испытуемые были разделены на две группы:
 контрольная (n=15) — равномерная нагрузка;
 экспериментальная (n=15) — интервальная нагрузка.
 Продолжительность эксперимента составила 8 недель.

3. Программа тренировок.

Экспериментальная группа:
 6 × 50 м (80–90% интенсивности).
 отдых: 30–60 секунд.
Контрольная группа:
 800–1000 м непрерывного плавания.
 интенсивность: 60–70%.

4 Методы оценки.

максимальное потребление кислорода ($VO_2 \max$);
 частота сердечных сокращений (ЧСС);
 тест Купера (12-минутное плавание).

Результаты.

В ходе исследования выявлены следующие изменения:			
Показатель	До эксперимента	Контрольная группа	Экспериментальная группа
$VO_2 \max$ (мл/кг/мин)	38 ± 2.1	40 ± 2.3	43 ± 2.5
ЧСС в покое (уд/мин)	72 ± 3.0	69 ± 2.8	66 ± 2.6
Дистанция (м, 12 мин)	450 ± 25	480 ± 30	520 ± 35

Статистический анализ показал достоверные различия между группами по показателю $VO_2 \max$ ($t = 2.31$; $p < 0.05$).

Обсуждение. Полученные данные свидетельствуют о более высокой эффективности интервального метода тренировок. Это связано с чередованием интенсивности нагрузки, что стимулирует адаптационные процессы в сердечно-сосудистой системе.

В водной среде дополнительным фактором является гидростатическое давление, способствующее улучшению венозного возврата и снижению нагрузки на сердце.

Результаты согласуются с данными предыдущих исследований в области спортивной физиологии, подтверждающих эффективность интервальных нагрузок для развития выносливости.

Заключение. Интервальные тренировки в плавании обеспечивают более значительное улучшение аэробной выносливости по сравнению с



равномерными нагрузками. Они способствуют повышению $\text{VO}_2 \text{ max}$, снижению ЧСС в покое и увеличению физической работоспособности.

Полученные результаты могут быть использованы при разработке тренировочных программ и оздоровительных методик.

Проведённое исследование подтвердило высокую эффективность интервальных тренировок в плавании как средства развития аэробной выносливости и оптимизации функционального состояния сердечно-сосудистой системы. В ходе анализа теоретических источников и результатов педагогического эксперимента установлено, что систематическое применение интервальных нагрузок способствует более выраженным адаптационным изменениям по сравнению с равномерным методом тренировки.

Экспериментальные данные показали достоверное увеличение показателя максимального потребления кислорода ($\text{VO}_2 \text{ max}$), что свидетельствует о повышении аэробной производительности организма. Одновременно наблюдалось снижение частоты сердечных сокращений в покое, что указывает на экономизацию деятельности сердечно-сосудистой системы и повышение её функциональных резервов. Увеличение дистанции, преодолеваемой в тесте Купера, подтверждает рост общей физической работоспособности испытуемых.

Полученные результаты объясняются физиологическими механизмами адаптации к интервальным нагрузкам. Чередование высокоинтенсивных и восстановительных фаз стимулирует развитие ударного объёма сердца, улучшает периферическое кровообращение и способствует увеличению плотности капиллярной сети в мышечной ткани. В условиях водной среды данные эффекты усиливаются за счёт гидростатического давления, которое улучшает венозный возврат крови и снижает нагрузку на сердечную мышцу.

Дополнительным фактором эффективности является специфический дыхательный режим в плавании, при котором ограничение вдоха способствует развитию дыхательной мускулатуры и повышению эффективности газообмена. Это, в свою очередь, положительно влияет на показатели кислородного обеспечения организма при физической нагрузке.

Следует отметить, что интервальные тренировки обладают не только физиологическими, но и методическими преимуществами. Они позволяют варьировать интенсивность нагрузки, индивидуализировать тренировочный процесс и повышать мотивацию занимающихся за счёт разнообразия упражнений. Это делает данный метод универсальным инструментом как в спортивной подготовке, так и в оздоровительных программах.

Несмотря на полученные положительные результаты, исследование имеет ряд ограничений. К ним относятся относительно небольшая выборка испытуемых, ограниченный возрастной диапазон и краткосрочный характер наблюдения. В связи с этим перспективными направлениями дальнейших



исследований являются изучение долгосрочных эффектов интервальных тренировок, анализ их влияния на различные возрастные и профессиональные группы, а также использование современных цифровых технологий мониторинга функционального состояния организма.

Практическая значимость работы заключается в возможности применения полученных результатов при разработке тренировочных программ для спортсменов, студентов и лиц, занимающихся оздоровительным плаванием. Интервальные тренировки могут быть рекомендованы как эффективное средство повышения выносливости, улучшения работы сердечно-сосудистой системы и общего укрепления здоровья.

Таким образом, интервальный метод тренировки в плавании является научно обоснованным и высокоэффективным подходом, обеспечивающим комплексное развитие физических качеств и функциональных возможностей организма человека.

Использованная литература:

4. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. — Киев: Олимпийская литература, 2015.
5. Булгакова Н.Ж. Теория и методика плавания. — Москва: Академия, 2014.
6. Ашмарин Б.А. Теория и методика физического воспитания. — Москва: Просвещение. 2012.
7. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. — Москва: Спорт, 2010.
8. Озолин Н.Г. Настольная книга тренера. — Москва: АСТ, 2013.
9. Maglischo E.W. Swimming Fastest. — Champaign: Human Kinetics, 2003.
10. Counsilman J.E. The Science of Swimming. — New Jersey: Prentice Hall, 1977.
11. Toussaint H.M., Beek P.J. Biomechanics of competitive front crawl swimming // *Sports Medicine*. — 1992. — Vol. 13. — P. 8–24.
12. Astrand P.O., Rodahl K. Textbook of Work Physiology. — New York: McGraw-Hill, 2003.
13. Wilmore J.H., Costill D.L. Physiology of Sport and Exercise. — Champaign: Human Kinetics, 2004.
14. Bompa T.O., Buzzichelli C. Periodization Training for Sports. — Champaign: Human Kinetics, 2015.
15. Seifert L., Chollet D., Mujika I. World book of swimming: From science to performance. — New York: Nova Science Publishers, 2011.
16. Issurin V.B. Block Periodization: Breakthrough in Sport Training. — Michigan: Ultimate Athlete Concepts, 2008.



17. Tanaka H. Swimming exercise: impact of aquatic exercise on cardiovascular health // Sports Medicine. — 2009. — Vol. 39. — P. 377–387.

18. Barbosa T.M. et al. Energetics and biomechanics as determining factors of swimming performance // Journal of Science and Medicine in Sport. — 2010. — Vol. 13. — P. 262–269.

AYOLLAR KURASHIGA QIZLARNI SARALASH VA YO‘NALTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Yakupbaev Alisher Alimbaevich

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
yakupbaev_alisher@gmail.com*

Annotaciya: Mazkur maqolada ayollar kurashi sport turiga qizlarni saralash va ularni maqsadli yo'naltirishning ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yosh sportchi qizlarning jismoniy rivojlanish darajasi, morfologik va funksional ko'rsatkichlari, psixologik xususiyatlari hamda texnik-taktik tayyorgarligi asosida saralash mezonlarini aniqlash masalalari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, sportga iqtidorli qizlarni aniqlashda pedagogik nazorat, test sinovlari va maxsus jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarining ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: O'quv-mashg'ulot yig'inlari, trening mashg'ulotlari, o'quv-trening uchrashuvi, sport mashg'ulotlari, jismoniy tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, umumiy jismoniy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье анализируются научно-теоретические основы отбора девушек в женскую борьбу и их целевой ориентации. В исследовании рассмотрены вопросы определения критериев отбора на основе уровня физического развития, морфологических и функциональных показателей, психологических особенностей и технико-тактической подготовки юных спортсменок. Также освещается значение педагогического контроля, тестовых испытаний и показателей специальной физической подготовки в выявлении одаренных девушек в спорте.

Ключевые слова: Учебно-тренировочные сборы, тренировочные занятия, учебно-тренировочные встречи, спортивные занятия, физическая подготовка, физическая подготовка, общее физическое развитие.

Abstract: This article analyzes the scientific and theoretical foundations of selecting girls for women's wrestling and their targeted orientation. The study examined the issues of determining the selection criteria based on the level of physical development, morphological and functional indicators, psychological characteristics, and technical and tactical training of young female athletes. The



importance of pedagogical control, tests, and indicators of special physical training in identifying gifted girls in sports is also highlighted.

Keywords: Training camps, training sessions, training meetings, sports training, physical training, physical fitness, general physical development.

Dolzarbli. Dunyoda sport kurashi turlari bo'yicha o'tkazilayotgan musobaqalar tizimi hamda sportchilarni tayyorlash talablarining yangi bosqichga o'tishi, shug'ullanuvchilarni ko'p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlariga saralash va yo'naltirish jarayonida ilmiy ahamiyatga molik uslublar hamda eng ilg'or texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Yosh sportchilarni sport kurashi turlariga saralash va yo'naltirishni to'g'ri tashkil etishda keng qamrovli tadbirlar tashkil etilmoqda. Bugungi kunda barcha sport turlarida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biri – bolalarni sport turlariga saralash va yo'naltirishning asosiy uslublari, omillarini aniqlashga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borish, ushbu muammolarni ilmiy yechimini topishga qaratilgan zamonaviy metodlarni ishlab chiqish hamda sport amaliyotiga joriy etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. 2022 yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” Qarorlar hamda Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 4-martdagi 122-son “Sport turlari bo'yicha terma jamoalar tarkibiga sportchilarni saralab olish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorlar bu sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi ko'p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlariga qizlarni saralash va yo'naltirish metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari.

- Sport kurashi turlariga saralash va yo'naltirishda nazorat test natijalarini avtomatlashtirishga qaratilgan jismoniy tayyorgarlik me'yorlari va texnik harakatlarni aniqlab beruvchi “Innovatsion qo'g'irchoq polvon”ni ishlab chiqish;
- Yuqori malakali kurashchilarni antropometrik ko'rsatkichlarining model xususiyatlarini o'rganish asosida ko'p yillik tayyorgarlikning turli bosqichlariga saralash va sport kurashi turlariga yo'naltirish mexanizimini ishlab chiqish;
- Sport kurashi turlariga saralashda umumiy jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarini aniqlash uchun jismoniy sifatlarni baholash talab mezonlarini ishlab chiqish;
- Turli toifali sport kurashchilarini erkin, yunon-rum, dzyudo, kurash va belbog'li kurash turlariga saralash va yo'naltirishga mo'ljallangan baholash mezonlarini ishlab chiqish;



- Tayyorgarlikning turli bosqichlariga shug'ullanuvchilarni maqsadli saralashda texnik ko'rsatkichlarni majmuaviy nazorat qilish mexanizmlarini ishlab chiqish va samaradorligini tajribada asoslash;

- Sport kurashi turlari bilan shug'ullanuvchilarni ko'p yillik tayyorgarlik bosqichlariga saralash va yo'naltirishda yuqori malakali sport kurashchilarini funksional tayyorgarlik ko'rsatkichlarining model xususiyatlari va tavsiflarini ishlab chiqish.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik tajriba, anketa so'rovnoma, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlar, instrumental uslub, (“БМЭН пэп”, “Spirometr spiro usb”, “Maxsus osma qo'girchoq polvon”) va matematik statistika formulalar va usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:


- Sport kurashi turlariga saralash va yo'naltirishda nazorat test natijalarini avtomatlashtirish, maxsus jismoniy tayyorgarlik mashqlarini maxsus kompyuter (Web) dasturi va “Innovatsion qo'girchoq polvon” dan foydalanib umumiy, maxsus, funksional tayyorgarligini monitoring qilish tizimi ishlab chiqilgan;

- Yuqori malakali kurashchilarni antropometrik ko'rsatkichlarining model xususiyatlari o'rganish asosida yosh sportchilarni “БМЭН ПЭП” apparatida vazn-bo'y ko'rsatkichlarini aniqlash orqali yosh kurashchilarni o'sish va rivojlanish dinamikasini bashorat qilishga erishilgan.

Yuqori malakali sportchi qizlarning model tavsiflarini ishlab chiqish sport ilmi-fanining nazariy qarashlarini amaliy faoliyat bilan uyg'unlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur model tavsiflari murabbiylar va ilmiy tadqiqotchilarga har bir kurashchi qizning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda eng samarali mashg'ulot yondashuvlarini belgilash imkonini beradi. Shu asosda saralash va yo'naltirish jarayonini takomillashtirishga xizmat qiluvchi metodikalar tizimi hamda model tavsiflari umumlashtirilib, o'quv-mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etishga mo'ljallangan maxsus veb-dastur ishlab chiqildi. Mazkur veb-dastur murabbiylarga sportchi qizlarni ularning individual xususiyatlari, jismoniy va funksional ko'rsatkichlari asosida saralash hamda to'g'ri yo'naltirishda amaliy yordam beradi. Dasturda sportchi qizlar haqidagi ma'lumotlarni kiritish, saqlash, qayta ishlash va tahlil qilish imkoniyatlari yaratilgan bo'lib, bu murabbiylarning mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda boshqarish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi. Dastur sportchi qizlarning jismoniy tayyorgarligi, sport natijalari va rivojlanish dinamikasini tahlil qilish hamda ularning kelgusidagi sport yutuqlarini bashorat qilish imkonini beruvchi zaruriy analitik vositalar bilan ta'minlangan. Ushbu imkoniyatlar sportchi qizlarning funksional holatidagi o'zgarishlarni kuzatish, tayyorgarlik darajasini baholash va mashg'ulot jarayonini yanada takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlangan. Ilmiy va amaliy yondashuvlar asosida murabbiylar faoliyati uchun yangi metodik yechimlar hamda samarali yondashuvlar ishlab chiqildi. Ushbu model tavsiflar kurashchi qizlarning



jismoniy va psixologik imkoniyatlarini yanada rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, ularning sport kurashlarida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Sport kurashi turlariga saralash va yo‘naltirish uchun maxsus kompyuter veb dasturi

Yuqori malakali sport kurashchilarining model xususiyatlarini aniqlashda yosh davrlaridagi bo‘yning o‘shish ko‘rsatkichlari aniqlandi. Yoshlarni sport kurashlariga saralash uchun bo‘y uzunligini oldindan bashorat qilishda V.B.Shvars, S.V.Xrushchev tomonidan ishlab chiqilgan bo‘y o‘shishini yoshga bog‘liq xususiyatlarini foizlarda bashoratlash imkoniyati yaratildi. Shuningdek, mazkur dasturdan foydalanish orqali yuqori malakali kurashchilarni vazn-bo‘y ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (2-rasmga qarang).



125 KG	191	189,6	187,2	182,9	168,6	161,3	155,1	149,9
97 KG	190	188,6	186,2	182	167,7	160,5	154,3	149,1
92 KG	175	173,7	171,5	167,6	154,5	147,8	142,1	137,3
86 KG	174	172,7	170,5	166,6	153,6	149,9	141,3	136,5
74 KG	172	170,7	168,6	164,9	151,8	145,2	139,6	135
65 KG	170	168,8	166,6	162,8	150,1	143,6	138	133,4
61 KG	165	163,8	161,7	158,1	145,6	139,3	134	129,5
57 KG	160	158,8	156,8	153,2	141,2	135,1	129,9	125,5

2-rasm. Yuqori malakali erkin kurashchilardagi vazn - bo'y ko'rsatkichlarining model xususiyatlari tahlili (n=139)

Yuqoridagi ma'lumotlarga tayanib, biz sport kurashlariga kirib kelayotgan yosh sportchilarni vazni va bo'y ko'rsatkichlarini aniqlab kelajakda qaysi vaznda kurashib yuqori natija ko'rsatishini vazn - bo'y o'lchamlari asosida bashorat qilish natijasida saralash va yo'naltirish tizimi ishlab chiqildi (1-jadvalga qarang).

Tadqiqotimizda yuqori malakali erkin kurashchilarni morfologik xususiyatlari o'rganilib, model sifatida har bir vazn toifasiga ajratib olindi va bo'y uzunligi, ko'krak qafasi aylanasi model xususiyatlari aniqlandi.

1-jadval

Yosh erkin kurashchilardagi vazn-bo'y ko'rsatkichlarining model xususiyatlarini aniqlash asosida saralash metodikasi (n-276)

Vazn toifasi va bo'y o'sish ko'rsatkichi		11 yosh	12 yosh	13 yosh	14 yosh	15-16 yosh	17 yosh	18-30 yosh
57 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	131,3	136,2	142,4	154,5	158,1	160,1	161,3
	kg	20-23		29-32		42-46	45-48	55-60
61 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	135,1	140,2	146,7	159,2	162,9	165,0	166,2
	kg	26-28		35-37		51-53	55-57	63-65
65 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	139,4	144,5	151,1	163,9	167,8	169,9	171,1
	kg	29-31		38-40		52-56	55-58	67-71
74 kg vazn toifasi chun bo'y ko'rsatkichlari	sm	140,5	146,1	152,7	165,7	169,6	171,7	173,0
	kg	32-34		41-43		60-62	63-65	72-75
86 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	142,2	147,7	154,3	167,5	171,4	173,6	174,8
	kg	35-37		44-46		63-67	65-69	77-86



92 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	143,4	148,7	155,4	168,6	172,6	174,8	176,5
	kg	38-41		48-53		71-74	73-77	82-92
97 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	145,2	150,8	157,6	171,0	175,0	177,2	178,5
	kg	41-44		52-55		80-83	84-86	87-97
110 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	154,3	160,1	167,4	181,6	185,9	188,2	189,6
	kg	44-48		57-62		92-95	94-96	97-110
125 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	158,6	164,3	171,7	186,3	190,7	193,1	194,5
	kg	48-51		62-65		110-114	110-117	121-130
Vazn toifasi va bo'y o'sish ko'rsatkichi		11 yosh	12 yosh	13 yosh	14 yosh	15-16 yosh	17 yosh	18-30 yosh
57 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	131,3	136,2	142,4	154,5	158,1	160,1	161,3
	kg	20-23		29-32		42-46	45-48	55-60
61 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	135,1	140,2	146,7	159,2	162,9	165,0	166,2
	kg	26-28		35-37		51-53	55-57	63-65
65 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	139,4	144,5	151,1	163,9	167,8	169,9	171,1
	kg	29-31		38-40		52-56	55-58	67-71
74 kg vazn toifasi chun bo'y ko'rsatkichlari	sm	140,5	146,1	152,7	165,7	169,6	171,7	173,0
	kg	32-34		41-43		60-62	63-65	72-75
86 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	142,2	147,7	154,3	167,5	171,4	173,6	174,8
	kg	35-37		44-46		63-67	65-69	77-86
92 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	143,4	148,7	155,4	168,6	172,6	174,8	176,5
	kg	38-41		48-53		71-74	73-77	82-92
97 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	145,2	150,8	157,6	171,0	175,0	177,2	178,5
	kg	41-44		52-55		80-83	84-86	87-97
110 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	154,3	160,1	167,4	181,6	185,9	188,2	189,6
	kg	44-48		57-62		92-95	94-96	97-110
125 kg vazn toifasi uchun bo'y ko'rsatkichlari	sm	158,6	164,3	171,7	186,3	190,7	193,1	194,5
	kg	48-51		62-65		110-114	110-117	121-130

Xulosa. Tadqiqot natijalari ayollar kurashi bilan shug'ullanuvchi sportchi qizlarni saralash va yo'naltirish jarayonini ilmiy asosda tashkil etish sport tayyorgarligi samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatdi. Ish jarayonida yuqori malakali kurashchi qizlarning jismoniy, funksional va psixologik ko'rsatkichlari asosida model tavsiflar ishlab chiqildi hamda ular murabbiylar uchun sportchilarni baholash, saralash va istiqbolli yo'naltirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan metodik yondashuvlar sportchi qizlarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, model tavsiflar asosida yaratilgan maxsus veb-dastur sportchi qizlar haqidagi ma'lumotlarni kiritish, saqlash, tahlil qilish va bashorat qilish imkoniyatlarini ta'minlab, murabbiylarning mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda boshqarishiga xizmat qiladi. Ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy tavsiyalar va model tavsiflar kurash sport turlarida sportchi qizlarning jismoniy hamda psixologik tayyorgarligini takomillashtirish, ularni to'g'ri saralash va istiqbolli yo'naltirish orqali yuqori sport natijalariga erishish imkoniyatlarini kengaytiradi. Mazkur yondashuvlar sport maktablari va murabbiylar faoliyatida qo'llanilganda, ayollar kurashida yuqori



malakali sportchilarni tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2-oktyabrdagi “Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3306-son qarori.
2. Aliyev I.B. Kurash nazariyasi va uslubi. T., 2022.
3. Tastanov N.A. Kurash turlari nazariyasi va uslubi. T., 2022.
4. Kerimov F.A.. Sport kurashi nazariyasi va uslubi. Darslik. T: 2018.
5. Yakupbaev A.A. Development of women's wrestling in karakalpakstan. International Journal of Pedagogics, 2024. 4(03), 30-34.
6. Yakupbaev A. A., Genjeevich, A. I. Malakali erkin kurashchilarda maxsus chidamlilikni oshirish metodikasi. Eurasian Journal of Academic Research, 2024. 4(3-2), 202-206.
6. Alimbaevich, Y. A., & Mukhtarovna, A. D. (2022). Influence of Free Wrestling on Physical Student Development in Karakalpakstan. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching, 7, 93-95.
7. Yakupbaev A. 15-16 yoshli malakali erkin kurashchilarning jismoniy tayyorgarligini funksional ko'rsatkichlar bilan o'zaro korrelyatsion bog'liqligi haqida. Sport ilm-fanining dolzarb muammolari, 2023. 1 (3), 48-53.
8. Yakupbaev A.A., Abdullayeva D.M. Sport kurashida kurashchilarning ruhiy tayyorgarligi. In Xo'jalik yuritishning samarali mexanizmini shakllantirish asosida agrosanoat majmui tarmoqlarini rivojlantirish 2022. (pp. 631-632).
9. Bakhodirovich, J. U. (2024). The methodology of developing the strength qualities of qualified young freestyle wrestlers.
10. Jarilkapov U.B. Kurashchilarning jismoniy va taktik tayyorgarligini rivojlantirish masalalari. Fan-Sportga, 2023. (2), 110-111.

DZYUDO MENEN SHUG'ILLANISH QIZLARDI TEXNIKALIQ USILLARGA UYRETIWDE ULIWM FIZIKALIQ HÁM ARNALI FIZIKALIQ TAYARLIQIN RAWAJLANDIRIW

Dárménbaeva Klara Azatbay qızı

Stajyor-oqıtıwshı

Ózbekistan mámleketlik dene tárbiyası hám sport universiteti Nókis filiali

darmenbaevaklara9@gmail.com

Annotaciya: *Usı ilimiy-izertlew jumısında izertlew nátiyjeleriniń ámeliy áhmiyeti sonnan ibarat, joqarı mamanlıqtaǵı dzyudoshılar tárepinen qollanılatusın tiykargı usıllar, jarıs iskerliginde qollanılatusın texnikalıq háreketler hám dzyudoshı qızlardıń individual ózgeshelikleriniń anıqlanǵanlıǵı hám nátiyjeleri jarıs*



procesinde kóp qollanilatugin tiykarǵı usıllardı rawajlandırıw ushin texnikalıq usıllar kompleksin islep shıǵıw hám normalaw hámde usınıslardı shınıǵıw procesine engiziw imkaniyatı jaratılǵanlıǵı menen túsindiriledi.

Tayanış sózler: *Ulıwma hám arnawlı fizikalıq tayarlıq, texnikalıq tayarlıq, modellestiriw, tayarlıq túrleri.*

Аннотация: *Практическая значимость результатов исследования в данной научно-исследовательской работе заключается в том, что выявлены основные приемы, применяемые высококвалифицированными дзюдоистами, технические действия, применяемые в соревновательной деятельности, и индивидуальные особенности дзюдоисток, а также создана возможность разработки и нормирования комплекса технических приемов для развития основных приемов, часто применяемых в соревновательном процессе, а также внедрения рекомендаций в тренировочный процесс.*

Ключевые слова: *Общая и специальная физическая подготовка, техническая подготовка моделирование, виды подготовки.*

Abstract: *The practical significance of the research results in this research work lies in the fact that the main techniques used by highly qualified judokas, the technical movements used in competitive activities, and the individual characteristics of female judokas have been identified, and the results have made it possible to develop and standardize a complex of technical techniques for the development of the main techniques frequently used in the competitive process, as well as to introduce recommendations into the training process.*

Keywords: *general and special physical training, technical training modeling, types of preparation.*

Аktuallıǵı. *Jáhánde xalıq aralıq sport gúresi jarısların baqlaw nátiyjesinde tájiriybeli dzyudoshı qızlar tárepinen orınlanǵan joqarı sheberlikti sáwlelendiriwshi háreket tayarlıǵınıń nátiyjeli qural hám texnikalıq-taktikalıq usılların ilimiy támiyinlew, tiykarlaw hám de tájiriybe nátiyjelerin oqıw-shınıǵıw procesine engiziw maqsetinde, sportta jas dzyudoshı qızlardıń fizikalıq, texnikalıq, psixologiyalıq hám funktsional tayarlıǵına baǵdarlanǵan ilimiy-izertlew jumısları alıp barılmaqta. XXI ásir dzyudoshılar ushin kóp jıllıq tayarlıq cikllerindegi shınıǵıw júklemelerin sistemalastırıw hám optimal túrlerin islep shıǵıw, olardı ilimiy tiykarlaw hám normalastırıw boyınsha bólistiriw ámeliyatın engiziw talabın qoymaqta.*

Gúres usılların, ádette trener tikkeley kórsetip hám túsindirip bergennen keyin, palwanlar jaqsı ózlestiredi. Sonıń ushin trener júdá kóp sanlı usıllardı biliwi kerek.

Ótilgen texnikalıq háreketti jaqsı bekkemlew ushin qızlarǵa usıllardı kórsetip beriw yamasa onıń orınlanıwın túsindirip beriw usınıs etiledi.

Tiykarınan texnikalıq háreketlerge úyretiwden aldın usı texnikalıq usıllarǵa kónlikpe payda etiw ushin arnawlı shınıǵıwları rawajlandırıw kerek boladı, bul baslanǵısh tayarlıq basqıshında ámelge asırıladı. Baslanǵısh tayarlıq basqıshında



usıllarğa úyretiwde usıllardı pútinliginshe kórsetiw usılınan kóbirek paydalanıw kerek. Jańa usıllardı túsindiriwde sol áhmiyetli esaplanadı. Balalar texnika bólimlerin túsiniwi hám ańlap jetiwi zárúr [1,2].

Sonday-aq, bul dáwir tezlik hám háreket tezligin tárbiyalaw ushın júdá qolaylı. Bul dáwirde shaqqanlıqtı tárbiyalawğa itibar beriw kerek, sebebi shaqqanlıq quramalı texnikalıq-taktikalıq háreketlerdi tabıslı úyreniw ushın tiykar boladı. Jas dzyudoshı qızlardıń dene ólshemleri hám salmaǵınıń ósiwi kúshtiń ósiwinen aldın rawajlanadı. Kúshti tárbiyalaw ushın kúsh salıw hám uzaq waqıt kúsh salıwdan jıraq bolǵan shınıǵıwları tańlaw kerek [4,6].

Bul dáwir iyiliwsheńlikti tárbiyalaw ushın eń qolaylı, sebebi 13 jasqa kelip iyiliwsheńlik hám de buwınlardaǵı háreketshenlik bir qansha páseyedi. Iyiliwsheńlikti tárbiyalaw ushın qarsılas penen hám jeke túrde orınlanatuǵın ulıwma rawajlandırıwshı hámde arnawlı shınıǵıwlar qollanıladı.

Bul basqısha shınıǵıw procesin shólkemlestiriwde tikleniw ilajların da názerde tutıw kerek. Olarğa shınıǵıwdan keyingi suw proceduraları, shınıǵıwlar, júziw, monsha hám shınıǵıwları taza hawada ótkeriw kiredi.

Dzyudoshı qızlardı erkin turmısqa beyimlestiriw kerek. Sebebi keyingi tereńlestirilgen sport profissinollıq basqıshında bul processlerde gúresshi óz tájiriybesinen kelip shıqqan halda shınıǵıwdan keyingi suw proceduraları, shınıǵıwlar, júziw, monsha hám shınıǵıwları taza hawada ótkeriw kerek [3,6].

Shınıǵıw quralları: sport oynıları, kross juwırıw, gúrestin arnawlı shınıǵıwları, akrobatika shınıǵıwları, kishi awırlıqlar menen shınıǵıwlar, jarıs xarakterindegi oqıw shınıǵıw bellesiwlari menen alıp barıladı. Kópshilik qánigeler tárepinen usı nárse tereńlestirilgen sport qánigelesiwi basqıshında gúresshiniń hár tárepleme shınıǵıwı úlken nátiyje beredi.

Usı dáwirde texnikalıq háreketiń durıs biodinamikalıq strukturasına úyretiwge háreket islew zárúr. Biraq, texnikalıq tayarlıqta tabısqa erisiw kóp jaǵdaylarda gúresshiniń fizikalıq sıpatları rawajlanıwınıń optimal qatnaslarına baylanıslı. Bul dáwirde shınıǵıw procesine háreketli hám sport oynıları, sonday-aq dzyudo gúresinde áhmiyetli bolǵan fizikalıq qásiyetlerdi tárbiyalawğa qaratılǵan gúrestiń arnawlı shınıǵıwların kirgiziw esabınan tezlikti rawajlandırıwdı dawam etiw kerek [3].

Izertlewdiń maqseti. Baslanǵısh tayarlıq basqıshındaǵı dzyudoshılardıń texnikalıq jaqtan háreketlerge úyretiw usılı boyınsha usınıslar islep shıǵıwdan ibarat.

Izertlewdiń wazıypaları.

1. Dzyudoshıl qızardıń ápiwayı hújim háreketlerin jetilistiriwde qolay dinamikalıq jaǵdaylarda paydalanıw imkaniyatların keńeytiw;
2. Dzyudoshı qızlardıń qolaylı jaǵdaylarda nátiyjeli háreketlerden paydalanıw imkaniyatların keńeytiwde;
3. Dzyudoshı qızlardı hújim háreketlerine úyretiwde texnikalıq usıllardı nátiyjeli orınlaw imkaniyatların keńeytiw;



Izertlew obyekti. Qaraqalpaqstan Respublikası Nókis rayonu balalar, óspirimler sport mektebiniń dzyudoshı qızların shınıǵıw procesinen hám Qaraqalpaqstan Respublikası Xojeli rayonu balalar-jas óspirimler sport mektebi bazasında ótkerilgen shınıǵıw procesinen alınǵan.

Izertlew usılları. Izertlewde ilimiy-metodikalıq ádebiyatlardı analizlew hám ulıwmalastırıw, pedagogikalıq baqlaw, pedagogikalıq tájiriyebe, matematikalıq statistika analiz usıllarınan paydalanılǵan.

Biz ótkergen izertlewde sońǵı 2 jıl ishinde dzyudo sport túri menen jáhán kóleminde jetekshilik etip kiyatırǵan palwanların bellesi w alıp barıw taktikası hám bul taktikanı dúziwde olar keń paydalanatúǵın texnikalıq usıllar arsenalı haqqında maǵlıwmatlar toplandı.

Joqarı tájiriyebe dzyudoshı qızların teoriyalıq jaqtan texnikalıq arsenalı maketi úyrenip shıǵıldı yaǵnıy olardıń texnikalıq arsenalın modellestiriw jumısları alıp barıldı hám sońǵı jılları Olimpiada oynıları hám Jáhán chempionatlarında joqarı nátiyjelerdi kórsetken sheber dzyudoshı qızlar tańlap alındı hám olardı bellesi w alıp barıwda qaysı texnikalıq usıllardan kóp paydalanıwları baqlap talqılandı.

Bul baqlaw dzyudoshı qızların tayarlıǵınıń derlik barlıq táreplerin san jaǵınan sıpatlap berdi, yaǵnıy abıraylı jarıs iskerligi, joqarı sheberliktegi dzyudoshı qızların tayarlıq dárejesin sport sheberligi, joqarı qánigeli dzyudonıń organizm sisteması yamasa potenciallıq imkaniyatları esapqa alınadı. Tayarlıq túrleriniń usınday baqlanıwı hám sol arqalı oqıw shınıǵıw processleriniń sistemalastırılıwı hámde bir-birine izbe-iz baylanısıp barıwı joqarı sheber sportshılardı tayarlaw ushın eń qolaylı jol bolıp xızmet etti. Dzyudoshılardı tayarlawǵa itibar qaratqan halda alǵa qoyılǵan wazıypaların sheshiliwi oqıw-shınıǵıw processleriniń jetilisip barıwın támiyinleydi.

Bul baǵdarda dzyudo sport túri ámeliyatta sonı kórsetedi, jarıs proceslerinde jeńiske erisiw ushın gúresshiler waqtınan aldın bar kúshin salıp háreketlenedi, nátiyjede háreketler sebepsiz artıp ketedi, bul bolsa gúresshiniń aktivlik dárejesiniń páseyip ketiwine alıp keledi. Pedagogikalıq baqlawlar da sonı kórsetedi, maksimal nátiyjege erisiw maqsetinde tayarlıq dárejesi tezlestiriledi aqıbetinde gúresshilerdiń kópshiligi waqtınan aldın óz imkaniyatınıń shegara noqatına jetedi, soń sport iskerligin erte tamamlawǵa tuwra keledi.

Izertlewge Qaraqalpaqstan Respublikası sport mekteplerinde dzyudo menen shuǵıllanıwshı qızlar qaratıldı. Olardıń fizikalıq hám texnikalıq tayarlıqları ósiw kórsetkishlerin anıqlap barıw ushın 9-12 jas ul balalarǵa mólsherlengen ulıwma hám arnawlı fizikalıq shınıǵıwlardan quralǵan test sınaqlarınan paydalanıldı. Texnikalıq háreketlerden ibarat test sınaqlarında modellestirilgen texnikalıq usıllardan paydalanıldı.

Izertlew ushın bizler Qaraqalpaqstan Respublikası Nókis rayonu balalar, óspirimler sport mektebi hám Qaraqalpaqstan Respublikası Xojeli rayonu balalar-jas óspirimler sport mekteplerinde dzyudo túri menen shuǵıllanatuǵın dzyudoshı



qızlardı aldıq. Usılargá tiykar bizler Qaraqalpaqstan Respublikası Nókis rayónı balalar, óspirimler sport mektebinen 15 qadaǵalaw toparı hám 15 tájiriye toparları, Qaraqalpaqstan Respublikası Xojeli rayónı balalar-jas óspirimler sport mektebinen 10 qadaǵalaw hám 10 tájiriye toparların toparlarına ajratıp alındı.

Izertlewde qatnasıwshı qadaǵalaw hám tájiriye toparları izertlew basında fizikalıq sıpatları hám texnikalıq sheberliklerin anıqlaw maqsetinde biz tárepimizden islep shıǵılǵan sınav testlerinen ótkerildi. Sol sebepli qadaǵalaw hám tájiriye toparındaǵı dzyudoshılardı izertlew basında fizikalıq sıpatlarınń rawajlanǵanlıq kórsetkishleri dárejesin anıqlaw maqsetinde ulıwma hám arnawlı fizikalıq shınıǵıwlardan ibarat test sınaqları norması talaplarına sáykes túrde alınǵan (1,2,3-kesteler).

1-keste

Qaraqalpaqstan Respublikası Nókis rayónı balalar, óspirimler sport mektebinde shuǵıllanıwshı dzyudoshı qızlardıń fizikalıq sıpatları kórsetkishleri (qadaǵalaw toparı n=10, tájiriye toparı n=10)

		Sınav ushın tańlanǵan shınıǵıwlar							
Toparlar	Statistikalıq kórsetkish	30 metr. aralıqqa juwırıw h. (sekund)	30 metr. aralıqqa juwırıw h. (sekund)	Qollarǵa tayanıp, qollardı bugıp jazıw (san)	Turnikte tartılıw (sanı)	30.sekund ishinde shalqasına jatqan jaǵdayda bas hám ayaqlardı joqarıǵa kóteriliw (san)	30. sekund ishinde ornında otırıw turıw (san)	Turǵan jerden uzunlıqqa sekiriw (metr)	Turǵan jerden uzunlıqqa sekiriw (márte)
Qadaǵalaw toparı	X	5,5	14,8	42,7	10,6	12,9	18,4	204,2	12,4
	σ	0,6	1,8	4,9	1,1	1,4	2,2	19,3	1,1
	V, %	10,9	12,2	11,6	10,7	10,8	12,2	9,4	8,6
Izertlew	X	5,7	14,9	42,3	10,3	12,4	18,1	200,1	12,6
	σ	0,6	1,8	5	0,8	1,2	1,9	24,6	1,3
	V, %	10,4	12,4	11,9	8,4	9,5	10,8	12,3	10,6

Qaraqalpaqstan Respublikası Nókis rayónı balalar, óspirimler sport mektebinde shuǵıllanıwshı dzyudoshı qızlardıń fizikalıq sıpatları kórsetkishleri izertlew basında alınǵan nátiyjeler boyınsha: qadaǵalaw toparında 30 metr aralıqqa juwırıw (waqıt) boyınsha ólshengen nátiyjeler ortasha arifmetikalıq mánisi - 5,5 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 0,6 variası koefficienti - 10,9 kórsetti. 100 metr aralıqqa juwırıw (waqıt) boyınsha ólshengen nátiyjelerdń ortasha arifmetikalıq mánisi - 14,8 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,8 variaciyası koefficienti - 12,2 kórsetti.

Qollarǵa tayanıp, qollardı búgıp jazıw (sanı) boyınsha ólshengen nátiyjelerdń ortasha arifmetikalıq mánisi - 42,7 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 4,9 variaciyası koefficienti - 11,6. Turnikte tartınıw (sanı) boyınsha ólshengen



nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 10,6 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,1 variaciyası koefficienti - 10,7 di kórsetti. 30 sekund ishinde shalqasına jatqan jaǵdayda bas hám ayaqlardı joqarıǵa kóteriń (sanı boyınsha) ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi -12,9 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,4 variantası koefficienti - 10,8 kórsetti. 30 sekund ishinde ornında otırıw sanı boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi -18,4 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 2,2 variantı koefficienti - 12,2 kórsetti. Turgan jerden uzınlıqqa sekiriw (metr) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 204,2 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 19,3 variantı koefficienti - 9,4 ti kórsetti. 3000 metr aralıqqa juwırıw (waqıt) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi -12,4 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,1 variantası koefficienti - 8,6. Tájiriye toparında 30 metr aralıqqa juwırıw (waqıtı) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 5,7 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 0,6 variaciya koefficienti - 10,4 ti kórsetti. 100 metr aralıqqa juwırıw (waqıt) boyınsha ólshengen shamalardıń ortasha arifmetikalıq mánisi -14,9 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,8 variaciyası koefficienti - 12,4 kórsetti. Qollargá tayanıp, qollardı búgip jazıw (sanı) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq shaması - 42,3 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 5 variantı koefficienti - 11,9 kórsetti. Turnikte tartılıw (sanı) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 10,3 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 0,8 variaciyası koefficienti - 8,4 kórsetti. 30 sekund ishinde shalqasına jatqan jaǵdayda bas hám ayaqlardı joqarıǵa kóteriń (sanı) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 12,4 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,2 variaciyası koefficienti - 9,5 ti kórsetti. 30 sekund ishinde ornında otırıw turıw (sanı boyınsha) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi 18,1 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,9 variantası koefficienti - 10,8 kórsetti. Turgan jerden uzınlıqqa sekiriw (metrde) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 200,1 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 24,6 variantası koefficienti - 12,3 kórsetti. 3000 metr aralıqqa juwırıw (waqıtı) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi -12,6 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,3 variantı koefficienti - 10,6 kórsetti.

Qaraqalpaqstan Respublikası Xojeli rayonu balalar-jas óspirimler sport mektebinde shuǵıllanıwshı dzyudoshı qızlardıń fizikalıq sıpatları kórsetkishleriniń izertlew basındaǵı nátijjeleri tómendegishe: 10 metr aralıqqa kópir halatında júriw (waqıt) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 34 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 3,8 variaciya koefficienti - 11,1 kórsetti. 10 metr aralıqqa alǵa domalaw (waqıtı) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi -15,8 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,5 variaciyası koefficienti - 9,7 kórsetti. 10 metr aralıqqa artqa domalaw (waqıtı) boyınsha ólshengen nátijjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 17,7 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 2,2 variaciyası koefficienti - 12,2 kórsetti. 3 onǵa 3 shep



täreplerge kópir jaǵdayında aylanba juwırıw (waqıtı boyınsha) ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 26 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 2,7 variantası koefficienti - 10,4 kórsetti. 10 márte kópir jaǵdayında bas arqalı atlap ótiw (waqıt) boyınsha ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 36,9 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 3,1 variaciyası koefficienti - 8,5 kórsetti. 10 márte ornında turıp joqarıǵa sekiriw (waqıt) boyınsha ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 16,1 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,7 variaciyası koefficienti - 10,6 kórsetti. 10 metr aralıqqa dizerlep júriw (waqıt) boyınsha ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi 16,8 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 2,1 variaciya koefficienti - 12,3. Tájriybe toparında 10 metr aralıqqa kópir jaǵdayında júriw (waqıtı) boyınsha ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi -33,7. standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 4 variantı koefficienti - 11,8 di kórsetti. 10 metr aralıqqa aldığa domalaw (waqıtı boyınsha) ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 15,4 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 2 variantası koefficienti - 12,7 kórsetti. 10 metr aralıqqa artqa domalaw (waqıtı) boyınsha ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 17,4 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,7 variaciyası koefficienti - 9,9 kórsetti. Kópir halatında aylanba juwırıw (3 ońǵa 3 shep tärepkke) waqıtı boyınsha ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 26,3 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 2,2 variaciyası koefficienti - 8,2 kórsetti. 10 bir ret kópir jaǵdayında bas ústinen atlap ótiw (waqıtı) boyınsha ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 36,7 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 4 variantı.

koefficienti - 10,8 di kórsetti. 10 márte ornında turıp joqarıǵa sekiriw (waqıtı boyınsha) ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi - 16 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,9 variantası koefficienti - 11,3 kórsetti. 10 metr aralıqqa dizerlep júriw (waqıtı) boyınsha ólshengen nátiyjelerdiń ortasha arifmetikalıq mánisi -16,5 standart awıw (ortasha kvadratlıq awıw) - 1,5 variaciyası koefficienti - 9,3 kórsetti.

2-keste

**Qaraqalpaqstan Respublikası Xojeli rayonı balalar-jas óspirimler sport mektebinde
dzyudo menen shuǵıllanıwshı qızlardıń fizikalıq sapa kórsetkishleri (qadaǵalaw toparı
n=15, tájiriye toparı n=15)**

		Sınaw ushın tańlangan shınıǵıwlar							
Toparlar	Qadaǵalaw toparı	Statistikalıq kórsetkish	10 metr. aralıqqa kópir halatında júriw (waqıt)	10 metr. aralıqqa aldığa domalaw (waqıtı)	10 metr. aralıqqa arqaǵa domalaw (waqıtı)	3 ońǵa, 3 shep täreplerge kópir halatında aylanıp juwırıw (waqıt)	10 márte kópir halatında mostan shıǵıw (waqıt)	10 márte turǵan jerden joqarıǵa sekiriw (waqıt)	10 metr. aralıqqa dizelep juwırıw
		X	54	15,8	17,7	26	36,9	16,1	16,8
Qadaǵalaw toparı	Basında	σ	3,8	1,5	2,2	2,7	3,1	1,7	2,1
		V, %	11,1	9,7	12,2	10,4	8,5	10,6	12,3



Изertlew	Basında	X	33,7	15,4	17,4	26,3	36,7	16	16,5
		σ	4	2	1,7	2,2	4	1,9	1,5

Juwmaq. Elimizde sport tarawın rawajlandırıw, fizikalıq, texnikalıq-taktikalıq tayarlıqlar haqqında ilimiy izleniwler alıp barılıwı, joqarı dárejedegi jurnallarda basıp shıǵarılǵan maqalalardan úlgi sıpatında paydalanıw haqqında pikirler júrgizilgen bolsa da, belgili bir sport gúresi túri haqqında modellestiriw usıllarınan paydalanılmaǵanlıǵı baqlandı. Kóplegen ilimpazlar model ham modellestiriwdi matematikalıq, logikalıq, texnikalıq ham kibernetikalıq túrlerge bólip úyrenen biraq, belgili bir háreketler sisteması haqqında izleniwler júrgizilmegen. Óz nábwetinde háreketlerdiń izbe-izligi ham olardıń bir pútın texnikalıq usıl sıpatında orınlanıwın úyreniw boyınsha pikirler bildirilmegen.

Texnikalıq usıldı modellestiriw qıyın shınıǵıw procesinde tiykarınan úyretiw sistemasına “Tiykargı qural” sıpatında qaraladı. Sport tarawında ilimiy izleniwler alıp barǵan ilimpazlar erkin izertlewshilerdiń ilimiy jumıslarınan pikirleri model ham modellestiriw túrleri arasındagı ayırmashılıq bar ekenligine qaramastan, palwan oqıw-shınıǵıw iskerliginiń isenimliligin modellestiriwde olardan paydalanıw ham ózindegi kemshiliklerdi saplastırıw boyınsha ilimiy kózqaraslar jeterli dárejede sáwlelendirilmegen.

Sporttıń dzyudo túrleri boyınsha ilimiy izleniwler ústinde bas qatırıp atırǵan ilimpazlar joqarı dárejedegi sportshınıń mikrosikllerdegi tayarlıqların modellestiriw usılların usınıw, sonıń ishinde ayırıqsha modeldegi shınıǵıwlar, olardıń kompleksi ham tez kónligiw mexanizmi tiykarında qurılıwı atap ótilgen. Usı modeldegi shınıǵıwlar yamasa olardıń kompleksin islep shıǵıwda ilimpazlar shınıǵıwlardıń dawamlılıǵı onıń túri, norması, shınıǵıwlardı tákirarlawlar arasındagı toqtawlar waqıtı, jumıstıń nátiyjeliligi haqqındagı tayarlıqtıń túrlerin jetilistiriwge qaratılǵan, biraq texnikalıq usıllar arsenalı haqqında pikir júrgizip ótilmegen. Ilimpazlardıń ilimiy izleniwleri dawamında eń nátiyjeli bolǵan texnikalıq usıllar haqqında izertlewler alıp barılmaǵanlıǵı baqlandı.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. Kerimov F.A. Sport kurashi nazariyasi va uslubiyati. T.: O‘zDJTI 2018.-286 b.
2. Kerimov F.A. Sport sohasida ilmiy tadqiqotlar. T.O‘zDJTI 2020.-263b.
3. Khamidjanov Abdulaziz Usubjon og‘li. (2020). Improving the system and content of selection of children for the sport of belt wrestling. Indicators, 8(11), 12-16.
4. Новиков А.А. Основы спортивного мастерства. М.:Советский спорт,2012-стр. 256.



5. Nuriddin Rukhiddinov Goziyev, Abdulaziz Usubjon ugli Khamiddjanov. (2019). The stage of improving the system and content of candidate selection for belt wrestling. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(3), 279-281.

6. Qodirov, Sirojiddin Erkinboevich. "Development of strength and operational strength skills of qualified judoists aged 15-17 years in sports improvement groups." Eurasian Journal of Sport Science 1.2 (2021): 131-135.

7. Qodirov Sirojiddin Erkinboyevich, et al. “Malakali dzyudochilarning kuch va tezkor-kuch sifati bo‘yicha mashg‘ulotlarning xususiyatlari” Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS) 1.4 (2021): 70-77.

8. Salamov R.S. Jismoniy tarbiya va uslubiyati. 1,2 jild. T. ITA-press. 2018-296b.

9. Туманян Г.С. Спортивная борьба. М.: Советский спорт. 2000. Стр. 288.

10. Xamidjonov A.U. Belbog‘li kurash sport turiga bolalarni saralashning nazariy va amaliy tahlili. Fan-Sportga, 2020. 6(6), 75-77.

11. Kerimov F.A., Xamidjonov A.U. Belbog‘li kurashga bolalarni saralashda musobaqa faoliyati va texnik-taktik tayyorgarlik ko‘rsatkichlar samaradorligini baholash va nazorat qilish metodikasi. Ilmiy-amaliy konferentsiya, 2021. 1(1), 35-390.

12. Kerimov F.A., Xamidjonov A.U. Belbog‘li kurash sport turiga 9-14 yoshli bolalarni saralashda maxsus jismoniy tayyorgarligi ko‘rsatkichlarining o‘rni va ahamiyati. Ilmiy-amaliy konferentsiya, 2022. 1(1), 62-73.

GANDBOLCHILARNING O‘YIN AMPLUASI BO‘YICHA TAYYORGARLIK PARAMETRLARINING TAHLILI

Tojiyeva Zlixa Markaboyevna

Stajyor-o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

zlixatajiyeva@gmail.com

Annotatsiya: O‘tkazilgan tadqiqotlar elita (model) sportchilarning bunday xususiyatlariga e‘tibor qaratgan holda gandbolchilarning yoshi va o‘ynaydigan rollari hisobiga tayyorgarligini baholashga qaratilgan. Gandbol bo‘yicha ko‘p yillik mashg‘ulotlar, 12-13 yoshdan boshlab ma‘lum bir o‘yin rollariga tayyorgarlik jarayonida tanlash ko‘p yillik mashg‘ulotlarda o‘yinchilar organizmiga moslashishning morfofunktsional va psixomotor xususiyatlarini shakllanishiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatadi. Gandbolda butun jamoa uchun ishonchli ahamiyatli ko‘rsatkichlar, qoida tariqasida, birinchi navbatda, jismoniy rivojlanishning o‘sish va vazn ko‘rsatkichlari, asosiy jismoniy sifatlari va psixomotor qobiliyatlar qobiliyati bilan bog‘liq.



Kalit so‘zlar: Antropometriya, psixomotor, jismoniy rivojlanish, qobiliyat, o‘yin roli.

Аннотация: Проведенное исследование направлено на оценку подготовленности гандболистов с учетом возрастных и игровых амплуа с ориентацией на такие характеристики элитных (модельных) спортсменов. Многолетние занятия гандболом, отбор в процессе подготовки к определенным игровым амплуа с 12-13 лет оказывают существенное влияние в многолетней тренировке на формирование морфофункциональных и психомоторных особенностей адаптации к организму игроков. В гандболе достоверно значимые показатели для всей команды, как правило, обусловлены прежде всего роста-весовыми показателями физического развития, возможностями основных физических качеств и психомоторными способностями.

Ключевые слова: антропометрия, психомоторика, физическое развитие, работоспособность, игровая амплуа.

Abstract: The conducted research is aimed at assessing the training of handball players due to age and playing roles with an orientation to such characteristics of elite (model) athletes. Long-term handball lessons, selection in the process of preparation for certain playing roles from the age of 12-13 have a significant impact in long-term training on the formation of morph functional and psychomotor features of adaptation to the body of players. In handball, reliably significant indicators for the whole team, as a rule, are primarily due to the growth and weight indicators of physical development, the ability of basic physical qualities and psychomotor abilities.

Keywords: anthropometry, psychomotor, physical development, capacity, playing role.

Kirish: Hammamizga ma’lum, har bir sport turining rivojlanishida avvalo bu sport turi bilan shug‘ullanadigan yosh sportchilarning o‘rni va ahamiyati yuqori hisoblanadi. Ya’ni, bunda yosh sportchilarning tanlagan sport yo‘nalishi bo‘yicha mahoratini boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidan boshlab rivojlantirib borish kerak. Bu jarayonda sport maktablari asosiy vazifani bajaruvchi hisoblanadi. Bunda “Bolalar va o‘smirlar maktablarining sport tarmoqlari va sport majmuasi klublari yonida, abonementli guruhlar mavjudligi turar joy bo‘yicha yoqtirgan sport turlari bilan shug‘ullanish imkoniyatini ta’minlaydi”.

Gandbolning hozirgi rivojlanish darajasi tajribali gandbolchilar tayyorgarligining turli jihatlariga talablarni oshirdi. Musobaqa faoliyati samaradorligiga ta’sir etuvchi omillardan biri jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari, uning imkoniyatlari bo‘lib, ular uzoq muddatli mashg‘ulotlarning turli bosqichlarida tanlashda, jamoalarni to‘ldirishda, ampluani belgilashda hisobga olinadi.



Bundan tashqari, mashg‘ulot jarayonini boshqarish texnik va taktik harakatlarni amalga oshirishning sportchilar tanasining morfologik, funksional va psixologik xususiyatlariga bog‘liqligi bilan chambarchas bog‘liq. Shu bilan birga, oliy sportda yuqori sport natijalariga erishish, bir tomondan, tananing genetik jihatdan aniqlangan xususiyatlari bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, sportga moslashish sportchilar tanasining morfofunktsional imkoniyatlarida o‘yin ampluasi bilan iz qoldiradi [1].

Tadqiqot maqsadi. Yosh, sport tajribasi va o‘yin ampluasi bilan belgilanadigan jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarini, uning imkoniyatlari va psixomotor qobiliyatlarini qiyosiy tahlil qilishni o‘z ichiga oladi.

Tadqiqot materiallari va usullari. Gandbolchilarning jismoniy rivojlanishi, uning ishlashi va psixomotor qobiliyatlarini baholash uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasining Nukus shahri va Chimboy tumanidagi sport maktablaridagi gandbol to‘garagida olingan antropometrik va psixomotor skrining ma‘lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqot davomida tana uzunligi va vazni, ko‘krak qafasi aylanasi (KQA) va uning ekskursiyasi (KQE), o‘pkaning tiriklik sig‘imi (O‘TS), maksimal bilak kuchi (F_{max} , kg) o‘lchovlari o‘tkazildi. Ketele indeksi (KI) atletik darajani va fizikaning mutanosibligini aks ettiradi, O‘pka indeksi (O‘I), EGK va tana yuzasining maydoni ($TYUM, m^2$) tashqi nafas apparatining aerobik imkoniyatlarini xarakterlaydi. Matematik qayta ishlash tavsiyalarga muvofiq amalga oshirildi [2].

Tana massasi indeksi (TMI, kg/m^2) aktiv va passiv tana og‘irligining proporsionalligini xarakterlaydi. Morfologik yetuklik indeksi (MEI standart birligi) nisbiy qo‘l va bilak kuchi ko‘rsatkichlari bilan birgalikda sportchilarning tayanch-harakat tizimining morfofunktsional yetuklik darajasini aks ettiradi [3, 4].

Tadqiqot natijalari va tahlili. Professional sportdagi yutuqlarning sportchilar tanasining morfofunktsional xususiyatlariga bog‘liqligi, boshqa moddalar teng bo‘lsa, qat’iy tasdiqlangan va shubhasiz hisoblanadi.

Bundan tashqari, tana vaznining biroz kamayishi bilan gandbolchilar tashqi nafas apparati maksimal kuch (F_{max}), O‘pkaning tiriklik sig‘imi (O‘TS), Ko‘krak qafasi aylanasi (KQA), Ko‘krak qafasi ekskursiyasi (KQE) ning yuqori darajada rivojlangan parametrlari bilan umumiy kuch qobiliyatlarining optimal baholariga ega.

Bizning aniqlashimizcha, gandbolchilarning o‘yin faoliyatidagi ko‘p qirrali bo‘lishiga qaramay, o‘yin ampluasi ularning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi. Xususan, 12-13 yoshli gandbolchilarning tana uzunligi va vazni mutanosib ravishda 157/162 sm va 45/50; 168/175 - 54/62 ni tashkil etadi. Shuni ham ta’kidlash kerakki, bo‘yning balandligi, mintaqaviy standartlarga muvofiq, bu yoshda mustaqil komponent sifatida yuqori (1-jadval). Yoshi va sport ixtisosligining o‘ssishi bilan bo‘y va vazn ko‘rsatkichlari oshib boradi (2-jadval), professional gandbolchilarnikiga yaqinlashadi (3-jadval).



1-jadval

12-13 yoshli gandbolchilarning jismoniy rivojlanish parametrlari.

Amplua	Fizikaviy rivojlanish ko'rsatkichlari					
	Bo'yi, sm.	Og'irlik, kg	O'TS, ml	KQA, sm.	KQE, sm.	Fmax Bilak kuchi, kg
Burchak o'yinchisi	157/162.	45/50.	2,0/2,4	69/79.	4/6	33/38.
Yarim o'rta	167/173.	53/65.	2,5/2,8;	70/80;	5/6	35/40;
Chiziq o'yinchisi	168/175.	54/62.	2,7/2,9.	70/75	6/7	38/45.
Markaziy o'yinchi	160/165.	49/52.	2,2/2,8;	69/78.	5/6	36/40;
Darvozabon	168/170.	52/60.	2,7/3,0	71/82.	6/8.	39/45.

Izoh: Fmax - maksimal kuch, O'TS - O'pkaning tiriklik sig'imi, KQA - Ko'krak qafasi aylanasi, KQE - Ko'krak qafasi ekskursiyasi

Jadvallarda keltirilgan turli yoshdagi gandbolchilarning jismoniy rivojlanish ma'lumotlari va sport tajribalari ularning o'yin amplitudasida aks ettirilgan.

2-jadval

19-23 yoshli yuqori malakali gandbolchilarning jismoniy rivojlanish parametrlari.

Amplua	Fizikaviy rivojlanish ko'rsatkichlari					
	Bo'yi, sm.	Og'irlik, kg	O'TS, ml.	KQA, sm.	KQE, sm.	Fmax Bilak kuchi, kg
Burchak o'yinchisi	185.	80.	4,3.	106.	8,5.	65.
Yarim o'rta	200	98.	4,6.	113.	9,0	75.
Chiziq o'yinchisi	197.	99	4,7.	112.	10.	70.
Markaziy o'yinchi	191	87.	4,5;	108.	9.	75.
Darvozabon	196.	94.	5,0.	110.	10.	75.

3-jadval

Professional gandbolchilarning jismoniy rivojlanishining namunaviy parametrlari (model) - 23-27 yosh.

Amplua	Fizikaviy rivojlanish ko'rsatkichlari					
	Bo'yi, sm.	Og'irlik, kg	O'TS, ml.	KQA, sm.	KQE, sm.	Fmax Bilak kuchi, kg
Burchak o'yinchisi	194,0	91,0	6,3.	106.	10,2.	70.
Yarim o'rta	196,0	92,0	6,4.	108.	10,5.	80.
Chiziq o'yinchisi	184,0	82,0	5,8.	105.	10,2.	70.
Markaziy o'yinchi	196,0	93,0	6,2.	107.	10,5.	75.
Darvozabon	189,0	88,0	5,9.	106.	11,4.	75.

Burchak o'yinchisi. Jismoniy rivojlanishning eng past bo'y va vazn parametrlariga ega bo'lgan barcha o'rganilgan sportchilar guruhlaridagi gandbolchilar qisqa vaqt ichida tez va chaqqon texnik va taktik harakatlar bilan ajralib turadi.



Chiziq o‘yinchisi. Raqibning mudofadagi taktik tayyorgarligini bartaraf etish, shu bilan darvozaga zarba yo‘llash imkoniyatini ta‘minlash.

Yarim o‘rta qatlamidagi o‘yinchilar himoyada sheriklarning texnik va taktik harakatlarini boshqarish, himoya kabi funksiyalarni bajaradi, massiv o‘yinchilar esa uzoq masofalardan darvozaga zarba yo‘llashga ixtisoslashgan bo‘ladi.

Darvozabon. Jismoniy rivojlanishning baland bo‘y va vazn parametrlari bilan ham ajralib turadi, darvoza tomon zarbalarni qaytaradi va ekstremal vaziyatlarda vaqti-vaqti bilan maydon o‘yinchisiga aylanadi.

Muvaffaqiyatli o‘yin faoliyati uchun gandalchilarning katta vazn-bo‘yi tana parametrlarining baholarini tahlil qilish, qoida yo‘li bilan, uchinchi toifadagi tutqichning uzunligi (tezlik dastagi) ortadi, bu uzoq masofadan darvozaga zarba yo‘llash samaradorligini ta‘minlaydi [6].

Leonardo da Vinchi tomonidan hisoblangan vitruvian odamining prinsipiga asoslanib, qo‘lning uzunligi tananing uzunligiga teng bo‘lishi kerak bo‘lganda, ya‘ni. 1 dan 1 gacha koeffitsiyent bilan. Tibbiyotda 1 dan 1, 05 gacha bo‘lgan koeffitsiyent qachondan beri Morfan sindromining ko‘rsatkichi hisoblanadi, bu tananing biriktiruvchi to‘qimalarining aynishi tufayli oyoq-qo‘lning patologik cho‘zilishiga olib keladi [9].

Ma‘lumki, professional sportda gandalchilarning harakatlanishida yo‘qotmasdan kinetik energiyaga aylanadigan bo‘sh potensial energiya mushak va paylarda to‘planishi hisobiga tana massasining tarkibi jismoniy rivojlanish imkoniyatlari bilan sezilarli bog‘liq [5].

Yuqorida aytilganlar kontekstida shuni ta‘kidlash kerakki, 12-13 yoshdagi harakat analizatorining anatomik va fiziologik yetukligi o‘zaro bog‘liqlikda gandalchilarning nerv-mushak tizimining yuqori morfofunktsional yetukligi o‘smirlarga kattalar bilan bir xil tezlik, muvofiqlashtirish va aniqlik bilan harakatlarni bajarish imkonini beradi, bu bizga bu yoshda texnik va taktik jihatdan yaxshilanish haqida bahslashish imkonini beradi.

Gandalbolning zamonaviy rivojlanish darajasi sportchilardan asosiy jismoniy, texnik-taktik, psixomotor sifatlarning yuqori darajada rivojlanishini va ularni sport musobaqalarining og‘ir sharoitlarida, hamkorlikdagi o‘zaro bog‘liq harakatlar bilan samarali integratsiyalash qobiliyatini talab etadi [7].

Har qanday vosita harakatlari (yurish, yugurish, sakrash, to‘p tashlash va boshqalar) tananing barqaror holatini saqlash bilan bog‘liq. Bu tananing barcha fiziologik tizimlarining normal ishlashini, harakatlarning optimal diapazoni, mushaklar harakatlarini oqilona taqsimlashni ta‘minlaydi, bu esa puxta energiya sarfiga va qurol harakati samaradorligini oshirishga olib keladi.

Bundan tashqari, tegishli qobiliyatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini aks ettiruvchi muvofiqlashtirish jarayoni natijasida shaxsiy jismoniy sifat sifatida maqsadli aniqlikka e‘tibor qaratish lozim, ular orasida hal qiluvchi rol o‘tish va ushlashda harakatlarning kuch parametrlarini kuzatish hisoblanadi. to‘p, o‘yin



davomida darvoza tomon zarbalar. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, bunday qobiliyatlar doirasi faqat juda keng bo'lishi mumkin, balki har bir aniq holatda hal qilinayotgan muammoning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zgaruvchanlik bilan tavsiflanadi [8, 10].

Gandbolchilarning harakat faoliyati tezligi va sur'atini tahlil qilish alohida e'tibor talab qiladi. Harakatlarning umumiy tezligi parametrlarida 10 soniya davomida urish testida 12-13 yoshdan 19-23 yoshgacha sezilarli o'sish borligi aniqlandi: 63/67-65/70 va 68/72-70/75. Sensimotor reaksiyalarda - SMR xuddi shunday holat gandbolchilarning o'rganilgan guruhlarida kuzatiladi - reaksiya vaqti yoshga qarab kamayadi, shu bilan birga shuni ta'kidlash kerakki, zarba testida ham, ularning o'yin ampluasi darvozabonlarda ham sensomotor reaksiyalarda yuqoriroq parametrlar bor. Tezlik qobiliyatida yoshi va sport tajribasi bilan belgilanadigan 30 m. yugurish vaqtiga bog'liqlik mavjud. 19-23 yoshli professional gandbolchilarning psixomotor qobiliyatlari namoyon bo'lishida kechikish texnik-taktik mahoratni oshirishda zaxira imkoniyatlari omillaridan biri sifatida alohida e'tiborga loyiq.

Bundan tashqari, sensomotor reaksiyalar va harakatlarning maksimal tezligi dinamik ko'z sensori shakllanishi uchun asosiy bo'lib, ekstrapolyatsiyaga asoslangan, ya'ni miyaning o'zidan oldinga harakatlanish qobiliyati. Musobaqa davomida yuqori malakali gandbolchilar taktik masalalarni hal qiladi va harakatlarni bir zumda va to'g'ri bajaradi. Tushunish (og'zaki shaklda ifodalash) harakat tugaganidan keyin yuz beradi. Intuitiv harakatlar sportchining boy, ko'p qirrali tajribasi asosida amalga oshiriladi: taktikani chuqur bilish va texnikani mukammal o'zlashtirish, raqiblar va sheriklarning harakatlarini kuzatish qobiliyati, ehtimoliy prognozlash va oldindan ko'rish qobiliyatining yaxshi rivojlanganligi.

Gandbolchilar uchun raqib harakatlarini oldindan ko'ra bilish va oldindan ko'rish nafaqat ehtimollik prognoziga, balki bevosita sport musobaqasi vaqtidagi raqibning faol harakatlariga asoslanadi. Bunday holatda, kutish reaksiyalari alohida o'rin tutadi, ya'ni raqibning harakatlari yoki harakatlarining boshlanishini taxmin qilish harakatlari. Haqiqatning juz'iy in'ikosi sifatidagi juz'iy reaksiyalar faqat psixik jarayonlar kompleksi - sezgilar, idrok etish, kuzatish, xotira va tafakkur asosida mumkin bo'ladi [8, 9].

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gandbol mashg'ulotlari, ma'lum o'yin pozitsiyalariga tayyorgarlik jarayonida tanlash, ularning tanasining o'yin ampluasiga ko'ra moslashuvining morfofunktsional xususiyatlarini shakllantirishga 12-13 yoshda yetuk harakat analizatori ta'sir ko'rsatadi.

Tibbiy nazorat amaliyotida jismoniy rivojlanish va uning imkoniyatlarini baholash uchun matematik formulalarda ko'rsatilgan individual antropometrik parametrlarning nisbati bo'lgan indeks usuli qo'llaniladi. To'liq baholarga nisbatan uning afzalligi shundaki, u jismoniy rivojlanish va uning imkoniyatlarini



ularning o‘zaro bog‘liqligidagi belgilar majmuasiga asoslangan holda har tomonlama baholash imkonini beradi.

Gandbolning zamonaviy rivojlanish darajasi sportchilardan asosiy jismoniy, texnik va taktik ko‘nikmalarning yuqori darajada rivojlanishini talab etadi, ularning asosini psixomotor qobiliyatlar sport mahoratining zaxirasi sifatida raqib tomonidan faol harakatlar imkoniyatini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Калюжный, Е.А., Михайлова С.В., Маслов В.Ю. Применение метода индексов при оценке физического развития студентов. Лечебная физкультура и спортивная медицина, 2014. 1. С. 21-27.
2. Ашмарин Б.А. Обработка результатов исследования. В кн.: Теория и методика педагогических исследований в физическом воспитании. М.: Просвещение. С. 1978. 160-177.
3. Дембо А.Г. Исследование физического развития и опорно- двигательного аппарата. В кн.: Врачебный контроль в спорте. М.: Медицина. 1988. С. 197- 190.
4. Дворкина Н.И., Дворкин Л.С., Попов А.Н. Физическая культура: воспитание, образование, тренировка. М.: 2017. 3. С. 5-8.
5. Донской Д.Д., Зациорский В.М. Онтогенез моторики в отдельные возрастные периоды. В кн.: Биомеханика, учебник для ИФК. М.: ФиС. С. 1979. 224-229.
6. Железняк Ю.Д., Портнов Ю.М. Тактика игры в гандбол. В кн.: Спортивные игры. М.: Академия. 2004. С. 250-251.
8. Ильин Е.П. Психомоторные качества и условия их проявления. В кн.: Психомоторная организация человека, учебник для ВУЗов. СПб. С. 2003. 124-136.
9. Иорданская Ф.А. Функциональная подготовленность спортсменов игровых видов спорта с учетом их игрового амплуа. Вестник спортивной науки, 3. С. 2015. 34-43.
10. Марищук В.Л., Блудов Ю.М., Плахтиенко В.А., Серова Л.К. Исследование психомоторных процессов. Методика психодиагностики в спорте. М.: Просвещение. – С. 1990. 191-196.

TENNISCHILARDA CHIDAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH USULLARI VA METODIKASI

Berdekeev Abubakir Abutalipovich

Stajyor o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Berdekeev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada chidamkorlik jismoniy sifati tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari keng yoritilgan hamda uning sport faoliyatidagi, xususan tennis sportidagi o‘rni atroflicha tahlil qilingan. Chidamkorlikning mazmun-mohiyati, uning fiziologik, pedagogik va psixologik jihatlarini ochib berilib, sportchining uzoq davom etadigan jismoniy yuklamalarga moslashish qobiliyati



sifatida talqin etilgan. Tadqiqot davomida chidamkorlikning umumiy va maxsus turlari, shuningdek aerob va anaerob mexanizmlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Maqolada tennis musobaqalarining o'ziga xos xususiyatlari, o'yin davomiyligi va yuqori intensivlikdagi harakatlar sportchidan yuqori darajadagi chidamkorlikni talab qilishi ilmiy asosda izohlangan. Chidamkorlikning sportchining texnik-taktik harakatlarini barqaror saqlash, charchoqqa qarshi kurashish va musobaqaning so'nggi bosqichlarida ham yuqori natija ko'rsatishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, ruhiy (psixologik) chidamkorlikning sport faoliyatidagi roli va uning musobaqa jarayonidagi stress omillariga qarshi turishdagi ahamiyati yoritilgan. Maqola mazmuni sportchilar, murabbiylar hamda jismoniy tarbiya va sport yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, chidamkorlikni rivojlantirishga oid ilmiy bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Chidamkorlik, umumiy chidamkorlik, maxsus chidamkorlik, aerob va anaerob imkoniyatlar, tennis, jismoniy tayyorgarlik, sport nazariyasi.

Аннотация: В данной статье широко освещены научно-теоретические основы понятия физического качества выносливости, а также подробно проанализирована его роль в спортивной деятельности, в частности в теннисном спорте. Раскрыты сущность выносливости, ее физиологические, педагогические и психологические аспекты, интерпретируется как способность спортсмена адаптироваться к длительным физическим нагрузкам. В ходе исследования представлена подробная информация об общих и специальных видах выносливости, а также об аэробных и анаэробных механизмах.

В статье на научной основе объясняются особенности теннисных соревнований, длительность игры и высокая интенсивность движений, которые требуют от спортсмена высокого уровня выносливости. Обосновано значение выносливости в поддержании устойчивости технико-тактических действий спортсмена, борьбе с усталостью и достижении высоких результатов на последних этапах соревнований. Также освещена роль психической (психологической) выносливости в спортивной деятельности и ее значение в противостоянии стрессовым факторам в процессе соревнований. Содержание статьи имеет теоретическое и практическое значение для спортсменов, тренеров и студентов, обучающихся по направлению физической культуры и спорта, и служит расширению научных знаний о развитии выносливости.

Ключевые слова: Выносливость, общая выносливость, специальная выносливость, аэробные и анаэробные возможности, теннис, физическая подготовка, теория спорта.



Abstract: *In this article, the scientific and theoretical foundations of the concept of the physical quality of endurance are widely covered, and its role in sports activities, particularly in tennis, is analyzed in detail. The essence of endurance, its physiological, pedagogical, and psychological aspects are revealed, and it is interpreted as the athlete's ability to adapt to prolonged physical loads. During the study, detailed information was provided on general and special types of endurance, as well as aerobic and anaerobic mechanisms.*

The article scientifically explains the peculiarities of tennis competitions, the duration of the game, and the high intensity of movements, which require a high level of endurance from the athlete. The importance of endurance in maintaining the stability of the athlete's technical-tactical actions, combating fatigue, and achieving high results in the final stages of competitions has been substantiated. The role of mental (psychological) endurance in sports activities and its importance in resisting stressful factors during competitions are also highlighted. The content of the article has theoretical and practical significance for athletes, coaches, and students studying in the field of physical education and sports, and serves to expand scientific knowledge on the development of endurance.

Keywords: *Endurance, general endurance, special endurance, aerobic and anaerobic capabilities, tennis, physical training, sports theory.*

Kirish. Hozirgi kunda sport sohasining jadal rivojlanishi, musobaqalarning keskin raqobat sharoitida o'tkazilishi hamda sportchilardan qo'yilayotgan yuqori talablar jismoniy tayyorgarlik masalalariga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. Zamonaviy sportda yuqori natijalarga erishish faqatgina texnik va taktik tayyorgarlik bilangina emas, balki sportchining jismoniy va funksional imkoniyatlari darajasi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan chidamkorlik sportchining asosiy jismoniy sifatlaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Tennis sporti murakkab koordinatsion harakatlar, yuqori tezlik, kuchli zarbalar va uzoq davom etadigan o'yinlar bilan tavsiflanadi. Tennis musobaqalari ko'pincha bir necha setdan iborat bo'lib, ularning davomiyligi 2–3 soat va undan ortiq vaqtni tashkil etishi mumkin. Ushbu jarayonda sportchi doimiy ravishda yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajaradi, tezkor yugurishlar, to'xtashlar, yo'nalishni keskin o'zgartirishlar va zarbalarni takror-takror amalga oshiradi. Bunday sharoitda sportchining chidamkorlik darajasi uning o'yin samaradorligiga va musobaqa natijasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Chidamkorlik yetarli darajada rivojlanmagan tennischilar o'yin davomida tez charchab qolishi, texnik xatolarga yo'l qo'yishi hamda taktik rejani to'liq amalga oshira olmasligi bilan ajralib turadi. Aksincha, yuqori darajadagi chidamkorlikka ega sportchilar musobaqaning so'nggi daqiqalarigacha o'z harakatlarining aniqligi va tezligini saqlab qoladi. Shu sababli



tennischilarni tayyorlash tizimida chidamkorlikni rivojlantirish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, chidamkorlik murakkab va ko‘p qirrali jismoniy sifat bo‘lib, u organizmning yurak-qon tomir, nafas olish va mushak tizimlarining funksional imkoniyatlari, shuningdek sportchining ruhiy barqarorligi bilan uzviy bog‘liqdir. Chidamkorlikning umumiy va maxsus turlari sport faoliyatining turli bosqichlarida turlicha ahamiyat kasb etadi. Shu bois mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishda chidamkorlikni rivojlantirishga ilmiy asoslangan yondashuv zarur.

Bugungi kunda tennis sportida chidamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha turli metodikalar mavjud bo‘lib, ularning samaradorligini to‘g‘ri baholash va amaliyotga tatbiq etish muhim vazifalardan biridir. Mashg‘ulot jarayonida yuklamalarni to‘g‘ri taqsimlash, sportchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish, dam olish va tiklanish jarayonlarini oqilona tashkil etish chidamkorlikni rivojlantirishning muhim shartlari hisoblanadi.

Mazkur ishning maqsadi tennischilarda chidamkorlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslarini o‘rganish, uning sport faoliyatidagi ahamiyatini yoritish hamda chidamkorlikni rivojlantirishning samarali usullari va metodikalarini tahlil qilishdan iboratdir. Ushbu ishda qo‘yilgan vazifalar chidamkorlikning mohiyatini ochib berish, uning turlari va rivojlanish omillarini aniqlash hamda mashg‘ulot jarayonida qo‘llaniladigan metodik yondashuvlarni asoslashga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Tennischilarda chidamkorlikni rivojlantirish masalasi sport pedagogikasi va jismoniy tarbiya nazariyasida keng o‘rganilgan. Mazkur yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida chidamkorlikni shakllantirishda turli metod va vositalarning samaradorligini ko‘rsatib beradi.

Aynan sport nazariyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda chidamlilik inson organizmining uzoq muddatli jismoniy yuklamalarga moslashish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Shu bois ushbu jarayonda yurak - qon tomir tizimi, qon tomirlaridagi formal elementlar ulardan Erit nafas olish tizimi va mushak faoliyati va ularning fiziologik xususiyatlari muhim rol o‘ynaydi.

Tennis sportiga oid shu tahlillarga tayangan holda chidamkorlik ikki asosiy turga ajratiladi: umumiy va maxsus chidamkorlik. Umumiy chidamkorlik organizmning umumiy funksional imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilsa, maxsus chidamkorlik bo‘lsa bevosita tennis o‘yinidagi harakat faoliyatiga moslashgan bo‘ladi.

Bizning olib borayotgan ilmiy izlanishlarim natijasida, tennis o‘yinida sportchi qisqa vaqt ichida yuqori intensivlikdagi harakatlarni takror-takror bajaradi. Shu sababli chidamkorlikni rivojlantirishda interval va takroriy mashq usullari yuqori samaradorlikka ega hisoblanadi. Ayniqsa, qisqa masofalarga tez yugurish, keskin yo‘nalish o‘zgarishlari va zarba berish kombinatsiyalari maxsus chidamkorlikni oshiradi. Ba’zi tadqiqotlarda aylanma (circuit) mashg‘ulotlar tizimi ham samarali



vosita sifatida ko‘rsatilgan. Bu usulda sportchi turli jismoniy mashqlarni ketma-ket bajarib, umumiy va maxsus chidamkorlikni birgalikda rivojlantiradi. Zamonaviy sport ilmida chidamkorlikni rivojlantirishda individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir sportchining yoshi, tayyorgarlik darajasi va funksional holatiga qarab mashg‘ulot yuklamalari moslashtirilishi kerak.

Shuningdek, ilmiy adabiyotlarda tiklanish jarayonining ahamiyati ham alohida ta’kidlanadi. To‘g‘ri dam olish, ovqatlanish va uyqu rejimi chidamkorlikning samarali rivojlanishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, tennischilarda chidamkorlikni rivojlantirish kompleks yondashuvni talab qiladi va turli mashq usullarining uyg‘unlashuvi yuqori natijalarga olib keladi.

Metodik tamoyillar.

Bosqichma-bosqichlik – yuklama asta-sekin oshiriladi;

Davriylik – mashg‘ulotlar rejali sikllar asosida tashkil etiladi;

Turli-tumanlik – mashqlar mazmuni doimiy yangilanib boriladi;

Individual yondashuv – sportchining tayyorgarlik darajasi hisobga olinadi;

Nazorat va tahlil – har bir mashg‘ulot natijasi baholanadi.

Chidamkorlikni rivojlantirish bosqichlari:

1. Tayyorlov bosqichi.

Maqsad: umumiy chidamkorlik bazasini yaratish;

Mashg‘ulotlar: yugurish, aralash mashqlar, sakrashlar;

Vaqt: 30–40 daqiqa, haftasiga 3–4 marta.

Maxsus bosqich.

Maqsad: tennisga xos chidamkorlikni rivojlantirish;

Mashg‘ulotlar: tezkor harakatlar, zarba mashqlari, pozitsiyani tez o‘zgartirish;

Vaqt: 20–30 daqiqa, haftasiga 3 marta.

Musobaqa oldi bosqichi.

Maqsad: maksimal sport formasiga erishish;

Mashg‘ulotlar: qisqa o‘yinlar, yuqori intensivlikdagi interval mashqlar;

Intensivlik: yuqori, tiklanish jarayonlariga e’tibor qaratiladi [1].

Asosiy mashq shakllari (Tennis uchun aylanma mashqlar).

Tennischilarda umumiy va maxsus chidamkorlikni rivojlantirish maqsadida mashg‘ulot jarayonida aylanma mashqlar (stansiyalar usuli) keng qo‘llaniladi. Har bir stansiya tennis o‘yiniga xos harakatlar asosida tuzilgan bo‘lib, sportchining funksional imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi [2].

Stansiya	Mashq turi (tennisga mos)	Bajarish mazmuni	Vaqt
1	Ketma-ket sakrashlar (oyoq ishlashi)	Tennis kortida oldinga va yon tomonga 15 ta tez sakrash	20 soniya
2	Raketka va to‘p bilan tezkor harakat	To‘pni yerga urib, yon chiziqlar bo‘ylab tez harakatlanish	20 soniya



3	Himoya pozitsiyasida yonlama harakat (slyd)	Past holatda chap-o‘ng tomonga tezkor himoyaviy harakatlar	20 soniya
4	Zarba mashqi (forehand/backhand)	Ketma-ket forehand yoki backhand zarbalarini bajarish	20 soniya

Metodik ko‘rsatmalar.

Har bir stansiyadan so‘ng 15–20 soniya dam olish tavsiya etiladi;

To‘liq aylanma 2–3 marta takrorlanadi;

Mashqlar intensivligi sportchining **yoshi va tayyorgarlik darajasiga** qarab belgilanadi;

Yurak urish tezligi o‘rtacha va yuqori zona oralig‘ida bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Mashqlarning ahamiyati. Ushbu aylanma mashqlar majmuasi tennischilarning oyoq ishlashi, tezkorligi, zarba barqarorligi va charchoqqa chidamliligini oshiradi. Mashg‘ulot davomida texnik elementlarni saqlab qolgan holda chidamkorlikni rivojlantirish imkonini beradi.

Chidamkorlik tushunchasi va uning turlari. Chidamkorlik — bu sportchining uzoq vaqt davomida samarali faoliyatni saqlab qolish va charchoqqa qarshi turish qobiliyatidir. Tennisda quyidagi chidamkorlik turlari muhim ahamiyatga ega:

Umumiy chidamkorlik – organizmning uzoq davom etuvchi jismoniy yuklamalarga moslashuvi;

Maxsus chidamkorlik – tennisga xos harakatlar (tez yugurish, zarbalar, sakrashlar)ni uzoq vaqt davomida bajarish qobiliyati;

Tezkor chidamkorlik – qisqa muddatda yuqori tezlikni saqlab qolish;

Psixologik chidamkorlik – stress, bosim va musobaqa sharoitida barqarorlikni saqlash.

Tennischilarda chidamkorlikni rivojlantirish usullari.

1. **Uzluksiz mashq usuli.** Bu usul o‘rtacha intensivlikda uzoq davom etadigan yugurishlar, arqon sakrash va umumiy rivojlantiruvchi mashqlar orqali amalga oshiriladi. Ushbu usul umumiy chidamkorlikni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

2. **Interval mashq usuli.** Mashqlar yuqori va past intensivlikda almashib bajariladi. Masalan, qisqa masofaga tez yugurish va faol dam olish. Bu usul yurak-qon tomir tizimini mustahkamlaydi va maxsus chidamkorlikni oshiradi.

3. **O‘yin usuli.** Tennisga xos mashqlar va o‘yin holatlari orqali chidamkorlik rivojlantiriladi. U sportchining motivatsiyasini oshirib, real musobaqa sharoitiga yaqinlashishga yordam beradi.

4. **Aylanma mashg‘ulot usuli.** Bir nechta mashqlar ketma-ket bajarilib, barcha mushak guruhlariga yuklama beriladi. Bu usul chidamkorlik bilan birga kuch va tezlikni ham rivojlantiradi.



5. 15-20 soniya davomida sakrashlar. Birinchi urinishda maksimal darajada ko‘p sakrash. Ikkinchi urinishda maksimal darajada balandroq sakrash. 4-5-seriyalarda 1-1,5 daqiqa davomida to‘xtovsiz sakrash. Ushbu mashqni arg‘amchilar bilan ham bajarish mumkin.

6. Pastki turish holatidan 1-1,5 daqiqa davomida turli yo‘nalishlarda harakatlanishlar. 3-4-seriyalarda 2-5 kg og‘irliklar bilan.

7. Hujum zarbasi va to‘siqni taqlid qilib, orqa zonalarda o‘mbaloq oshishni navbatlashtirib bajarish. Har bir texnik usulni 10 marotabadan.

8. Turli harakatlanishlar bilan estafetalar o‘tkazish.

9. Turli yo‘nalish va masofalarga “mokkisimon yugurishlar”.

10. 2x2, 3x3, 4x4 tarkibda o‘quv o‘yinlari [9].

Test turi	Tavsif (tennisga moslashtirilgan)
Cooper testi	Tennis korti atrofida yoki yugurish yo‘lagida 12 daqiqa davomida yugurib bosib o‘tilgan masofa aniqlanadi. Bu test umumiy chidamkorlik darajasini baholashga xizmat qiladi.
Yo-Yo testi	Tennisga xos qisqa masofali tez yugurish va to‘xtashlar orqali bajariladi. Sportchining tezkor va maxsus chidamkorligi baholanadi.
Puls nazorati	Mashg‘ulotdan oldin, mashg‘ulot jarayonida va undan keyin yurak urish chastotasi o‘lchanadi. Tiklanish tezligi tennischining funksional holatini ko‘rsatadi.
Subyektiv charchoq	Sportchi mashg‘ulotdan so‘ng o‘zining charchoq darajasini maxsus shkalalar (masalan, Borg shkalasi) asosida baholaydi. Bu usul sportchining individual holatini aniqlashga yordam beradi.

Baholashning ahamiyati. Mazkur testlar orqali olingan natijalar murabbiyga mashg‘ulot yuklamalarini to‘g‘ri rejalashtirish, sportchining jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda chidamkorlikni rivojlantirish jarayonini samarali boshqarish imkonini beradi. Baholash natijalari asosida mashg‘ulot rejalariga o‘z vaqtida o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.

Natijalar. O‘tkazilgan tadqiqotlar va pedagogik tajribalar natijasida tennischilarda chidamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan mashg‘ulotlar samaradorligi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida nazorat va tajriba guruhlarining ko‘rsatkichlari taqqoslab o‘rganildi. Pedagogik tajriba yakunida tajriba guruhida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi. Xususan, sportchilarning umumiy va maxsus chidamkorlik darajasi oshgani qayd etildi. Interval va aylanma mashg‘ulotlar qo‘llanilgan sportchilarda yurak-qon tomir tizimi faoliyati yaxshilandi hamda charchoqqa chidamlilik darajasi yuqoriladi.

Test natijalari quyidagilarni ko‘rsatdi: 1000 metrda yugurish natijalari o‘rtacha 10–15% ga yaxshilandi. Shuttle run (4×10 m) mashqida tezlik va chidamkorlik 8–12% ga oshdi. Kort bo‘ylab harakatlanish tezligi va aniqligi sezilarli darajada yaxshilandi. Uzoq davom etuvchi o‘yinlarda charchash darajasi kamaydi.



Nazorat guruhida esa o'zgarishlar kamroq darajada bo'lib, bu an'anaviy mashg'ulotlarning samaradorligi nisbatan past ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida shuningdek quyidagi natijalarga erishildi:

Maxsus chidamkorlikni rivojlantirish umumiy chidamkorlikka qaraganda tezroq natija berdi.

O'yin usulidagi mashg'ulotlar sportchilarning motivatsiyasini oshirdi. Individual yondashuv qo'llanilgan sportchilarda natijalar yuqoriroq bo'ldi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mashg'ulotlarda yuklamani to'g'ri taqsimlash va dam olish vaqtini me'yorida belgilash sportchilarning jismoniy holatini barqaror saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, tajriba davomida sportchilarning psixologik holati ham yaxshilangani kuzatildi. Ular uzoq davom etuvchi o'yinlarda o'zini erkin tutish, diqqatni jamlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatini namoyon etdilar.

Xulosa. O'tkazilgan tahlillar va ilmiy manbalarni o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, chidamkorlik zamonaviy sport faoliyatida, ayniqsa tennis sportida yuqori natijalarga erishishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Chidamkorlik sportchining uzoq vaqt davomida yuqori intensivlikdagi jismoniy va ruhiy yuklamalarni samarali bajarish, charchoqqa qarshi turish hamda musobaqaning so'nggi bosqichlarida ham o'z texnik-taktik imkoniyatlarini saqlab qolish qobiliyatini belgilaydi. Tennis musobaqalarining davomiyligi, o'yin jarayonida tezkor harakatlar va kuchli zarbalarning takrorlanib borishi sportchidan nafaqat texnik va taktik mahorat, balki yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni, xususan chidamkorlikni talab etadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, chidamkorligi yetarli darajada rivojlanmagan sportchilar uchrashuv davomida tez charchab qoladi, o'yin sifati pasayadi va texnik xatolarga yo'l qo'yish ehtimoli ortadi. Aksincha, chidamkorligi yuqori bo'lgan tennischilar musobaqaning hal qiluvchi daqiqalarida ham barqaror va ishonchli o'yin namoyish etadi.

Mazkur ish davomida chidamkorlik tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari, uning fiziologik, pedagogik va psixologik jihatlari batafsil yoritildi. Chidamkorlikning umumiy va maxsus turlari, shuningdek aerob va anaerob mexanizmlari tennis sporti faoliyati bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilindi. Ushbu tahlillar shuni ko'rsatadiki, umumiy chidamkorlik sportchining funksional tayyorgarligi uchun asos bo'lib xizmat qilsa, maxsus chidamkorlik bevosita musobaqa faoliyatining samaradorligini belgilaydi.

Chidamkorlikni rivojlantirish jarayonida mashg'ulotlarni ilmiy asosda rejalashtirish muhim ahamiyatga ega. Yuklamalarni bosqichma-bosqich oshirish, mashg'ulotlarning muntazamligi, sportchining yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda dam olish va tiklanish jarayonlarini to'g'ri tashkil etish yuqori natijalarga erishishning muhim shartlari hisoblanadi. Shuningdek, mashg'ulot jarayonida umumiy chidamkorlik bilan bir qatorda maxsus va ruhiy chidamkorlikni rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish lozim.



Xulosa qilib aytganda, tennischilarda chidamkorlikni rivojlantirish sport tayyorgarligi tizimining ajralmas qismi bo‘lib, u sportchining musobaqa faoliyatidagi barqarorligi, yuqori sport natijalari va uzoq muddatli sport faoliyatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Chidamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy asoslangan yondashuvlar va zamonaviy metodikalar sportchilar tayyorgarligi sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur ishda bayon etilgan nazariy xulosalar va amaliy tavsiyalar jismoniy tarbiya va sport sohasi mutaxassislari, tennis murabbiylari hamda ushbu yo‘nalishda tahsil olayotgan talabalar uchun foydali bo‘lib, ularni mashg‘ulot jarayonida samarali qo‘llash orqali sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini yanada oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. [Interval Training on Endurance Improvement in Adolescent Tennis Players](#)
Azis I., Yusnadi Y., Hasyim M.Q. *The Effectiveness of Interval Training on Endurance Improvement in Adolescent Tennis Players*. Indonesian Journal of Research and Educational Review. – Tadqiqot interval mashg‘ulotlari o‘smir tennischilarda yurak-qon tomir chidamkorligini va sportga xos ko‘rsatkichlarni oshirishda samarali ekanini ko‘rsatadi.
2. Безверхов В.П. Теннис: Методика совершенствования юных квалифицированных теннисистов 12-16 лет. – Т.: LiderPress, 2008. – 150 с.
3. Бернштейн Н.А. О ловкости и её развитии. М.: ФиС, 1991. – 288 с.
4. Бойко В.Ф., Данько Г.В., Физическая подготовка борцов. – К.: Олимпийская литература, 2004. – 223 с.
5. Верхошанский Ю.В. Принципы организации тренировки спортсменов высокого класса в годичном цикле // Теория и практика физической культуры. – Москва, 1991. – №2 – С. 24-31.
6. Годик М.А. Физическая подготовка футболистов. – М.: Олимпия – ПРЕСС, 2006. – 272 с.
7. Голенко В., Скородумова А., Тарпищев Ш. Академия тенниса. – М.: Дедалус, 2002. – 236 с.
8. Железняк Ю.Д. Петров П.К. Основы научно-методической деятельности в физической культуре и спорте: Учеб.пособие. – М.: Академия, 2002. – 264 с.
9. Тунис С.М. Влияние физических нагрузок на точность двигательных действий теннисисток 15-17 лет.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М.: РГАФК, 1999. – 21 с., ил.
10. Чебатарёв Ш.Р. Развитие физических качеств при подготовке теннисистов к соревнованиям. Методические рекомендации. УзГИФК. Т., 1999. 36 с.



11. Tennis nazariyasi va uslubiyati A.A.Pulatov, Sh.A. Pulatov, S.K.Abidov, F.A. Pulatov Toshkent – 2017 140 c

12. Allayarov I.K. Volaybol teoriyasi hám metodikasi. Tashkent. 2023. “Metodist” nashriyoti. 294 bet.

PARA AKADEMIK ESHKAK ESHISHDA (PR2 SINFI) TEXNIK TAYYORGARLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Sobirova Laylo Baxromovna

p.f.d (DSc), dotsent

O'zbekiston Davlat sport akademiyasi

Sulaymonov Hasan Abdumajid o'g'li

Talaba

O'zbekiston Davlat sport akademiyasi

sobirovalaylo@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada PR2 sinfidagi para akademik eshkak eshish bilan shug'ullanuvchi sportchilarning texnik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot Chirchiq Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi negizida o'tkazildi. Tadqiqotda PR2 sinfidagi 16 nafar sportchi ishtirok etdi. Sportchilarning morfofunktsional ko'rsatkichlari, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi va psixologik holati o'rganildi. Tadqiqot davomida pedagogik kuzatuv, test sinovlari, mashg'ulot jarayonini tahlil qilish va ma'lumotlarga matematik ishlov berish kabi usullar qo'llanildi. Olingan natijalar oyoq-qo'llari funksiyasi cheklangan sportchilarning texnik tayyorgarligi xususiyatlarini aniqlash hamda eshkak eshish texnikasini takomillashtirishning eng samarali vositalarini belgilash imkonini berdi. Tadqiqot natijalaridan para akademik eshkak eshish sportchilari uchun mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so'zlar: Para akademik eshkak eshish, PR2, texnik tayyorgarlik, mashg'ulot jarayoni, adaptiv sport, jismoniy tayyorgarlik, eshkak eshish.

Аннотация: В статье рассмотрены вопросы совершенствования методики развития технической подготовки спортсменов, занимающихся параакадемической греблей класса PR2. Исследование проводилось на базе Чирчикского центра подготовки к олимпийским и паралимпийским видам спорта. В исследовании приняли участие 16 спортсменов класса PR2. Изучены морфофункциональные показатели, уровень общей физической подготовленности и психологическое состояние спортсменов. В ходе исследования использовались такие методы, как педагогическое наблюдение, тестирование, анализ процесса обучения и математическая обработка



данных. Полученные результаты позволили определить особенности технической подготовленности спортсменов с ограниченными функциями конечностей и определить наиболее эффективные средства совершенствования техники гребли. Результаты исследования могут быть использованы при разработке тренировочных программ для спортсменов параакадемической гребли.

Ключевые слова: Пара-академическая гребля, PR2, техническая подготовка, тренировочный процесс, адаптивный спорт, физическая подготовка, гребля.

Abstract: This article examines methods for improving the technical training of athletes in PR2 class para-rowing. The study was conducted at the Chirchik Olympic and Paralympic Sports Training Center and involved 16 athletes from the PR2 class. The athletes' morphofunctional indicators, level of general physical fitness, and psychological state were assessed. Research methods included pedagogical observation, testing, analysis of the training process, and mathematical data processing. The results revealed specific aspects of technical training for athletes with limited limb function and helped identify the most effective means for improving rowing technique. The findings can be utilized in the development of training programs for para-rowing athletes.

Keywords: Para-rowing, PR2, technical preparation, training process, adaptive sport, physical preparation, rowing.

Kirish. So‘nggi yillarda paralimpiya sport turlari dunyoning ko‘plab mamlakatlarida tobora keng ommalashib bormoqda. Jadal rivojlanayotgan sport turlaridan biri para akademik eshkak eshish bo‘lib, u Paralimpiya o‘yinlari dasturiga kiritilgan va jismoniy imkoniyati cheklangan sportchilarga o‘z sport salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatini beradi.

Akademik eshkak eshish, asosan, chidamlilikni namoyon etish talab qilinadigan sport turiga kiradi va unda sportchining kuch imkoniyatlari, harakatlar muvofiqligi hamda eshkak eshish texnikasi muhim rol o‘ynaydi.

Eshkakchilarni tayyorlash tizimida texnik tayyorgarlik alohida ahamiyat kasb etadi, chunki eshkak eshish samaradorligi qayiqning harakat tezligiga va sportchi ishining tejamkorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Para akademik eshkak eshishda harakat texnikasi sportchilarning funksional cheklovlari bilan bog‘liq bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Xalqaro tasnifga muvofiq, PR2 sinfi sportchilari gavda va qo‘llar bilan ishlash funksiyasiga ega, biroq eshkak eshish harakatini bajarish uchun oyoq kuchidan foydalana olmaydi. Shu sababli, eshkak eshish sirpanuvchi mexanizmdan foydalanmagan holda, qotirilgan o‘rindiqlarda amalga oshiriladi.

Bunday xususiyatlar ushbu toifadagi sportchilarni tayyorlashga doir maxsus uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishni talab etadi. Tayanch-harakat apparati



shikastlangan sportchilarda eshkak eshish texnikasini takomillashtirishning samarali usullarini izlash zamonaviy sport fanining dolzarb muammolaridan biridir.

Akademik eshkak eshish bo'yicha sportchilarni tayyorlashga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar mavjudligiga qaramay, PR2 sinfidagi para-sportchilarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan.

Shu bois, para-eshkakchilarning texnik tayyorgarligi bo'yicha samarali metodlarni ishlab chiqish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi. Morfofunktsional, jismoniy va psixologik ko'rsatkichlarni tahlil qilish asosida PR2 sinfidagi para akademik eshkak eshish sportchilarining texnik tayyorgarligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.

Tadqiqot vazifalari:

1. PR2 sinfidagi sportchilarning morfofunktsional ko'rsatkichlarini o'rganish.
2. Sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasini baholash.
3. Mashg'ulot jarayonida sportchilarning psixologik holatini tadqiq etish.
4. Eshkak eshish texnikasini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va aprobatseyadan o'tkazish.

Tadqiqotni tashkil etish.

Tadqiqot Chirchiq shahridagi Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi negizida o'tkazildi.

Tajribada para akademik eshkak eshish bilan shug'ullanuvchi, PR2 sport sinfiga mansub bo'lgan 16 nafar sportchi ishtirok etdi.

Sportchilarning yoshi 18–25 yoshni tashkil etdi. Barcha ishtirokchilar II sport darajasidan past bo'lmagan malakaga ega edi.

Tadqiqot usullari:

Qo'yilgan vazifalarni hal etish uchun quyidagi usullar qo'llanildi:

- ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili;
- pedagogik kuzatuv;
- jismoniy tayyorgarlikni testlash;
- morfofunktsional tekshiruv;
- psixologik testlash;
- ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish.

Morfofunktsional ko'rsatkichlarni baholash.

Sportchilarning morfofunktsional holatini aniqlash uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalanildi:

- bo'y va tana vazni;
- tana vazni indeksi;
- o'pkaning tiriklik sig'imi;
- tinch holatdagi yurak qisqarishlari chastotasi;
- arterial qon bosimi ko'rsatkichlari.

Ushbu ko'rsatkichlar sportchilar organizmining funksional holatini va ularning mashg'ulot yuklamalariga moslashish darajasini aniqlash imkonini beradi.



Umumjismoniy tayyorgarlikni baholash.

Jismoniy tayyorgarlikni baholash uchun quyidagi testlar o'tkazildi:

- qo'lning kuchga chidamliligi testi;
- bel mushaklari kuchi testi;
- yelka kamari mushaklari kuchi testi;
- ergometrda 2000 m. masofaga eshkak eshish.

Eshkak eshish trenajyorlaridan foydalanish musobaqa sharoitlarini modellashtirish hamda sportchilarning tezkorlik-kuch sifatlarini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Texnik tayyorgarlikni baholash

Texnik tayyorgarlik quyidagi mezonlar bo'yicha baholandi:

- harakatlar sinxronligi;
- eshkak eshish amplitudasi;
- gavda holatining barqarorligi;
- tortish fazasining samaradorligi.

Gavda bilan ishlashga alohida e'tibor qaratildi, chunki PR2 sinfidagi sportchilarda eshkak eshishdagi kuchni shakllantirishda aynan gavda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Psixologik testlash.

Sportchilarning psixologik holatini baholash uchun quyidagi usullar qo'llanildi:

- motivatsiya darajasini aniqlash testi;
- xavotirlik darajasi testi;
- emotsional barqarorlikni baholash.

Psixologik barqarorlik sportchilarning musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishining muhim omili hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari.

Tadqiqot davomida PR2 sinfidagi para akademik eshkak eshish sportchilarining morfofunktsional ko'rsatkichlari, umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi va psixologik holati tahlil qilindi.

Sportchilarning morfofunktsional ko'rsatkichlari. 1-jadvalda sportchilar morfofunktsional holatining o'rtacha ko'rsatkichlari keltirilgan.

1-jadval

PR2 sportchilarining morfofunktsional ko'rsatkichlari (n=16)

Ko'rsatkichlar	O'rtacha qiymat
Bo'y	176,3 ± 4,2 sm
Tana vazni	71,8 ± 5,6 kg
Tana vazni indeksi	23,1 ± 1,3
O'pkaning tiriklik sig'imi	4,3 ± 0,4 l
Yurak qisqarishlari chastotasi (tinch holatda)	64 ± 3 marta/daqqa
Arterial qon bosimi	118/74 mm sim. ust.



Morfofunktsional ko'rsatkichlar tahlili aksariyat sportchilarning jismoniy rivojlanish darajasi me'yorida ekanligini ko'rsatdi. O'pkaning hayotiy sig'imi hamda yurak-qon tomir tizimi ko'rsatkichlari sportchilarning funksional tayyorgarligi yuqori darajada ekanidan dalolat beradi.

Olingan ma'lumotlar eshkak eshish bilan muntazam shug'ullanish organizmning nafas olish va yurak-qon tomir tizimlarini rivojlantirishini tasdiqlaydi.

Umumjismoniy tayyorgarlikni baholash natijalari. 2-jadvalda sportchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini aniqlash maqsadida maxsus testlar o'tkazildi.

2-jadval

Sportchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Mashq	O'rtacha natija
Turnikda tortilish	13,4 ± 2,1 marta
Qo'llarni bukib-yozish	42 ± 4 marta
Bel mushaklari kuchi (dinamometriya)	92 ± 6 kg
2000 m masofaga ergometrda eshkak eshish	8 daq. 12 son.

Natijalar tahlili sportchilarning kuch-quvvat tayyorgarligi darajasi ancha yuqori ekanini ko'rsatdi. Ayniqsa, eshkak eshish harakatini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydigan yelka kamari va orqa mushaklari yaxshi rivojlangan.

Shuningdek, test natijalariga ko'ra, eshkak eshish trenajyorlaridan foydalanish sportchilarning chidamliligi va kuch-quvvat sifatlarini samarali rivojlantirishga yordam beradi.

Texnik tayyorgarlikni baholash. Sportchilarning texnik tayyorgarligi mashg'ulotlar va nazorat poygalari jarayonida baholandi.

Eshkak eshish texnikasi tahlili quyidagi o'ziga xosliklarni aniqladi:

- ayrim sportchilarda eshkak eshish amplitudasi yetarli emasligi;
- harakat fazasida gavda holatining beqarorligi;
- sur'at ortganda eshkak eshish harakatining samaradorligi pasayishi.

Shu bilan birga, aksariyat sportchilarda qo'l va gavda harakatlarining muvofiqligi yaxshi ekani kuzatildi.

Mashg'ulot jarayoniga tajriba metodikasi joriy etilgandan so'ng quyidagi o'zgarishlar qayd etildi:

- eshkak eshish amplitudasi 8–10 % ga oshdi;
- harakatlar sinxronligi yaxshilandi;
- gavda holatining barqarorligi oshdi;
- masofani bosib o'tish tezligi ortdi.

Shunday qilib, taklif etilgan mashg'ulot metodikasi eshkak eshish texnikasini takomillashtirish uchun samarali ekani isbotlandi.

Sportchilarning psixologik holati. Psixologik test natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- sportchilarning 75 % ida yuqori darajadagi motivatsiya kuzatildi;
- sportchilarning 18 % ida o'rtacha darajadagi xavotir aniqlandi;



- tadqiqot ishtirokchilarining aksariyatida yuqori darajadagi hissiy barqarorlik qayd etildi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirishda psixologik tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar muhokamasi. Olingan tadqiqot natijalari akademik eshkak eshish bo'yicha sportchilarni tayyorlashga bag'ishlangan ko'plab ilmiy ishlardagi ma'lumotlarni tasdiqlaydi.

Sport tayyorgarligi sohasidagi mutaxassislar ta'kidlaganidek, eshkak eshish harakatining samaradorligi qo'l, yelka kamari va gavda mushaklarining o'zaro uyg'un ishlashiga bog'liq.

PR2 sinfidagi sportchilar uchun tana harakati alohida ahamiyatga ega, chunki ular eshkak eshish harakatini bajarishda oyoq kuchidan foydalana olmaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gavda va yelka kamari mushaklari kuchini rivojlantirishga qaratilgan maxsus mashqlardan foydalanish eshkak eshish texnikasi samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, musobaqa sharoitlarini modellashtirish va eshkak eshish texnikasini takomillashtirish imkonini beruvchi eshkak eshish trenajyorlaridan foydalanish ham muhim rol o'ynaydi.

Sportchilarning psixologik barqarorligi ham musobaqalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishning muhim omilidir. Yuqori darajadagi motivatsiya mashg'ulot jarayoni samaradorligini oshirishga va yuksak sport natijalariga erishishga yordam beradi.

Shunday qilib, para akademik eshkak eshish bo'yicha sportchilarni tayyorlash tizimida jismoniy, texnik va psixologik tayyorgarlikni rivojlantirishni o'z ichiga olgan kompleks yondashuv eng samarali hisoblanadi.

Xulosa. O'tkazilgan tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. PR2 sinfidagi sportchilarning morfofunktsional ko'rsatkichlari para akademik eshkak eshishda sport tayyorgarligi talablariga mos keladi.

2. Sportchilarning umumiy jismoniy tayyorgarlik darajasi yelka kamari va tana mushaklarining kuchlilik sifatlari yuqori rivojlangani bilan tavsiflanadi.

3. Sportchilarning texnik tayyorgarligi ularning kuch imkoniyatlari va muvofiqlashtirish qobiliyatlarining rivojlanish darajasiga bog'liq.

4. Maxsus mashqlardan foydalanish eshkak eshish texnikasini takomillashtirishga va eshkak eshish harakati samaradorligini oshirishga yordam beradi.

5. Psixologik tayyorgarlik sportchilarning musobaqa yuklamalariga nisbatan barqarorligini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Texnik tayyorgarlikni takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ushbu metodikadan PR2 sinfidagi para akademik eshkak eshish sportchilarining mashg'ulot jarayonida foydalanish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. - Киев: Олимпийская литература, 2015.
2. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - Москва: Спорт, 2016.
3. Верхошанский Ю.В. Основы специальной физической подготовки спортсменов. - Москва: Советский спорт, 2014.
4. Bompa T. Theory and Methodology of Training. – Human Kinetics, 2015.
5. McArthur J. Rowing Coaching Manual. – British Rowing, 2018.
6. FISA. World Rowing Coaching Guidelines. – Lausanne, 2019.
7. Secher N.H. Rowing Physiology. – Sports Medicine Journal, 2017.
8. Smith R. Training Methods in Rowing. – Journal of Sports Science, 2018.
9. Wilmore J., Costill D. Physiology of Sport and Exercise. – Human Kinetics, 2014.
10. De Pauw K. Adaptive Rowing and Paralympic Sport. – International Journal of Sports Science, 2019.
11. Кузнецов В.С. Теория и методика физического воспитания. - Ташкент, 2017.
12. Лях В.И. Физическая подготовка спортсменов. - Москва: Спорт, 2016.
13. Шустин Б.Н. Современная система спортивной подготовки. - Ташкент, 2018.
14. Seiler S. Endurance Training in Rowing. – Scandinavian Journal of Medicine, 2016.
15. Steinacker J. Rowing and Endurance Performance. – European Journal of Sport Science, 2017.

KO'P YILLIK TAYYORGARLIK BOSQICHIDA BADIY GIMNASTIKACHILARNING MURAKKAB MASHQLAR TEXNIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Astankulova Dilnur Furkat qizi

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali
dilnurastankulova98@mail.com

Annotatsiya: Maqolada ko'p yillik tayyorgarlik bosqichidagi badiiy gimnastikachilarning murakkab mashqlar texnikasini takomillashtirishning nazariy asoslari yoritilgan, tadqiqot jarayonida ushbu soha bo'yicha respublikamiz, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari mavzu doirasida tahlil qilinib murakkab texnik elementlarni o'zlashtirish jarayonining asosiy xususiyatlari o'rganildi va tadqiqot natijalari



bo'yicha badiiy gimnastika mashg'ulotlarida murakkab texnik elementlarni takomillashtirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ka'lit so'zlar: *Badiiy gimnastika, ko'p yillik tayyorgarlik, halqa, koptok, choqmor, tasma, texnik tayyorgarlik, murakkab mashqlar, xoreografik tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik.*

Аннотация: *В статье освещены теоретические основы совершенствования техники сложных упражнений художественной гимнастики на этапе многолетней подготовки, в ходе исследования в рамках темы проанализированы научные исследования ученых нашей республики, стран Содружества Независимых Государств и зарубежных стран в этой области, изучены основные особенности процесса освоения сложных технических элементов, и по результатам исследования важное значение приобретает разработка методических подходов, направленных на совершенствование сложных технических элементов на занятиях по художественной гимнастике.*

Ключевые слова: *Художественная гимнастика, многолетняя подготовка, кольцо, мяч, булава, ремень, техническая подготовка, сложные упражнения, хореографическая подготовка, физическая подготовка.*

Abstract: *The article covers the theoretical foundations of improving the technique of complex rhythmic gymnastics exercises at the stage of long-term training, analyzes the scientific research of scientists from our republic, the Commonwealth of Independent States, and foreign countries in this area, examines the main features of the process of mastering complex technical elements, and, based on the research results, develops methodological approaches aimed at improving complex technical elements in rhythmic gymnastics classes.*

Keywords: *Artistic gymnastics, long-term training, ring, ball, club, belt, technical training, complex exercises, choreographic training, physical training.*

Kirish. Dunyoda badiiy gimnastika eng nafis sport turlaridan bo'lib, tana va yuqori darajadagi musiqiy hamohanglik, go'zal va nafislik bilan murakkab muvofiqlashtirishdagi texnik harakatlarini bajarishning kombinatsiyasini talab qilmoqda. Ko'p yillik tayyorgarlik bosqichidagi badiiy gimnastikachilarning buyumlar bilan yani (halqa, ko'ptok, choqmor va tasma) bilan bajariladigan murakkab mashqlar texnikasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Badiiy gimnastika elementlarini bajarishda turli predmetlar bilan bajariladigan murakkab mashqlar texnikasini takomillashtirish va sportchilarning mahoratini oshirish uchun zarur bo'lgan yetakchi tomonlardagi harakatlarni chambarchas bog'lab o'rganishga sabab bo'lmoqda. Bu esa badiiy gimnastikachilarning buyumlar bilan bajariladigan murakkab mashqlar texnikasini har tomonlama takomillashtirish asosida mashg'ulotlarga o'zgartirish kiritish zaruriyati yuzaga kelmoqda.



Jahon badiiy gimnastika platformasida raqobatning kuchayishi egiluvchanlikning yuqori darajasiga ega bo‘lgan va uni boshqa jismoniy fazilatlar bilan faol uyg‘unlashtira oladigan sportchilarning ustuvorlik saqlanib qolishidan dalolat bermoqda. Shu sababli, gimnastikachilarning doimiy o‘zgaruvchan sharoitlarida individuallashtirish va ilg‘or rivojlanish tamoyillariga asoslangan gimnastikachilarning maxsus tayyorgarligiga yanada sifatli yondashishni talab etmoqda. Badiiy gimnastika harakatlarini simmetrik va egiluvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirish, buyumlar va ularni bajarish texnikasini o‘zlashtirish mezonlarining o‘zgaruvchanligi, barcha yoshdagi va darajadagi sportchilarning mahoratini oshirish tendensiyasini, shuningdek, musobaqa qoidalarining sezilarli murakkabligini hisobga olgan holda, tananing murakkab motor harakatlari bilan bir vaqtda obyektini boshqarish qobiliyatini yaxshilashga qaratilgan keng ko‘lamli ilmiy-amaliy tadqiqotlar olib borilgan. Shunga qaramasdan, badiiy gimnastikachilarning ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichidagi buyumlar bilan bajariladigan murakkab mashqlar texnikasini takomillashtirishning metodologik asoslarini yaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tadqiqot maqsadi. Ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichidagi badiiy gimnastikachilarning murakkab mashqlar texnikasini takomillashtirishning nazariy asoslarini tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifasi. Ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida badiiy gimnastikachilarning murakkab mashqlar texnikasini shakllantirish va rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish.

Badiiy gimnastikachilarning murakkab mashqlar texnikasini takomillashtirishga ta’sir etuvchi asosiy nazariy va metodik omillarni aniqlash.

Tadqiqot natijasi va uning muhokamasi. Respublikamizda bugungi kundagi soha mutaxassislardan M.N.Umarov, A.K.Eshtayev, B.B.Musayev, G.M.Xasanova, S.A.Eshtayev, G.M.Xasanova, D.R.Ishtayev, G‘.A.Yusupov, M.X.Toshmurodov, Sh.X.Xankeldiyev, D.X.Umarov, X.A.Karimov, D.K.Karimov va boshqa bir qator yetakchi mutaxassislar tomonidan sog‘lomlashtiruvchi gimnastika mashg‘ulotlari aholi salomatligini yaxshilash bilan bir qatorda sport natijalariga erishishda birlamchi vositalardan foydalanish, ritmik gimnastika va balet raqslarini o‘rgatish texnikasi bo‘yicha vosita va usullarning ritm va temp me‘yorlarini ishlab chiqish bo‘yicha taklif va tavsiyalar berib o‘tishgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan J.S.Artemeva, M.V.Proxorovoy, N.V.Kazakevich, Y.V.Pishnaya, A.A.Nesterova, J.A.Belokopitova, V.A.Lavrenteva, O.P.Vlasova, A.V.Abdulina, I.A.Viner, R.N.Terexina, V.M.Adashevskiy, S.S.Yermakovlar o‘z tadqiqotlarida gimnastika sport turiga saralashda jamoaviy mashqlarni bajarishida shug‘ullanuvchilarning psixologik birdamligini inobatga olish, gimnastikachilarning sportda texnik mahoratini oshirishda barcha omillarni hisobga olish, Olimpiya o‘yinlariga badiiy gimnastikachilarni tayyorlash mexanizmlarini ishlab chiqish, badiiy gimnastika sport



turida guruhli mashqlarni buyumlar bilan bajarishda jamoaning kompetentligini oshiruvchi omillar va birdamlik xususiyatlarini ta’minlovchi uzluksiz tayyorgarlik metodikalari asosida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borishgan.

Xorijiy davlatlarda badiiy gimnastikada koptok va choqmor buyumlaridan foydalanish shug‘ullanuvchi salomatligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatish, badiiy gimnastika bo‘yicha xalqaro musobaqalarning butun dasturi zamonaviy texnologiyalar bilan olib boriladigan turli predmetlar bilan bajariladigan mashqlar majmuasini takomillashtirish bo‘yicha M.A.Brewin, M.R.Yeadon, D.G.Kerwin, A.L.Arampatzis, G.A.Morey-Klapsing, G.P.Bruggemann, E.F.Bradshaw, V.M.Boloban, G.P.Briiggemann, J.A.Contakos, B.A.Thompson, R.J.Suddaby, L.G.Carlton, S.L.Coppola, R.M.Vastola, M.T.Scatigna, L.B.Fabiani kabi olimlarning bir qator izlanishlari ilmiy asoslangan tadqiqotlari, ilgari surgan g‘oyalarida amaliyotga tadbiiq etilgan.

Badiiy gimnastika ko‘p tuzilmali sport turi bo‘lib, uning texnik tayyorgarlik cheksiz va doimiy ravishda yangilanib boradi. An’anaviy ravishda biz texnik tayyorgarlikning to‘rtta asosiy tarkibiy qismini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin: xoreografik tayyorgarlik, musiqiy va ritmik mashg‘ulotlar, predmet va predmetsiz olib boriladigan mashg‘ulotlar. Predmetlar bilan texnik mashg‘ulotlar o‘z ichiga ulotqirish va turli vositalarni ushlash, sakrash, muvozanat, tebranish, aylanish, raqs qadamlari va boshqa manipulyatsiyalar mavjud. Dastlabki tayyorgarlik bosqichidan farqli o‘laroq, boshlang‘ich sport ixtisosligi bosqichida mashg‘ulotlar ilgari o‘zlashtirilgan “obyektiv bo‘lmagan” vosita ko‘nikmalari asosida shakillantiriladi.

E.A.Panteleva, E.E.Bindusovlarning fikriga ko‘ra maxsus vosita mashg‘ulotlari - bu predmetlar bilan mashqlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish va sifatli bajarish uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantirish jarayoni hisoblanadi. Hozirgi vaqtda ushbu maxsus qobiliyatlar quyidagi psixomotor qobiliyatlarni o‘z ichiga olishini takidlagan, jumladan: Propriozeptiv (taktil) sezuvchanlik – “predmetni his qilish», tana va predmetning harakatlarini muvofiqlashtirish (muvofiqlashtirish), diqqatni tana va predmetning harakatiga, ikkita predmetga, o‘ziga va sherigiga, “sherikning» predmetiga va sheriklarning predmetlariga taqsimlash, harakatlanuvchi obyektga reaksiya tezligi va adekvatligi bilan ifodalanishini ta’kidlagan [1].

I.A.Stepanova, I.V.Seplevich, TV.Jukovalarning ilimy tadqiqotlarida badiiy gimnastika bo‘yicha xalqaro musobaqalarning butun dasturi zamonaviy texnologiyalar bilan olib boriladigan mashqlardan iborat. Buyumlar bilan mashq bajarish chidamlilik, chaqqonlik, tezlik, kuch va egiluvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishning qimmatli qurolidir. Har xil shakldagi, og‘irlikdagi va hajmdagi obyektlari gimnastikachilarga turli xil tajriba orttirishga yordam beradi. Jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanuvchilarga hissiy ta’sirni ortiqcha baholash qiyin. Bu xususiyat jismoniy tarbiyaning qimmatli vositasiga aylantiradi. Harakatlarning xilma-xilligi va rang-barangligi bilan ajralib turadigan narsalar bilan mashqlar



ishtirokchilarda katta qiziqish uyg'otadi va hissiylikni oshirishga yordam berishini ilmiy asoslab berishgan [2].

R.N.Terixina, I.A.Vinerlarning fikriga ko'ra badiiy gimnastika bo'yicha musobaqa dasturlarining asosiy mazmunini buyumlar bilan mashqlar tashkil etishini ta'kidlashgan. Yuqori malakali gimnastikachilarning raqobatbardosh kombinatsiyalari musiqa bilan birgalikda bajariladigan turli xil harakatlarni predmetlar bilan birlashtirishdir. Buyum bilan bajariladigan mashqlar harakatlarni maxsus muvofiqlashtirishni o'zlashtirish vositasidir. Ularning yordami bilan vosita, taktik va vizual analizatorlarning funktsiyalari, shuningdek, fazoviy tasvirlar yaxshilanishini aytishgan. Buyum harakati tana harakatlari bilan muvofiqlashgan holda amalga oshirilsa o'rganilayotgan harakat texnikasini rivojlantirishga erishishini takidlashgan. Bu nafaqat yuqori sport mahoratiga erishish, balki ko'plab kasbiy va mehnat ko'nikmalarini egallash uchun ham katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlashgan [3].

Bizning fikrimizga ko'ra buyumlar bilan mashqlar bajarish chaqqonlik, tezkorlik, harakatlarning aniqligi va yanada murakkab va nozik muvofiqlashtirishni rivojlantirish vositasi sifatida ishlatiladi. Ular, shuningdek, harakatlarning xilma-xilligini o'zlashtirish uchun muhim vositalar hisoblanadi.

I.S.Semibratova, I.V.Bistrovalarning fikriga ko'ra badiiy gimnastikada texnikaning namoyon bo'lishining asosiy omili harakatni o'zlashtirishdir. Tananing harakat texnikasi deganda, bir tomondan, buyumlar bilan birgalikta bajariladigan mashqlar texikasining asosini tashkil etuvchi o'ziga xos vosita ko'nikmalari, elastik harakatlar majmui tushuniladi va badiiy gimnastikachilarning individual mashg'ulotlari va ko'pkurash talablariga nisbatan yuqori mahorat darajasi ekanligini ilmiy asoslab berishgan [4].

N.V.Kazakevich, E.V.Pishnayalarning ilmiy tadqiqotlarida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichiga badiiy gimnastikachilarni saralash mexanizmlarini ishlab chiqqan. Shu bilan birga asosiy badiiy gimnastika vositalari yordamida kasbiy pedagogik mahoratni ishlab chiqish masalasi ixtisoslashgan oliy o'quv yurtlari sharoitida jismoniy tarbiya va sport sohasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda modernizatsiya tashkil etishga qaratilgan ilmiy-uslubiy materiallarni ishlab chiqishgan [5].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ko'p yillik tayyorgarlik bosqichida badiiy gimnastikachilarning murakkab mashqlar texikasini takomillashtirish sport tayyorgarligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, murakkab texnik elementlarni muvaffaqiyatli o'zlashtirishda gimnastikachilarning jismoniy tayyorgarligi, xoreografik tayyorgarligi, koordinatsion qobiliyatlari, moslashuvchanligi hamda mashg'ulot jarayonining to'g'ri tashkil etilishiga bevosita bog'liq. Shuningdek, murakkab mashqlar texikasini takomillashtirish jarayoni bosqichma-bosqich olib borilishi, yosh va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda metodik yondashuvlardan



foydalanilishi zarur. Shu sababli ko‘p yillik tayyorgarlik jarayonida zamonaviy pedagogik va sport metodikalariga tayanib mashg‘ulotlarni tashkil etish badiiy gimnastikachilarning murakkab mashqlarni sifatli va barqaror bajarishiga, sport natijalarining oshishiga hamda ularning sport mahoratini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Пантелеева Е.А., Особенности комплектования групповых упражнений в художественной гимнастике / Е.А.Пантелеева, Е.Е.Биндусов // МинСпорта РФ ФГБОУ ВПО «Московская государственная академия физической культуры» Московская областная олимпийская академия. - 2015. - Выпуск XIII. - С.180-184.
2. Степанова И.А., Анализ показателей уровня развития физических способностей у гимнасток на этапе углубленной специализации в художественной гимнастике / И.А.Степанова, И.В.Цепелевич, Т.В.Жукова // Гимнастика : сб. науч. тр. Вып. IV / С.-Петерб. гос. ун-т физ. культуры им. П.Ф. Лесгафта. - СПб., 2006. - С. 123-126.
3. Терехина Р.Н., Винер И.А. Интегральная подготовка в художественной гимнастике / СПбГАФК им. П.Ф.Лесгафта // Теор. и практ. физ. культуры. - 2006. - № 10. - С. 28-29.
4. Семибратова И.С., Надежность выполнения перебросок предметов в групповых упражнениях художественной гимнастики // Гимнастика : сб. науч. тр. Вып. VI / С.-Петерб. гос. ун-т физ. культуры им. П.Ф. Лесгафта. -СПб., 2008. - С. 76-84.
5. Казакевич Н.В. Спортивный отбор на начальном этапе подготовки в художественной гимнастике / Н.В. Казакевич, Е.В. Пышная // Физическая культура и спорт: проектирование, реализация, эффективность : сб. материалов Всероссийской научно-практической конф., посвященной 70-летию юбилею д-ра пед. наук, проф. А. А. Нестерова. - Санкт-Петербург, 2005. - С. 188-193.

BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDAGI DZYUDochi QIZLARGA TEXNIK HARAKATLARNI O‘RGATISHDA INDIVIDUALLASH TIRISH METODIKASINI TAKOMILLASH TIRISH

Berdaxova Nursulu Gagarin qizi

Stajyor-o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

berdaxovanursulu@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlarga texnik harakatlarni o‘rgatish jarayonida individuallashtirilgan*



yondashuv metodikasini takomillashtirish masalasi yoritilgan. Tadqiqot davomida dzyudochilarning yosh, jismoniy va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlarini samarali tashkil etish yo'llari tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, individuallashtirish usullaridan foydalanish texnik tayyorgarlikning sifat ko'rsatkichlarini oshiradi va sportchilarning musobaqa faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: *Dzyudo, individuallashtirish, texnik harakat, boshlang'ich tayyorgarlik, sportchi qizlar, metodika.*

Аннотация: *В данной статье освещается вопрос совершенствования методики индивидуализированного подхода в процессе обучения техническим действиям девушек-дзюдоисток на начальном этапе подготовки. В ходе исследования были проанализированы пути эффективной организации тренировочных занятий с учетом возрастных, физических и психологических особенностей дзюдоистов. Результаты показали, что использование методов индивидуализации повышает качественные показатели технической подготовки и положительно влияет на соревновательную деятельность спортсменов.*

Ключевые слова: *Дзюдо, индивидуализация, техническое движение, начальная подготовка, спортсменки, методика.*

Abstract: *This article addresses the issue of improving the methodology of an individualized approach in the process of teaching technical actions to female judokas at the initial stage of training. The study analyzed the ways to effectively organize training sessions, taking into account the age, physical, and psychological characteristics of judokas. The results showed that the use of individualization methods improves the qualitative indicators of technical preparedness and positively influences the competitive activity of athletes.*

Keywords: *Judo, individualization, technical movement, initial training, athletes, methodology.*

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport tizimida dastlabki tayyorgarlik bosqichi sportchining kelajakdagi muvaffaqiyatlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, texnik jihatdan murakkab sport turlari - shu jumladan, dzyudoda bu bosqich sportchining asosiy texnik bazasini shakllantirish, harakat madaniyatini rivojlantirish va musobaqa faoliyatiga psixologik tayyorgarlikni mustahkamlash davridir. Dzyudochi uchun texnik harakatlarni to'g'ri o'zlashtirish, ularni avtomatik darajada bajarish, musobaqa paytida to'g'ri taktika tanlash sport natijalarini bevosita belgilaydi. So'nggi yillarda O'zbekiston sport tizimida qizlar o'rtasida dzyudo bilan shug'ullanuvchilar soni sezilarli darajada oshmoqda. Bu yosh sportchilarga mo'ljallangan o'quv dasturlari, metodik qo'llanmalar va o'qitish uslublarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Chunki qizlarning jismoniy, anatomik va psixologik xususiyatlari o'g'il bolalarga qaraganda sezilarli farq qiladi. Shu sababli,



ayniqsa, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida, mashg‘ulotlarni individuallashtirilgan yondashuv asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Individualizatsiya deganda, har bir sportchining shaxsiy xususiyatlarini - jismoniy tayyorgarlik darajasi, harakat koordinatsiyasi, psixologik holati, o‘rganish tezligi, motivatsiyasi kabi jihatlarni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini tashkil etish tushuniladi. Dzyudochi qizlar orasida bu munosabat yanada muhim, chunki bu yoshda har bir sportchi o‘zining rivojlanish bosqichida turli fiziologik va emotsional o‘zgarishlarni boshidan kechiradi. Agar murabbiy bu farqlarni hisobga olmasa, sportchi texnik harakatlarni to‘liq o‘zlashtira olmasligi, motivatsiyasi pasayishi yoki ortiqcha yuklama tufayli jarohat olish ehtimoli ortadi. Shuningdek, dzyudo mashg‘ulotlarida o‘qitishning an‘anaviy usullari - ya‘ni barcha sportchilarga bir xil mashqlarni bir xil hajmda taklif etish - har doim ham kutilgan natijani bermaydi. Zamonaviy pedagogika va sport metodikasi shuni ko‘rsatadiki, individuallashtirilgan mashg‘ulotlar sportchilarning shaxsiy rivojlanish dinamikasini tezlashtiradi, har bir ishtirokchiga o‘z salohiyatini maksimal darajada namoyon etish imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan, dzyudochi qizlar bilan olib boriladigan mashg‘ulotlarda individual yondashuv elementlarini tizimli qo‘llash ularning texnik tayyorgarligini takomillashtirishning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Dzyudo texnikasida har bir usul (masalan, O-soto-gari, Ippon-seoi-nage, Kesa-gatame va boshqalar) yuksak koordinatsiyani, gavdaning muvofiqlashtirilgan harakatini, tez qaror qabul qilishni talab etadi. Shu sababli, murabbiy har bir sportchining individual jismoniy imkoniyatlariga qarab, texnik harakatlarni o‘rgatish tezligini, takrorlash sonini, mashg‘ulot davomiyligini va yuklama intensivligini moslashtirishi lozim. Bunday yondashuv sportchi qizlarning texnik mahoratini yanada puxta shakllantiradi, ularni musobaqa sharoitlariga ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlaydi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi - boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlarga texnik harakatlarni o‘rgatish jarayonida individuallashtirish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotda sinovdan o‘tkazishdir. Bu ish dzyudo sportida o‘qitish samaradorligini oshirish, yosh sportchilarning o‘quv motivatsiyasini mustahkamlash va musobaqaga tayyorgarlik sifatini yaxshilashga qaratilgan.

Usullar. Tadqiqot 2024 yilda Nukus shahridagi sport maktablarida tahsil olayotgan 9-11 yoshdagi 20 dzyudochi qizlar ishtirokida olib borildi. Ishtirokchilar ikki guruhga bo‘lindi: biri nazorat guruhi bo‘lib, an‘anaviy usulda mashg‘ulotlar olib bordi, ikkinchisi esa tajriba guruhi bo‘lib, individuallashtirilgan metodika asosida mashq qildi. Tadqiqot jarayonida har bir sportchining jismoniy tayyorgarligi, texnik ko‘nikmalari va psixologik holati dastlab o‘lchandi. Shundan so‘ng har bir sportchiga individual yuklama, texnik vazifa va motivatsion yondashuv belgilandi. Mashg‘ulotlar 12 hafta davomida haftasiga uch marta o‘tkazildi. Yakunda texnik harakatlarning aniqligi, bajarilish tezligi va samaradorligi mezonlar asosida



baholandi. Qo'llanilgan metodlar pedagogik kuzatuv, test sinovlari, suhbat va anketa, shuningdek, statistik tahlil metodlari bo'ldi.

Natijalar. 12 haftalik tajriba yakunida kuzatilgan natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi sportchilarida texnik harakatlarni bajarish aniqligi, koordinatsiya va psixologik ishonch ko'rsatkichlari sezilarli darajada oshdi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar nisbatan past darajada bo'lgan.


1-jadval

Quyidagi jadvalda ikki guruh natijalari keltirilgan

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (o'rtacha)	Tajriba guruhi (o'rtacha)	O'sish foizi
Texnik aniqlik (%)	72	88	+16%
Harakat tezligi (m/s)	1.45	1.63	+12%
Muvozanat saqlash testi (s)	8.4	10.2	+21%
Psixologiyaliq isenim (ball)	6.8	8.5	+25%

1-rasm

Quyidagi diagrammada ikki guruh natijalarining o'sish foizi ko'rsatilgan



Jadvaldan ko'rinib turganidek, tajriba guruhi ko'rsatkichlarining o'sishi barcha parametrlar bo'yicha yaqqol seziladi. Bu esa mashg'ulotlarda individuallashtirish metodikasining samaradorligini isbotlaydi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, individuallashtirilgan mashg'ulot usullari dzyudochi qizlarning texnik, jismoniy va psixologik tayyorgarligini kompleks tarzda yaxshilaydi. Har bir sportchining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olish ularning o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi, texnik harakatlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Individuallashtirish murabbiy uchun ham qulay, chunki u sportchilarning kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlab, o'quv jarayonini shunga moslashtiradi. Bu nafaqat texnik rivojlanishni, balki sportchining erkin va ruhiy tayyorgarligini ham mustahkamlaydi.



Xulosa. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi dzyudochi qizlarga texnik harakatlarni o‘rgatishda individuallashtirish metodikasini qo‘llash o‘quv jarayonining samaradorligini oshiruvchi eng muhim omillardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, individuallashtirilgan mashg‘ulot dasturi asosida shug‘ullangan sportchi qizlarda texnik harakatlarning aniqligi, muvozanatni saqlash qobiliyati, tezlik va psixologik barqarorlik darajalari an‘anaviy usulda shug‘ullangan sportchilarga qaraganda yuqori natijalar berdi.

Bu holat shuni anglatadiki, dzyudo sportida o‘quv mashg‘ulotlarini har bir sportchining shaxsiy xususiyatlariga moslashtirish texnik tayyorgarlikning sifat ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi. Har bir sportchining jismoniy rivojlanish darajasi, psixomotor tezligi, o‘rganish tezligi, ruhiy holati va motivatsiyasi har xil bo‘lgani uchun mashg‘ulotlarni bir xil tarzda tashkil etish ularning o‘zlashtirish jarayonida tenglikni ta‘minlamaydi. Shu sababli individuallashtirish usullaridan foydalanish har bir sportchining o‘z imkoniyatlariga qarab maksimal natijaga erishishiga zamin yaratadi. Individuallashtirilgan yondashuv nafaqat texnik harakatlarni yaxshiroq o‘zlashtirishga, balki sportchilarning o‘ziga ishonchini mustahkamlashga, ularni jamoaviy ruhda harakat qilishga, o‘z ustida mustaqil ishlash ko‘nikmasini shakllantirishga ham yordam beradi. Shuningdek, ushbu metodika sportchi qizlarda shaxsiy intizom, sabr-toqat, iroda, diqqatni jamlash va o‘z harakatlarini tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, individuallashtirilgan mashg‘ulot tizimi dzyudochi qizlarning musobaqa faoliyatida ham o‘z aksini topadi. Chunki, mashg‘ulot jarayonida sportchi o‘zining kuchli va zaif tomonlarini bilib oladi, har bir texnik harakatni o‘z jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda mukammal bajarishga o‘rganadi. Natijada, musobaqa sharoitida u o‘ziga xos usulda harakat qiladi, bu esa natijalarning barqarorligini ta‘minlaydi.

Murabbiy uchun esa bunday metodika har bir sportchining rivojlanish dinamikasini nazorat qilish, yuklamani optimal darajada taqsimlash va mashg‘ulotlarni tizimli rejalashtirish imkonini beradi. Shu orqali mashg‘ulotlarning samaradorligi oshadi, ortiqcha charchoq va jarohatlar xavfi kamayadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi xulosalarni keltirish mumkin: Individuallashtirilgan mashg‘ulotlar dzyudochi qizlarning texnik harakatlarni o‘zlashtirish sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Ushbu metodika sportchilarda psixologik barqarorlik, o‘ziga ishonch va musobaqaga tayyorgarlikni kuchaytiradi.

Murabbiylar uchun individuallashtiruvchi yondashuv har bir sportchining shaxsiy imkoniyatlarini aniqlash va samarali rivojlantirish vositasidir.

Dzyudo bo‘yicha o‘qitish jarayonida yosh, jins va individual xususiyatlarni hisobga olgan holda mashg‘ulotlarni loyihalashtirish o‘quv jarayonining sifatini oshiradi. Kelgusida individuallashtirish metodikasini yanada takomillashtirish uchun dzyudochi qizlarning harakat faoliyatini raqamli kuzatuv vositalari (masalan,



video tahlil dasturlari va harakat sensori texnologiyalari) orqali o‘rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, murabbiylar uchun individual yondashuv bo‘yicha metodik seminarlar tashkil etish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish zarur. Shu tariqa individuallashtirilgan o‘qitish tizimi nafaqat dzyudochi qizlarning sport mahoratini, balki ularning shaxsiy rivojlanish salohiyatini ham yangi bosqichga ko‘taradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бойко В.В. Целенаправленное развитие двигательных способностей человека / В.В. Бойко. – М. : Физкультура и спорт, 1987. – 144 с.
2. Верхошанский Ю.В. Актуальные проблемы современной теории и методики спортивной тренировки / Ю.В. Верхошанский // Теория и практика физической культуры. – 1993. – № 8. – С. 21-28.
3. Горская Г.Б. Психологическое обеспечение многолетней подготовки спортсменов / Г.Б. Горская ; Кубанская гос. акад. физ. культуры. – Краснодар : [б.и.], 1995. – 68 с.
4. Ивлев В.Г. Типология соревновательной деятельности высококвалифицированных борцов в зависимости от их индивидуальных особенностей : автореф. дис. ... канд. пед. наук / Ивлев В.Г. – М., 1990. – 24 с.

YUQORI MALAKALI VOLEYBOLCHILAR BILAN MASHG‘ULOTLAR JARAYONINI TASHKIL ETISH VA MUSOBAQA FAOLIYATINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

Boltayev Zayniddin Boltayevich

*Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti*

Axmatov Shaxzod Shuxratovich

*Magistrant
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
zayniddinboltayev8@gmail.com*

Annotatsiya: Maqolada yuqori malakali voleybolchilar bilan mashg‘ulot jarayonini tashkil etish hamda musobaqa faoliyatini boshqarishning zamonaviy xususiyatlari tahlil qilingan. Murabbiylar o‘rtasida o‘tkazilgan sotsiologik so‘rov natijalari asosida mashg‘ulotlarni rejalashtirish, mikrotsikllarni tashkil etish, psixologik tayyorgarlikni hisobga olish va musobaqa jarayonini nazorat qilish holati o‘rganildi. Tadqiqot natijalari murabbiylarning aksariyati mashg‘ulot jarayonini rejalashtirish zarurligini tan olishiga qaramay, uzoq muddatli rejalashtirish va psixologik monitoring yetarli darajada amalga oshirilmayotganini



ko‘rsatdi. Olingan natijalar asosida mashg‘ulot va musobaqa faoliyatini optimallashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: Voleybol, yuqori malaka, mashg‘ulot jarayoni, mikrotsikl, musobaqa faoliyati, psixologik tayyorgarlik, rejalashtirish, sport nazorati.

Аннотация: В статье проанализированы современные особенности организации тренировочного процесса и управления соревновательной деятельностью высококвалифицированных волейболистов. На основе социологического опроса тренеров изучены вопросы планирования подготовки, построения микроциклов, учета психологического состояния спортсменов и контроля соревновательной деятельности. Результаты показали недостаточный уровень долгосрочного планирования и психологического мониторинга. Разработаны научно-практические рекомендации по оптимизации подготовки.

Ключевые слова: Волейбол, высококвалифицированные спортсмены, тренировочный процесс, микроцикл, соревновательная деятельность, психологическая подготовка.

Abstract: The article analyzes modern features of organizing the training process and managing competitive activity of highly qualified volleyball players. Based on a sociological survey of coaches, issues of planning, microcycle organization, psychological monitoring, and competitive performance control were studied. The results revealed insufficient long-term planning and limited psychological analysis in practice. Scientific and practical recommendations for optimizing the training and competition process were developed.

Keywords: Volleyball, elite athletes, training process, microcycle, competitive activity, psychological preparation.

Kirish. Yuqori malakali voleybolchilarni tayyorlash sportchilarning uzoq muddatli tayyorgarlik tizimining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Zamonaviy voleybol o‘yinining o‘ziga xosligi uning yuqori tezligi, texnik-taktik harakatlarning murakkabligi, tez qaror qabul qilish zarurati hamda sportchilardan yuqori darajadagi jismoniy va psixologik tayyorgarlikni talab qilishi bilan tavsiflanadi. Shu sababli sportchilarni tayyorlash jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, mashg‘ulot jarayonini optimal rejalashtirish hamda sportchilarning funksional imkoniyatlarini muntazam nazorat qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Sport mashg‘ulotlari nazariyasida mashhur olim Vladimir Platonov sport tayyorgarligini uzoq muddatli tizim sifatida ko‘rib chiqib, sportchilarning yuksak natijalarga erishishi uchun mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, “sport natijalarining barqaror o‘lishi mashg‘ulot yuklamalarining izchil rejalashtirilishi va sportchining funksional imkoniyatlariga mos ravishda bosqichma-bosqich oshirib borilishi bilan ta’minlanadi”. Shuningdek, u sportchilar tayyorgarligida yuklamalarni



periodizatsiya qilish, tiklanish jarayonlarini hisobga olish hamda nazorat tizimini joriy etish muhimligini qayd etadi. [1,2].

Sport tayyorgarligi metodologiyasi rivojiga katta hissa qo'shgan yana bir olim Yuri Verkhoshansky yuqori sport natijalariga erishishda maxsus jismoniy tayyorgarlikning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. U “sportchining musobaqa faoliyatidagi samaradorligi ko'p jihatdan mashg'ulot jarayonida qo'llaniladigan maxsus tayyorgarlik vositalarining to'g'ri tanlanishi va ularning optimal uyg'unlashuviga bog'liq” ekanligini ta'kidlaydi. Olim tomonidan ishlab chiqilgan zarba kuchini va sakrash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan metodlar, xususan, plyometrik mashqlar tizimi voleybolchilar tayyorgarligida keng qo'llanilmoqda.

Zamonaviy sportda yuqori natijalarni ta'minlashda nafaqat jismoniy va texnik tayyorgarlik, balki sportchining psixologik holati ham muhim omil hisoblanadi. Sport psixologiyasi sohasidagi yetuk tadqiqotchi Yuri Hanin sportchilarning musobaqa faoliyatida individual optimal funksional holat nazariyasini ishlab chiqqan. Uning fikriga ko'ra, har bir sportchi o'zining eng yuqori natijasini aynan o'ziga xos psixologik holatda namoyon eta oladi. Hanin ta'kidlaganidek, “Sportchining emotsional va psixologik holati optimal darajada bo'lganida uning harakatlari aniqroq, tezroq va samaraliroq amalga oshiriladi”. Voleybol sport turi jamoaviy o'yin hisoblanib, unda individual tayyorgarlik darajasi bilan bir qatorda jamoaviy hamkorlik, taktik fikrlash va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati ham katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham zamonaviy voleybolchilarni tayyorlash jarayonida jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlikning o'zaro uyg'unlashuvi ta'minlanishi lozim. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, sportchilarning mashg'ulot jarayonini kompleks yondashuv asosida tashkil etish ularning musobaqa faoliyatidagi barqaror natijalariga xizmat qiladi [3,4].

Tahlil va natijalar. Malakali voleybolchilar bilan mashg'ulot jarayonini samarali tashkil etish, yuklamalarni optimal rejalashtirish, sportchilarning funksional va psixologik holatini nazorat qilish hamda musobaqa faoliyatini ilmiy asosda boshqarish dolzarb ilmiy muammolardan biri hisoblanadi. Mazkur masalalarni chuqur o'rganish sportchilarning sport mahoratini oshirish, ularning musobaqa faoliyatidagi samaradorligini yaxshilash hamda zamonaviy voleybol talablariga mos tayyorgarlik tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi. Ushbu masala bo'yicha tadqiqot jarayonida malakali voleybolchilar bilan ishlovchi murabbiylar o'rtasida anketa asosida sotsiologik so'rov o'tkazildi. So'rovnoma savollari mashg'ulotlarni rejalashtirish, mikrotsikllarni tashkil etish, psixologik monitoring va musobaqa faoliyatini boshqarish masalalarini qamrab oldi. Javoblar 5 ballik tizimda baholandi va foiz ko'rsatkichlarida tahlil qilindi.



1-jadval

Malakali voleybolchilar bilan ishlovchi murabbiylar o'rtasida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari

№	So'rov savollari va ko'rsatkichlar	Ulushi (%)
Mashg'ulot jarayonini rejalashtirish		
1.	Mashg'ulot jarayonini rejalashtirish zarurligini maksimal ball bilan baholagan murabbiylar	64,3
2.	Uzoq muddatli rejalashtirishni doimiy amalga oshiradigan murabbiylar	29
Mikrotsikllarni tashkil etish		
3.	3–1 sxema asosidagi mikrotsiklni afzal ko'radigan murabbiylar	50,6
4.	Mashg'ulot va dam olish kunlarini rejalashtirmaydigan murabbiylar	14,7
Sportchilarning psixologik holatini monitoring qilish		
5.	Sportchilarning ruhiy holatini ba'zan tahlil qiladigan murabbiylar	35,7
6.	Sportchilarning psixologik holatini umuman tahlil qilmaydigan murabbiylar	17,7
Musobaqa faoliyatini boshqarish		
7.	Texnik-taktik ko'rsatkichlarni doimiy nazorat qiladigan murabbiylar	24,1
8.	O'yin davomida taym-aut va almashtirishlardan muntazam foydalanadigan murabbiylar	30,2
9.	Individual o'yin harakatlarini texnik-taktik samaradorlik asosida ba'zan tuzatadigan murabbiylar	38,4
10.	O'yin harakatlarini sportchilarning ruhiy holatiga qarab moslashtiradigan murabbiylar	34,8

O'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari malakali voleybolchilar bilan ishlovchi murabbiylarning mashg'ulot jarayonini tashkil etish va musobaqa faoliyatini boshqarish borasidagi yondashuvlari turlicha ekanligini ko'rsatdi. Avvalo, mashg'ulot jarayonini rejalashtirish masalasida murabbiylarning aksariyati bu jarayonning muhimligini tan oladi. Xususan, respondentlarning 64,3 foizi mashg'ulotlarni rejalashtirish zarurligini maksimal ball bilan baholagan. Biroq shunga qaramay, uzoq muddatli rejalashtirishni doimiy amalga oshiradigan murabbiylar ulushi atigi 29,0 foizni tashkil etadi. Bu holat nazariy jihatdan rejalashtirishning ahamiyati e'tirof etilsa-da, amaliyotda uning to'liq tatbiq etilmayotganini ko'rsatadi.

Mikrotsikllarni tashkil etish masalasida murabbiylarning 50,6 foizi 3–1 sxema asosidagi mikrotsiklni afzal ko'rishini bildirgan. Ushbu sxema odatda uch kunlik mashg'ulot va bir kunlik dam olish tartibini nazarda tutadi hamda sportchilarning tiklanish jarayonini ta'minlashda samarali hisoblanadi. Shu bilan birga, murabbiylarning 14,7 foizi mashg'ulot va dam olish kunlarini umuman rejalashtirmasligini bildirgan. Bu esa mashg'ulot yuklamalarining tizimli



taqsimlanmasligi va sportchilarning tiklanish jarayoniga yetarlicha e'tibor berilmasligi mumkinligini ko'rsatadi.

Sportchilarning psixologik holatini monitoring qilish bo'yicha natijalar ham yetarli darajada emasligini ko'rsatdi. Respondentlarning 35,7 foizi sportchilarning ruhiy holatini faqat ba'zan tahlil qilishini bildirgan bo'lsa, 17,7 foizi esa bunday tahlilni umuman amalga oshirmasligini qayd etgan. Bu esa sportchilarning musobaqa faoliyatidagi samaradorlikka bevosita ta'sir qiluvchi psixologik omillarga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganini ko'rsatadi. Musobaqa faoliyatini boshqarish natijalari ham muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, murabbiylarning atigi 24,1 foizi o'yin davomida texnik-taktik ko'rsatkichlarni doimiy nazorat qilishini bildirgan. Taym-aut va o'yinchilarni almashtirish kabi muhim boshqaruv vositalaridan muntazam foydalanadigan murabbiylar ulushi esa 30,2 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari, murabbiylarning 38,4 foizi individual o'yin harakatlarini texnik-taktik samaradorlik asosida faqat ba'zan tuzatishini bildirgan. Shu bilan birga, respondentlarning 34,8 foizi o'yin jarayonida sportchilarning ruhiy holatini hisobga olib o'yin harakatlarini moslashtirishini ta'kidlagan. Bu esa psixologik omillarni hisobga olishga nisbatan qisman ijobiy yondashuv mavjudligini ko'rsatadi [5,6].

Xulosa. Umuman olganda, tadqiqot natijalari malakali voleybolchilar bilan ishlovchi murabbiylar faoliyatida mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda rejalashtirish, psixologik monitoringni kuchaytirish hamda musobaqa faoliyatini tizimli boshqarish bo'yicha hali ham takomillashtirish zarur ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar murabbiylarning ko'pchiligi mashg'ulot jarayonini ko'proq shaxsiy tajribaga asoslanib tashkil etishini ko'rsatdi. Ilmiy asoslangan periodizatsiya, mikrotsikl ichidagi joriy rejalashtirish va psixologik monitoring yetarli darajada qo'llanilmaydi. Zamonaviy voleybol sharoitida mashg'ulot jarayoni uzoq muddatli va bosqichli rejalashtirish, mikrotsikl va mezotsikl darajasida yuklamalarni optimallashtirish, sportchilar funksional va psixologik holatini doimiy monitoring qilish, musobaqa faoliyatini statistik va video-tahlil asosida boshqarish kabi tamoyillar asosida tashkil etilish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda mashg'ulot jarayonini rejalashtirish zarurligi tan olinadi, biroq uzoq muddatli rejalashtirish yetarli emas. Mikrotsikllarda sportchilar holatini hisobga olish darajasi past. Psixologik tayyorgarlik va monitoring tizimi yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Musobaqa faoliyatini boshqarishda obyektiv nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur. Malakali voleybolchilarni tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun kompleks ilmiy-metodik model ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Владимир Платонов. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. - Киев: Олимпийская литература, 2015.



2. Юрий Верхошанский. Теория и методика спортивной тренировки. - Москва: Физкультура и спорт, 1988.

3. Yuri Hanin Y.L. Individual Zones of Optimal Functioning (IZOF) model in sport psychology. – 2000.

4. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. - Москва, 1991.

5. Карпол Н.В. Управление соревновательной деятельностью в волейболе. - Москва, 2004.

6. Boltayev Z.B. Murabbiyning professional va pedagogik faoliyatining ilmiy tahlili. SamDU ilmiy axborotnomasi ISSN2181-1296, 2025 yil 2-son 73-76 betlar.

VOLEYBOL SPORT TURINING TARIXI VA RIVOJI

Tabinbaev Berik Asqarovich

Dotsent

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Urakbaeva Albina Sultangaliy qizi

Talaba

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

berik0077mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada voleybol sport turining kelib chiqishi, uning tarixiy rivojlanish bosqichlari va bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilingan. Eng avvalo, voleybolning yaratilish tarixi, asoschisi Uilyam J.Morganning sportga qo‘shgan hissasi, shuningdek, dastlabki qoidalar va musobaqalar haqida ma‘lumot beriladi. Bundan tashqari, xalqaro voleybol federatsiyasining tuzilishi, Olimpiya o‘yinlariga kiritilishi va turli mamlakatlarda, xususan O‘zbekistonda ham ushbu sport turining rivojlanishi yoritiladi. Maqolada voleybolning jismoniy tarbiya va sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rni ham alohida o‘rin tutadi. Tadqiqotning yakuniy qismida voleybolni yanada rivojlantirish va ommalashtirish bo‘yicha xulosa va tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Voleybol, musobaqalar, qoidalar, Olimpiya o‘yinlari, xalqaro federatsiya, jismoniy tarbiya, sog‘lom turmush tarzi, O‘zbekistonda voleybol.

Аннотация: В данной статье рассматривается происхождение волейбола, этапы его исторического развития и современное значение. Сначала раскрывается история создания волейбола, роль его основателя Уильяма Дж. Моргана, а также приводятся сведения о первых правилах и соревнованиях. Далее освещается деятельность Международной федерации волейбола, включение вида спорта в Олимпийские игры и развитие волейбола в различных странах, включая Узбекистан. Особое внимание уделено роли волейбола в формировании здорового образа жизни. В заключительной части



представлены выводы и рекомендации по дальнейшему развитию и популяризации волейбола.

Ключевые слова: Волейбол, соревнования, правила, Олимпийские игры, Международная федерация, физическая культура, здоровый образ жизни, волейбол в Узбекистане.

Abstract: This article examines the origins of volleyball, its stages of historical development, and its present-day significance. It first explores the creation of volleyball, the role of its founder William G. Morgan, and provides information about the initial rules and competitions. The article then highlights the activities of the International Volleyball Federation, volleyball's inclusion in the Olympic Games, and the sport's development in various countries, including Uzbekistan. Special attention is given to volleyball's role in promoting a healthy lifestyle. In the final section, the article presents conclusions and recommendations for the further development and popularization of volleyball.

Keywords: Volleyball, competitions, rules, Olympic games, International Federation, physical education, healthy lifestyle, volleyball in Uzbekistan.

Kirish. Soddaligi va yuqori darajadagi tomoshabopligi bilan alohida ajralib turadi. Ushbu sport turi nafaqat professional darajada, balki havaskorlar, yoshlar va turli yosh toifasidagi aholi orasida ham keng tarqalgan. Voleybolning global miqyosda rivojlanib borayotgani uning xalqaro sport tizimidagi muhim oʻrni va ahamiyatini yanada mustahkamlab bormoqda.

Hozirgi kunda voleybol dunyoning deyarli barcha mintaqalarida faol rivojlanayotgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro miqyosda ushbu sport turining keng yoyilganligini milliy federatsiyalar sonining ortib borayotgani ham tasdiqlaydi. Voleybol musobaqalariga boʻlgan qiziqish yil sayin oshib borayotgani, yirik xalqaro turnirlar va chempionatlarda tomoshabinlar sonining koʻpayishi hamda raqamli platformalar orqali keng auditoriyaning jalb etilishi bu sport turining ommaviyligini yanada kuchaytirayotganini koʻrsatadi. Ayniqsa, soʻnggi yillarda oʻtkazilayotgan xalqaro turnirlar voleybolning nafaqat sport, balki ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida ham ahamiyat kasb etayotganini namoyon etmoqda.

Voleybolning bunday tez surʼatlar bilan rivojlanishi uning tarixiy shakllanishi, qoidalarining takomillashuvi va turli mamlakatlarda qanday omillar asosida ommalashganini ilmiy jihatdan oʻrganishni dolzarb masalaga aylantiradi. Shu bilan birga, mazkur sport turining alohida hududlar, xususan, Oʻzbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi rivojlanish xususiyatlarini tahlil qilish ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — voleybol sport turining paydo boʻlishi, tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy shakllanish jarayonini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: voleybolning kelib chiqish tarixini oʻrganish, oʻyin qoidalarining evolyutsiyasini



tahlil qilish, xalqaro miqyosda rivojlanish omillarini aniqlash hamda O'zbekistonda voleybolning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini baholash.

Tadqiqot natijalari voleybolning nafaqat sport turi sifatida, balki jismoniy tarbiya, sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishdagi muhim omil sifatidagi ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

Metodologiya. Mazkur tadqiqotda voleybol sport turining tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy holatini o'rganish uchun kompleks ilmiy yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotda tarixiy-tahliliy usul yordamida voleybolning paydo bo'lishi, dastlabki shakllari va asoschisi William G.Morgan tomonidan yaratilish jarayoni o'rganildi, shuningdek, dastlabki qoidalar va “Mintonet” davridagi xususiyatlar tahlil qilindi.

Taqqoslash va statistik tahlil usullari yordamida turli davrlardagi o'yin qoidalari, maydon o'lchamlari, jamoalar tarkibi va hisob tizimi solishtirildi. Shu bilan birga, xalqaro va milliy musobaqalar, tomoshabinlar soni va ishtirokchilar ko'rsatkichlari o'rganilib, voleybolning global ommalashishi va rivojlanish dinamikasi aniqlangan.

Tizimli yondashuv va manbalarni tahlil qilish usullari orqali voleybolning xalqaro sport tizimidagi o'рни, ijtimoiy va jismoniy tarbiya sohasidagi ahamiyati o'rganildi. Ilmiy adabiyotlar, rasmiy hisobotlar va tarixiy manbalar tahlil qilinib, tadqiqotning ishonchliligi ta'minlandi hamda voleybolning tarixiy va zamonaviy rivojlanishini tizimli tarzda o'rganish imkoniyati yaratildi.

Natijalar. Mazkur tadqiqot davomida voleybol sport turining tarixiy shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda zamonaviy holati bo'yicha muhim ilmiy natijalar aniqlandi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, voleybol qisqa tarixiy davr ichida oddiy o'yin shaklidan global miqyosdagi keng ommalashgan sport turiga aylangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, voleybolning paydo bo'lishi 1895 yilda AQSh da jismoniy tarbiya mutaxassisi William G.Morgan tomonidan amalga oshirilgani va dastlab “Mintonet” nomi bilan yuritilgani aniqlandi. Keyinchalik o'yin davomida to'pning to'r orqali uzluksiz uzatilishi asosida “volley ball” atamasi taklif etilgan va vaqt o'tishi bilan hozirgi “voleybol” shakliga kelgani aniqlangan. Ushbu jarayon sport nomining shakllanishida muhim bosqich sifatida baholandi.

Tahlillar natijasida voleybol o'yinining dastlabki qoidalari sodda va erkin shaklda bo'lganligi, biroq vaqt o'tishi bilan ular tizimli ravishda takomillashib borganligi ma'lum bo'ldi. Xususan, maydon o'lchamlarining standartlashtirilishi, o'yinchilar sonining 6 nafardan iborat etib belgilanishi, uch zarba qoidasining joriy qilinishi hamda to'r balandligining aniq me'yorlarga keltirilishi voleybolni professional sport turiga aylantirishda muhim omil bo'lgan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ushbu qoidalar o'yinning dinamikligi va tomoshabopligini sezilarli darajada oshirgan.

Shuningdek, tadqiqot davomida voleybolning xalqaro miqyosda keng tarqalishida institutsional omillar hal qiluvchi rol o'ynagani aniqlandi. Ayniqsa,



1947 yilda “Federation Internationale de Volleyball” tashkil etilishi voleybol rivojida burilish nuqtasi bo'lgan. Mazkur tashkilot tomonidan o'yin qoidalarining yagona standartga keltirilishi, xalqaro musobaqalarning muntazam o'tkazilishi hamda milliy federatsiyalar faoliyatining muvofiqlashtirilishi natijasida voleybol qisqa vaqt ichida dunyoning ko'plab mamlakatlarida ommalashdi.

Olib borilgan tahlillar voleybolning zamonaviy davrda ham jadal rivojlanib borayotganini ko'rsatdi. Xususan, xalqaro musobaqalar, professional ligalar va yirik turnirlar orqali tomoshabinlar sonining ortib borayotgani ushbu sport turining nafaqat jismoniy faoliyat, balki keng ko'lamli sport industriyasiga aylanganini tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, voleybol bugungi kunda global sport maydonida yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda.

Bundan tashqari, voleybolning Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritilishi ham uning rivojlanishida muhim omil bo'lganligi aniqlangan. 1964 yildan boshlab ushbu sport turi Olimpiya o'yinlari doirasida o'tkazila boshlagach, uning nufuzi va ommaviyligi keskin oshgan. Bu esa voleybolning xalqaro sport tizimidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalari voleybolning O'zbekistondagi rivojlanish jarayoni ham izchil va bosqichma-bosqich amalga oshganini ko'rsatdi. Tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, ushbu sport turi XX asrning 20-yillarida Toshkent, Farg'ona va Qo'qon hududlarida paydo bo'la boshlagan. Dastlab havaskor darajada rivojlangan voleybol keyinchalik rasmiy musobaqalar va jamoalar tashkil etilishi orqali tizimli sport turiga aylangan.

Ayniqsa, 1934 yilda o'zbek voleybolchilarining Moskvada o'tkazilgan musobaqalarda ishtirok etishi milliy voleybol rivojida muhim bosqich sifatida baholandi. 1938 yilga kelib esa respublikada voleybol jamoalari sonining sezilarli darajada ortgani va turli musobaqalarning tashkil etilishi bu sport turining ommaviylashganini ko'rsatdi.

Bundan tashqari, mustaqillik yillarida voleybol rivojlanishida yangi bosqich kuzatilgani aniqlandi. Xususan, milliy chempionatlarning muntazam o'tkazilishi, yoshlar va kattalar o'rtasida musobaqalar tizimining shakllanishi hamda xalqaro aloqalarning kengayishi ushbu sport turining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari voleybolning nafaqat professional sport turi sifatida, balki jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini shakllantirish vositasi sifatida ham muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatdi. Maktablar, oliy ta'lim muassasalari va turli sport tashkilotlarida voleybol mashg'ulotlarining keng yo'lga qo'yilishi yoshlarning jismoniy rivojlanishi, jamoaviy ishlash ko'nikmalari va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, olingan natijalar voleybol sport turining tarixiy shakllanishi, global miqyosda keng tarqalishi hamda O'zbekistonda izchil rivojlanib borayotganini tasdiqlaydi. Mazkur sport turi bugungi kunda nafaqat professional



sport, balki jamiyatda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy faollikni oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Muhokama. Mazkur tadqiqot natijalari voleybol sport turining tarixiy shakllanishi, xalqaro miqyosda rivojlanishi va O‘zbekistondagi o‘sish jarayonini ko‘rsatdi hamda ushbu sport turining nafaqat jismoniy faoliyat, balki ijtimoiy, madaniy va institutsional ahamiyatini tahlil qilish imkonini berdi. Olingan ma’lumotlar shuni ko‘rsatdiki, voleybol qisqa tarixiy davr ichida oddiy o‘yin shaklidan global miqyosdagi keng ommalashgan sport turiga aylangan, bu esa uning asoschisi William G.Morgan tomonidan yaratilgan “Mintonet”dan bugungi zamonaviy voleybolgacha bo‘lgan rivojlanish bosqichlarining izchil va tizimli ekanligini tasdiqlaydi.

Tarixiy tahlillar shuni ko‘rsatdiki, voleybolning dastlabki qoidalari sodda bo‘lsa-da, u jismoniy tarbiya, jamoaviy hamkorlik va strategik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilgan. Bu jihat bugungi kunda ham ayni muddatda saqlanib qolgan, ya’ni zamonaviy voleybol o‘yinchilardan tezlik, chidamlilik, sakrash qobiliyati, reaksiya tezligi hamda jamoaviy birlikni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalari voleybolning nafaqat sport turi sifatida, balki yoshlarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishida ham katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi.

Xalqaro miqyosdagi rivojlanish tahlillari shuni isbotladiki, 1947 yilda tashkil etilgan “Federation Internationale de Volleyball” voleybolning global rivojlanishida markaziy rol o‘ynagan. Ushbu tashkilotning faoliyati qoidalarni standartlashtirish, musobaqalarni tartibga solish va milliy federatsiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish orqali voleybolni jahon sport tizimida mustahkamlashga xizmat qilgan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro federatsiyalarning tashkiliy va normativ faoliyati sportning global ommalashishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Olimpiya o‘yinlariga kiritilishi voleybolning rivojlanishidagi yana bir muhim omil sifatida ko‘rsatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 1964 yildan boshlab voleybol Olimpiya dasturiga kiritilgach, uning nufuzi, tomoshabopligi va xalqaro aloqalari keskin oshgan. Bu esa voleybolni nafaqat professional sport, balki global miqyosda mashhurligi oshgan jamoaviy sport turi sifatida mustahkamladi.

O‘zbekiston tajribasi esa voleybolning milliy darajada rivojlanishining izchil va bosqichma-bosqich amalga oshayotganini ko‘rsatadi. XX asrning 20-yillarida Toshkent, Farg‘ona va Qo‘qon hududlarida paydo bo‘lgan voleybol, dastlab havaskor darajada bo‘lgan bo‘lsa-da, keyinchalik rasmiy musobaqalar va jamoalar tashkil etilishi orqali tizimli sport turiga aylangan. Ayniqsa, 1934 yilda o‘zbek voleybolchilarining Moskvadagi musobaqalarda ishtirok etishi va 1938 yilda respublikada jamoalar sonining ortishi bu sport turining milliy miqyosda shakllanganini ko‘rsatadi. Tadqiqot shuni ham aniqladi: mustaqillik yillarida voleybolning rivojlanishi yangi bosqichga ko‘tarilgan, milliy chempionatlarning



muntazam o'tkazilishi va xalqaro aloqalarning kengayishi yoshlar va kattalar o'rtasida sportga bo'lgan qiziqishni oshirgan.

Shuningdek, natijalar voleybolning jismoniy tarbiya va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishdagi ahamiyatini ko'rsatdi. Maktablar, oliy ta'lim muassasalari va sport tashkilotlarida voleybol mashg'ulotlarining keng yo'lga qo'yilishi yoshlarning jismoniy rivojlanishi, jamoaviy ishlash ko'nikmalari va ijtimoiy faolligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu esa voleybolni nafaqat professional sport turi, balki sog'lom jamiyatni shakllantirish vositasi sifatida ham muhimligini tasdiqlaydi.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, voleybolning global va milliy rivojlanishida tarixiy, tashkiliy, institutsional va ijtimoiy omillar uyg'unlashib, bu sport turini dunyo va O'zbekiston miqyosida ommalashgan, jismoniy va ijtimoiy ahamiyatga ega faoliyatga aylantirgan. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari voleybolning kelajakda yanada rivojlanishi uchun xalqaro tajriba almashinuvi, zamonaviy infratuzilma yaratish va ayollar sportini rivojlantirish kabi strategik yo'nalishlar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Natijalar shuni ham ta'kidlaydiki, voleybol nafaqat professional sport, balki havaskor va jamoaviy faoliyat orqali odamlar o'rtasida sog'lom raqobat, jamoaviy hamjihatlik va ijtimoiy faollikni oshirishga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan voleybol ijtimoiy integratsiya va sog'lom turmush tarzini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot muhokamasi shuni ko'rsatadiki, voleybol sport turining tarixiy shakllanishi, xalqaro va milliy rivojlanishi hamda ijtimoiy ahamiyati bir-birini to'ldiruvchi omillar sifatida o'rganilishi uning zamonaviy holatini yanada chuqur tushunishga imkon beradi.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, voleybol sport turi qisqa tarixiy davr ichida oddiy o'yin shaklidan global miqyosdagi keng ommalashgan sport turiga aylangan. O'yinning dastlabki qoidalari va “Mintonet” davri voleybolning jamoaviy hamkorlik, tezlik, chidamlilik va strategik fikrlashni rivojlantirishga xizmat qilgan, zamonaviy qoidalar esa bu asosni mustahkamlab, sport turini yanada dinamik va tomoshabop qilgan.

Xalqaro miqyosda “Federation Internationale de Volleyball” tashkiloti va Olimpiya o'yinlariga kiritilishi voleybolning global rivojlanishida markaziy rol o'ynadi. Ushbu jarayon natijasida voleybol jahon miqyosida keng tarqaldi, xalqaro musobaqalar va milliy federatsiyalar faoliyati tizimlashdi, tomoshabinlar soni va sportga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Shu bilan birga, voleybol nafaqat professional sport, balki havaskor va jamoaviy faoliyat orqali ijtimoiy integratsiya va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilmoqda.

O'zbekiston misolida tadqiqot shuni ko'rsatdiki, voleybol XX asrning 20-yillaridan boshlab respublikamizda paydo bo'lgan va mustaqillik yillarida yanada rivojlanib, milliy chempionatlar, xalqaro turnirlar va yoshlar musobaqalari orqali



кeng ommalashgan. Shu bilan birga, voleybol жисмоний тарбия, yoshlar rivoji, gender tengligi va ijtimoiy faollikni oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kelajakda voleybolning rivojlanishida davlat va xususiy sektorlar hamkorligi, zamonaviy sport infratuzilmasini rivojlantirish, murabbiylar va yoshlarni tayyorlash tizimlarini takomillashtirish, shuningdek, xalqaro tajriba almashishning kengaytirilishi muhim rol o‘ynaydi. Bu esa nafaqat O‘zbekiston voleybolining xalqaro maydondagi mavqeini oshiradi, balki yoshlar orasida жисмоний faollik va sog‘lom turmush tarzini yanada targ‘ib qiladi, voleybolni ijtimoiy va sport jihatdan barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonxo‘jaev T, Xo‘jaev.F. “Harakatli o‘yinlar”. Toshkent. O‘qituvchi. 1992 y.
2. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Жисмоний тарбия asoslari va metodikasi Toshkent., O‘zbekiston Davlat жисмоний тарбия instituti, 2005 yil.
3. Xo‘jaev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B.”Sport va harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi”. TDPU nashriyoti. Toshkent. 2008.
4. Xo‘jaev F, Raximqulov K.D, Nigmanov B.B. “Harakatli o‘yinlar va uni o‘qitish metodikasi”. Cho‘lpon nashriyoti. Toshkent. 2011.
5. Ayrapetyans L.R., Pulatov A.A. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. Toshkent. 2012.

АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ВТОРОЙ ПЕРЕДАЧИ МЯЧА ДЛЯ ВЫПОЛНЕНИЯ АТАКУЮЩЕГО УДАРА У ВОЛЕЙБОЛИСТОВ ВЫСОКОЙ КВАЛИФИКАЦИИ

Абдулхаева Зульфияхон Ахмад кизи

Преподаватель

Узбекский государственный университет физической культуры и спорта

zulfiyaxonabdulxayeva6@gmail.com

Аннотация: Изучение технической и психологической подготовленности волейболистов высокой квалификации выявило недостаточный уровень их сформированности, что оказывает отрицательное влияние на выполнение передачи мяча для атакующего удара. Анализ результативности соревновательной деятельности волейболистов высокой квалификации показал недостаточно высокий её уровень: спортсменки в шести с лишним процентов случаев выполняют неточные передачи мяча, выполнение атакующего удара после которых затруднено. Анализ компонентов психологической и технической подготовленности и



проведение факторного анализа по Фишеру позволили установить достаточно высокую степень влияния психологической и технической подготовленности на результативность соревновательной деятельности волейболисток. Волейболистки, имеющие высокие показатели психологической и технической подготовленности, чаще выполняют адресные передачи мяча для атакующего удара.

Ключевые слова: Факторы, техническая и психологическая подготовленность, волейболистки, результативность, соревновательная деятельность, комплекс упражнений.

Abstract: The study of the technical and psychological readiness of highly qualified female volleyball players revealed an insufficient level of their formation, which has a negative impact on the performance of the ball passing for an attacking hit. An analysis of the effectiveness of the competitive activity of highly qualified volleyball players showed its insufficiently high level: in more than six percent of cases, female athletes perform inaccurate passes of the ball, after which it is difficult to perform an attacking blow. The analysis of the components of psychological and technical readiness and the factor analysis according to Fisher made it possible to establish a fairly high degree of influence of psychological and technical readiness on the effectiveness of the competitive activity of female volleyball players. Volleyball players with high rates of psychological and technical preparedness more often perform targeted passes of the ball for an attacking shot.

Key words: Factors, technical and psychological preparedness, female volleyball players, effectiveness, competitive activity, sets of exercise.

Annotatsiya: Yuqori malakali voleybolchi qizlarning texnik va psixologik tayyorgarligini o'rganish ularning yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatdi, bu esa hujum zarbasi uchun to'p uzatishni bajarishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori malakali voleybolchilarning musobaqa faoliyati samaradorligi tahlili uning yetarli darajada yuqori emasligini ko'rsatdi: olti foizdan ortiq hollarda sportchi ayollar to'pni noaniq uzatadilar, shundan so'ng hujum zarbasini amalga oshirish qiyin bo'ladi. Psixologik va texnik tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini tahlil qilish va Fisher bo'yicha omilli tahlil psixologik va texnik tayyorgarlikning voleybolchi qizlarning musobaqa faoliyati samaradorligiga ta'sirining ancha yuqori darajasini aniqlash imkonini berdi. Psixologik va texnik tayyorgarlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan voleybolchilar hujum zarbasi uchun to'pni maqsadli uzatishlarni ko'proq bajaradilar.

Kalit so'zlar: Omillar, texnik va psixologik tayyorgarlik, voleybolchi qizlar, samaradorlik, musobaqa faoliyati, mashqlar majmualari.

Введение. Фундаментом соревновательного процесса в волейболе выступает игровое взаимодействие, определяющее общую эффективность деятельности команды [1,2,4]. Высокая сложность игровых ситуаций



обусловлена необходимостью комбинировать технические приемы в динамике, что требует от волейболиста прецизионной точности движений и способности к мгновенному переключению внимания [8]. Данная специфика соревновательной деятельности формирует жесткие требования к психологическому профилю атлетов [6,8]. Теоретический анализ подтверждает, что такие параметры, как оперативность реакции, тактическое мышление и рефлексивность, выступают детерминантами успешного сотрудничества игроков на площадке [8,9].

Вопросы оптимизации игровых связей при построении атакующих действий достаточно подробно освещены в литературе [5,7,10]. При этом ключевым вектором исследований остается взаимодействие в системе “связующий — нападающий”. Вместе с тем, высокий ранг соревнований предъявляет экстремальные требования к психологической подготовленности, которая отличается динамичностью и может иметь дефицитарный уровень непосредственно в период турнира [8,10]. Далеко не каждый спортсмен справляется с подобным давлением, так как избыточная психическая нагрузка дезорганизует состояние и поведение игрока. Вследствие этого многие волейболисты оказываются неспособными в полной мере реализовать накопленный потенциал в условиях стресса.

Спортивная практика доказывает, что итоговые достижения атлетов в равной степени определяются техническим мастерством и психологической устойчивостью. Данное положение сохраняет свою актуальность и для текущего исследования факторов, детерминирующих результативность соревновательной деятельности в современном волейболе.

Цель исследования – теоретическое и экспериментальное обоснование комплекса упражнений с использованием тренажерных средств, направленных на совершенствование качества выполнения вторых передач мяча для нападающего удара в волейболе.

Задачи:

1. Изучить особенности выполнения передач на нападающий удар волейболистками в соревновательной деятельности.
2. Выявить уровень технической и психологической подготовленности волейболисток высокой квалификации и их влияние на игровое взаимодействие при передаче мяча для атакующего удара в волейболе.
3. Теоретически и экспериментально обосновать методику совершенствования второй передачи мяча для выполнения нападающего удара с использованием тренажерных средств.

Гипотеза исследования. Предполагается, что использование комплексов упражнений с применением специальных тренажерных средств в тренировочном процессе в волейболе позволяет повысить эффективность



выполнения передач мяча для нападающих ударов квалифицированными волейболистками.

Методы и организация исследования: Теоретический анализ специальной литературы; анализ протоколов соревнований; тестирование, опрос; методы математической статистики.

Исследование проводилось в течение игрового сезона 2024-2025. На первом этапе была собрана и проанализирована информация о результативности спортивной деятельности команды “АДПИ”, выступающей в высшей лиге. Объектом анализа была результативность вторых передач мяча для нападающего удара. Определены ошибки, которые влияют на качество выполнения передач мяча. Наблюдение велось в два этапа – не посредственно на игре с помощью видеоматериала и статистических данных, предоставленным тренером-аналитиком команды. При анализе выявлено, что команда показывает высокий процент брака при выполнении передач на нападающий удар. Основные ошибочные действия, встречающиеся при выполнении передач: неправильный выход под мяч (техническая ошибка); неправильная постановка рук при выполнении передач (техническая ошибка); несвоевременный выход под мяч (двигательная ошибка); недостаточное приложение усилий при выполнении передачи (двигательная ошибка); неуверенность при выполнении передачи мяча сверху, замена на нижнюю передачу (психологическая ошибка, ведущая к технической ошибке). На втором этапе проведено тестирование экспериментальной группы – команды “АДПИ”, собраны и проанализированы результаты игровой деятельности команды “БухДУ”, выступающей в роли контрольной группы. Изучался уровень развития технических действий при выполнении верхней передачи мяча, психологических качеств, влияющих на результативность выполнения передачи (реакции на движущийся объект, помехоустойчивости, оценки времени, воспроизведения мышечного усилия), которые по нашим предположениям играют важную роль в эффективности выполнения второй передачи. На третьем этапе исследования разработан комплекс упражнений для совершенствования вторых передач мяча и внедрен в тренировочный процесс экспериментальной группы.

Результаты исследования и их обсуждение. Анализ результативности соревновательной деятельности волейболисток команды “АДПИ” (г. Андижан), выступающий в Высшей лиге Чемпионата республики Узбекистан, проводился посредством визуального наблюдения во время проведения матчей, изучения статистических протоколов и видеоматериала. Была сделана выборка 10 матчей ЧрУз, из протоколов выделялись только атакующие действия – нападающие удары после приема подачи и защитных действий. Результаты представлены в таблице 1. Выявлялись передачи мяча на нападающий удар, которые были разделены по следующим градациям:



передачи, выполненные на групповой блок – передачи мяча, после которых нападающий игрок проводит атаку на двойном или тройном блоке. Самое большое количество передач на нападающий удар выполнялось командой на групповой блок соперника, в среднем за игру было выполнено 86,2 передачи (85,4%). Передачи, выполненные на одиночный блок: игроки команды атаковали против одиночного блока в среднем за игру 7,5 раз (7,4%).

Таблица 1

Показатели вторых передач мяча для нападающего удара волейболисток команды “АДПИ” в сезоне 2024-2025 гг.

Игры	Вторые передачи команды					
	Общее количество	На групповой блок, %	На одиночный блок, %	На удар без блока, %	После которых затруднено выполнение атакующего удара, %	Техническая ошибка, %
1	104	80,7	11,5	0	4,8	2,8
2	137	85,4	7,2	0,7	2,9	3,6
3	100	86	8,0	0	2	4
4	99	90,9	5,0	2	1	0
5	69	73,9	4,3	0	8,6	2,8
6	91	86,9	8,7	0	3,2	1
7	88	89,73	3,4	0	2,2	4,5
8	77	89,6	3,8	0	3,8	2,5
9	139	84,1	7,9	0	5	2,8
10	105	85,7	8,5	0,9	4,7	0
$\bar{X}$	100,9	85,4	7,4	0,3	3,7	2,4

Передачи, выполненные на нападающий удар без блока, такие передачи в современном волейболе являются редкостью, зависят от двух факторов – мастерства связующего игрока и ошибок соперника при постановке блока (потеря своего нападающего игрока). Данных передач было выполнено всего 4, среднее значение составляет 0,4 (0,3%).

Передачи, с которых невозможно выполнить нападающий удар, передачи, ошибочные по высоте, траектории, расстоянию к нападающему игроку, после которых можно выполнить другой прием игры, например, верхнюю или нижнюю передачу (перевод) на сторону противника. Таких передач наблюдалось в среднем 3,8 (3,7%). Ошибки при выполнении передач можно было не считать как критические, после них розыгрыш мяча продолжается.

Передачи, выполненные с техническими ошибками, которые во время игры были зафиксированы судьями, а также ошибочные передачи по визуальному наблюдению. В выборке показано, что за игру выполняется в среднем 2,5 (2,4%) передачи с ошибками.



В анализе показателей выполнения передач нас интересуют ошибочные действия игроков, при устранении которых результат точности выполнения этого технического приема повысится. Неудачными можно считать передачи, после которых невозможно выполнить нападающий удар и передачи с техническими ошибками. Так, во время каждой игры показатели ошибок – не возможно провести нападающий удар – варьируются от 7 (5%) до 1 (1%) их среднее значение составляет 3,8 (3,7%). Для команды высокого класса такое количество ошибочных действий является недопустимым. Передачи, выполненные с техническими ошибками, также имеют высокие показатели в среднем за 10 игр 2,5 (2,4%), это указывает на слабый уровень технической подготовленности игроков данной команды. Во время просмотра визуально было выявлено, что эти ошибки во многом являются ключевыми в партии или игре.

Мы полагаем, что на ошибочные действия при передаче мяча для атакующего удара могут влиять следующие психологические качества: реакция на движущийся объект, помехоустойчивость, оценка времени, воспроизведение мышечных усилий, а также техническая подготовленность игроков. Результаты тестирования психологических качеств и технической подготовленности представлены в таблице 2.

Таблица 2

**Уровень развития психологических качеств и технической подготовленности
волейболисток команды «АДПИ»**

Игрок , №	Тест на точность, балл	Реакция на движущийся объект, радиан		Воспроизведе ние мышечного усилия, 20 кг		Оценка чувства времени, 10 с		Помехоустрой чивость, балл	
1	54	9,7	низкий	22	высокий	12,4	переоценка	54	в/сред.
2	50	12	низкий	17	низкий	14	переоценка	45	средний
3	42	7,9	низкий	21	высокий	9,5	переоценка	40	средний
4	58	13	низкий	22	высокий	11,9	переоценка	50	в/сред.
5	45	10	низкий	25	средний	12	переоценка	40	средний
6	33	9,5	низкий	18	низкий	7,3	переоценка	46	в/сред.
7	39	14	низкий	21	высокий	10,9	переоценка	49	в/сред.
8	48	11	низкий	24	средний	11,7	переоценка	51	в/сред.
9	51	8,3	низкий	22	высокий	8,7	переоценка	39	средний
10	43	10	низкий	21	высокий	7,6	переоценка	43	средний

Примечание: Тест на точность выполнения передач в мишень, максимальное количество набранных баллов в тесте может составлять 120 баллов.

Результаты исследования технической подготовленности игроков свидетельствуют о неудовлетворительном уровне точности выполнения основного элемента – верхней передачи мяча для нападающего удара. Низкие



результаты показали игроки, выступающие в амплуа доигровщика и центральный блокирующий. Игроки этих амплуа по показателям тестирования не справляются с выполнением передач на расстояние 6 метров и передачи в прыжке. Видимо, это зависит от уровня развития психологических качеств.

Проведенное исследование игроков команды «АДПИ» выявило недостаточный уровень технической и психологической подготовленности игроков для ведения успешной соревновательной деятельности. Группа волейболисток показала низкие результаты по технической под готовке (выполнению передачи мяча в мишень) и психологической подготовленности (оценка времени, реакция на движущийся объект). Положительные значения были зафиксированы по тестам на воспроизведение мышечного усилия и помехоустойчивости. Предполагается, что повышение уровня развития психологических качеств будет способствовать решению проблемы точности выполнения пере дачи мяча для нападающего удара. Работа над правильным выполнением технического приема – второй передачи мяча для нападающего удара может значительно повлиять на успешность соревновательной деятельности волейболисток.

Чтобы способствовать повышению результативности передачи мяча для атакующего удара нами было разработано комплекс упражнений с использованием тренажерных средств. При разработке комплекса упражнений использовался сопряженный метод тренировки, позволяющий совершенствовать не только технику выполнения приема, но и развивать двигательные и психологические качества, такие как: реакция на движущийся объект, чувство времени, чувство мышечного усилия. Используемые тренажерные средства: кольцо, барьеры, координационная лестница. Ниже в качестве примера приводится один из комплексов упражнений.

Комплекс упражнений, направленных на совершенствование точности передач мяча сверху двумя руками с использованием тренажерных средств (скамейки, барьеры, кольцо).

1. И.п.: игроки находятся в первой зоне, барьеры располагаются на боковой линии, расстояние между барьерами – 30-40 см, игроки оббегают барьеры, после этого выполняют передачу из зоны два в зону четыре с подбрасывания мяча тренером. Цель упражнения – попасть в кольцо.

2. И.п.: игроки находятся в зоне два, барьеры расставляются в трехметровой зоне, после выполнения прыжков на двух ногах через 3 барьера разной высоты с подбрасыванием мяча тренером передача в зону 4. Цель упражнения – попасть в кольцо.



3. И.п.: игроки находятся в первой зоне, барьеры располагаются на боковой линии, расстояние между барьерами – 30-40 см, выполняются перемещения приставными шагами между барьерами. Выполняется передача мяча из зоны два в зону 4 после подбрасывания мяча тренером. Цель упражнения – попасть в кольцо.

4. И.п.: игроки находятся в зоне два, по сигналу тренера игрок выполняет кувырок вперед - прыжок через барьер - рывок к мячу набросанному тренером на 3х метровую линию, выполняется передача в кольцо, находящиеся в зоне четыре. Цель упражнения – попасть в кольцо.

5. И.п.: стоя у сетки в зоне два – имитация блокирования – имитация ухода в защиту в зону один – выполнения падения – прыжок через барьер – передача мяча в зону четыре с подбрасывания мяча тренером. Цель упражнения – попасть в кольцо.

6. И.п.: стоя в защите в первой зоне – выполнение приема мяча с удара тренера – подбор мяча с падением влево – ускорение к сетке - передача из зоны три в зону четыре с подбрасывания мяча тренером. Цель упражнения – попасть в кольцо.

7. И.п.: стоя в защите в первой зоне – прием на падающего удара от тренера – оббегание барьера, находящегося на расстоянии 3-4 метра от зоны один – передача мяча в четвертую зону с подбрасывания мяча тренером. Цель упражнения – попасть в кольцо.

8. И.п.: стоя на лицевой линии в первой зоне – выполнить 2 кувырка вперед – ускорение к сетке, прыжки боком на двух ногах через скамейку – передача в зону четыре с подбрасывания мяча тренером. Цель упражнения – попасть в кольцо.

Комплекс упражнений применялся весь период подготовки команды сезона 2024-2025 гг. и выполнялся частями по мере усвоения упражнения и были включены в различные этапы подготовки команды.

Исследование проводилось на базе команды «АДПИ», выступающей в Высшей лиге Чемпионата республики Узбекистан по волейболу среди женских команд. В эксперименте приняли участие 12 волейболисток, составивших экспериментальную группу, 5 игроков входили в списки сборной команды. Контрольной группой выступала команда «БухДУ» (г. Бухара), выступающая в Высшей лиге Чемпионата республики Узбекистан по волейболу среди женских команд, 6 игроков команды входили в списки сборной Узбекистана. Результаты команды «БухДУ» были взяты для сравнения соревновательной деятельности обеих команд (таблица 3).



Таблица 3

Результаты внедрения разработанной методики для развития психологических
качеств и технической подготовленности

Игро к №	Те с т балл	Реакция на движущийся объект, радиан		Воспроизведе ние мышечного усилия, 20 кг		Оценка чувства времени, 10 с		Помехоустройч ивость, балл	
1	54	9,7	низкий	22	высокий	12,4	переоценка	54	в/сред.
	85	8,5	низкий	21	высокий	10,5	переоценка	58	высокий
2	50	12	низкий	17	низкий	14	переоценка	45	средний
	79	10	низкий	19	высокий	12,3	переоценка	49	высокий
3	42	7,9	средний	21	высокий	9,5	переоценка	40	средний
	68	6,5	средний	20	высокий	11	переоценка	45	средний
4	58	13	низкий	22	высокий	11,9	переоценка	50	в/сред.
	71	10	низкий	24	высокий	11	переоценка	54	высокий
5	45	10	низкий	25	средний	12	переоценка	40	средний
	63	9	низкий	22	средний	10,5	переоценка	45	высокий
6	33	9,5	низкий	18	низкий	7,3	переоценка	46	в/сред.
	66	7,8	низкий	20	высокий	8,5	переоценка	48	высокий
7	39	14	низкий	21	высокий	10,9	переоценка	49	в/сред.
	67	9	низкий	20	высокий	11	переоценка	50	высокий
8	48	11	низкий	24	средний	11,7	переоценка	51	в/сред.
	77	8,5	низкий	21	высокий	11	переоценка	53	высокий
9	51	8,3	низкий	22	высокий	8,7	переоценка	39	средний
	79	6,9	низкий	22	высокий	9,0	переоценка	43	средний
10	43	10	низкий	21	высокий	7,6	переоценка	43	средний
	74	8,2	низкий	20	высокий	8,5	переоценка	45	высокий

Примечание: Тест на точность выполнения передач в мишень, максимальное количество набранных баллов в тесте может составлять 120 баллов.

2 верхний ряд строки- показатели в начале эксперимента, нижний ряд строки- показатели после эксперимента.

Анализ результатов экспериментальной группы – «АДПИ» показал повышение уровня развития психологических качеств и технической подготовленности спортсменок. Повысилась точность выполнения технического приема – верхней передачи на нападающий удар. Показатели теста на реакцию на движущийся объект в группе не изменились, возможно, это обусловлено свойствами нервной системы спортсменок. Данные теста на воспроизведение мышечных усилий остались на стабильно высоком уровне, большинство игроков команды улучшили свои показатели, которые до эксперимента имели невысокий уровень. Уровень развития помехоустойчивости и воспроизведения мышечного усилия повысился. Положительный прирост был выявлен в выполнении теста на техническую подготовленность: количество баллов в тесте значительно увеличилось.



Tadqiqot metodologiyasi. Jismonan yetuk-baquvvat, sog‘lom, irodali va ruhan mustahkamlangan farzandlarni voyaga yetkazishda jismoniy tarbiya fanining ahamiyati nihoyatda katta. Jismoniy tarbiya dars jarayonidagi nazariy bilimlar boshlang‘ich sinf yoshidagi o‘quvchilarni ruhiy kamolotga yetaklab, ma’nan chiniqtiradi, ziyrakligi va zukkoligini yanada oshiradi. Ta’lim jarayonida o‘quvchi yoshlarni shaxsiy va ovqatlanish gigiyenasi, kun tartibni aniq qilib rejalashtirish, ertalabki badantarbiya mashqlarning foydasi haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

Demak, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini qiziqarli, mazmunli tashkil etish uchun har bir jismoniy tarbiya o‘qituvchi yanada mas’uliyatli, ijodkor va yangilikka intiluvchan, yangi metodlarni qo‘llash mahoratiga ega bo‘lishi zarur. Bu esa o‘qituvchilarimizning zamonaviy innovatsiya va metodlarni qo‘llagan holda yangi o‘quv yiliga puxta tayyorlanishini talab etadi.

Ishning maqsadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilar bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya darslarining sifat samaradorligini oshirish usullari aniqlash.

Tahlil va natijalar. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya darslarining samaradorligini oshirishdagi muammolarni o‘rganish. Jismoniy tarbiya darsining vazifalarini hal etishga oid ta’limning metodlarini o‘rganish. Boshlang‘ich ta’limda jismoniy tarbiya o‘qituvchilari va shu yo‘nalishdagi o‘quvchi-talabalarning pedagogik mahoratlarini shakllantirish va nazariy bilim hamda amaliy



ko‘nikmalarini mustahkamlash kadrlar tayyorlash hamda barkamol avlodni tarbiyalab yetishtirishning muhim vazifalaridan biridir.

Jismoniy sifatlarni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, egiluvchanlik, chidamlilik) tarbiyalash uslubiyatini quyidagicha amalga oshiriladi.

Bular:

1. Kuch va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
2. Kuch qobiliyatlarining rivojlanish darajasini va namoyon bo‘lishini belgilovchi omillari;
3. Tezlik – kuch qobiliyatlari;
4. Portlash kuch;
5. Kuch qobiliyatlarini rivojlantirish usuliyati;
6. Tezkorlik va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
7. Tezkorlik qobiliyat haqida tushuncha;
8. Tezkorlik qobiliyat darajasini rivojlantirish omillari va tezlik qobiliyatlarining paydo bo‘lishi;
9. Tezkorlik harakatini sezishini rivojlantirish;
10. Yakka harakat tezligi va harakat chastotasining rivojlanish usuliyati;
11. Tezkorlik qobiliyatining paydo bo‘lishida majmuaviy shakllarning rivojlanish usuliyati.
12. Egiluvchanlikni va uni tarbiyalash uslub hamda vositalari;
13. Egiluvchanlik haqida tushuncha berishi;
14. Egiluvchanlikning turlari va o‘lchov mezon;
15. Egiluvchanlikning rivojlanish darajasi aniqlovchi omillar [4].

Mamlakatimiz umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida sport zallari va maydonchalari, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini sport anjomlarining yetarliligi va sifati bilan bog‘liqdir. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya fandan ko‘zlangan maqsadga erishishning asosiy omili — jismoniy tarbiya darsini to‘g‘ri tashkil etish bilan ham bog‘liqdir. Buning uchun jismoniy tarbiya o‘qituvchi quyidagilarga e‘tibor qaratishi kerak. Jismoniy tarbiya darslari uch qismga bo‘linadi.

Tayyorlov qismi — (10–12 daqiqa) o‘quvchilarni saflash, sog‘lig‘ini bilish jarayoni. Bu vaqtda navbatchining axboroti tinglanadi. O‘quvchilarning shaxsiy gigiyenasi tekshiriladi. Yangi mavzuga oid texnika xavfsizligi qoidalari bilan tanishtirilib, saf mashqlari, safda yurish navbat bilan bajariladigan umumrivojlantiruvchi mashqlar va maxsus rivojlantiruvchi mashqlar boshlang‘ich sinflarda asosiy mazmuni hisoblanadi. Birinchi sinf o‘quvchilarida gimnastika dars mashg‘ulotlari so‘nggi yillarda darslarni tashkil qilish usullari, pedagogik mahoratini ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilish natijalariga ko‘ra quydagilarni e‘tirof etish mumkin. Yosh bolalarning bo‘yiga ko‘ra safda turishining da‘vat etishi, kichik yoshdagi bolalar eng avvalo o‘zaro tanish-yaqinlari bilan yonma–yon turish ma‘qul



bo‘ladi. Safda yomna-yon qator oldinma-keyin mashqlarining bajarishga o‘rgatish. “Saflan”, “bir qatorga tur” kabi ibora buyruqlari bajartirish zarur. O‘quv yilining 2-choragida o‘quvchilarning qatorga o‘rgatish mumkin. “Saflan”, “qatordan tarqal” buyrug‘ini ham tarqal iborasi bilan tushuntirish va amalda takrorlash lozim.

Ikki qator safga turish va tarqalib ya’ni saflanishi; vazifalarni eng avvalo aholida bajartirishini ma’lum ko‘nikmalarini hosil qilinadigan keyingina boshqa o‘yin mashqi va sport turlarda yengil atletika harakatli o‘yinlar va boshqalardan ham qo‘llanish lozim. Safida, qatorda yurish umumrivojlanturuvchi jismoniy mashqlarini gimnastika mashqlarni bajarish uslubga e’tiborini jalb etish maqsadda jismoniy tarbiya o‘qituvchi sergak va xushyor bo‘lishi to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatish lozim.

Jismoniy tarbiya darsning asosiy qismi (25–28 daqiqa)da rejadagi mavzu bo‘yicha sport turining rivojlantiruvchi mashqlari bajariladi. Bu vaqtda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining boshqa mavzu yoki o‘yinlar bilan chalg‘ishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim [5].

Yakuniy qism — (3–5 daqiqa) dars tugash jarayondagi saflanish davrlari. Bu vaqtda o‘quvchi yoshlarini nafas rostlovchi mashqlarni, diqqatni jamlashga e’tibor qaratiladi. Shu asnoda mashqlarini to‘g‘ri bajargan o‘quvchilar rag‘batlantirilsa, darsda faolligi sezilmagan, bolalarning kamchiliklari ko‘rsatib o‘tiladi. Jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning jarohat olmaganini tekshiradi. Keyin uyga vazifa beriladi.

Jismoniy tarbiya darslari asosan amaliy mashg‘ulotlaridan iborat bo‘lgani uchun o‘qitishda “Musobaqa”, “Ko‘rsatmali”, “O‘yin” kabi innovatsion pedagogik texnologiya va metodlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Masalan, “Musobaqa” usuli. Ushbu usulida sinfdagi o‘quvchilarni jamoalariga bo‘lib, ular o‘rtasida musobaqalar (quvnoq startlar, harakatli, milliy va sport o‘yinlari ko‘rinishida) tashkil etiladi. Bu usul o‘quvchilarning harakat tizimlarini rivojlantirib, g‘oliblik uchun kurashish ishtiyoqini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda shuni aytish mumkinki, jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi fanining maqsadi hamda vazifalari bo‘lajak kadrlarga jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi bo‘yicha atroflicha va chuqur kasbiy bilimlar berish. Kelajakdagi ish faoliyatlarida kasbiy-amaliy ahamiyat kasb etuvchi jismoniy madaniyat bo‘yicha kasbiy bilimlar, ko‘nikma va malakalar hamda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalana olish haqida nazariy ma’lumotlarga ega ekanligini aniqlash va baholashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. 2020 yil 23-sentabr, O‘RQ-637-son <http://lex.uz>
2. O‘zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida”gi Qonuni (yangi tahriri). 2015 yil 5-sentabr. 174-son “Xalq so‘zi” gazetasi.



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884 sonli Qarori. <http://lex.uz>

4. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent 2005 yil.

5. Madaminov A.E. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi darslik Toshkent: 2025 yil.

6. Livisskiy A.N Maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent: 1995 yil.

BOSHLANG‘ICH MAKTAB YOSHIDAGI SUZUVCHILARNING MASHG‘ULOT JARAYONIDA AYLANMA TRENIROVKA METODINING AHAMIYATI

Hajiboyeva Mohinur Umrbekovna

Magistrant

Urganch davlat pedagogika instituti

hajiboyevamohinur4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich maktab yoshidagi suzuvchilarning mashg‘ulot jarayonida aylanma trenirovka metodining ahamiyati, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida o‘quvchilar faoliyatini tashkil qilish bo‘yicha so‘z yuritilgan. Yoshlarni tarbiyalash va ularga zamonaviy bilimlar berishning sifatini oshirish hamda ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar tufayli o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishi va malakalarini shakllantirish hamda barkamol shaxsni tarbiyalash uchun barcha shart sharoitlarni tubdan yaxshilash. Jismoniy sifatlardan koordinatsion qobiliyatni shakllantirish uchun maktablarda jismoniy tarbiya darslarining o‘quv jarayonida ilmiy asoslangan holda yangi texnologiyalardan foydalanish haqida fikr va mulohaza yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jismoniy sifat, maktab, jismoniy mashq, aylanma trenirovka, jismoniy tarbiya, koordinatsion, tezkorlik, chalqancha suzish, kuch, aerob, chalqancha usul, erkin usul, mokksimon yugurish.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность круговой тренировки в процессе подготовки пловцов начальной школы, а также организация учебной деятельности учащихся на уроках физкультуры. Повышение качества образования молодежи и обеспечение её современными знаниями, а также коренное улучшение всех условий для физического развития и формирования навыков молодого поколения, которое растет благодаря проводимым реформам в системе образования, и воспитание всесторонне развитой личности. В целях формирования координационных способностей на основе физических качеств были проведены научно-



теоретические исследования по использованию новых технологий в учебном процессе уроков физической культуры в школах.

Ключевые слова: *Физическая подготовка, школа, физические упражнения, круговая тренировка, физическое воспитание, координация, скорость, плавание на спине, сила, аэробика, плавание на спине, вольный стиль, бег Макси-Саймона.*

Abstract: *This article discusses the importance of the circuit training method in the training process of elementary school swimmers, as well as the organization of students' activities in physical education classes. Improving the quality of education for young people and providing them with modern knowledge, as well as radically improving all conditions for the physical development and skill development of the younger generation, which is growing thanks to ongoing reforms in the education system, and nurturing a well-rounded individual. In order to develop coordination skills based on physical qualities, scientific and theoretical studies were conducted on the use of new technologies in the educational process of physical education lessons in schools.*

Keywords: *Physical fitness, school, physical exercise, circuit training, physical education, coordination, speed, backstroke, strength, aerobics, backstroke, freestyle, maxi-simon running.*

Kirish. Respublikamizda jismoniy tarbiya o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil qilish va o‘tkazishni takomillashtirish masalalariga katta e’tibor qaratilmoqda, biroq ilmiy-uslubiy adabiyotlarda bolalarda koordinatsion qobiliyatini shakllantirish hamda bolalar organizmi shakllanishining turli yosh davrlarida uni takomillashtirish xususiyatlari yetarlicha yoritilmagan. Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohatlar tufayli o‘sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy rivojlanishi va malakalarini shakllantirish hamda barkamol shaxsni tarbiyalash uchun barcha shart sharoitlarni tubdan yaxshilash, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida umumta’lim maktabida ta’lim sifatini oshirish uchun salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Yuqoridagilardan kelib chiqib, koordinatsion qobiliyatni shakllantirish uchun maktablarda jismoniy tarbiya darslarining o‘quv jarayonida ilmiy asoslangan holda yangi texnologiyalardan foydalanish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilar orasidan jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini jalb qilgan holda iste’dodli yoshlarni saralab olish (seleksiya) hamda bolalar va o‘smirlar sport maktablari sport zahirasini shakllantirish maqsadida keyinchalik mintaqaviy sport musobaqalarida ishtirok etish uchun sinfdan tashqari sport to‘garaklari va seksiyalari mashg‘ulotlarini tashkil etish.

Tadqiqot metodologiyasi va mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Keyingi vaqtlarda bir qancha olimlar tomonidan maktab yoshidagi bolalarning harakat faolligini oshirish muammolari tadqiq qilinmoqda. Ushbu ishda Bogen M.M., Germanov G.N., Zemsova I.I., Ignatov S.N., Imas E., Mingazova Y.G.,



Mixaylov N.G., Muxanova N.V., Sokolov E.S., Solodkov A.S. kabi mualliflarning ishlari o'rganildi. Bolalarning jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida koordinatsion qobiliyatini shakllantirish masalalari O'zbekistonlik olimlardan Z.S.Artiqov, M.A.Aslanova, B.G'.Boybobayev, F.A.Kerimov, R.S.Salomov, T.S.Usmonxodjayev, N.K.Ro'zmetovlar ishlarida, shuningdek, bolalik yoshida koordinatsion qobiliyatni shakllantirishda tayanch-harakat apparatining anatomik, fiziologik va funksional xususiyatlari R.D.Xalmuhamaedov, D.D.Sharipova, A.K.Eshayev va boshqa olimlarning ilmiy izlanishlarida o'z aksini topgan. Jismoniy tarbiya darslarida o'quvchilar qobiliyatlarini har tomonlama tarbiyalashning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan.

Tahlil va natijalar. Biz tomonimizdan qilingan tadqiqotimizda aylanma trenirovka metodini qo'llash samarasini aniqlash uchun 2 ta (nazorat va tadqiqot) guruhda taqqoslash o'tkazildi. Nazorat guruhi suzuvchilarni tayyorlash uchun qabul qilingan dastur bo'yicha shug'ullandilar, tadqiqot guruhi biz tomonimizdan ishlab chiqilgan metodika asosida shug'ullandilar. Tadqiqot va nazorat guruhlaridagi jismoniy tayyorgarlik va sport natijalarining o'zgarish samaradorligi taklif qilingan metodika asosida aniqlandi.

Biz suzuvchilarni kuch sifatlarini rivojlanish darajasini turnikda tortilish soni bilan aniqladik. Tezkorlikni rivojlanish darajasini 30 metr masofaga yugurish natijasi bilan aniqladik. Koordinatsion qobiliyatlarni aniqlash uchun 3x10 m. ga mokksimon yugurish, tezkor-kuch sifatlarini aniqlash uchun turgan joydan uzunlikka sakrashdan foydalandik.

Aerob chidamlilikni 6 daqiqa davomida yugurish natijasi bilan aniqladik. Shug'ullanuvchilarning umurtqa pog'ona harakatchanligini o'tirgan holatda gavyani oldinga chuqur egish bilan o'lchandi.

Tadqiqot boshida nazorat va tadqiqot guruhi suzuvchilarining jismoniy tayyorgarlik natijalari tahlilida ishonarlik darajasida farq aniqlanmadi(1-jadval).

1-jadval

Tadqiqot boshida o'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

№	Testlar	Tadqiqot guruhi	Nazorat guruhi	Styudent me'zoni	Ishonarlilik ko'rsatkichi
1	30 m. ga yugurish (soniya)	6,62±0,08	6,48±0,36	0,39	> 0,05
2	Mokksimon yugurish 3x10 m (soniya)	9,71±0,15	9,91±0,18	0,86	> 0,05
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	142±2,23	144±2,61	1,68	> 0,05
4	Oldinga egilish (sm)	5,2±0,34	3,8±0,61	1,71	> 0,05
5	Turnikda tortilish	3,7±0,79	2,7±0,26	1,21	> 0,05
6	6 daqiqa davomida yugurish (m)	992±32	979±47	0,24	> 0,05



Biz o'quv-trenirovka mashg'ulotlarida boshlang'ich maktab yoshidagi suzuvchilarni jismoniy sifatlarini rivojlantirish uchun ishlab chiqilgan mashqlar majmuasidan foydalandik. Tadqiqot yakunida tadqiqot ishtirokchilarining jismoniy sifatleri bo'yicha nazorat testi o'tkazdik (2-jadval).

2-jadval

Tadqiqot yakunida boshlang'ich maktab yoshidagi suzuvchilarni jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

№	Testlar	Tadqiqot guruhi	Nazorat guruhi	Styudent me'zoni	Ishonarlilik ko'rsatkichi
1	30 m. ga yugurish (soniya)	5,27±0,15	5,69±0,08	2,48	< 0,05
2	Mokisimon yugurish 3x10 m (soniya)	8,62±0,12	9,08±0,08	3,20	< 0,05
3	Turgan joydan uzunlikka sakrash (sm)	174±3,75	167±4,14	1,26	> 0,05
4	Oldinga egilish (sm)	8,5±0,41	5,7±0,72	3,39	< 0,05
5	Turnikda tortilish	6,7±0,83	3,9±0,62	2,72	< 0,05
6	6 daqiqa davomida yugurish (m)	1141±18	1033±33	2,88	< 0,05

Biz tomonimizdan tadqiqot yakunida boshlang'ich maktab yoshidagi suzuvchilarning jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari tahlili shundan iboratki, tadqiqot guruhidagi bolalar jismoniy sifatleri rivojlanishi tadqiqotdan keyin yuqori maromda o'sganligidan dalolat berdi. 30 m. ga yugurishda, 3x10 m. ga mokisimon yugurishda, egiluvchanlik mashqlari, turnikda tortilish va 6 daqiqali yugurishda tadqiqot guruhi suzuvchilari nazorat guruhi suzuvchilariga nisbatan yuqori ishonarli (<0,05) natija ko'rsatdi, turgan joydan uzunlikka sakrash ko'rsatkichi (<0,05) ga ishonarsiz.

Tadqiqot va nazorat guruhlari suzuvchilarining sport trenirovkasi musobaqalashuv darajasi tadqiqot boshida 100 m. ga chalqancha va erkin usulda suzish natijalari bilan baholandi (3-jadval).

Tadqiqot boshida nazorat guruhi suzuvchilari tomonidan ko'rsatilgan natijalar darajasi tadqiqot guruhi tarbiyalanuvchilariga nisbatan guruhlar orasida o'rtacha bo'lib sezilarsiz darajada farq qildi.

3-jadval

Tadqiqot boshida suzuvchilarning musobaqalashuv tayyorgarlik ko'rsatkichlari

№	Testlar	Tadqiqot guruhi	Nazorat guruhi	Styudent me'zoni	Ishonarlilik ko'rsatkichi
1	Erkin usulda 100 m. ga suzish (daq.soniya)	2,15±0,22	2,16±0,37	0,11	> 0,05
2	Chalqancha usulda 100 m. ga suzish (daq.s)	2,24±0,25	2,22±0,29	0,48	> 0,05



Tadqiqot boshida nazorat va tadqiqot guruhlarining 100 m. ga erkin usulda va 100 m. ga chalqancha suzish natijalari tahlili ko‘rsatdiki ularning ishonarliligida farq aniqlanmadi.

Tadqiqot va nazorat guruhi suzuvchilarining musobaqalashuv tayyorgarligi natijalari tahlili ko‘rsatdiki, tadqiqot jarayonida nazorat guruhiga nisbatan tadqiqot guruhi suzuvchilari natijalari asta-sekin o‘sganligidan dalolat berdi (4-jadval).

4-jadval

Tadqiqot yakunida boshlang‘ich maktab yoshidagi suzuvchilarning tayyorgarlik ko‘rsatkichlari

№	Testlar	Tadqiqot guruhi	Nazorat guruhi	Student me‘zoni	Ishonarlilik ko‘rsatkichi
1	Erkin usulda 100 m. ga suzish (daq.soniya)	2,12±0,28	2,16±0,31	2,47	< 0,05
2	Chalqancha usulda 100 m. ga suzish (daq.s)	2,19±0,24	2,22±0,34	3,24	< 0,05

100 m. ga erkin usulda va 100 m. ga chalqancha suzish usulida o‘tkazilgan tadqiqot yakunida tadqiqot guruhlarini suzuvchilarining musobaqalashuv test natijalarini taqqoslaganda ma‘lum bo‘ldiki, tadqiqot guruhi suzuvchilari nazorat guruhi suzuvchilaridan ($r < 0,05$) ishonarlilik darajada ustunligini ko‘rsatdi.

Boshlang‘ich maktab yoshidagi suzuvchilarni jismoniy va funksional tayyorgarligini tadqiq qilish trenirovka jarayonida qo‘llaniladigan metodga bog‘liq ravishda aylanma trenirovka metodining ta‘sir tavsifi to‘laqonli va samarali ekanligidan dalolat beradi.

Kuch sifatlarining rivojlanishi baland turnikda tortilish soni bilan aniqlandi. Tezkorlikni rivojlanish darajasi 30 m. ga yugurish bilan aniqlandi, shuningdek, tezkor-kuch sifatlarini aniqlash uchun turgan joydan uzunlikka sakrashdan, koordinatsion qobilyatlarni aniqlashda 3x10 m. ga mokksimon yugurishdan foydalanildi. Aerob chidamlilik 6 daqiqali yugurish natijalari bilan aniqlandi. Shug‘ullanuvchilarning umurtqa pog‘onasi harakatchanligi o‘tirgan holda gavdani oldinga chuqur egish bilan aniqlandi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi suzuvchilarning sport natijalarining rivojlanish darajasi 100 m. ga erkin usulda va 100 m. ga chalqancha suzish usulida suzish natijasi bilan aniqlandi.

O‘tkazilgan tadqiqot natijasida quyidagi natijalar olindi. Ikkita guruhda ham barcha test natijalari ko‘rsatkichlarining yaxshilandi, ammo, tadqiqot guruhida tayyorgarlik ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori. Tadqiqot guruhi ustunligi 30 m. ga yugurishda namoyon bo‘lib, natija ($P < 0,05$) yaxshilandi, 3x10 m. ga mokksimon yugurishda natija ($P < 0,05$), egiluvchanlik mashqlarida natija ($P < 0,05$) oshdi va turnikda tortilish mashqida 3 marta ishonarlilik darajasi ($P < 0,05$) ga, 6 daqiqali yugurishda natija ($P < 0,05$) yaxshilandi. Tadqiqot guruhi sportchilarining chalqancha suzish natijasining o‘sishi 10,83 %, erkin usulda suzishda 12,56 % ni tashkil qildi.



Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda ilmiy adabiy manbalar va amaliy tajribalar shundan dalolat berdiki, suzuvchilarni tayyorlashning dastlabki bosqichi trenirovka metodikasi yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi, shuningdek, suzuvchilarning yosh xususiyatlari va zamonaviy sport talablariga mos emasligini ko‘rsatdi. O‘tkazilgan tahlil natijasida boshlang‘ich maktab yoshidagi suzuvchilar uchun ishlab chiqilgan majmualar va aylanma trenirovkaning tashkiliy-uslubiy asoslari suzishga tayyorlashning maqsad va vazifalariga mos holda mashg‘ulot mazmunini tizimli o‘zlashtirishga imkon yaratib trenirovka jarayonini takomillashtiradi.

Biz tomonimizdan aylanma trenirovka metodiga asoslangan boshlang‘ich maktab yoshidagi suzuvchilar organizmiga ta’sir imkoni ko‘p bo‘lgan trenirovka metodi ishlab chiqildi. Ushbu metodika jismoniy mashqlardan tashkiliy – uslubiy jihatdan foydalanishning samarali shakli va metodi hisoblanadi. Aylanma trenirovka majmuasini tuzilishi dastlab o‘rganilgan harakat bilan bog‘liq qiyin bo‘lmagan, suzish malakalarini o‘zlashtirishga tayyorlovchi va yondostiruvchi shakldagi, shuningdek, yondostiruvchi va boshqa sport turlari elementlarini o‘z tarkibiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5368-son farmoni. Toshkent. 2018-yil 5-mart. (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 06.03.2018 y., 06/18/5368/0851-son).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 25.01.2020y., 07/20/5924/0081-son).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni (*Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi*, 31.10.2020 y., 06/20/6099/1450-son).
4. Jismoniy tarbiya va sport sohasidagi me’yoriy-huquqiy hujjatlar to‘plami. Toshkent. 2011-y.-131 b.
5. Maxkamjanov K, Salomov R, Ikramov I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Darslik. T.: “Iqtisod moliya”, 2008.- 18 b.
6. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik, 1-jild.T.: “ITA PRESS”, 2015 -9 b.
7. Jammатов J, Ro‘zmetov N. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi (Jismoniy qobiliyatlar). O‘quv qo‘llanma. “Barkamol fayz media”, 2020.
8. Abdullaev A., Xonkeldiev Sh. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. O‘quv qo‘llanma. Toshkent., O‘z DJTI, 2005 y.



9. Ашмарин Б.А. Теория и методики физического воспитания. Учебник. М.: «Просвещение» 1990, -30 с.
10. Абзалов Р.А, Абзалов Н.И. Теория и методика физической культуры и спорта. Учебное пособие. Казан, изд-во “Вестфалика”, 2013. -35 с.
11. Валетов М. Р. Эффективност круговой тренировки в физической подготовке спортсменов 9—11 лет в настольном теннисе / М. Р. Валетов // Физическая культура. Спорт. Туризм. Двигательная рекреация. — 2021. — Т. 6, № 4. — С. 61—66.
12. Дорошенко С.А, Муллер А.Б. Настольный теннис/ Учебное пособие для студентов и преподавателей нефизкультурных вузов. // Сост. С.А.Дорошенко, А.Б. Муллер; Красноярск, КГТУ; 2000 120 с.
13. Жужиков, В.Г. Наиболее приемлемый. Об организации занятий по экстенсивно-интервальному методу круговой тренировки / В.Г.Жужиков.- Физкультура в школе 1971, №11.
14. Мамбетов Ж.М., Керимов Н.А. Контроль и анализ соревновательной деятельности в спортивной борьбе. Методические рекомендации. – Ташкент, 1989, С.5-8.
15. Команов В.В. Тренировочный процесс в настольном теннисе / В.В.Команов. // М.: Сов. спорт, 2014. — 392 с.

YOSH TENNISCHILARGA O‘YIN TEXNIKASINI O‘RGATISH USULLARI

Fayziboyev Temur Shavkatovich

Magistrant

Oriental universiteti Samarqand kampusi

temurfayziboyev@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada yosh tennischilarga o‘yin texnikasini o‘rgatishning pedagogik va metodik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tennis sport turi texnik jihatdan murakkab sport turlaridan biri bo‘lib, unda sportchining harakat koordinatsiyasi, tezkorligi, zarba aniqligi va taktik fikrlashi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida texnik ko‘nikmalarni shakllantirish murabbiylarning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot jarayonida yosh tennischilarning o‘yin texnikasini o‘rgatishning asosiy metodlari, mashg‘ulotlarni tashkil etish tamoyillari, texnik elementlarni shakllantirish bosqichlari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganildi. Shuningdek, sportchilarning yosh xususiyatlari, jismoniy rivojlanish darajasi va psixologik tayyorgarligi hisobga olingan holda mashg‘ulotlarni tashkil etishning samarali yo‘llari yoritildi.



Kalit soʻzlar: *Tennis, yosh sportchilar, oʻyin texnikasi, sport pedagogikasi, texnik tayyorgarlik, sport mashgʻulotlari metodikasi, zarba texnikasi, sport tayyorgarligi.*

Аннотация: В данной статье проводится научный анализ педагогических и методических основ обучения технике игры юных теннисистов. Теннис является одним из технически сложных видов спорта, в котором важное значение имеют координация движений, скорость, точность ударов и тактическое мышление спортсмена. В связи с этим формирование технических навыков в процессе подготовки юных спортсменов является одной из важнейших задач тренеров. В ходе исследования были изучены основные методы обучения технике игры, принципы организации тренировок, этапы формирования технических элементов, а также возможности использования современных педагогических технологий. Кроме того, освещены эффективные способы организации тренировочного процесса с учетом возрастных особенностей, уровня физического развития и психологической подготовки спортсменов.

Ключевые слова: Теннис, юные спортсмены, техника игры, спортивная педагогика, техническая подготовка, методика спортивных тренировок, техника ударов, спортивная подготовка.

Abstract: This article provides a scientific analysis of the pedagogical and methodological foundations for teaching game techniques to young tennis players. Tennis is one of the technically complex sports, where the athlete's coordination of movements, speed, accuracy of strikes, and tactical thinking are of great importance. Therefore, the development of technical skills during the training process of young athletes is one of the most significant tasks for coaches. In the course of the study, the main methods of teaching tennis techniques, principles of organizing training sessions, stages of forming technical elements, and the possibilities of using modern pedagogical technologies were examined. Furthermore, effective ways of organizing training sessions, taking into account the age-related characteristics, level of physical development, and psychological preparation of athletes, are highlighted.

Keywords: tennis, young athletes, game technique, sports pedagogy, technical training, methodology of sports training, stroke technique, sports preparation.

Kirish. Zamonaviy sport tizimida yosh sportchilarni tayyorlash masalasi dolzarb ilmiy va amaliy muammolardan biri hisoblanadi. Ayniqsa tennis sport turida yuqori natijalarga erishish uchun sportchilarning texnik tayyorgarligi muhim ahamiyat kasb etadi. Tennis oʻyinida zarbalar aniqligi, harakatlarning tezligi va koordinatsiyasi sportchining muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biridir.

Tennis sporti yuqori darajadagi koordinatsion qobiliyatni talab qiladigan sport turidir. Sportchi qisqa vaqt ichida qaror qabul qilishi, zarba yoʻnalishini aniqlashi va



to'pga mos ravishda harakatlanishi kerak. Shu sababli yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida texnik elementlarni to'g'ri o'rgatish katta ahamiyatga ega [2].

Sport nazariyasi va metodikasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida texnik ko'nikmalarni shakllantirish bosqichma-bosqich amalga oshirilishi lozim. Dastlab sportchilar umumiy jismoniy tayyorgarlikni rivojlantiradi, keyinchalik esa murakkab texnik elementlarni o'zlashtiradi [3,84].

Yosh tennischilarni tayyorlash jarayonida murabbiy sportchining yosh xususiyatlari, jismoniy rivojlanish darajasi va psixologik holatini hisobga olishi kerak. Chunki sportchilar bir xil tezlikda rivojlanmaydi. Shu sababli individual yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Sport pedagogikasi yosh sportchilarni tayyorlash jarayonini ilmiy asosda tashkil etishni talab qiladi. Ushbu jarayon murakkab tizim bo'lib, unda jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarlik elementlari o'zaro uyg'un holda rivojlantiriladi.

Yosh sportchilarni tayyorlashda quyidagi pedagogik tamoyillar muhim hisoblanadi: tizimlilik, bosqichma-bosqichlik, individual yondashuv, ongli va faol ishtirok, uzluksizlik.

Tizimlilik tamoyili mashg'ulot jarayonining muntazam tashkil etilishini anglatadi. Sportchi muntazam mashg'ulot olib borsa, texnik ko'nikmalar tezroq shakllanadi. Bosqichma-bosqichlik tamoyili esa texnik elementlarni oddiydan murakkabga qarab o'rgatishni nazarda tutadi. Individual yondashuv tamoyili yosh sportchilar bilan ishlashda ayniqsa muhim hisoblanadi. Chunki har bir sportchining jismoniy imkoniyatlari va o'rganish tezligi turlicha bo'ladi [4].

Tennis sport turida texnik tayyorgarlik bir nechta asosiy elementlardan iborat. Ushbu elementlar quyidagilardan tashkil topgan:

- raketkani ushlash texnikasi;
- zarba berish texnikasi;
- servis zarbasi;
- harakatlanish texnikasi;
- himoya va hujum zarbalari.

Raketkani to'g'ri ushlash tennis texnikasining eng muhim bosqichi hisoblanadi. Agar sportchi raketkani noto'g'ri ushlasa, zarbaning kuchi va aniqligi pasayadi. Shu sababli mashg'ulotlarning dastlabki bosqichida aynan shu elementga alohida e'tibor qaratiladi. Forehand zarbasi tennis o'yinida eng ko'p qo'llaniladigan zarbalardan biridir. Ushbu zarbani bajarishda sportchining tana muvozanati, zarba momenti va zarba amplitudasi muhim ahamiyatga ega. Backhand zarbasi esa murakkab texnik element bo'lib, uni o'rgatish ko'proq mashg'ulot va takrorlashni talab etadi.

Yosh sportchilarga tennis texnikasini o'rgatishda bir qator metodlardan foydalaniladi. Bular:



Tushuntirish va ko'rsatish usuli. Bu usul sport pedagogikasida eng keng qo'llaniladigan metodlardan biridir. Murabbiy mashqni avvalo og'zaki tushuntiradi, keyin esa uni amaliy tarzda ko'rsatadi. Yosh sportchilar ko'rish orqali harakatni tezroq o'zlashtiradilar.

Takrorlash usuli. Texnik ko'nikmalarni shakllantirish uchun mashqlarni ko'p marotaba takrorlash zarur. Takrorlash natijasida harakatlar avtomatlashtiriladi va sportchi zarbalarni aniq bajarishni o'rganadi [5].

O'yin usuli. Yosh sportchilar bilan ishlashda o'yin usuli juda samarali hisoblanadi. Bu usul sportchilarning qiziqishini oshiradi va mashg'ulot jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Muammoli o'qitish usuli. Ushbu metod sportchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Murabbiy sportchilarga turli o'yin vaziyatlarini beradi va ularni mustaqil hal qilishga undaydi.

Mashg'ulot jarayoni odatda uch asosiy bosqichdan iborat bo'ladi: tayyorlov qismi, asosiy qism, yakuniy qism

Tayyorlov qismida sportchilar umumiy jismoniy mashqlarni bajaradilar. Bu mushaklarni ishga tayyorlashga yordam beradi.

Asosiy qismda tennis texnikasining asosiy elementlari o'rgatiladi. Ushbu bosqich mashg'ulotning eng muhim qismi hisoblanadi.

Yakuniy qismda esa mushaklarni bo'shashtiruvchi mashqlar bajariladi.

Tennis sportida quyidagi jismoniy sifatlar muhim hisoblanadi: tezkorlik, koordinatsiya, chidamlilik, kuch, chaqqonlik.

Bu sifatlar sportchining texnik harakatlarini samarali bajarishiga yordam beradi. Masalan, tezkorlik tennis o'yinida juda muhim hisoblanadi. Sportchi qisqa vaqt ichida to'pga yetib borishi kerak. Koordinatsiya esa zarbalarni aniq bajarish uchun zarur.

Ta'kidlash zarurki, yosh sportchilarni tayyorlash jarayonida psixologik tayyorgarlik muhim rol o'ynaydi. Sportchi o'ziga ishonsa va mashg'ulotlarga motivatsiya bilan yondashsa, texnik elementlarni tezroq o'zlashtiradi. Murabbiy sportchilarni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlashi kerak. Ayniqsa yosh sportchilar bilan ishlashda rag'batlantirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. Yosh tennischilarni tayyorlash jarayonida o'yin texnikasini to'g'ri shakllantirish sportchining kelajakdagi natijalarini belgilovchi muhim omillardan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yosh sportchilarga tennis texnikasini o'rgatishda kompleks yondashuv qo'llanilishi lozim. Bunda pedagogik metodlar, psixologik tayyorgarlik hamda zamonaviy texnologiyalar uyg'un holda qo'llanilganda mashg'ulot samaradorligi oshadi. Shuningdek, mashg'ulotlarni bosqichma-bosqich tashkil etish, individual yondashuv hamda o'yin uslubidagi mashqlardan foydalanish yosh sportchilarning sport mahoratini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Kelajakda yosh tennischilarni tayyorlash metodikasini yanada



takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bomp T. Theory and Methodology of Training. – Champaign: Human Kinetics, 2015. – 368 p.
2. Crespo M., Reid M. Coaching Beginner and Intermediate Tennis Players. – London: ITF Publishing, 2018. – 220 p.
3. Platonov V.N. Sport tayyorgarligi nazariyasi. – Kiev: Olimpiyskaya literatura, 2017. – 680 b.
4. Matveyev L.P. Sport mashg‘ulotlari nazariyasi. – Moskva: Fizkultura i sport, 2016. – 543 b.
5. Groppel J. High Tech Tennis. – Champaign: Leisure Press, 2014. – 290 p.
6. Ozolin N.G. Sport trenirovkasi nazariyasi. – Moskva: Fizkultura i sport, 2013. – 320 b.
7. Brown J. Tennis: Steps to Success. – Illinois: Human Kinetics, 2019. – 240 p.
8. Weinberg R., Gould D. Foundations of Sport and Exercise Psychology. – Champaign: Human Kinetics, 2019. – 624 p.

KISHI JASTAGÍ OQÍWShÍLARDÍŇ HÁREKET SAPALARÍN RAWAJLANDÍRÍW

Ibrayimov Azizbek Xojabek og‘li

Stajyor oqıtıwshı

Ózbekstan mámleketlik dene tarbiya hám sport universiteti Nókis filiali

Erejepov Islam Yusupovich

Stajyor oqıtıwshı

Ózbekstan mámleketlik dene tarbiya hám sport universiteti Nókis filiali

i.x.azizbek@gmail.com

Annotaciya: Sport rezervin tayarlaw dúnyanıń kóplegen mámleketlerinde siyasattıń tiykarǵı baǵdarlarınan birine aylandı. Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń 05.11.2021-jıldıǵı “Ózbekstan sportshıların XXXIII jazǵı Olimpiada hám XVII Paralimpiya oyunlarına hár tárepleme tayarlaw haqqında”ǵı PQ-5281-sanlı qararına tiykarlanıp sport rezervlerin tayarlaw 2024-jılǵa Parij qalası (Franciya), “demografiya” baǵdarı boyınsha milliy maqsetke erisiw boyınsha strategiyalıq wazıypalardan biri bolıp esaplanadı.

Tayanış sózler: Paralimpiya oyunları, demografiya, sport rezervi, Olimpiada, strategiyalıq wazıypalar, Ózbekstan sportshılar.



Аннотация: Подготовка спортивного резерва стала одним из приоритетов политики во многих странах мира. В соответствии с Постановлением Президента Республики Узбекистан от 05.11.2021 г. No ПП-5281 “О всесторонней подготовке спортсменов Узбекистана к XXXIII летним Олимпийским и XVII Паралимпийским играм” подготовка спортивного резерва является одной из стратегических задач по достижению национальной цели в 2024 году по направлению “Париж (Франция)”, “демография”.

Ключевые слова: Паралимпийские игры, демография, спортивный резерв, Олимпиада, стратегические задачи, спортсмены Узбекистана.

Abstract: The training of the sports reserve has become one of the priorities of policy in many countries around the world. In accordance with the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated November 5, 2021, No. PP-5281 "On the comprehensive preparation of Uzbekistan's athletes for the XXXIII Summer Olympic and XVII Paralympic Games," the training of a sports reserve is one of the strategic tasks for achieving the national goal in 2024 in the "Paris (France) " and "demography" directions.

Keywords: Paralympic Games, demography, sports reserve, Olympics, strategic tasks, athletes of Uzbekistan.

Kirisiw. Kishi jastağı oqıwshılardıń háreket qásiyetlerin rawajlandırıw búgingi kúnde dene tárbiyası ھam salamat turmıs tárizin rawajlandırıwda áhmiyetli máselelerden biri bolıp esaplanadı. Jaslardıń fizikalıq belsendiligi olardıń salamatlıǵı, ruwxıy jaǵdayı ھam ulıwma rawajlanıwı menen tikkeley baylanıslı. Ózbekstan Respublikası Prezidenti tárepinen qabıl etilgen qararlarda mektep ھam joqarı oqıw orınlarında sporttı rawajlandırıw, jaslardı fizikalıq belsendilikke tartıw ھam salamat turmıs tárizin úgit-násiyatlaw máseleleri ayrıqsha atap ótilgen. Usı qararlar tiykarında mekteplerde májbúriy ھam iqtıyarlı sport shınıǵıwları, hár qıylı jarıslar ھam fizikalıq rawajlanıwǵa baǵdarlangan baǵdarlamalar ámelge asırılmaqta. Háreket qábiletin arttırıw tek ǵana fizikalıq kúsh ھam shıdamlılıqtı jaqsılap qoymastan, al sociallıq kónlikpelerdi rawajlandırıw, stressti azaytıw ھam toparda islesiw qábiletin arttırıwǵa da járdem beredi. Sol sebepli, kishi jastağı oqıwshılardıń háreket sapasın rawajlandırıw ھam olardı sportqa tartıw Prezident qararlari menen bekkemlengen sistemalı jumıslar arqalı ámelge asırılmaqta.

Ádebiyatlar analizi ھam metodlar. Kishi jastağı oqıwshılardıń háreket sapasın rawajlandırıw máselesi kóplegen ilimpazlar ھam qanıgeler tárepinen úyrenilgen. Izertlewler sonı kórsetedi, turaqlı fizikalıq shınıǵıwlar jaslardıń den-sawlıǵı, shıdamlılıǵı, háreket kónlikpeleri ھam ruwxıy jaǵdayın jaqsılaydı (Gujalovskiy, 1978; Alifirov, 2015). Sonıń menen birge, hár qıylı sport túrleri, oynılar ھam individual jantasıw háreket kónlikpelerin nátiyjeli arttırıwǵa járdem beredi (Akopyan, 2015; Virupayev, 2018). Ózbekstan Respublikası Prezidentiniń



qararlari hám nızamları mektep hám joqarı oqıw orınlarında sporttı rawajlandırıw, jarıslar hám fizikalıq shınıǵıwlarǵa jaslardı tartıwdı támiyinleydi (Ózbekistan Respublikası “Dene tárbiyası hám sport haqqında”ǵı nızam, 2000; PF-4947, 2017-jıl; PQ-5281, 2021). Usı ádebiyatlardı tallaw sonı kórsetedi, shınıǵıwlardıń túrli intensivligi, aldınǵı metodlar hám interaktiv qatnas jaslardıń háreket sapasın nátiyjeli rawajlandırıwda úlken áhmiyetke iye.

Dodalaw. Bul maqalada kishi jastaǵı oqıwshılardıń háreket sapasın rawajlandırıw máselesi ilimiy kózqarastan dodalandı. Izertlewler sonı kórsetedi, turaqlı fizikalıq shınıǵıwlar jaslardıń fizikalıq rawajlanıwı, shıdamlılıǵı, beyimlesiwshenligi hám ruwxıy jaǵdayına sezilerli dárejede unamlı tásir kórsetedi (Gujalovskiy, 1978; Alifirov, 2015). Sonıń menen birge, hár qıylı sport túrleri hám oyın shınıǵıwları individual qatnas penen birgelikte háreket kónlikpelerin arttırıwda nátiyjeli ekenligi atap ótilgen (Akopyan, 2015; Virupayev, 2018).

Dodalaw nátiyjeleri sonı kórsetedi, oqıwshılardıń háreket aktivligin arttırıw ushın shınıǵıwlardıń hár qıylı intensivligi, shınıǵıwlardı sistemalı qollanıw hám interaktiv metodlardan paydalanıw úlken áhmiyetke iye. Solay etip, aldınǵı metodikalıq qatnaslar hám izertlew tiykarındaǵı usınıslar kishi jastaǵı oqıwshılardıń háreket sapasın nátiyjeli rawajlandırıw imkaniyatın beredi.

Fizikalıq háreketleriniń tiykarǵı túrleri 6-10 jaslardaǵı balalarda ózgerislerge ushıraydı. Bul jasta sekiriwdıń anıqlıǵınıń eń úlken ósiwi belgilengen. Qosımshalardıń beyimlesiwshenligin arttıradı. Juwırıw hám sekiriwde ushıw fazası esabına adım uzınlıǵı da artadı, juwırıw tezligi júriw tezliginen tórt márte artadı, sekiriwdıń biyikligi hám uzınlıǵı artadı. 7-8 jasta nıshanaǵa soqqı beriwdiń anıqlıǵı sezilerli dárejede jaqsılanadı hám toptı ılaqtırıw hám ılaqtırıwda berilgen baǵıttan awısıwlar azayadı [16]. Sonı atap ótiw kerek, úlken jastaǵı ul hám qızlarda keńislik hám waqıttaǵı háreketlerdi bahalaw qábiletin xarakterlewshi kórsetkishler sezilerli dárejede jaqsılanadı. Baslawısh mektep jasındaǵı balalar ushın eń qıyın wazıypa bulshıq etlerdiń háreket dárejesin parıqlaw bolıp esaplanadı. Tek 8-9 jaslı balalar ushın keńislik-waqtılıq qásiyetlerdi bir pútin bahalaw múmkin. 1-4-klass ul hám qız balalardı oqıtıwǵa kózqarasta kosmoslıq háreketlerdi basqarıw qábileti hám shınıǵıw procesinde bulshıq etlerdiń kúshin durıs bólistiriw qábileti parıqlanadı. Pedagogikalıq tásirler eń úlken nátiyjelerdi beretuǵın mektep oqıwshılarınıń háreket qásiyetlerin rawajlandırıw dáwirlerin ótkerip jibermew kerek. Bizge belgili, qural qábiletiniń intensiv ósiwi 7 jastan 12 jasqa shekem júz beredi.

Bul dáwirde oqıtıwshı hám trenerlerdiń tiykarǵı wazıypası - háreket kónlikpeleri hám pazıyetlerin qalıplestiriwge waqıt ajratıw bolıp tabıladı. Pedagogikalıq ámeliyat sonı kórsetedi, háreket qábiletleriniń eń tabıslı rawajlanıwı tek kishi oqıwshı kóp háreketlengende, hár qıylı háreketlerdi jetilistirgende júz beredi. Bul jasta ul hám qız balalarda háreket sıpatları túrlishe rawajlanadı.

Unamlı ilgerilewler yamasa eń jaqsı jetiskenliklerge erisiwińiz múmkin bolǵan belgili bir sezgir dáwirler bar. J.K.Xolodovtıń atap ótiwinshe, uzaq múddetli oqıtıw



basqışlarında oqıw procesiniń tiykarǵı baǵdarı fizikalıq pazıyletlerdi rawajlandırıwdıń sezgir dáwirlerin esapqa alǵan halda belgilenedi, 1-keste de keltirilgen.

Mektep oqıwshılarınıń boyı hám salmaǵı kórsetkishleri hám fizikalıq sıpatları rawajlanıwınıń shama menen seziwshen (sezgir) dáwirleri (J.K. Xolodov boyınsha) [14].

Boy-salmaq hám fizikalıq sapalar kórsetkishleri	Jası, jıllarda										
	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17
Boy						+	+	+	+		
Salmaq						+	+	+	+		
Maksimal kúsh							+	+		+	+
Tezlik		+	+	+					+	+	+
Tezlik-kúshi sapaları			+	+	+	+	+	+	+		
Shıdamlılıq (aerobik imkaniyatları)		+	+						+	+	+
Tezliktiń-shıdamlılıǵı									+	+	+
Aerobik imkaniyatları (glikolitik)									+	+	+
Iyiliwshenlik	+	+	+	+		+	+				
Koordinatsion qabiletleri			+	+	+	+					
Teńsalmaqlılıq	+	+	+	+	+	+	+	+			

J.Q.Xolodovtıń pikirinshe, názik fizikalıq sıpatlardı óz aldına rawajlandırıw menen bir qatarda, bul jasta aktiv rawajlanbaǵan sıpatlardı tárbiyalawǵa trenerler itibar beriwı maqsetke muwapıq. Ulıwma shıdamlılıq hám tezlik qábiletlerin rawajlandırıwda, ulıwma shıdamlılıq hám kúshti rawajlandırıwda teń salmaqlılıqtı baqlaw ayırıqsha áhmiyetli, yaǵnıy. túrli fiziologiyalıq mexanizmlerge tiykarlangan sıpatlar. Qızlarda fizikalıq sıpatlardıń qalıplesiwiniń sezgir dáwirleri bir jıl aldın júz beredi. Uzaq múddetli shınıǵıw procesin aqlıǵa muwapıq dúziw ushın belgili sport túri boyınsha eń joqarı sport nátiyjelerine erisiw ushın zárúr bolǵan waqıttı esapqa alıw kerek. Qaǵıyda boyınsha, qábiletli sportshılar ózleriniń birinshi úlken jetiskenliklerine 4-6 jıldan keyin erisedi hám eń joqarı jetiskenliklerge 7-9 jıllıq arnawlı tayarlıqtan keyin erisedi.

Ámeliyat sonı kórsetedi, 1-2-klass ul balaları ushın eń nátiyjeli sabaqlar, olardıń mazmunı tezlikte rawajlandırıwshı shınıǵıwlar bolıp tabıladı. Keleshekte 2-4-klasslarda ulıwma teńsalmaqlılıq, shıdamlılıq hám beyimlesiwshenlik sıyaqlı fizikalıq sıpatlar eń jaqsı qalıpleseı. Baslawısh mekteptegi qızlar barlıq klasslarda tezlik shınıǵıwlarına iye bolıwı kerek, sonıń menen birge olardıń shıdamlılıǵı 2-klastan jaqsı rawajlanadı. Baslawısh mektep jasında klastaǵı qızlar dinamikalıq, statikalıq hám ulıwma shıdamlılıqtı rawajlandırıwı teńsalmaqlılıq shınıǵıwları hám shınıǵıwlarına iye bolıwı kerek. Al tek baslawısh mekteptiń aqırında qızlar úlken bulshıq et toparları ushın kúsh shınıǵıwların orınlawı múmkin. Kishi jastaǵı oqıwshılardıń motorlıq sıpatların jáne de tabıslı rawajlandırıw hám shınıǵıwlardıń



mazmunın anıqlaw ushın muǵallimler hám ustazlar usınıs etilgen 2-kestegе itibar qaratuwı múmkin.

Sport túrleri boyınsha fizikalıq sıpatlar hám organizmniń fizikalıq kórsetkishlerine tásiри shaxmat, sport oynıları hám gúrestegi 3-kestede keltirilgen, olar sportshılardıń háreket sıpatların rawajlandırıwda da esapqa alınıwı kerek.

Baslawish klass oqıwshıları ushın dene tárbiyası sabaqlarında áhmiyet beriliwi kerek bolǵan fizikalıq pazyyletleri

Jası, jıllarda	Fizikalıq sapalar						Iyiliwsheńlik	Teń salmaq- lılıq
	Kúsh	Tezlik	Tezlik- kúshi sapası	Shıdamlılıq				
				Statik	Dinamik	Ulıwmalıq		
Ul balalar								
7-8		+				+		
8-9		+				+		
9-10							+	+
10-11						+		
Qız balalar								
7-8		+		+				+
8-9		+		+				+
9-10		+	+	+	+	+		+
10-11	+	+	+	+	+	+		

A.A.Gujalovskiynıń pikirinshe, kúsh 9 jasqa shekem júdá intensiv rawajlanadı hám keyin onıń rawajlanıwı tómeydi. 11 jastan baslap kúsh turaqlı túrde ósip baradı, ásirese 13 jastan 14-16 jasqa shekem. Oqıtıwshı bul maǵlıwmatlardan óz jumıs ámeliyatında paydalanıwı, oqıw materialnı durıs rejlestiriwı kerek.

Fizikalıq sapalar hám fizikanıń iskerlikke tásiри

Fizikalıq sapalar hám gewde parametrleri	Sporttıń tásiр dárejesi		
	Shaxmat	Sport oynıları	Sport gúresi
Tezlik qabiyletleri	1	3	3
Muskuller kúshi	1	2	3
Vestibulyar turaqlılıq	2	-	3
Shıdamlılıq	3	2	3
Biyimlesiwsheńlik	1	1	2
Koordinatsion qabiyletler	3	3	2
Qáddi-qáwmet	1	-	1

Esletpe: 3 - sezilerli tásiр; 2 - ortasha tásiр; 1 - áhmiyetsiz tásiр.

1-hám 2-klasslarda jeterli muǵdarda bar bolǵan hár túrli bulshıq et toparları ushın kúsh shınıǵıwları 3-4 klasslarda biraz arttırılıwı kerek. Tezlik 8 jastan 10 jasqa shekem artadı hám 12 jasqa shekem ósiwde dawam etedi, keyin onıń rawajlanıwı tómeydi hám hátte biraz tómeydi, muǵallim tezlikti rawajlandırıw, olardı hár



qiyli ashıq oynılarǵa jedel kirgiziw ushın paydalanıladı hám trener bunı esapqa alıwı kerek, bul dáwirde kóbirek shınıǵıwlar islew kerek. Kishi mektep oqıwshısınıń motor funkciyasın úyreniw bala denesiniń basqa turmıslıq funkciyalarınan ajıralıp tura almaydı. Tiykargı qural sıpatlarınıń rawajlanıwı kishi jastaǵı mektep oqıwshılarınıń motor rejimine tikkeley baylanıslı. Balanıń motor funkciyası tikkeley morfologiyalıq kórsetkishler, sonday-aq, bulshıq et jumısı, háreketti qadaǵalaw kórsetkishleri menen belgilenedi. Bul jasta tiykargı qural kónlikpelerin qalıplestiriw júdá áhmiyetli: juwırıw, sekiriw, atıw, tawǵa shıǵıw hám júriw. Háreket iskerliginiń bul quramlıq bólimleri kishi jastaǵı oqıwshınıń háreket funkciyasın belgileytuǵın tiykargı komponentler bolıp tabıladı. Háreket funkciyasınıń belgili normalarınan ol yamasa bwl baǵdardaǵı awısıw balanıń fizikalıq rawajlanıwınıń keshigiwin yamasa joqarı dárejesin kórsetedi. Bul jasta koordinacion qábiletlerin rawajlandırıw ushın qolaylı. 7 jastan 10 jasqa shekem bolǵan balalarda koordinacion qábilet kórsetkishleriniń tábiyiy ósiwi qızlarda ortasha 63%, ul balalarda bolsa 56% ti quraydı. Baslawısh mektep jasında koordinaciya qábiletlerin rawajlandırıwdıń tiykargı qurallarınan biri sıpatında ashıq oynılardan paydalanıw kerek, olar balalardıń psixofiziologiyalıq funkciyaların hám aqılıy pazıyetlerin sezilerli dárejede jaqsılaydı. 6-10 jasta ulıwma shıdamlılıqtı rawajlandırıw ushın jaqsı shártler bar. Bul jastaǵı er balalarda ulıwma shıdamlılıqtı rawajlandırıw ushın eń úlken ósiw dáwiri 7-11 jıl. Baslanǵısh mektep jasında beyimlesiwdiń rawajlanıwı ligamentli apparatlardıń joqarı sozılıwı hám arqa miy háreketsheńligi menen támiyinlenedi. Bul jasta iyiliwsheńlikti rawajlandırıw ushın tiykargı qurallar sozılıw shınıǵıwları bolıp, olar statikalıq (hár qıylı poziciyalarda maksimal amplitudanı saqlap turıw) hám dinamikalıq (báhárli, terbeliw háreketleri) xarakterge iye bolıwı múmkin. Beyimlesiwdiń erisilgen dárejesin alıw hám saqlap qalıw ushın onı turaqlı túrde uslap turıw kerek, sonıń ushın klassta hám úyde beyimlesiwdi rawajlandırıw ushın shınıǵıwları balalar ushın komplekslerge úlken kólemde kirgiziw kerek.

4. Fraser-Thomas J., Côté J., Deakin J. (2005). *Youth sport programs: An avenue to foster positive youth development*. Physical Education & Sport Pedagogy, 10(1), 19–40.
5. Matveev L.P. (1991). *Theory and Methodology of Physical Culture*. Moscow: Progress Publishers.
6. Abdullayev A. (2020). *Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi*. Tashkent: Ózbekistan mámleketlik dene tárbiya hám sport universiteti baspası.
7. Xo'jayev F. (2019). *Sport menejmenti va marketingi*. Tashkent: Fan va texnologiya.
8. Karimov I.A. (2015). *Joqarı mánawiyat - jeńilmes kúsh*. Tashkent: Ma'naviyat.

JISMONIY MADANIYAT VA SPORT FANINI O'QITISHDAGI INNOVATSIYALAR VA ILG'OR TAJRIBALAR

Yusupbayeva Amangul Saparbayevna
O'qituvchi
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
a.yusupbayeva@cspu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqola “Ta’lim berishning ilg’or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o’quv-uslubiy majmualarni yaratish va o’quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash” umumiy o’rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, ilg’or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini unumdorligini oshiradi, o’quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o’quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o’zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko’nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o’qituvchi va o’quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko’rsatiladi. “Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va qishloqda zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish bo’yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz o’zining ijobiy samarasini bermoqda”. Shu ma’noda ilg’or pedagogik texnologiyalarni amalda joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limda texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta’sir etuvchi va uning samaradorligini, bir butunligini va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan



hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimining insonparvarlashuvi, demokratlashuvi va yangi texnologiyalarning kiritilishi pedagogika fani oldiga ta’limning mazmuni, tuzilishi, rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va texnologiyasini aniqlashdek murakkab vazifalarni qo‘ydi. Bu vazifalarni hal qilish bir qancha muammolarni keltirib chiqardi.

Kalit so‘zlar: *Jismoniy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, ilg‘or tajribalar, interfaol, yangilik yaratish, zamonaviy, tezkor o‘shish, didaktik mashina, mustaqil fikirlash.*

Аннотация: *Данная статья определена как одна из основных задач общего среднего образования "Создание передовых педагогических технологий обучения, современных учебно-методических комплексов и дидактическое обеспечение учебно-воспитательного процесса." Действительно, передовые педагогические технологии повышают продуктивность образовательного процесса, формируют процесс самостоятельного мышления учащихся, повышают у учащихся стремление и интерес к знаниям, формируют навыки и умения прочного усвоения знаний, свободного их использования на практике. В образовательном процессе, основанном на педагогической технологии, четко определяется сфера деятельности учителя и ученика, указывается конкретная технология организации обучения. В целях дальнейшего развития сферы физической культуры и спорта, особенно детского спорта, строительства в каждом городе и селе спортивных площадок, сооружений и комплексов, отвечающих современным требованиям и оснащенных необходимым инвентарем. В этом смысле важное значение имеет внедрение в практику передовых педагогических технологий. Технологический подход в образовании является одним из факторов, активно влияющих на педагогический процесс и определяющих его эффективность, целостность и успех. Гуманизация, демократизация системы образования Узбекистана и внедрение новых технологий поставили перед педагогической наукой такие сложные задачи, как определение содержания, структуры, уровня развития, возможностей и технологии образования. Решение этих задач вызвало ряд проблем.*

Ключевые слова: *Физическое воспитание, педагогические технологии, инновации, передовой опыт, интерактивный, создание инноваций, современный, быстрый рост, дидактическая машина, самостоятельное мышление.*

Abstract: *This article defines "Creating advanced pedagogical technologies of education, modern educational and methodological complexes, and didactic support for the educational process" as one of the primary tasks of general secondary education. Indeed, advanced pedagogical technologies increase the productivity of the educational process, shape the independent thinking process of students, increase their desire and interest in knowledge, and form skills and abilities for*



firmly mastering knowledge and freely using it in practice. In the educational process based on pedagogical technology, the scope of the teacher's and student's activities is clearly defined, and a specific technology for organizing education is demonstrated. Further development of physical culture and sports, especially children's sports, the construction of sports grounds, facilities, and complexes in every city and village that meet modern requirements and are equipped with the necessary equipment. In this sense, the practical implementation of advanced pedagogical technologies is of great importance. The technological approach in education is one of the factors that actively influence the pedagogical process and determine its effectiveness, integrity, and success. The humanization, democratization, and introduction of new technologies into the educational system of Uzbekistan have posed such complex tasks for pedagogical science as determining the content, structure, level of development, opportunities, and technology of education. Solving these tasks created a number of problems.

Keywords: Physical education, pedagogical technologies, innovation, best practices, interactive, innovation, modern, rapid growth, didactic machine, independent thinking.

Kirish. “Ta’lim berishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o‘quv-uslubiy majmualarni yaratish va o‘quv-tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta’minlash” umumiy o‘rta ta’limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Darhaqiqat, ilg‘or pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonini unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta’lim jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etishning aniq texnologiyasi ko‘rsatiladi. “Bugungi kunda jismoniy tarbiya va sport sohasida, ayniqsa, bolalar sportini yanada rivojlantirish, har bir shahar va qishloqda zamonaviy talablarga javob beradigan, zarur anjomlar bilan jihozlangan sport maydonchalari, inshoot va majmualarni barpo etish bo‘yicha amalga oshirayotgan ishlarimiz o‘zining ijobiy samarasini bermoqda”. Shu ma’noda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni amalda joriy etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’limda texnologik yondashuv pedagogik jarayonga faol ta’sir etuvchi va uning samaradorligini, bir butunligini va muvaffaqiyatini belgilab beruvchi omillardan hisoblanadi. O‘zbekiston ta’lim tizimining insonparvarlashuvi, demokratlashuvi va yangi texnologiyalarning kiritilishi pedagogika fani oldiga ta’limning mazmuni, tuzilishi, rivojlanish darajasi, imkoniyatlari va texnologiyasini aniqlashdek murakkab vazifalarni qo‘ydi. Bu vazifalarni hal qilish bir qancha muammolarni keltirib chiqardi.



Adabiyotlar tahlili va uslub. Hozirgi davrda yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitish haqida matbuotda turli-tuman fikrlar bildirilmoqda. Ta'limga yangicha, texnologik yondashish haqida fikr yuritilishi tasodifiy hol emas. Yangi pedagogik texnologiya asosida o'qitishni yo'lga qo'yish, ta'lim jarayonini o'quvchilar uchun tushunarli va qiziqarli sohalarini yaratish uchun tinimsiz izlanish o'qituvchining muhim vazifasi bo'lib qolmoqda. Shunday qilish kerakki, o'quvchilar pedagogik jarayonning faol subyektlariga aylansinlar. Barcha ta'lim turlari kabi jismoniy tarbiya darslarida ham pedagogik texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egadir. Chunki jismoniy tarbiya darslari o'quvchilarning nafaqat jismoniy, balki aqliy rivojlanishini ta'minlaydi, o'quvchilarni faollashtirish, mustaqil ishlashga o'rgatish, ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarning ta'lim jarayonining faol subyektlariga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin, pedagogik adabiyotlarda jismoniy tarbiya darslari ta'lim texnologiyasi masalalariga kam e'tibor berilgan. Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda jismoniy tarbiya ta'limining o'ziga hos xususiyatlarini hisobga olish muhimdir. Hozirgi kunda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalar va interfaol usullarni qo'llashga qiziqish tobora keng tus olmoqda. Bunday usullarni qo'llash ta'lim samaradorligi va ta'sirchanligini oshiradi, o'quvchilarda dars mazmunini teran anglash ko'nikmasini shakllantiradi.

Innovatsiya ingliz tilidan olingan bo'lib, “yangilik yaratish”, “yangilik” kabi ma'nolarni anglatadi. Demak, an'anaviy ta'limdagi kabi bir hil qoidalar asosida emas, balki yangiliklar asosida ta'lim jarayonining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan ish shaklidan foydalanish innovatsiya demakdir. Ta'limda pedagogik texnologiyalarga asoslanish va innovatsiyaga intilish, o'quvchilarni faollashtirishga qaratilgan turli interfaol uslublardan foydalanish ta'lim maqsadini samarali amalga oshirishga yordam beradi. Ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasi yangilik emas. Bundan 400 yil avval chex pedagogi Yan Amos Komenskiy ta'limni texnologiyalashtirish g'oyasini ilgari surgan. U ta'limni “texnikaviy” qilishga undagan, ya'ni hamma narsa, nimaga o'qitilsa, muvaffaqiyatga ega bo'lsin. Natijaga olib keluvchi, o'quv jarayonini, u “didaktik mashina” deb atagan.

Bunday didaktik mashina uchun:

- aniq qo'yilgan maqsadlar;
- bu maqsadlarga erishish uchun, aniq moslashtirilgan vositalar;
- bu vositalar bilan qanday foydalanish uchun, aniq qoidalarni topish muhimligini yozgan.

Ta'lim nazariyasi va amaliyotida o'quv jarayoniga texnologik xususiyatni berish uchun 50-yillarda birinchi urinishlar qilib ko'rilgan. Ular o'z ifodasini an'anaviy o'qitish uchun majmualiy texnik vositalarni yaratishda topgan. Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya “o'qitishning texnik vositalari yoki kompyuterlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmaydi, balki bu ta'lim samaradorligini oshiruvchi omillarni tahlil qilish, ishlab chiqish hamda usul va materiallarni



qo‘llash, shuningdek qo‘llanilayotgan usullarni baholash yo‘li orqali ta‘lim jarayonining asoslari va uni maqbullashtirish yo‘llarini ishlab chiqishni aniqlash maqsadidagi tadqiqotdir”. Mamlakatimizning oliy ta‘lim muassasalaridagi o‘quv-tarbiya jarayonini modernizatsiyalash, pedagog mutaxassislar tayyorlash tizimi sifat darajasini oshirishda o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ularni sohaga oid zamonaviy kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalar bilan qurollantirish, ilmiy-texnik innovatsiyalardan mustaqil ravishda, ijodiy foydalanish hamda istiqbolli vazifalarni hal qila olish ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim vazifalardan sanaladi.

O‘zbekistonda ta‘lim tizimining asosiy ta‘lim bosqichlarining o‘zaro mazmunan bog‘liqligi, uzviyligi va uzluksizligini ta‘minlash; oliy ta‘limda o‘quv jarayonini tashkil etishning ilg‘or pedagogik texnologiyalarini joriy qilish, bu borada o‘quv-uslubiy majmualar sifatini ta‘minlash, pedagogik texnologiyalarni joriy etishda professor-o‘qituvchilarning kompyuter va internetdan foydalanish bo‘yicha savodxonligini doimiy oshirib borish; oliy ta‘limning axborot-resurs va zamonaviy o‘quv adabiyotlari bilan ta‘minotini yanada rivojlantirish; mazkur yo‘nalishlarda ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘rganish oliy ta‘lim muassasalari, xususan, pedagog kadrlarining faoliyat yo‘nalishlari tarkibini belgilaydi. Jamiyat o‘zining tez va chuqur o‘zgaruvchan tavsifiga ega bo‘lib, bunday o‘zgarishlar jamoatchilik tuzilmalari, jumladan, mustaqil davlatlar, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar, demokratik siyosat, urbanizatsiya jarayonlarida ko‘zga yaqqol tashlanmoqda. Ta‘lim ham global umumhamjamiyat tuzilmasining alohida tarkibiy qismi sifatida jamiyatda bo‘layotgan barcha o‘zgarishlarni hisobga olishi, ana shu asosda o‘z tuzilishi va faoliyat mazmunini o‘zgartirishi zarur.

Ta‘limning jamiyat rivojlanish sur‘atlaridan ortda qolayotganligi, ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan texnologiyalarning zamonaviy talablarga to‘liq javob bermasligi haqidagi masala dunyo hamjamiyati tomonidan tez-tez e‘tirof etilmoqda. Chunki ta‘lim ham ijtimoiylashtirish vazifasini bajaruvchi sifatida jamiyatdagi o‘zgarishlar ortidan borishi hamda uning rivojlanishiga o‘z ta‘sirini o‘tkazishi kerak.

Biroq jamiyat rivojlanishi va ta‘lim tizimi o‘rtasidagi munosabat murakkab ko‘rinishga ega bo‘lib, yuqori darajadagi jo‘shqinlik bilan farqlanadi. Ta‘lim barcha faol va sust o‘zgarishlar ta‘sirini qabul qilavermaydi, jamiyatda bo‘layotgan voqealarga esa o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Ana shu nuqtai nazardan ta‘limdagi o‘zgarishlar faqatgina natija sifatida emas, balki jamiyatning kelgusidagi o‘ziga xos rivojlanish shartidir. Ma‘lumki, fan va texnika jadal sur‘atlar bilan rivojlanayotgan bugungi kunda ko‘plab ilmiy bilimlar, tushuncha va tasavvurlar hajmi keskin ortib bormoqda. Bu, bir tomondan, fan-texnikaning yangi soha va bo‘limlarining taraqqiy etishi tufayli uning differentsiallashtirishini ta‘minlayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, fanlar orasida integratsiya jarayonini vujudga keltirmoqda.

Barcha davlatlar ta‘limga imkon qadar ko‘p yangilik kiritishga intilmoqda. Bugungi yangiliklar ularga uyushgan, rejali, ommaviy yondashuvni talab etadi.



Yangiliklar kelajak uchun uzoq muddatli investitsiyalardir. Novatorlikka qiziqish uyg‘otish, yangilik yaratishga intiluvchan shaxsni tarbiyalash uchun ta’limning o‘zi yangiliklarga boy bo‘lishi, unda ijodkorlik ruhi va muhiti hukm surishi lozim. Ana shunday dolzarblikdan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pedagogikaning mustaqil sohasi – innovatsion pedagogika jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ta’lim tizimida innovatsion ta’limning asosiy maqsadi ta’lim oluvchilarda kelajakka mas’uliyat hissini va o‘z-o‘ziga ishonchni shakllantirishdir.

Innovatsion faoliyat mazmuni va uning maqsadi. Ta’lim sifatini ta’minlash-bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o‘quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko‘rinadi.

Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me’yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollari, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish misolida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ko‘rsatma va tamoyillar ko‘rinishida o‘z aksini topgan.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov mazkur muammoning ijtimoiy-iqtisodiy va amaliy ahamiyatini “Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq butun mamlakat miqyosida ta’lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o‘rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga katta zarurat sezila boshladi” deb asoslaydi. Shu bois, hozirgi davrda ta’lim samaradorligini oshirish, mutaxassislarining kasbiy kompetentlik darajasini rivojlantirish, pedagog kadrlarni innovatsion faoliyatga yo‘naltirish, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayoniga innovatsion ta’lim va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish, ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish va maqsadli yo‘naltirish oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalashdagi dolzarb vazifalar sifatida belgilandi.

Muhokama. Oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash (ingl. modern – yangilangan, zamonaviy, tekor o‘sis) ta’lim jarayoniga nisbatan innovatsion yondashuvni talab etadi. Globallashuv jarayonlarida ta’limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati. Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta’limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o‘lchanadi:

1. Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta’lim tizimi, xususan, oliy ta’lim muassasalaridagi o‘quv jarayonini ilg‘or tajribalarni o‘rganish, ta’limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2. Talaba-yoshlardagi ma’lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;



3. Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Darhaqiqat, ta'limga innovatsion (inglizcha *innovation*-yangilik kiritish) yondashuv g'oyasi ta'lim mazmuni va natijalarining shaxsga yo'nalganligi, ta'lim mazmuni, shakl, metod va vositalarini fan va texnikaning so'nggi yutuqlari, ilg'or tajribalar, zamonaviy metodikalar bilan uyg'unlashtirishga qaratilganligi bilan an'anaviy yondashuvdan farq qiladi.

Oliy ta'lim o'quv jarayoniga innovatsion ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish tizimi

O'quv mashg'ulotlari texnologiyasi	Interfaol metodlar	Grafik organayzerlar
1. Ma'ruza mashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi. 2. Seminar mashg'ulotlari ta'lim texnologiyasi. 3. Amaliy mashg'ulotlar ta'lim texnologiyasi. 4. Mustaqil ta'lim texnologiyasi. 5. Keys-stadi ta'lim texnologiyasi. 6. Loyiha ta'lim texnologiyasi	- Aqliy hujum. - Erkin yozish. - Asoslangan esse. - FSMU. - Blis-so'rov. - Blis-o'yin. - O'qitish bo'yicha qo'llanma. - Yozma va og'zaki davra suhbat. - Tushunchalarni aniqlash. - Tushunchalar asosida matn tuzish. - Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi	1. Klaster. 2. B-B-B chizmasi 3. T-chizma. 4. Venn diagrammasi. 5. Konseptual jadval. 6. Insert jadvali. 7. “Nima uchun” chizmasi. 8. “Qanday?” diagrammasi. 9. Baliq skeleti. 10. Toifalash jadvali. 11. Nilufar guli

Ta'lim tizimiga kiritilayotgan har qanday innovatsiya axborot va metodik ta'minotning mavjudligini ko'zda tutadi. Shu sababli, oliy ta'lim muassasalari o'quv jarayoniga innovatsiya kiritishda ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish, tahlili qilish va umumlashtirish hamda pedagogik-psixologik fanlarning yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish, zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish orqali o'quv jarayonlari mazmuni va metodlarini takomillashtirish muhim yo'nalishlardan sanaladi. Bu esa o'z navbatida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning samarali shakllari sifatida ma'ruza (muammoli ma'ruza, ma'ruza-seminar, virtual-texnologik ma'ruza, vizual ma'ruza, binar ma'ruza, kirish ma'ruzasi, ma'ruza-konferensiya, axborotli ma'ruza, ma'ruza bahs-munozara, sharhlovchi ma'ruza, on-Line ma'ruza) trening, videotrening, vebinarlar, internet konferentsiyalar, innovatsion o'qitish metodlari sifatida esa muammoli metodlar, interfaol metodlar, amaliy o'yinlar, o'quv loyihalari,



portfoliolar, grafik organayzerlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi.

Natijalar. Guruhda interfaol o'qitish metodlaridan foydalanish yo'llari.

Guruhlar ishini tashkil etish va ularga rahbarlik qilish.

O'qituvchi ba'zan trener rovida ish olib borib, undagi faoliyatining asosiy mazmuni – o'quv mashg'ulotlarida maqsadga erishish uchun berilgan aniq topshiriq atrofida guruh a'zolarining o'zaro hamkorligini tashkil qilishdan iborat. Bunda,

Trener – o'qituvchi:

- eshitish va tinglay olish;
- kuchli his-hayajonini boshqara olish;
- guruhni o'zaro kelishishga olib kelish;
- guruhni qo'yilgan maqsad sari olib borishi lozim.

Bahs - munozarani olib borishda trener- o'qituvchi:

- mavzu muhokamasini tartibga keltirish;
- noto'g'ri vaziyatlarni tushuntira olish;
- muhokamada har bir ishtirokchining qatnashishiga imkon yaratish;
- o'zaro hamkorlikni tashkil qilish;
- bildirilgan turli fikrlarni umumlashtirish;
- guruh a'zolarining o'zaro harakatlariga yordamlashishni bilishi kerak.

Muhokamani boshlash uchun:

- muammo va u nima uchun muhokama qilinayotganligini har bir qatnashchi aniq tushunishi shart;

- tushuntirib berish uchun qulay sharoitni his qilish;
- boshqalarga har tomonlama namuna bo'lishga harakat qilish;
- muhokamada rag'batlantiruvchi savollardan foydalanish;
- aytilgan fikrlar, g'oyalarni yozib borish;
- hammani qatnashishini nazorat qilib turish;
- hazil-mutoyibalardan foydalanish;
- qatnashchilarning hissiy holatlarini oldindan seza bilishi lozim.

Guruh bilan ishlash va ularga rahbarlik qilish.

1. Treningga tayyorgarlik:

- qatnashchilar muvaffaqiyatli ishlashi uchun yetarli tayanch ma'lumotlarga ega yoki ega emasligini sinash;

- qaysidir faoliyat turini kiritishdan oldin, barcha kerakli mazmun va zaruriy ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish;

2. Guruhda ishlashda trener-o'qituvchi:

- qatnashchilarga tushunarli bo'lgan tushunchalardan foydalanish;
- qatnashchilarni diqqat markaziga qo'yish va materialni tushunishni yengillashtirish;



- qatnashchilarni guruhda va o‘zaro ishlashda ta’sirlarini rivojlantirish;
- qatnashchilar taqdimotlarida va mashqlarni bajarishida auditoriya bo‘ylab yurish kerak.

3. Kichik guruhlarda ishlashda rahbarlik:

- uch nafar yoki besh nafar qatnashchilardan oshmaydigan kichik guruhlar tuzish;
- guruhning har bir qatnashchisiga vazifa berish (yoki hammani qatnashishiga sharoit yaratish);
- topshiriqni aniq tushuntirish va tushunganligini tekshirish;
- yordam berishga hamisha tayyor bo‘lish, lekin qatnashchilar o‘z ishlarini mustaqil bajarishga erishish;
- interfaol metodni amalga oshirish uchun stol va stullarni surish mumkinligiga ishonch hosil qilish;
- qatnashchilar bir-birini «elkama-yelka», «ko‘zma-ko‘z» ko‘rishiga ishonch hosil qilishdan iborat.

Qatnashchilarga savollar berish tartibi:

- qatnashchilarning aniq hayotiy va pedagogik tajribasiga mos mavzulardan berish;
- savol bera turib, so‘rovning turli bosqichlaridan foydalanish masalan, qatnashchilar nima deydi? nega ushbu usul yoki uslubdan foydalaniladi?
- qatnashchilardan «nimalarni o‘ylaysiz?» deb so‘rash;
- savol bera turib, qatnashchilarga javob uchun vaqt ajratish («kutish vaqti»);
- qatnashchilarni o‘z fikrlarini ifodalashga, uni tushuntirishga va asoslashga undashdan iboratdir.

Qatnashchilarning xatolarini tuzatish uchun:

- tanqiddan qochish;
- tuzatishdan oldin ijobiy fikrlardan aytish;
- ularga juda ham faol e’tibor bermaslik;
- biror tinglovchining hatosi bilinmasligi uchun birvarakayiga bir necha noto‘g‘ri javoblarni tahlil qilish lozim.

Guruh bilan samarali ishlashda auditoriyaning fazoviy joylashuvi.

Kichik guruhlarda mashg‘ulot olib borilganda auditoriyaning “Doira” ko‘rinishidagi joylashuvi ahamiyatlidir. Bunday joylashuv “Davra stoli”, “Yuzma-yuz” holatdagi bahs-munozaralar, assesmentlar o‘tkazish uchun qulay shakl hisoblanadi.

Xulosa shundan iboratki, ta’lim sifatini ta’minlash–bilim oluvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan birga o‘quv jarayonining qanday tashkil etilishi va uning belgilangan sifat mezonlariga javob berishida ko‘rinadi. Ushbu vazifa bir qator qonunchilik va me’yoriy hujjatlarda, xususan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat, texnika



va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan ko‘rsatma va tamoyillar ko‘rinishida o‘z aksini topadi.

O‘qituvchining kasbiy yuqori bilimga ega bo‘lishi pedagogning kundalik faoliyatida turli hil tarzda namoyon bo‘ladi. Erkin va faol fikrlovchi, o‘quv-tarbiyaviy jarayonini modellashtira oladigan, mustaqil ravishda o‘quv va tarbiyaviy jarayonga yangi g‘oya va texnologiyalarni tadbiq qila oladigan, kasbiy chuqur bilimga ega bo‘lgan o‘qituvchini tayyorlash muhim muammo hisoblanadi. Biz yuqorida ta’kidlab o‘tgan misollardan, innovatsion ta’limning davlat miqyosidagi ahamiyati qanchalik yuqoriligi va yoshlarimizning ushbu sohadagi o‘rni muhimligini bilib olishimiz mumkin. Ushbu sohaga qaratilayotgan yuksak e’tibor tufayli mamlakatimiz yoshlari erishib borayotgan yutuqlari kundan-kunga ortib bormoqda va ular bundan buyon ham yuqori marralar sari harakat qilib yuksak cho‘qqilarni zabt etishlari shubhasizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T. 2019 yil.
2. “Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida” gi qonun // (1992, 2000, 2015 yil yangi tahrir).
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga Murojaatnomasini keng jamoatchilik o‘rtasida targ‘ib etishga bag‘ishlangan // ilmiy-ommabop qo‘llanma. – Toshkent: 2018 y. 101 -102 betlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi. G.2017-01-16.
5. Xolmirzaev E.J., Nematov B.I, Xo‘janiyozov B.I. Sport anjomlari va jihozlari // – Toshkent. 2010 yil.
6. Raximov M.M. Sport trenirovkasining nazariyasi va metodikasining asoslari.// - Toshkent. 2000 yil
7. Ruziev S., Shaternikov E., Baraban I. Uzbekistan Olimpiyskiy. // Toshkent. 1996 yil.

JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA FALSAFIY YONDASHUVLAR

Uzaqbergenov Ikram Baxitbaevich

Stajyor-o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus filiali

Ikramuzakbergenov91@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sportga oid falsafiy yondashuvlar tarixiy va zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Uyg‘onish davri



mutafakkirlari — Nikkolo Makiavelli va Tomas Mor, shuningdek yangi davr faylasufi Rene Dekart hamda ekzistensialistik qarashlar asosida sportning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijasida jismoniy tarbiya nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ma’naviy va ijtimoiy kamolot vositasi ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, sport, falsafa, gumanizm, ekzistensializm, biomexanika, sog‘lom turmush tarzi.

Аннотация: В данной статье анализируются философские подходы к физическому воспитанию и спорту с исторической и современной точек зрения. Рассматриваются работы мыслителей Возрождения — Никколо Макиавелли и Томаса Мора, а также современного философа Рене Декарта и экзистенциалистские концепции, раскрывающие сущность и содержание спорта. Исследование подтверждает, что физическое воспитание является не только средством физического развития, но и способствует нравственному и социальному совершенствованию.

Ключевые слова: Физическое воспитание, спорт, философия, гуманизм, экзистенциализм, биомеханика, здоровый образ жизни.

Abstract: This article analyzes philosophical approaches to physical education and sports from both historical and contemporary perspectives. It examines the works of Renaissance thinkers — Niccolò Machiavelli and Thomas More, as well as modern philosopher René Descartes and existentialist views, revealing the essence and content of sports. The study concludes that physical education is not only a means of physical development but also contributes to moral and social growth.

Keywords: Physical education, sports, philosophy, humanism, existentialism, biomechanics, healthy lifestyle.

Kirish. Jismoniy tarbiya va sport inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, nafaqat jismoniy rivojlanishga, balki aqliy, ma’naviy va ijtimoiy kamolotga xizmat qiladi. U sog‘lom turmush tarzi, jismoniy chidamlilik, aqliy va ruhiy barqarorlikni shakllantirish vositasi sifatida qadimdan qadrlangan. Tarix davomida har bir davr o‘zining ijtimoiy, siyosiy va madaniy ehtiyojlariga muvofiq sport va jismoniy tarbiyaga turlicha yondashgan. Ibtidoiy jamiyatlarda jismoniy tarbiya ovchilik, kurash va turli sinovlar shaklida namoyon bo‘lgan bo‘lsa, o‘rta asrlarda va uyg‘onish davrida unga gumanistik yondashuv kiritilgan. Ushbu davr mutafakkirlari jismoniy va aqliy rivojlanish uyg‘unligini ta’kidlagan. Masalan, Nikkolo Makiavelli o‘z siyosiy falsafasida jismoniy tayyorgarlikni shaxsning chidamliligi bilan birga davlat xavfsizligini ta’minlash vositasi sifatida ko‘rgan. U harbiy mashqlar, jismoniy chiniqlik va shijoatni davlat qudratini mustahkamlashning ajralmas qismi deb hisoblagan. Shuningdek, Tomas Mor “Utopiya” asarida sportni insonning nafaqat jismoniy, balki ma’naviy kamolotiga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilgan. Utopiyaliklar uchun jismoniy faollik dam olish, sog‘liqni saqlash va jamoaviy ruhni mustahkamlash vositasi bo‘lib, sportning jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyatini



ta'kidlagan. Yangi davr faylasufi Rene Dekart tanani mexanik tizim sifatida talqin qilib, sport va jismoniy faoliyatni ilmiy asosda o'rganishga zamin yaratgan. Dekartning tana va jon dualizmi sportning biomexanik va fiziologik asoslarini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etgan [1,3]. Zamonaviy davrda sport insonning o'zligini anglash, chegaralarni sinash, shaxsiy mas'uliyatni his qilish va erkinlikni qadrlash vositasi sifatida qaraladi. Ekzistensialistik yondashuvga ko'ra, sport shaxsni chuqurroq anglash va o'z imkoniyatlarini chegaralash bilan birga jamiyatdagi faol o'rinini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, bugungi globallashtirilgan va axborotlashgan jamiyatda sport va jismoniy tarbiya yoshlar tarbiyasi, sog'lom turmush tarzi, ijtimoiy integratsiya va madaniy qadriyatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi [2,4]. Shu sababli, maqolaning maqsadi — jismoniy tarbiya va sportga oid falsafiy qarashlarni tarixiy va zamonaviy kontekstda tahlil qilish, ularning jamiyatdagi ahamiyati va yoshlar tarbiyasiga ta'sirini aniqlash, shuningdek, zamonaviy ilmiy va pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Materiallar va usullar. Ushbu maqolada jismoniy tarbiya va sportga oid falsafiy qarashlar tahlil qilinishi uchun turli manbalar va metodologiyalar qo'llanildi. Tarixiy manbalar sifatida uyg'onish davri mutafakkirlari — Nikkolo Makiavelli va Tomas Morning asarlari o'rganildi. Makiavelli “Gosudar” asarida jismoniy tayyorgarlik va harbiy sportning davlat xavfsizligi va fuqarolarning jasorati bilan bog'liqligi tahlil qilindi [5]. Tomas Morning “Utopiya” asarida esa sportning inson kamoloti, jismoniy sog'lomlik va jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyaga xizmat qilishi ko'rsatildi [6]. Yangi davr faylasufi Rene Dekartning qarashlari tananing mexanik tizim sifatida o'rganilishi va jismoniy mashqlarni ilmiy asosda tahlil qilish imkonini berdi [7]. Zamonaviy tadqiqotlar sport pedagogikasi, biomexanika va jismoniy tarbiya metodikasi sohalarida olib borilgan ilmiy maqolalar va monografiyalar orqali qo'llab-quvvatlandi. Tahlil usullari sifatida falsafiy, tarixiy, solishtirma va konseptual tahlil qo'llanildi. Tarixiy va zamonaviy manbalarni solishtirish orqali jismoniy tarbiya va sportning mazmuni, maqsadi va jamiyatdagi roli aniqlanib, turli davrlardagi yondashuvlarning umumiy va farqli jihatlari tahlil qilindi. Shu bilan birga, sportning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri ilmiy jihatdan baholandi, natijalar esa ikki asosiy yo'nalishda — tarixiy kontekst va zamonaviy pedagogik amaliyot — ko'rinishida taqdim etildi.

Natiijalar. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya va sportga falsafiy yondashuvlar turli davrlarda turlicha maqsad va vazifalarni ko'zlagan. Tarixiy davrda, Nikkolo Makiavelli jismoniy mashqlarni davlat xavfsizligi va fuqarolarning harbiy chidamliligini oshirish vositasi sifatida ko'rgan. Shu bilan birga, Tomas Mor sportni insonning jismoniy va ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiluvchi vosita sifatida talqin qilgan (1-jadval).



1-jadval

Tariyxiy mutafakkirlar va ularning jismoniy tarbiyaga yondashuvi

Mutafakkir	Asar / Yil	Yondashuvining asosiy xususiyati	Jamiyatdagi roli
Nikkolo Makiavelli	“Gosudar” (1532)	Harbiy tayyorgarlik, shijoat va chidamlilik	Davlat xavfsizligini ta’minlash, fuqarolarni harbiy tayyorlash
Tomas Mor	“Utopiya” (1516)	Sport insonning jismoniy va ma’naviy kamolotiga xizmat qiladi	Sog‘lom jamiyat va jamoaviy ruhni mustahkamlash

Zamonaviy davrda, Rene Dekart tanani mexanik tizim sifatida o‘rganib, sportning biomexanik va fiziologik asoslarini tushuntirgan bo‘lsa, ekzistensialistik yondashuv sportni shaxsning o‘zligini anglash va chegaralarni sinash vositasi sifatida qabul qiladi (2-jadval). Shu tarzda, tarixiy va zamonaviy yondashuvlar sport va jismoniy tarbiyaning jamiyat va shaxs rivojidadagi rolini turlicha ta’kidlaydi.

2-jadval

Zamonaviy yondashuvlar va sportning shaxsiy rivojlanishga ta’siri

Yondashuv	Asar/Yil	Asosiy xususiyat	Shaxsiy rivojlanishdagi roli
Rene Dekart	“Meditatsiyalar” (1641)	Tana mexanik tizim sifatida, sport biomexanika asoslarini yaratadi	Tanani rivojlantirish, ilmiy asosda mashqlarni o‘rganish
Ekzistensialistik yondashuv	XX asr	Sport orqali o‘zlikni anglash va chegaralarni sinash	Shaxsning ruhiy chidamliligi, erkinlikni his qilish

Muhokama. Natijalarni tahlil qilganda, jismoniy tarbiya va sportga falsafiy yondashuvlarning tarixiy va zamonaviy jihatlari o‘rtasida aniq farqlar va umumiyliklar mavjudligi ko‘rinadi. Tarixiy davrda, xususan Nikkolo Makiavelli va Tomas Mor qarashlarida jismoniy mashqlar davlat manfaatlari va shaxsning jismoniy kamolotini rivojlantirishga xizmat qilgan. Makiavelli yondashuvida sport ko‘proq harbiy va siyosiy maqsadga yo‘naltirilgan bo‘lsa, Tomas Mor esa sportni shaxsning ruhiy va aqliy kamolotini oshirish vositasi sifatida ko‘rgan (1-jadval). Zamonaviy davrda esa Rene Dekart va ekzistensialistik yondashuv sportning shaxsiy rivojlanish, o‘zlikni anglash va chegaralarni sinashdagi ahamiyatini ta’kidlaydi (2-jadval). Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tarixiy yondashuvlar ko‘proq majburiy va jamoaviy bo‘lsa, zamonaviy yondashuv individual va shaxsga moslashtirilgan. Shu bilan birga, barcha yondashuvlar sportning jismoniy tarbiya bilan birga shaxsning ma’naviy va ruhiy rivojlanishiga xizmat qilishini tasdiqlaydi. Shu asosda, bugungi globallashtirish va axborotlashgan davrda jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi yoshlarni sog‘lom turmush tarziga o‘rgatish, jamoaviy ruhni shakllantirish va shaxsiy chegaralarni kengaytirish uchun samarali vosita bo‘lishi mumkinligi ta’kidlanadi.



Xulosa. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya va sport falsafiy yondashuvlari tarixiy va zamonaviy kontekstlarda turlicha rivojlangan. Tarixiy davrda, xususan Nikkolo Makiavelli va Tomas Mor qarashlarida sport va jismoniy mashqlar ko'proq davlat manfaatlari, harbiy tayyorgarlik va jamoaviy tartibni ta'minlashga qaratilgan bo'lgan. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarda, masalan, Rene Dekart va ekzistensialistik qarashlarda sport shaxsning ruhiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishiga xizmat qiladigan vosita sifatida qabul qilinadi. Bugungi globallashtirish va axborotlashgan davrda jismoniy tarbiya va sportning ahamiyati yanada oshgan. U nafaqat jismoniy chidamlilikni rivojlantiradi, balki shaxsning o'zligini anglash, chegaralarni kengaytirish va mas'uliyatni his qilish imkonini beradi. Shuning uchun jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi yoshlarni sog'lom turmush tarziga o'rgatishda, jamiyatda jamoaviy ruhni shakllantirishda va shaxsiy rivojlanishga hissa qo'shishda muhim vosita hisoblanadi. Shu asosda, tarixiy va zamonaviy falsafiy qarashlar sport va jismoniy tarbiyani bugungi ta'lim va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ibraximov S.U. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi / S.U.Ibraximov. — Toshkent: O'ZKITOBSAVDONASHRIYOTI, 2023. — 356 s.
2. Yoqubova D.M., Usmanova Sh.Sh. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi (nazariya va metodika) / D.M.Yoqubova, Sh.Sh.Usmanova. — Toshkent: O'zkitobsavdonashriyoti, 2020. — 224 s.
3. Matnazarov O.L., Sapayev R.R., Yaqubov A.M. Jismoniy tarbiya va sport pedagogikasi / O.L.Matnazarov, R.R.Sapayev, A.M.Yaqubov. — Urganch: Khwarezm publication, 2024. — 220 s.
4. Tolametov A.A. Jismoniy harakatlar biomexanikasi / A.A.Tolametov. — Toshkent: Umid Design, 2023. — 198 s.
5. Makiavelli N. Gosudar / N.Makiavelli. — Italiya, 1532.
6. Mor T. *Utopiya* / T.Mor. — Angliya, 1516.
7. Dekart R. Meditatsiyalar / R.Dekart. — Fransiya, 1641.

JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALAR

Saparniyazov Sansizbay Qadiriyaovich

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.v.b.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Nukus fili
ssaparniyazov1972@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi va pedagogik ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, zamonaviy texnologiyalar —



interaktiv usullar, raqamli vositalar va innovatsion mashg‘ulot metodlari — o‘quvchilarning jismoniy faolligi, motivatsiyasi va bilim qabul qilish darajasini sezilarli darajada oshiradi. Maqola jismoniy tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlarni tatbiq etish bo‘yicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Jismoniy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, innovatsiya, dars metodikasi, o‘quvchi motivatsiyasi

Аннотация: В статье изучается эффективность применения инновационных педагогических технологий на уроках физической культуры и их педагогическая значимость. Результаты исследования показали, что современные технологии — интерактивные методы, цифровые инструменты и инновационные методики занятий — значительно повышают физическую активность учащихся, их мотивацию и уровень усвоения знаний. Статья содержит практические рекомендации по внедрению инновационных подходов в процесс физического воспитания.

Ключевые слова: Физическая культура, педагогические технологии, инновации, методика урока, мотивация учащихся

Abstract: This article explores the effectiveness and pedagogical significance of applying innovative pedagogical technologies in physical education classes. The research results indicate that modern technologies — interactive methods, digital tools, and innovative training techniques — significantly enhance students’ physical activity, motivation, and learning outcomes. The article provides practical recommendations for implementing innovative approaches in physical education.

Keywords: Physical education, pedagogical technologies, innovation, lesson methodology, student motivation.

Kirish. So‘nggi yillarda jismoniy tarbiya fanini o‘qitish jarayonida an‘anaviy metodlar bilan cheklanish samaradorligini pasaytirayotgani kuzatilmoqda. Ta’limning har bir sohasida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash zarurati ortib bormoqda, chunki ular o‘quvchilarning bilim olish jarayonini tezlashtiradi, qiziqishini oshiradi va darslarni interaktiv qiladi. Jismoniy tarbiya fanida esa innovatsion yondashuvlar nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish, balki o‘quvchilarning jismoniy salomatligini mustahkamlash, ularni sog‘lom turmush tarziga rag‘batlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilish masalasi dolzarb ilmiy va amaliy tadqiqot obyektiga aylanmoqda.

Innovatsion pedagogik texnologiyalar o‘quv jarayonini yanada samarali qilish uchun interaktiv metodlar, raqamli vositalar, vizual materiallar va gamifikatsiya elementlarini o‘z ichiga oladi. Masalan, interaktiv taqdimotlar, mobil ilovalar va onlayn monitoring tizimlari o‘quvchilarning faolligini oshiradi, ularni darsga jalb qiladi va individual yondashuvni ta’minlaydi. Shu bilan birga, innovatsion metodlar yordamida murabbiylar o‘quvchilarning rivojlanish darajasini aniq baholay oladi,



mashg‘ulot yuklamasini optimal tarzda taqsimlaydi va har bir o‘quvchiga moslashtirilgan mashg‘ulotlar dasturini ishlab chiqadi. Bu esa jismoniy tarbiya fanining pedagogik samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Bundan tashqari, zamonaviy pedagogik texnologiyalar jismoniy tarbiya darslarini psixologik jihatdan ham boyitadi. O‘quvchilarda o‘zini namoyon etish va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasini oshirish, shuningdek, jamoaviy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interaktiv o‘yinlar, raqamli testlar va virtual treninglar o‘quvchilarning qiziqishini uyg‘otadi, ularni sog‘lom raqobat ruhida faol bo‘lishga undaydi. Shu tariqa, innovatsion yondashuvlar nafaqat jismoniy tayyorgarlikni oshiradi, balki o‘quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va psixologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, an‘anaviy metodlar bilan solishtirganda innovatsion texnologiyalarni qo‘llash natijalari sezilarli darajada yuqori bo‘ladi. O‘quvchilarning mashg‘ulotga qiziqishi oshadi, dars jarayonida faol ishtirok etadi va o‘rganilayotgan materialni amaliyotga samarali tatbiq etadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar murabbiylarga vaqtini tejash, mashg‘ulotlarni individuallashtirish va nazoratni kuchaytirish imkonini beradi. Bu esa pedagogik jarayonning sifatini oshirish va o‘quvchilarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni tadbiq etish, ularning samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi. Mazkur maqola jismoniy tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash usullari, ularning o‘quvchilarning faolligi va motivatsiyasiga ta’siri hamda pedagogik jarayonni optimallashtirishdagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Tadqiqotni tashkil qilish usullari (Metodologiya). Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi jismoniy tarbiya darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligini aniqlash va ularning o‘quvchilarning jismoniy faolligi, motivatsiyasi hamda o‘rganish natijalariga ta’sirini ilmiy asosda o‘rganishdan iborat. Tadqiqot jarayonida bir nechta ilmiy-tadqiqot usullari, jumladan, empirik, statistik, kuzatuv va eksperimental metodlardan foydalangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, u nafaqat innovatsion texnologiyalarni jismoniy tarbiya darslariga integratsiya qilish mexanizmini o‘rganadi, balki ularning pedagogik samaradorligini tizimli ravishda baholaydi.

Tadqiqot obyekti sifatida umumta’lim maktablarining o‘rta sinflaridagi o‘quvchilar, shuningdek, jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tanlangan. Subyektlar guruhi sifatida 10–16 yosh oralig‘idagi 150 nafar o‘quvchi va 8 nafar jismoniy tarbiya o‘qituvchisi jalb qilindi. O‘quvchilarning yosh va jismoniy tayyorgarlik darajalari tadqiqotning eksperimental va nazorat guruhlariga bo‘lish jarayonida hisobga olindi. Shu tarzda, tadqiqotda individual yondashuvni ta’minlash va eksperimental sharoitni nazorat qilish imkoniyati yaratildi.



Tadqiqot usuli sifatida avvalo adabiyotlarni tahlil qilish va ilmiy manbalarni o'rganish amalga oshirildi. Jismoniy tarbiya pedagogikasi bo'yicha so'nggi 5 yil ichida nashr etilgan maqolalar, metodik qo'llanmalar va elektron manbalar sistematik tarzda tahlil qilindi. Ushbu bosqichda innovatsion texnologiyalar turlari, ularning qo'llash imkoniyatlari va pedagogik samaradorligi aniqlab olindi. Shu asosda eksperimental tadqiqot uchun ilg'or pedagogik texnologiyalar ro'yxati shakllantirildi.

Eksperimental tadqiqot ikki guruhda olib borildi: nazorat guruhi va eksperimental guruhi. Nazorat guruhi an'anaviy pedagogik metodlar asosida dars olib bordi, eksperimental guruh esa interaktiv, raqamli va gamifikatsion texnologiyalar bilan boyitilgan darslardan foydalandi. Ushbu taqqoslash usuli innovatsion texnologiyalarning samaradorligini aniqlashga xizmat qildi.

Kuzatuv usuli tadqiqot jarayonida asosiy empirik metodlardan biri sifatida ishlatildi. O'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi faolligi, qatnashish darajasi, motivatsiyasi va o'zini tutish xatti-harakatlari muntazam ravishda qayd etildi. Shu bilan birga, o'qituvchilar kuzatuv natijalari asosida darslarni baholashda subyektiv fikrlar va professional tajribadan foydalandilar.

Anketalar va testlar yordamida o'quvchilarning bilim darajasi va jismoniy tayyorgarligi baholandi. Shu jumladan, interaktiv metodlar qo'llanilganda o'quvchilarning qiziqishi, darsga jalb qilinishi va mavzuni amaliyotga tatbiq etish ko'rsatkichlari aniqlash uchun maxsus savol-javob testlari ishlab chiqildi. Test natijalari eksperimental va nazorat guruhlarida solishtirildi, bu esa innovatsion texnologiyalarning samaradorligini statistik jihatdan baholash imkonini berdi.

Tadqiqotda statistik usullar keng qo'llanildi. Ma'lumotlar Microsoft Excel va SPSS dasturlari yordamida tahlil qilindi. O'quvchilarning mashg'ulotdagi faolligi, motivatsiyasi va bilim darajalari o'rtasidagi bog'liqlik, shuningdek, innovatsion va an'anaviy metodlar ta'siri solishtirildi. Tahlil natijalari diagramma, grafik va jadval ko'rinishida vizual tarzda taqdim etildi.

Eksperimental darslar davomida interaktiv texnologiyalar — multimedia taqdimotlar, raqamli testlar, video darsliklar va virtual mashqlar — qo'llanildi. Shu bilan birga, gamifikatsiya elementlari: ball tizimi, jamoaviy o'yinlar va mini-turnirlar yordamida o'quvchilarning faolligi rag'batlantirildi. Bu metodlar o'quvchilarda raqobat ruhini uyg'otdi va mashg'ulotlarni qiziqarli qildi.

Shuningdek, o'quvchilarning individual imkoniyatlari va jismoniy tayyorgarligi hisobga olinib, mashg'ulot yuklamasi va mashqlar murakkabligi shaxsiylashtirildi. Individual yondashuv har bir o'quvchining rivojlanish darajasini maksimal darajada oshirishga xizmat qildi. Bu esa pedagogik jarayonning sifatini sezilarli darajada yaxshiladi.

Tadqiqot davomida murabbiylar bilan intervyular o'tkazildi. Intervyular orqali pedagoglar innovatsion texnologiyalarni qo'llashdagi qiyinchiliklar, samaradorlik



